Илмий манбалар Ўрта Осиёда ёзув пайдо бўлганлигига 3-4 минг йиллар бўлганлигини ҳам исботлаб беради. Тарихий маълумотлар ва манбаларга кўра Ўрта Осиёликларнинг буюк асари «Авесто»ни ёзилганига 2700 йил бўлиб, у Хоразм тилида, орий ёзувида бунёд этилган. Тарих шоҳидким, «Авесто» асарини ёзилиши қадимги Хоразмда ёзув пайдо бўлганлигини тўла асослаб беради. Шундан кўриниб турибдики, Хоразмда ёзув «Авесто» ёзилмасдан аввал ҳам мавжуд бўлган. Бу ёзув орий – оромий ёзуви, - деб юритилган. Лекин бу ёзувда битилган кўплаб манбалар бизгача етиб келмаган.

Тарих шоҳидким, Ўрта Осиёга босқинчилик сиёсати билан кириб келган Македонскийдан тортиб, араб лашкарбошиси Қутайба, мўғул хони Чингизлар Ўрта Осиёхалқи яратган барча манадний бойликлар билан бирга илмий манбаларни ёқиб, кулини кўкка совурганлар. Шунга қарамай ўлкамиз ва халқимизнинг ўтмиш тарихи ҳақидаги маълумотлар қадимги Юнон, Хитой, Эрон, Мўғул, Араб, Ҳинд, ҳатто Европанинг кўплаб қўлёзма манбаларида сақланиб қолган.

Шунингдек, ўлкамизнингкўплабқадимиймanзилгоҳларидақоятошларгаўйиб, табиийранглapбиланёзилганқадимийбитикларватасвир-расмларбизгажудақадимгиавлодвааждодларимизҳақидаилмий-асослимаълумотларберади. Уларни барчаси Ўрта Осиё ва бизнинг қадимий аждодларимизнинг санъати, маданияти ҳақида анчагина кенг тасаввурлар бера олади.

VIII-XIасрлардаяшабижодқилганМуҳаммадал-Фарғоний (750-865), Мусоал-Хоразмий (780-850), АбуНосирФаробий (873-950), АбуРайҳонБеруний (973-1048), АбуАлиИбнСино (980-1037), Улуғбек (1394-1449) кабифаналломаларимизтомониданёзилганбирқаторилмийасарларбизнингқадимийсанъатвамаданиятимизни, меъморчилигимизниўрганишгаимконберади.

Шунингдек, Ўзбекистон ҳудудларини археологик жиҳатдан тадқиқ этган ўзбек ва европа олимлари ўзбек халқининг қадимий санъати, маданияти ва меъморчилиги тарихи бўйича кўплаб илмий манбаларни очиб берадилар.

Маълумки, ЎртаОсиёсанъати, маданиятивамеъморчилигитарихиниилмийасосдаўрганишXIXасрнингII-ярмиданбошланади. Бунда кўплаб Европа археологлари, тарихчилари ва санъатшунослари қатнашадилар.

В.Бартолд, В.Жуковский, Н.Всесповский, А.Кун, В.Вяткин, И.Пославский, Н.ОстроумовларваэнгбиринчимаҳаллийархеологлардanА.Асқаров, М.МирмуҳамедовларЎзбекистондадастлабкиархеологиктадқиқотларўтказадиларвақаторилмийхулосаларберадилар.

СўнггийиллардаЎзбекистондаўзбекхалқинингқадимийтарихи, санъати, маданиятиниўрганишбўйичаС.Толстов, М.Массон, А.Окладников, М.Герасимов, А.Якубоаский, Я.Ғуломов, А.Бернштам, Б.Латинин, В.Шишкин, Г.Пугаченкова, Л.Релпенкабикўплабмашҳурархеолог, тарихчи, санъатшуносларнингхизматларикаттабўлди.

СўнггийиллардаўзбекархеологолимлардanА.Асқаров, У,Исломов, А.Мухаммаджонов, Р.Сулаймонов, Н.Неъматов, И.Ахроров, Х.Олтмишбоев, О.Бердиев, М.Косимов, Т.Мирсоатов, М.Жўрақулов, Б.Матбобоев, А.Анорбоев, Т.Шириновкабиларўзбексанъати, маданиятиватарихиниўрганишдаянгидан-янгиилмийманбаларнибунёдэтмоқдалар.

Хулосақилишмумкинки, ўзбекхалқинингкўҳнатарихи, унингқадимийсанъати, маданиятивамеъморчилигитарихиниўрганишучунбизгамозийданмеросбўлиб қолган «Овесто» асариданбошлаб, жудакўплабилмий-ёзмаманбалармавжуд. Бу манбалар мустақиллигимиз шарофати билан объектив ҳаққоний, тўғри ўрганишга имкон яралди. Шунингдек, бу илмий манбалар янги тадқиқотлар асосида тўлдирилиб, кенгайтирилиб борилмоқда. Буларнинг барчаси ўзбек халқи тарихини, санъати ва маданиятини унинг пайдо бўлиши давридан бошлаб ўрганиш имкониятини беради.

СамарқанддагиИмомал-Бухориймажмуаларикурилишивабеза-тилишидаёғочваганчўймакорлигикенг-кўламдаишланди.

Наққошликгумбазлар, интерьерлар, шифталрнибезатишдакенгқўлланилмоқда. Эшик, дераза, устун ва пештоқларни безатишда ёғоч ўймакорлигидан фойдаланилмоқда.

МустақилликйилларидаТошкентда, вилоятларнингмарказларидақурилаётганмаъмурийважамоатбиноларинибезатишдаасосаннақшёғочваганчўймакорлигиданкенгфойдаланилмоқда.
Ўзбек наққошлиги санъати билан бугунги кунда М.Тўраев, А. Илхомов, С.Махмудов, Х.Нуралиев, С.Шукуров, А.Акпаров, Р.Зохидов кабилар шуғулланиб келмоқдалар.

Мустақилликйилларидаамалийсанъатнингкандакорлик, заргарликсоҳасиҳамжудасермазмунривожланди.

Кандакорликсанъатиничуқурўймалаш, саёзўймалаш, кесмауймалашуслубларийқайтатиклаб, чиройлисервизлар, қумғон, обдаста, чойнак, чашкиларинбезатишдакенгқўлланилмоқда.

КандакорликбугунгикундаТошкент, Бухоро, Марғилон, Хоразмшаҳарларидаяхширивожланмоқда.

Бухорода бугунги кандакорлик устахонасида 200 дан ортиқ усталар фаолият кўрсатмоқдалар. Бу соҳада А.Мадалиев, З.Ғофуров, Д. Холидова, Г.Рахматова, У.Алиев, Б. Бобожонов, У. Машариповлар ўзбек

кандакорлигига ўзларини муносиб улушларини қўшиб келмоқдалар.

Ўзбекзаргарлигиҳамўзинингузоқтарихигаэгабўлиб, бусанъатнибугунгикундақадимийанъаналарасосидаГ.Йўлдашева, Р. Мухаметишин, М.Назирхонов, Ш.Низомов, И.Олимов, Г.Тошевакабирассом-усталарижодқилибкелмоқдалар.

Мустақиллик йилларида амалий санъатни бадиий матолар тўқиш, каштачилик, зардўзлик, гиламдўзлик, дўппидўзлик, пичоқчилик каби турлари ҳам қайта тикланиб, ривожланиш йўлига кириб бормоқда.

| **2-mavzu** | **ҚАДИМГИ ЎРТА ОСИЁ САНЪТИ** |
|---|---|

1.1. Маърузада таълим технологияси

| Машғулот вақти -2 soat | Талабалар сони : 6 |
|---|---|
| Машғулот шакли | Кириш –ахборотли маъруза |
| Маъруза режаси | 1. Ибтидоий жамоа даври санъати.<br>2. Дастлабки шаҳар маданиятининг юзага келиши даврида Ўзбекистон санъати.<br>3. Боб. Илк давлатчилик шаклланиши даврида Ўзбекистон санъати.<br>4. Дастлабки истилолар ва уларнинг инқирози натижасида вужудга келган мустақил давлатлар даврида Ўзбекистон санъати. |
| Ўқув машғулоти режаси : Қадимги Ўрта Осий санъати ҳақида назарий ва амалий билимларни чуқурлаштириш ва мустаҳкамлаш | |
| Педагогик вазифалар:<br>Ибтидоий жамоа даври санъати ҳақида фикрларни ёритиш<br>Дасталабки шаҳар маданиятининг юзага келиши даврида Ўзбекистон санъатини тушунтириш<br>Илк давлатчилик (Қадимги Хоразм, Бақтрия давлатлари) шаклланиши даврида санъатнинг ролини кўрсатиш<br>Аҳамонийлар ва Юнон македон истилолари ва уларнинг инқирози натижасижа мустақил давлатлар маданиятини талабаларга етказиш | Ўқув фаолияти натижлари:<br>Талабалар ибтидоий санъат ҳақида билимларга эга бўладилар<br>Дастлабки шаҳар маданиятининг юзага келишини ўрганадилар<br>Аҳамонийлар ва Юнон македон истилолари ва уларнинг инқирози натижасижа мустақил давлатлар маданиятини ўрганадилар |

| | |
|---|---|
| Таълим бериш усуллари | Кўргазмали маъруза, намойиш этиш, савол жавоб, суҳбат, тушунтириш, кластер, |
| Таълим бериш шакллари | Оммавий, жамоавий, якка тартибда, слайдлар |
| Таълим бериш воситлари | Ўқув қўлланма, комьпютер технологиялари, доска |
| Таълим бериш шароити | Техник воситалардан фойдаланишга ва гуруҳларда ишлашга мўлжалланган аудитория |
| Мониторинг ва баҳолаш | Оғзаки назорат , савол жавоб |

2.2. "ҚАДИМГИ ЎРТА ОСИЁ САНЪТИ" бўйича маъруза машғулотининг технологик харитаси

| | | |
|---|---|---|
| 1. Мавзуга кириш (15 дақиқа) | 1.1.Ўқув курси номини айтади.Экранга ўқув курсининг тузилмавий мантиқий чизмасини чиқаради, мавзулар рўйхати билан таништиради ва уларнинг мазмунини қисқача ёритади.<br>1.2.Биинчи машғулот мавзуси, унинг мақсади ва ўқув фаолияти натижаларини эълон қилади<br>1.3.Кластер асосида ўтиладиган мавзунинг мазмуни ва моҳиятини қисқача ёритади. | Тинглайдилар<br><br>Тинглайдилар |
| 2-босқич Асосий босқич (55 дақиқа) | 2.1. Талабалар билимини фаоллаштириш мақсадида савол жавоб усулини қўллайди:<br>2.2. Қадимги Ўрта Осиё маданияти ҳақида нималарни биласиз?<br>Дастлабки шаҳарлар ҳақида нималарни биласиз?<br>Қадиги Хоразм ва Бақтрия санъати ҳақида биласизми?<br>2.3. Экранда слайдлар намойиш этиш билан Қадимги Ўрта Осиё санъати ҳақида ҳақида тўлиқ маълумотлар берилади. Талабалар диққатини мавзунинг асосий жиҳатларига қаратади, уларнинг долзарб ва аҳамиятли эканлигини илмий жиҳатдан асослайди.<br>2.4. Вазифани барча талабалар якка тартибда бажаришларини айтади.<br>Талабалар фаолиятини кузатади, уларни йўналтиради, зарур маслаҳатлар беради.<br><br>2.5. Бир неча талабанинг иш натижасини текширади, талабалар билан биргаликда муҳокама қилади. Зарур бўлса, қўшимчалар киритади ва ушбу савол бўйича тўлиқ маълумот беришини айтади.<br>2.6. Режанинг иккинчи саволига доир бўлган слайдларни экранга чиқаради ва ҳар биттасини тўлиқ ёритади.<br>2.7. Мавзу бўйича талабаларда юзага келган саволларга жавоб беради. | Саволга жавоб берадилар Фикрларини билдиради<br><br>Тинглайдилар, зараур маълумотларни ёзиб оладилар.<br><br>Вазифани якка тартидда бажаради.<br><br>Иш натижасини тақдим қилади.<br><br>Тинглайдилар, зараур маълумотларни ёзиб оладилар. |

| | | |
|---|---|---|
| 3. Якуний босқич (10 дақиқа) | 3.1. Мавзу бўйича якуний хулосалар қилади. Мазкур мавзу бўйича эгаллаган билимларнинг долзарблиги ва аҳамиятли эканлигини алоҳида қайд этади ҳамда келажакда ушбу билимлардан қаерларда фойдаланиши мумкинлиги ҳақида маълумот беради.<br>3.2. Мустақил ишлаш учун вазиқа беради: (1)ўтилган мавзу асосида Б/Б/Б жадвалини тўлдириб келиш. Б/Б/Б жадвалини тўлдириш қоидасинитушинтиради (2) иккинчи мавзу бўйича кейинги ўқув машғулотига тайёрланиб келиш. | Саволлар берадилар.<br><br>Вазифани ёзиб оладилар. |

## 2-МАВЗУ: ҚАДИМГИ ЎРТА ОСИЁ САНЪТИ
## РЕЖА

1. Ибтидоий жамоа даври санъати.
2. Дастлабки шаҳар маданиятининг юзага келиши даврида Ўзбекистон санъати.
3. Боб. Илк давлатчилик шаклланиши даврида Ўзбекистон санъати.
4. Дастлабки истилолар ва уларнинг инқирози натижасида вужудга келган мустақил давлатлар даврида Ўзбекистон санъати.

Марказий Осиё минтақасидаги табиий шароитнинг қулайлиги, экологик муҳит бу ерларда инсониятнинг илк манзилларининг пайдо бўлиши ва ибтидоий жамоа тузумининг шакилланишига имкон берди. Шу заминнинг ажралмас қисми бўлган Ўзбекистон ҳудудида жуда қадим замонларданоқ одамзод истиқомат қилиб келган. Қадимшунослар фикрига кўра бу заминда миллион йилдан бери одам яшаб келмоқда. Турон заминининг Жайҳун ва Сайҳун дарёлари оралиғидаги ҳавзада кишилик жамиятининг илк шаклланиши, унинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий ривожи ўзига хос эволюцион тараққиётда бўлиб шу ерда ибтидоий тўда, қадимий тош асрининг ибтидоий жамоа хўжалиги ва ниҳоят ибтидоий санъат ривожи мавжуд бўлди.

Ўзбекистонҳудудидақадимийибтидоиймаданияттошасрнингилкбосқичидамил. аввал 700 - 600 мингйилликдан 100 мингинчийилларгачабўлгандаврборибтақаладивабумаданиятоддиймеҳнатқуроллари – тошданишланганчопқичларсифатидапайдобўлган. Шундай қуроллар Суғ воҳасининг Селенгур ғоридан, Охангарон дарёси яқинида Кулбўлоқ манзили, Бойсун тоғлари ва Заравшон оазисида Омонқўтон, Зирабўлоқ, Қўтирбўлоқдан топилган. Бу топилган меҳнат қуролларининг илк намуналари асосан икки томонига ишлов берилган чопқичлар бўлиб унинг бир томони учли ва ўткир бўлишига эътибор берилган. Тош асрининг йирик манзили Селенғур ғоридаги ашёлар шундан далолат беради. Тош асрининг юқори босқичига келиб ҳозирги замон одам қиёфаси шаклланди, одамлар табиий ғорларни ўзлаштира бошладилар, ҳайвонлар терисидан кийимлар тайёрладилар.Улар эндиликда тошдан ташқари суяк, ёғочдан ўзлари учун керакли буюмларни ярата бошладилар, бигизлар пайдо

бўлди. Бу даврга келиб оловни ихтиро этилиши одамлар жамоасини яхлитлашишига олиб келди. Одамлар яшайдиган жойларда эса меҳнат қуроллари ясайдиган устахоналар пайдо бўла бошлади. рассомлик, ҳайкалтарошлик, меъморчиликнинг дастлабки кўринишлари шаклланa бошлади. Ибтидоий одамлар ўз меҳнат ва ов қуролларга, кундалик турмушда ишлатадиган буюмларга турли белги ва чизиқлар чизиб уларни гўзаллигини орттира бошладилар, ўзлари учун безак-тақинчоқлар яратишга ҳаракат қилганлар Обишер (Фарғона), Мачой ғори (Бойсун)дан топилган суяк бигизлар, турли тақинчоқ-маржонлар, шунингдек аёл ҳайкаллари шу давр кишилари «нафосати» далилидир.

Аста-секин одамлар катта бўлмаган жамоаларга бирлаша бошладилар. Уларнинг тез бир жойдан иккинчи жойга кўчиб ўтиш, янги ерларни ўзлаштириш имкониятини берди. Бу имконият бир жойда пайдо бўлган ғояларни янги ерларга етиб боришига асос яратди. Инсон тафаккури ва у билан боғлиқ ижодий фаолиятни ривожлантирди. Балиқ тутиш тўри, овчилик учун камон, ўткир найзали камон ўқи ихтиро этилди, ҳайвонлар қўлга ўргатила бошланди. Кўчиб юриш учун зарур сол қайиқлар яратилди. Мезолит асрига келиб (мил.ав.12-7 мингинчи йиллар) кўп жойларда йирик ҳайвонлар қирилиб кетди. Майда ҳайвонлар овига эса якка овчиликка олиб келди. Бу ўз навбатида шахсий мулк масаласига бориб тақалди. Энди ов қилинган майда ҳайвон гўштини катта жамоада тақсимлаш у ёқда турсин кичик жамоа учун ҳам камлик қила бошлади. Молларни қўлга ўргатиш кенгайди. Шу даврнинг машҳур ёдгороликлари Фарғонада Обишир, Тошкентла Бўзсув, Сурхандарёда Мачой ғорларидан топилган.

Тошасрининг дастлабкирасмлариқоятошюзалари, ғордеворвашипларига, суякюзаларигаишланган. Уларда турли ҳайвон ва қушлар тасвирини акс эттирилган. Ўзбекистон ҳудудида шундай тасвирлар Тошкент, Сурхондарё, Фарғона, Жиззах, Сирдарё вилоятларида сақланиб қолган. Тасвирлар чақа қилиш (яъни қаттиқ тош билан уриб юзада чуқурчалар ҳосил қилиш), қаттиқ курол билан юзани тирнаш ёки чизиш йўли ёки табиий бўёқлар (рангли тупроқлар)ни мол ёғи билан аралаштириш асосида юзаларга расмлар ишланган. Обирахмат, Хўжакент (Тошкент), Суратсой, Соймоли тош (Фарғона), Зараутсой (Сурхандарё), Тақа тош (Жиззах) расмлар машҳур.

Зараутсой-Камар ғоридаги ов манзараси расми машҳур. Зараутсой расмларининг бошланиш палеолит даврининг сўнги босқичига тўғри келади. Дастлабки расмлар алоҳида ёки бир неча ҳайвон тасвири ишланган. Ибтидоий рассом бу ишларда ўзини кўзатувчан ва кўрган нарсасини имконияти бўйича тўлиқ акс эттиришга интилгани ҳолда жуда оддий ва содда шакллардан фойдаланади. Рассом ҳайвонлардан буқани хусусиятларини яхши хис этган, уларнинг қудрати кучи ва ҳаракатдаги вақтини ишонарли ва ҳаққоний тасвирлаган. Зараутсой расмларидан «Ов қилиш» композицияси бирмунча мураккаб, мазмуни эса давр кишилари ҳаёти, яшаш тарзи ва фикр юритиш қобилиятини намоиш этади.

Одамларкучлиҳайвонларниовқилишдаўзлариучуннафақаткамонбалки, ҳимояланиш,

ҳайвонпсихологиясинибилганҳолдаунинголдиганиқобдаяширинибборишим умкинлигиникўрсатади. Одамлар сомондан пичан ғарамини эслатувчи ниқоб ясаб олганликлари уларни ҳайвон олдига яқин бориш имкониятини берган. Овчиларнинг кўриниб турган оёқлари эса уларнинг ҳаракатини кўрсатса, итларнинг олдинга ташланган оёқлари шу ҳаракатни янада кўчайтиради. Композицияда тасвирланган буқа (навос) хотиржам, бақувват, лекин зийрак ўз емиши билан банд. Бир қарашда содда, оддий бўлган ана шу ибтидоий санъат давр моҳияти, инсон тафаккури ривожини билишда ниҳоятда катта аҳамиятли эканлилиги билан қимматлидир.

Неолит(мил. а.6-4 мингинчи йиллар) даври санъати

Ўртатошасри(мезолит, мил.ав.12-7 мингинчийиллар)нингсўнгиянгитош (неолит, мил. Ав.6-4 мингинчи йиллар) асрида деҳқончилик ва чорвачилик ўтиш тезлашди. Кўп ерларда ўтроқ ҳаёт бошланди, уруғ жамоаси шаклланиб жуфт оила шакли пайдо бўлди. Она уруғи (матриархат) даври бошланди. Бу ривож меъморлик тасвирий ва амалий санъатда ҳам ўз ифодасини топди. Эндиликда инсон табиат инъом этган маҳсулотларни истеъмол қилиш билан чегараланмай, балки ўзи ҳам ишлаб чиқариш, моддий бойликларни кўпайтиришга ўта бошлади. Бу даврнинг муҳим ютуқларидан бири бу оддий лойдан мустаҳкам сопол буюмлар ясаш бўлди. Одамлар оловдан фойдаланиш ва унинг ёрдамида исиниш ёки овқат пишириш, балки унинг ёрдамида ўзи учун керак бўлган меҳнат ва ов ва ниҳоят жанг қуролларини яратишни ўрганиб олдилар. Бу ихтиро кейинги кулолчилик ва у билан боғлиқ наққош санъати ривожига катта туртки берди. Саполниинг ихтиро этилиши ижтимоий ҳаётда катта ўзгаришлар ясади. Эндиликда одамлар фақат сопол буюмлар яратиш эмас, балки улар учун керакли қолиплар олиш ва дастгоҳлар ихтиросига ҳам ўта бошладилар, тошни кесиш, уларга пардоз бериш санъати ҳам давр кишиларининг эстетик қарашларининг ривожи эди. Бу даврда қурилиш санъати кенгая борди. Одамлар лойдан ер устида уй қуриш билан ҳам шуғуллана бордилар. Тўқимачилик, терини қайта ишлаш соҳасида мувофаққиятларга эришила бошланди. Ҳунармандчилик, савдо сотиқ ривожланди. Одамлар орасидаги, уруғлар орасидаги муносабатларни мураккаблаша борди. Ижтимоий ҳаётда эркакларнинг роли орта бошлади. Шу заилда дастлабки синфий жамиятнинг куртаклари пайдо бўла бошлади. Энолит(мил.ав.4 мингинчи йилларнинг охри 3 мингинчи йиллар) ва бронза асри(мил.ав. 2- 1 мингинчи йиллар) да ижтимоий ҳаётга кенг кўламда мис ва бронзани кириб келиши ишлаб чиқариш воситаларини мураккаблашишига, кишиларнинг турмуш кечириш имкониятларини бойитишга олиб келди ва бу жараённи янада тезлатди. Меҳнат тақсимоти юзага келди. Қабилалар орасидаги чорвадорлар, хунармандлар ажралиб чиқабошлади. Патриархат мустахкамланди. Меҳнатни ташкил этиш мураккаблашуви ўз навбатида қўшимча маҳсулотларни пайдо бўлишига асос яратди. Инсон маънавий жиҳатдан ривожланишининг янги поғонасига кўтарилди. Достон, халқ оғзаки ижоди, қўшиқчилик, тасвирий амалий санъатнинг турли кўринишлари ривожланди. Меъморлик санъати, унинг маҳобатли турлари эндиликда давр моҳиятини акс эттирувчи санъат

турларининг етакчи кўринишига айланди. Бу ривожланиш одамларнинг диний тушунча, ўтганлар руҳи билан боғлиқ холда борди. Бу давр рассомчилигида ҳамон ҳайвонлар тасвири етакчи ўринни эгаллади. Улар шарпа сифат холда тасвирланган. Бундай расмлар Тошкент вилоятининг Хўжакент қояларида сақланиб қолган. Давр ҳайкалтарошлиги ўзининг рангбаранглиги билан ҳарактерланади, тош, мармар, суякдан ҳайкаллар ишлаш, металл-бронза, олтиндан ҳайкаллар қуйиш, лойни куйдириб терракота ҳайкаллар ишлаш жараёни кенг тус олди. Мавзуси ҳам бирмунча кенгайди. Алоҳида бош ҳайкали, жанрли композиция, турган холдаги ҳайкаллар шу йилларда ишланган. Кўпгина ҳайкалларнинг юзага келиши давр тақозоси, шу давр бадиий маданиятининг янги равнақи эди. Чунки қуйма ҳайкал ясаш ҳайкалтарошдан ўз ғоясини амалга оширишда қатор жараёнларни амалга ошириш, дастлаб ғояни материаллаштириш, яъни шаклини ясаб олиш, сўнг ундан қолип олиш ва шундан кейингина қолипга керакли металлни (бронза, олтин, мис) эритиб қуйиш ва ниҳоят уни қолипдан чиқариб ишлов бериш жараёнини ижодкордан ақлий ҳам жисмоний куч талаб этар эди. Шундай жараёнда амалга оширилган кўпгина буюм ва ҳайкаллар бизгача етиб келган

Фарғонақуйматопилмаларичидакўпроқамалийбезакбуюмларкенгўрин ниэгаллайди. Фарғона водийсининг Ҳақ қишлоғидан 1899 йили бирқанча бронза ва кумушдан ишланган буюмлар топилган эди. Шулар ичида сигир соғаётган аёл ҳайкал ишланган тўғноғич ҳарактерли. Унда тўғноғич тепа қисмида сигир соғаётган аёл тасвирланган бўлиб, сигир эса ўз бузоқчасини ялаётгани пайти тасвирланган. Расм. Композиция ҳаётий ва кундалик турмушга бағишланган. Ишланиш услуби содда бўлса ҳам ҳаётий.

Энолит, бронзаасридатошгаишловбериш, тош, мармарданҳайкалясашсанъатиҳамривожланди. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларидан Фарғона водийсидан топилган, жумладан қора тошдан ишланган икки бошли илон тасвири бўлган тумор мил. ав. 2 мингинчи йилларда ишланган деб тахмин қилинади. Расм. Унда тош сатхи яхши ишлов берилган силлиқ танада оқ чуқурчалар бўлиб уларга оқиш гипс берилган, кўз ва тишлари инкрустация услубида ишланган ва қиммат баҳо тошлар билан тўлдирилган бўлиши мумкин. Мармарда ишланган «Қайиқдаги буқа», тошбақа ҳайкали, тошдан ясалган Эркак боши ҳайкали давр ҳайкалтарошлик намунаси сифатида эьтиборга лойиқ. Мил.ав. 1 мингинчи йилларда жанубий Ўзбекистоннинг Миршоди манзилидан топилган қора тошдан ишланган Эркак боши ҳайкалида қаттиқ материалга ишлов бериб катта шаклларда одам боши хусусиятларини кўрсатишга муяссар бўлган.

Бу давр сопол ҳайкалтарошлиги – терракотада бетакрор ҳайкаллар ишланди. Бу ҳайкаллар мавзуси рангбаранг. Одам, ҳайвон, қушлар, турли ҳаётий воқеалар шу ҳайкалларда ўз аксини топган. М. Ўзбекистоннинг жанубидан топилган ёдгорликлар ичида аравалар шаклини учраши шундан далолат беради.

Марказий Осиё санъати тарихида майда ҳайкалтарошлик, унинг сопол ҳайкалтарошлиги (терракота) ўзига хос, бетакрор ривожда бўлди. Бу

ҳайкаллар ўз бадиий ечими, композицион холати ва мавзуси билан бошқа халқларнинг шу санъатидан фарқланиб туради. Аёллар ҳайкалларини ишланиш услуби ҳарактерли. Улар тасвирланганда икки қўли кўкрак олдида ёки қўлсиз ясалиб белдан пастки томон кенгайтирилган холда кўрсатилган, аёллар ҳайкалининг иккинчи хили бир қўли кўкраги олдида иккинчиси пастга туширилган холда тасвирланган. Суғдда шундай ҳайкаллар кўплаб ишланган. Сопол ҳайкалтарошлигининг яна бир тури бу сопол идишларга ишланган одам ва ҳайвонларнинг шаклларидир. Рельеф санъати кенг ўринни эгаллаб амалий санъат буюмларини безаш ишларида кенг ишлатилган. Турли кўза, хум каби буюмларнинг банд ва айрим бўлимлари ҳайвонлар, масалан қўй, шер ва б. шаклига ўхшатиб ясалган. Муҳр юзасига турли ҳайвон ва паррандалар бўртма тасвири ишланиши ҳам шу ҳайкалтарошлик санъати тур ва имкониятларининг кенглигидан далолат беради. Ўзбекистон жанубидан топилган бургут, илон, арслон тасвири туширилган муҳрлар топилган. Албатта бу ёдгорлилар бизга парчаларда етиб келган, лекин, ана шу парчаларнинг ўзи санъаткорнинг маҳорати, давр ғоявий-сиёсий холати ҳақида ҳикоя қилади. Бургут, турли қушлар, йўлбарс, шер бўртма тасвири туширилган муҳр парчалари шунинг учун ҳам қимматлидир.

Аста воқеликни кенг қамровли шартли шаклларда тасвир этиш янада ортди. Самарқанд Хатирчи тумани Бургансой расмлари (мил. ав. 2 мингинчи йиллардан бошланиб, мил. ав. 6-1 асрларгача давом этган. Расмлар соя шаклида ўйиб ишланган мавзуси: ҳайвонлар тасвири – туя, от, буқа, тўнгиз, шер, бўри, ов манзараси ҳаётий лавҳалар ҳам Бургансой расмлари мазмунини ташкил этади. Оқ-томдан топилган шоҳга мил. ав. 2-1 мингинчи йилларда ишланган расм, Қуйи Мозордан топилган суяк пластинкасига ишланган расмлар юзага ўткир найзали қуроллар билан чизиб (ўйиб) ишланган.

СултонУвайстоғинингшимоли-ғарбийэтакларидажойлашганкумтепаларЧилпик, ҚоратепаваБештепадагиқоятошларюзасиниҳоятдатурли-туманрасмлар, аниқрогиуўймабелгиларбиланкопланган. Сурхандарё ерлари, Фарғона, Самарқанд ва Жиззах, Тошкент, Хоразм ерларида шу даврларга мансуб ёдгорликлардан Бойсун, Термиз туманлари, Ангрен ва Чирчиқ воҳалари манзиллари бирмунча кенг ўрганилган. Бу ерлардан тасвирий ва амалий – безак санъати ёдгорликлари, меъморлик мажмуалари ўз ишланиш услуби тархи (плани) билан бетакрор санъат асари сифатида эътироф этиш мумкин. Шу ўрганилаётган давр ҳақида гапирилганда рассомлик санъатига алоҳида тўхталиш зарур. Чунки бу санъатда аввалги давр анъаналари янада ривожланганлигини, мавзу кенгайиб кишилар ҳаётидаги ўзгаришлар хусусиятларини илғаш мумкин. Бу расмларнинг кўпчилигига хос фазилат, воқеликни умумлашма шартли шаклларда, соддалаштирилганлигида кўринади. Бу ердаги расмларда ёввойи ҳайвонлар билан бирга кўплаб уй ҳайвонлари тасвирини кўрамиз. Тоғ эчкилари, арҳарлар, кийикларнинг алоҳида ёки тўдада пайтдаги кўриниши акс эттирилган тасвирлар содда бўлишига қарамай ҳайвонларга хос хусусиятлар, уларнинг гавда (тана)

тузилиши нисбатлари ҳамда ҳайвонларнинг хатти-ҳаракати ниҳоятда жонли ва ифодали ишланган. Шу ўринда Тошкент яқинидаги Хўжакент қоя расмлар, Фарғонадаги Айримач тоғ суратлари, Ош (Қирғизистон Республикаси) яқинидаги Сурат-тош расмлари кўп санъат ихлосмандларига таниш.

Ибтидоитйдаврнингмуҳимёдгорликлариичидасополбуюмлар(идишлар , безаквапардозбуюмлари, тақинчоқ, меъморийбезаквах.к.) алоҳидаўринниэгаллайди. Сопол пишириш технологиясининг ривожланиб бориши яратилган буюмларнинг шакли ва кўринишида ҳам ифода этган. Дастлабки сопол буюмлар қўлда, дастгоҳсиз бажарилган турли идишлар бўлиб булар ичида сополда ишланган идишлар шаклига эътибор бериш, турли чизиқли, рангли ва чизма расмли нақшлар билан безаш санъати ривожланди. Сопол буюм юзаларига тўлқинсимон, катак, учбурчак, тўғри чизиқли нақшлар ишланган, идишларда нақшлар билан бирга ҳайвон ва қушларнинг соддалаштирилган шакллари, содда ҳаётий композициялар туширилгани ҳам шу давр кулолчилик санъатига хосдир.

Шу ўринда Хоразмнинг Калтаминор қишлоғи ёнидаги Жонбос-қалъадан топилган сопол идишлар ичи тухумсимон ва икки чеккаси қайиқ учига ўхшаган сопол товоқ идишлар Ўзбекистон ҳудудидан топилган энг қадимий сопол намунаси ҳисобланади .

Кишиларнинг маънавий ўсиши меъморликда ҳам ўз ифодасини топаборди. Бу даврда одамлар шоҳ-шаббалардан ва қамичдан фойдаланиб кўпчилик яшайдиган турар жойлар яратдилар. Самарқанд ерларида, Амударёнинг қуйи воҳаларида, Қизилқум саҳросининг ғарбий чеккалари, Қорақум шимолий қисмларида шундай жой қолдиқлари топилган. Марказий Осиёнинг жанубий томонидаги меъморликларида лой ва турли шаклдаги ҳом ғиштдан фойдаланиш, бино деворлари, полларини суваш ва (бўёқ) ранг бериш пайдо бўла бошлади. Давр манзиллар Ўзбекистон ҳудудида анчагина сақланиб қолган. Булар ичида Обишир, Мачой ғори кенг ўрганилган. Археологлар фикрига кўра фақат Фарғона воҳасида шундай манзиллар мингдан ортиқ бўлган.

Истеъмолчиликданишлабчиқаришгаўтишвадастлабкишаҳармаданияти нингюзагакелишидавридаЎзбекистонсанъати

НеолитнингохирибронзаасридаМарказийОсиёерларидаиккикаттатари хий-маданийбўлиниш – ЎртаОсиёнингжанубийтомонларидаўтроқдеҳқончиликбиланшуғулланадига нқадимгиШарқшаҳарцивилизацияситипидагижамоаваШимолдаовчиликваба лиқчиликбиланшуғулланганкейинроқчорвачиликвадаҳқончиликбиланшуғул ланабошлаганжамоалармавжудэди. Шу икки маданият, унинг санъат услублари кейинги узоқ давом этган давр ҳарактерига таьсирини ўтказиб борди. Шу хусусиятлар Хоразм, Фарғона ерларида топилган кулолчилик ёдгорликлари, меъморчилик қолдиқлари намуналарида кўриниши намоён бўлади.

Ўзбекистоннингжанубийтомонларидамил. аввалги 2 мингинчийиллардаСурхандарёнингШероботдарёсиҳавзаси, Қизилсув, БандихонсойлариатрофидашаклланганмаданиятЎзбекистонтарихидамуҳимў

ринниэгаллайди. Қадимги деҳқочилик маданияти марказларидан Сополли тепа ва Жарқўтон комплекси шу маданият хусусиятларини ўрганишда муҳим ўрин эгаллайди. Сополли тепа комплекси катта қишлоқ жамоаси округи тарзида қурилган бўлиб унинг ичида турар жойлар, хўжалик ва хунармандлик диний қурилмалар мавжуд бўлган ва улар кўчалар билан бир биридан ажратилган. Бу қўрғон қурилишида стандарт ғиштлар ишлатилган. Сополли тепа жамоаси содда деҳқончилик билан шуғулланган ва суний суғориш ишларини йўлга қўйилган. Қўрғон ичида кулолчилик устахонасида хўжалик учун зарур бўлган идишлар ишлаб чиқарилган
Шу маданиятда санъат, айниқса кулолчилик ва металл қуйиш (бронза назарда тутилади) юқори бўлган. Турли кўзгу ва уй анжомлар бадиий бўлишига ибтидоий рассом катта эътибор берган.

Сополкўзаларнингбандлариодамшаклиниэслатувиҳайкалларбиланбезатилганбўлган. Бу ерда бронзадан турли косметика учун идишчалар ишлаб чиқарилган.

Сополлитепадан(Сурхандарёвилояти) топилганкулолчиликёдгорликлари, securityсополидишларидеярлибезаксизваўзшаклирангбаранглиги, нисбатларинингўзигахоснафислигиҳамдалойданнозик, юпқаваенгилидишлярятаолишхусусиятишудаврусталарининггюксакмаҳорати, securityсополсозликтехнологиясиничукурўзлаштирганликларидандалолатберади.

ФарғонавоҳасинингЧустманзилидаҳаммил.аввалги 2 мингинчийиллардаўзигахосмаданиятшаклланган. Шу даврда бу ерларда ўтов типидаги уйлар қурилган. Қурилишда лой ишлатилган. Одамлар яшайдиган манзиллар атрофи қалин девор билан айлантириб ўраб чиқилган. Кулолчилик ривожланган. Кўза,коса, хум каби сопол идишлар ишланиб уларнинг юзасига қора бўёкда содда геометрик нақшлар ишланган. Айрим сопол идишлар юзасига нақшлар ўйиб ёки қириб(тирнаб)ишланган.

ХоразмнингТозабағёб, Сувёрғон, Амирободмаданиятидасополбуюмларюзасинисир(глазурь)биланқоплашбошланганлигиникўришмумкин. Тасвирий санъатда борлиқни - қуш, ҳайвон ва бошқа нарса ҳамда жониворларни ўзига ўхшатиб ишлашдан кўра, кўпроқ шартли шаклларда тасвирлаш жараёни темир асрига келиб янада ортди. Инсон абстракт фикр юритиш, тасаввур қилиш ва ҳаётга келтирилиши ва уларни тасвирлаш, инсон тафаккурининг ривожланиши бадиий ижод ривожининг бошланиш йўлини оча борди. Шуни таъкидлаш керакки, инсон тафаккури ривожи абстракт фикр юритиш билан боғлиқ. Абстракт фикр юритиш, санъатнинг бошқа турларини, жумладан нақш санъати ривожида муҳим бўлди, ҳайкалтарошлик санъати имкониятларини оширди.

Ўзбекстонда диний қарашларнинг пайдо бўлиши ва унинг санъатдаги ифодасиМарказийОсиёерларидадинийтушунчаларнингривожланишивасанъатнингунгахизмати, динийэътиқодватушунчалартарихигатўхталадиганбўлсакубизниузоқўтмишгаетаклайди. Бу ерларда қадим пайтлардадиний тушунчалар магия, тотемизм, анемист тасаввурларлар пайдо бўлган. Диний тасаввурлар,

ўлганлар руҳи тушунчалари аниқ ашёвий далилларда ўз аксини топган. Жумладан, Тешик тош ғори Термиз яқинидаги Тургандарё воҳасининг Бойсун тоғларида қадимги одамлар яшаган манзилдан археологлар турли тош қуроллар билан бирга чамаси 8-9 ёшли ўғил боланинг суяк қолдиқлари ва унинг атрофига гир айлантириб қўйиб чиқилган тоғ эчкисининг шоҳларининг топилиши муҳим воқеа бўлди. Бу топилма Марказий Осиё ерларида жуда қадим замонларда кўмиш маросими ва у билан боғлиқ диний тушунчалар шакллана бошлагандан далолат беради. Ўлган одам ёнига турли буюмлар қўйиш, марҳум кўмилганда унинг ёнига ҳаётлик пайтида ишлатган, севган буюмларини ҳам бирга қўшиб кўмиш одати жамият ривожланиб боргани сари мураккаблашган.Диний тушунчаларни кенг мушоҳадали фалсафий тус олиб кўп динлилик ва кўп худога сажда қилиш аста якка илоҳга саждага айлана борди. Янги-янги динлар юзага келаборди. Ана шундай йирик динлардан бири Зардуштийлик дини эди. Мил.аввалги У11 аср шаклланган бу диний таълимот одамларнинг турмуш тарзи, урф-одатига таъсир этди, санъат ва маданиятнинг ҳарактерида ўз ифодасини топди. Зардуштийлик билан боғлик меъморчилик мажмуалари, одамлар юриш туриш, кийинишда шу дин талаби ва таъсири бўлди. Зардуштийлик дини меъморчилик, амалий ва тасвирий санаьтда ҳам ўз аксини топган. Зардушт динига биноан сув, хаво, ер, олов мукаддас бўлиб олов эса тозаловчи, покловчи илохий куч ҳисобланди. Ана шу оташпарастлик дини учун муққадас олов уйлар қурилган. Бу уйларда олов доим ёниб туриши учун уни қўриқлаб, яхши хид тарқатувчи гиёҳлар ташлаб туришган. Олов уйлари- ибодатхоналар қурилиши,унинг ички безаги, маросим билан боғлиқ турли буюм ва анжомлар ишланди.

Самарқанд яқинида очилган археологик топилмаси асосида яратилган, аниқроғи ишлаб чиқилган олов уйи кўриниши теппага кичрайиб борувчи тўртбурчак шакллардан ташил топган бўлиб унинг теппасида тутун чиқиши кўрсатилиб унинг ички хонасида муқаддас олов ёниб турганлигини билдиради .

Ҳар бир шаҳар ва қишлоқда шундай олов уйлари бўлиб уларда муқаддас олов сақланган. Жаркўрғондан топилган олов уйи шуларнинг дастлабкисидир. Бу ибодатхона зардуштийлик дини арафасида қурилган деб ҳисобланади. Хоразмдаги Жонбос қалъа, Бухоро, Самарқанддан топилган олов уйлари қолдиқлари ҳам юқоридаги фикрни исботлайди. Тошкент вилоятининг ҳозирги Оқ қўрғон туманидаги Қанқа археологик манзили олимлар фикрига кўра қадимги Тошкент давлатининг маркази бўлган. Бу давлатни қадимги даврларда Юни, Чоч, Шош деб аташган. Канкада очилган тўрт минорали қўрғонда сарой ибодатхонаси - капелла ва олов меҳроби бўлган. Ёзув манбаларига кўра давлатнинг асосий ибодатхонаси қўрғондан ташқарида Шарқда бўлган. Бу ибодатхона ўртасида супа бўлиб унга марҳум суяги солинган лойдан ишланган оссуарийлар қўйилган. Шу супа ортида эса эшик бўлиб, ундан кичик хонага кирилган. Бу хонада муқаддас олов сақланган, маросим кунлари у ибодатхона марказидаги меҳробга ёки муқаддас супага олиб чиқиб қўйилган. Ибодатхона комплексининг хужалик хоналари бўлиб у ерда турли буюмлар, жумладан,

тақинчоклар сақланган. Одамлар шу урна атрофида айланиб марҳум билан хайрлашган холда муаттар хидли гуллар сочганлар. Маросимнинг ажралмас қисми қурбонлик қилиш ва маросим оши бериш бўлган. Мазкур ибодатхона тахминан янги эранинг 1 мингинчи йиллар ўртасида қурилган, унинг катта хонасининг деворлари расмлар билан безатилган.

Зардуштийлик маълумотига кўра одамлар ўлгандан кейин унинг жасадини ерга кўмиш гуноҳ ҳисобланган Шунинг учун одам ўлгандан кейин унинг жасадини маҳсус тепаликка олиб бориб қўйишган. Бу тепалик одамлар яшайдига жойдан узоқда жойлашган бўлиб, тепаликда эса турли итлар, бургут, ёввойи қушлар одам гўштини еб уни суякдан ажратиб берган. Ёмғир эса суякни янада тозалаган. Куёш эса уни обдон куритган. Шундан сўнг тепалик атрофида яшовчи одамлар суякларни йиғиб, сополдан ясалган идишчаларга солиб, кўп холларда марҳумнинг ўз уйига кўмилган. Бу идишчаларни остадонлар ёки осуарийлар деб аташган.

Ана шу остадонлар шакли турли- туман бўлиб, асоси тўртбурчак шаклида , копкоги эса турли шаклларда, ҳатто одам боши ёки қомати шаклида , баьзан хумга ўхшатиб, баъзан ўтирган одам шаклида ясалган. Остадонларнинг юзларига эса бўртма тасвирлар ишланган ёки расм чизилган. Бу тасвирларда ўша даврлардаги одамлар урф-одати, масалан аза тутиш воқеалар акс эттирилган. Бундай остадонлар Ўрта Осиё ерларидан ,хусусан Ўзбекистон тупроғидан кўплаб топилган. Шундай остадонлардан бири Самарқанд вилоятининг Муллақўрғонда очилган.

Бу остадоннинг ташқи томонида бўртма тасвир бўлиб унда ёниб турган олавга икки томондан одамлар ўтин, ёкимли ис таркатадиган гиёҳлар ташлаб ташлаб турган пайти тасвирланган. Улар оғизларини махсус боғлагич билан беркитиб олганлар. Чунки олов муқаддас, унга хатто одамнинг нафаси ҳам тегмаслиги керак. Олов ёниши расм ҳам ҳарактерли. Оловнинг алангалари чиройли ва тартибли қилиб ишланган шакли кейинчалик безак санъатида кенг ишлатила бошланган, бу шаклни антификс деб аташган

Оқтепа ( Чилонзор тумани. Тошкент.) ёдгорлиги ҳам шу даврнинг муҳим ёдгорлигидир. Бурчаклари минораларга эга бўлган бу қўрғон икки қаватли бўлиб, унинг асосан бурчакларидаги хона ва токчаларининг усти берк бўлган, Бу ибодатхона шаҳардан ташқарида бўлиб, катта маросим ва тантаналар учун фойдаланилган. Бу ибодатхона УIII асрда араблар юришидан кейин ташландиқ холга келган бўлса ҳам, оташпарастлар бу ердан узоқ фойдаланишган, ва остадонсиз кумиш маросимлари ўтказилган.

Ер қўрғонда (Ўзбекистон жануби) ҳам шаҳар ибодатхонаси мажмуаси бўлиб, янги асрнинг 1 мингинчи йилларнинг 2- чорагига тўғри келади. Бу ибодатхона маьбуда Анахитага бағиштлаб қурилган Анехеологик ишлар давомида бу ердан оташпарастлик учун зарур анжамлар: олов меҳроби, турли сопол буюмлар топилган.

Зардуштийлик дини жаҳон динларининг кадимийси бўлиб минг йилдан ортиқ вақиқт мобайнида кўпгина Шарқ халқларининг асосий динлари бўлиб келди. Марказий Осиё Эрон, Озарбайжон халқлари ислом динига қадар шу динга эьтиқод қилдилар. Хатто ислом кириб келгандан

кейин ҳам бу дин узоқ вақт мавқеини сақлаб келган. Ибн Сино даврида (Х-Х1 асрлар) ҳам шу динга эътиқод қилувчилар мавжудлиги эътироф этилган. Бу диннинг таъсири Ўрта Шарқда қатор давлатлар тузилганда янада ортиб борди кейинчалин унинг урф-одат ва қоидалари янги шаклланган дин ва одатларга таьсир этди. Жумладан унинг нариги дунё ҳарикида таьлимоти дастлаб яхудийларга, сўнгра христиан ва исломга ўтди ва қайта ишланади Масалан, Зардушт динига биноан ҳарбир шу динга эътиқод қуйган одам кунига беш марта ювиниб, покланиб қуёшга қараб, уни олқишлаб сигиниши керак. Бу одат иейинчалик беш вақт намоз шаклида исломга ўтган. Бош яланг сажда қилиш зардуштийликда ман этилган. Салла ўраш шу пайтда бўлган. Сувни муқаддас ҳисоблаш, нонни эьзозлаш, деҳқонни хурматлаш каби одатлар ҳам шу зардушт динининг талабларидан бўлган.

Илк давлатчилик шаклланиши даврида Ўзбекистон санъати

Неолит даври сўнги йилларига келиб Яқин ва Ўрта Шарқда бўлгани каби Марказий Осиё ерларида қўрғон тепалар қурилиши заминида шаҳар ва шаҳар давлатлари ривожланиб борди. Бундай қальалар табиий ёки сунъий тепаликлар устига, тез оқар сувлар ўртасидаги катта майдонларда қурилиб атрофи қалин ва пишиқ девор билан айлантириб ўраб олинган. Қальалар заминида шаҳарлар ва улар асосида эса дастлабки шаҳар ва шаҳар давлатлар пайдо бўлди. Шундай қалъалар заминида кейинчалик Хоразм, Бақтрия каби давлатлар шаклланиб борган.

Марказий Осиёнинг жанубий томонларида милоддан ав. IV-III мингинчи йилларда шакллана бошлаган қалъа деворлари қалин ва пишиқ ишланган. Шаҳарга кириш дарвозаларига ҳам катта эътибор берилган. Дарбоза икки чекасида пилон-миноралар бўлиб улар плястрлар билан пардозланган. Қурилишда кўпхонали уйлар пайдо бўлган, деворлари катта-катта хом ғиштдан ишланган, девор ва полларига эса ранг бериб пардозлана бошланган, унча катта бўлмаган арка(равоқ)лар ёрдамида тепа томонини ёпишга ҳаракат қилинган, айрим уй деворларига тасвир туширишга интилиш сезилади. Хоразмдаги Жонбос қалъа - эрамиздан авалги IУ-111 минг йилликларда одамлар яшаган манзиллардандир. Бу ердан қадим одамларнинг турмуш ва маданиятига оид кўп ашёвий далиллар бу даврда турар жойлар тартибга кела бошлаганлигидан, синчдан фойдаланиш, ёғоч ва қамич ёрдамида томни ёпиш одати ривожлана бошлаганлигини кўрсатади. Мил. авв. 1 мингинчи йилларга келиб (темир асри) заминнинг кўпгина ерларида янги иктисодий ҳаёт бошланди. Жамоа бошликлари ўрнини ҳарбийлар эгаллади, ҳарбий демократияни юзага келтирилиши одамлар орасидаги муносабатларда ўз ифодасини топди. Шу даврдан бошлаб бу ерларда шаҳар давлат, курғон ва қалъалар, ўз ҳарактери жиҳатидан давлат ҳарактеридаги йирик жамоалар кўпайди. Шу даврга келиб ижтимоий жамоалар ўрнини дастлабки ўз ҳарактери жиҳатидан қишлоқ жамоалари ва содда давлат тизимига хос хусусиятлар пайдо бўла бошлади.Шундай жамоа ва бирлашмалар асосида дастлабки давлатлар шаклланди.

Кучук тепа (Термиз яқинида) ёдгорлиги олимлар фикрига кура мил. авв. Х-УІІ асрларга кадар шаклланган. Бу ерда кўп хонали уйлар мавжуд

бўлган унинг ички қисми хоналари йўлаклар(каридорлар) билан туташтирилган. Девор эса тўрт метрли асос устида қурилган. Мудофаа деворлари пахса ва хом ғиштдан ишланган.

Ўзбекистоннинг жанубий томонларида шаклланган Бақтрия давлати шаҳарлари ва одами билан машҳур бўлган. Унинг пойтахти Бактра мустахкам девор билан ўралган қўрғоннинг (акрополни) ташкил этган. Бақтриянинг Қизил тепа (Шурчи, Сурхандарё вил.)шаҳарчаси э.а. УII-УI асрларда шаклланган эди. Шаҳар тўрт бурчак шаклида бўлиб калин девор, унинг атрофи эса зовур билан ўраб чиқилган. Деворлари шинакли, ярим думалок миноралар эса муҳим ўрин эгаллаб, одамлар яшайдиган бошқа манзиллардан ажралиб турган. Шундай шаҳарлар Бақтриянинг бошқа ерлари учун ҳарактерли бўлган. Турар жой ва яшаш қўрғонлари кўп холларда квадрат ёки тўртбурчак шаклида бўлиб бу курғонлар ички ҳовли, айвонларга эга ёғоч устунлар қурилишда кенг ишлатилган. Қизил Тепа яқинидан Қизилча курғони шундай кадимий ёдгорлик намунаси ҳисобланади.

Жарқўтон меъморлиги, айниқса унинг ибодатхонаси алоҳида ўрин эгаллайди. Бу ибодатхона ҳашаматли бўлиб унинг меҳробида мукаддас олов ёниб турган. Калъада коммуникация ишлари йўлга куйилган. Қалъа ичида 7м. чукурликдаги кудуқ бўлган. Милоддан аввалги VIII-VI асргача бўлган даврда Марказий Осиё ерларида бирқатор кудратли кулдорлик давлат бирлашмалари вужудга келди. Улар мустақил тарзда хўжалик юритиб ўз кудратларини ошириб борганлар. Шундай давлатлардан бири Сўғд ёки Сўғдиёна бўлган. Унинг пойтахти Мароканд (Самарқанднинг кадимий номи) бўлиб Зарафшон Кашкадарё воҳаларини ўз ичига олган. Бу воҳада кадим пайтларда ўрток ва кўчманчи қабилалар яшаб келган. Шу воҳада I-мингинчи йилларда дастлабки шаҳар маданияти шакллана борган. Сўғдиёна кулай урни Буюк Ипак йўли устидан утганлиги ҳам унинг маданий ҳаётини жонли бўлишни таьминлаган Шарк ва Гарб ўртасида жойлашган бу давлат милоддан аввал УП асрлардаёк Олд Осиё ва Ўрта денгиз хавзасидаги давлатлар билан, жумладан Юнон-Рим давлатлари билан яқин алоқада бўлиш имкониятини берган. Суғд маданият ниҳоятда юксак бўлганлиги сўғд ёзуви мавжудлигида ҳам ифодасини топган. Бу ёзув Сўғдиёнадан ташқарида ҳам маьлум бўлган. Сўғдда таьлим тарбияга алоҳида эьтибор берилган.Айниқса зодагон ва киборларнинг болалари талимига айниқса болалар ўқишига катта эьтибор берилган. Сўғд ёзуви 25 белгидан иборат бўлиб, чапдан унгга қараб ёзилган. Бу ёзув кейинчалик Марказий Осиёда ҳам кенг ишлатилган. Сўғд ёзуви асосида кейинчалик уйғур ёзуви яратилиб, у Марказий Осие ерларини араблар босиб олганидан кейин ҳам узоқ вакт ишлатилган. Сўғдда ҳайкалтарошлик ҳам кенг ёйилди. Бунда аёллар кўпроқ тасвирланган. Сўғдда бу даврда Марказий Осиёдаги муҳим деҳқончилик маркази бўлибгина қолмай, хунармандчилик, айниқса кулолчилик ниҳоятда юксак бўлган. Милодаан аввалги 1 мингинчи йиллар ўрталарида Хоразм Марказий Осиёдаги йирик давлатлардан бири бўлган. Шу даврга оид ёдгорликлардан бири Қўйқирилган қалъанинг қолдиқлари бизнинг эамонамизгача етиб келган. Қалъа калин девор билан уралиб,

атрофи эса сув тўлдирилган зовур билан айлантирилган. Археологик казиш ишлари олиб борилганда бу ердан ҳар хил хумлар, ҳайкаллар топилган. Қалъа хоналарининг деворлари эса расмлар билан безатилган. Бу ердан кўплаб астадонлар топилган, улар ичида одамга ўхшаганлари ҳам бўлиб, унинг ички бўшлиғида ўлган одамнинг суяклари сақланган. Жонбос, Бургут қальа ҳам Хоразм давлатининг муҳим қўрғонларидан бўлиб, бу ерда ҳам муқаддас олов сақланадиган уйлар бўлган. Хоразмнинг Кўзали қурғон қалин девор билан ўралган, девор миноралар билан мустахкамланган. Қўрғон марказида катта иншоат - ҳукмдор саройи қароргоҳи бўлган. Олимлар фикрига кўра бу қўрғон қадимги Хоразм давлатининг дастлабки пойтахти бўлган.

Милоддан аввалги У1 асрдан бошлаб Сирдарё кенгликларида кучманчи халқларнинг Қанғ давлати таркиб топа борган. У ўз чегараларини Хоразмгача етказган. Мил. ав. 11 аср иккинчи ярми - милоддан аввалги 1 асрларда у ўзининг гуллаган даврини бошдан кечирди.

Фарғона водийси ҳам Ўрта Осиёнинг кадимдан одамлар истикомат қилган манзиллардан ҳисобланади. Милоддан аввалги 1 мингинчи йиллар ўртасида айни шу ерларда дастлабки шаҳар давлат вужудга келган. Паркана (Даван) давлати шундай давлат бирлашмаларидан бўлиб пойтахти Косон(ҳозирги Косон) бўлган. Ўзбекистонлик олим В. М. Массон шу ерлар иктисодий маданий ҳаёти ҳақида фикр юритиб бу ерларда қурғошин, метал рудалари кўп бўлганлигини таькидлаб бу махсулотлар Туркманистон, Бухоро ерларидаги жамоалар билан товар алмаштириш асосини яратганлигини эьтироф этади.

ДАСТЛАБКИ ИСТИЛОЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ИНҚИРОЗИ НАТИЖАСИДА ВУЖУДГА КЕЛГАН МУСТАҚЛ ДАВЛАТЛАР ДАВРИДА ЎБЕКИСТОН САНЪАТИ

Марказий Осиёнинг ерлари қадимдан босқинчилар учун бойлик орттириш ўлкаси бўлиб келган. Тарихий маъумотларга кўра милоддан аввалги IX-VII асларда душманлар Марказий Осиёнинг жанубий томонларига юриш қилиб жуда кўп бойликлар орттириб қайтган. Мил. ав. VI асрлардан эса Ўрта Осиё ерларининг катта қисми Аҳоманийлар давлат томонидан босиб олиниб қарийб 200 йилдан ортиқ вақт мобайнида уни асоратида бўлган. Аҳоманийлар Марказий Осиёга юриш қилган пайтда бу ерларда Бақтрия, Сўғд, Хоразм, Паркана, Парфия Қанғ ҳамда унинг шимоли томонида ўтроқ ва кўчманчи қабилалардан ташкил топган Саклар иттифоқи шаклланаётган эди. Лекин бу давлатлар орасида бирлик йўқ эди. Шунинг учун ҳам Эрон қўшинлари бу давлат ва қабилаларнинг ерларини тезликда босиб олишга муяссар бўлдилар. Халқнинг озодлик учун кураши эса Тумарис, Широқ каби қаҳрамонларнинг афсонавий жасоратларида сақланиб қолди. Галикарнасли Герадот ва Книдли Ктесийлар шу давр ҳақида қизиқарли маълумотларни ёзиб қолдирганлар. Жумладан, Книдлик Ктесий мутахассислиги врач бўлган.У Эрон шоҳи Артаксерекс 11 хизматида бўлиб 17 йил Сўзада яшаган ва ўз даври, воқеалар, турли афсона ва ривоятларни тўплаб Ватанига қайтгач шулар ҳақида ёзиб қолдирган. Шулардан бири Тумарис афсонаси бўлган.

Эронликлар босиб олинган ерларни сатрапликларга бўлиб чиқилди.Сатрап эронча ҳоким маъносини англатиб,сатраплик унинг бошқарган ҳудуди назарда тутилган. Сатрап подшоҳга бўйсуниб, унинг кўрсатмаларини бажарар, буйруғга биноан солиғ йиғар эди. Сатрапликлар ҳукмдорлари лавозимига асосан ахмонийлар авлодидан одам тайинланар эди. Подшоҳнинг руҳсати билан улар ўзга юртларга ҳужум қилиши ва босиб олиш ҳисобига ўз ерларини кенгайтириши мумкин эди. Шунинг учун сатрап Марказий Осиё ерларида бир қанча сатрапликка ажратилган бўлиб шулардан Хоразм, Сўғд, Парфия, Бақтрия бир мунча катта бўлган.

Эрамиздан аввалги V асрдан бошлаб Ўрта Осиё ерларида нисбатан тинч ҳаёт бошланди. Шу даврда қатор шаҳарлар пайдо бўлди, хунармандчилик ривожланди, буюк Ипак йўли ривожлана бошлади. Маҳаллий зодагон ва киборлар чет эл босқинчилари ҳомийлигида тинч ҳаёт кечириб ҳашаматли саройлар қурдилар, зебу зийнат ва безакка эътибор бердилар. Бу даврда шаҳарсозликда силижиш рўй берди. Эски шаҳарлар қайтадан тикланди, янги шаҳарлар вужудга кела бошлади. Бақтра, Аорн, Кириополь, Наутака, Мароканд, Кўзал қир, Эрка қалъа, Каллаликир (Хоразм) шу давр ёдгорликларидандир. Жумладан, шу даврида вужудга келган Кўзали қир, Каллали қир қалъалари ҳам ана шу давр анъаналарида ишланган. Масалан, Кўзали қир қалъаси кўпроқ учбурчакка яқин бўлиб, унинг майдони қалин девор билан ўраб чиқилган. Калли қир қалъаси режа асосида ишланган. Унинг тўртбурчак майдонини қалин девор билан мустахкамланган. Эрамиздан аввалги VI-IV аср Ўрта Осиё меъморлиги ҳақида Кўзали қир, Каллали қир (Ўзбекистон), Эрка қалъа (Туркманистон) меъморлик комплекслари қолдиқлари таассурот беради. Сўзсиз, бу меъморлик комплекслари аввалги давр анъаналарини давом эттириш асосида юзага келган. Улар қалин девор билан ўраб чиқилган, дарвоза ва миноралари мавжуд бўлган. Уларнинг марказида сунъий тепалик бўлиб, унда сарой ёки ибодатхона жойлашган. Саройлар учун ишлатилган устунлар кўп холларда капителлар билан тугалланган. Эрамиздан аввалги VI-IV аср меъморлиги намуналарининг илк намунаси Хоразмдаги Каллали қир сарой қолдиқларидир. Саройнинг асосий қисми квадратга яқин бўлиб (75Х80 м) унга шарқ ва жанубдан ҳовлилар туташган. Шу ҳовлиларнинг сўнггисида бинога кириш учун мўлжалланган асосий дарвоза бўлган. Сарой хоналари эса, одатда, ички икки ҳовли атрофида жойлашган. Сарой томлари текис қилиб ёпилган. Устунлар узун тўсинларга мустахкамлик берган ва таянч вазифасини ўтаган. Бино устунлари тепага кичрайиб борувчи тўртбурчак ва айланалардан ташкил топган тагкурсига ўрнатилган бўлган ва улар тошлардан ишланган. Устунлар эса ёғочдан ишланган бўлиб, унинг капители ҳайкалга ўхшатиб ахоманийлар капителларидан ўрнак олинга холда ишланган. Бу даврда сатрапликларда босқичлар хомийлигида маҳаллий зодагонлар дабдабали ҳаёт кечирдилар.Улар ҳашаматли қўрғон ва саройлар курдирдилар, уларнинг безагига эътибор бердилар. Биноларни режалаштириб қуриш, уни ҳайкал ва ҳайкалчалар билан безаш одати ёйилди. Ахмонийлар чекка сатраплиги Хоразмдан топилган капител ўз ҳарактери жиҳатидан ахмонийларнинг Персепол ва Сўза саройларида

қўлланилган капителлардаги услуб - икки томонга қараб турган буқа боши (Сўза капител)га ўхшаб кетади. Хоразмда Уиз Даг капителида икки томонга қараб турган одам боши халос.

Каллали қир сарой планировкаси ва кўриниши, устунларнинг ҳарактери бевосита Ахмонийлар меъморлигини эслатади. Тасвирий санъат. Ёзма маньбаларга кўра бу даврда деворий рассомлик ривожланган бўлган. Саройлар, бой зодагонларнинг уйлари ва мехмонхоналари деворий рассомлик асарлари билан безатилган. Бу расмларда шу даврда машҳур бўлган Одатида ва Зариадра романи сюжетлари кўпроқ ишланган. Амалий санъат буюмлари юзаси турли мавзудаги бўртма ва чизма тасвирлар билан безатилган. Эрамиздан аввалги VI-IV асрларда Ўрта Осиёдаги бадиий ҳаёт ва маданиятни тушунишда Амударёнинг юқори оқими томонидан топилган турли хил антиқий буюмлар муҳим ўринни эгаллайди. Бу қадимги давр ёдгорликлари адабиётиларда «Амударё бойлиги» ёки "Окс бойлиги" деб юритилади. Гап шундаки, қадимги турклар Аму дарёни Ўкуз, яъни Катта дарё деб аташган, юнонлар эса Ўкузни Окс-Оксус деб номлашган. Шу "Окс бойлиги" ёдгорликларнинг кўп қисми ҳозирги кунда Лондондаги Британия музейида сақланади. Бу буюмлар ниҳоятда ифодали ишланганлиги билан ажралиб , деталлари аниқ ва тугал ишланиши билан ҳарактерланади. Олтин арава, Олтин билак узук, Олтин кўза, Жангчи-сак бўртма тасвирида шу фазилатлар мужассамлашган.

Александр Македонскийни истелолари ва ундан кейин вужудга келган давлатлар санъати.

Милоддан аввалги IV асрга келиб Марказий Осиё ерларига бошқа истилочи македониялик Искандар юриши ахмонийлар истелоси ўринини эгаллади У Ахмонийлар давлатини тор-мор этиб, Ўрта Осиё ерларининг кўпгина қисмини қаттиқ жанглардан сўнг бўйсундиришга эришди. Хоразм, Фарғона ва Сирдарё бўйидаги кўчманчи қабилалар эса ўз мустақиллигини сақлаб қолди. Александр Македонский босиб олган ерларида ҳамма халқларни бирлаштиришга ҳаракат қилди. Шу мақсадда , у ўз атрофига греклар билан бирга маҳаллий шарқ зодагонларини, бойларни ҳам жалб эта бошлади. Аралаш никоҳларни маъқуллади. Ўзи ҳам шунга амал қилиб, Бақтрия маликаси Роксанага (Ракшонага) уйланди.Ундан ўғил кўриб уни исмини ҳам Искандар деб номлаб Марказий Осиё ерлари ҳукмдори этиб тайинлади. Лекин Искандарнинг ҳукмронлиги узоққа бормади, унинг вафотидан(.а.323) кейин Марказий Осиё ерлари бошқарувини грек-македон отлиқ жангчилар қумондонлари ва уларнинг ворислари қўлига ўтди. Унинг империяси парчаланиб, ўрнида қатор давлатлар юзага келди. Македонский империясининг шарқий қисмини узоқ вақт унинг саркардалари идора қилди.

Салавкийлар давлати. Александр Македонскийнинг вафотидан кейин унинг салтанати бошқарувини унинг сафдоши ва грек-македон отлиқ жангчилар қумондони Пердикки ўз кўлига олди. Лекин унинг Ўрта Осиёдаги ҳукмронлиги ҳам узоққа бормади. Милоддан аввалги 321 йили Пердиккининг яқиин ёрдамчиси Селевк мамлакатдаги нотинчликдан фойдаланиб ҳокимиятни қўлга олди ва Селевкийлар давлатига асос солди.

Бобилни мерос сифатида олиб, тезда ўз ерларини кенгайтиришга тушади. Бу давлат тарихга салавкийлар давлати номи билан кириб, деярли 70 йил мобайнида Ўзбекистон ҳудуди шу давлат таркибида мавжуд бўлади. Милоддан аввалги 312 йилда ташкил топган бу давлат милоддан аввалги 250 йилгача Яқин ва Ўрта Шарқда катта давлат сифатида ўз таьсирини ўтказиб келади.

Марказий Осиё санъати ва маданият ривожланишининг янги босқичи Александр Македонскийни истелолардан кейинги даврдан бошланди. Шарқ ва Ғарбнинг боғловчиси Буюк Ипак йўлининг тугуни бўлган бу йўл аввалги даврларга нисбатан фаол катализатор вазифасини ўта бошлади. Унинг Шимолий Ғарбий ва Шимолий шарқий ҳудудлари билан алоқаси ҳам янги мазмун ва йўналиш кашф эта борди. Айниқса Урол атрофи, Олтой ва Сибир ерлари билан бўлган муносабатларда таьсир этиш ва таьсирланиш жараёни сезиларли бўлди. Салавкийлар даврида Марказий Осиё ерларига юнон (эллин) маданияти тезкорлик билан кириб кела бошлайди. Ҳукмдорлар шу ерда ўзларини мавқларини мустахкамлаб олишга ҳаракат қилиб, кўплаб юнонистонлик санъаткорларни ишга таклиф қиладилар, турли ерларда янги шаҳарлар барпо этадилар, маҳаллий дин ва урф-одатларига тегмаганлари холда юнон маданиятининг таркалишига эьтибор берадилар. Салавкийлар тижорат, савдо - сотиқ ишларига эътибор беришлари бу ерда хунармандчилик, дехқончилик ишларини жонланишига, қурилиш ишларига сезиларли ишлар амалга ошишига имкон беради. Муомалага пул киритилди.

Меъморчилик. Меъморчилик санъатида аввалгидек асосан хом ғишт асосий қурилиш материали сифатида ишлатилса ҳам, шу билан бирга қумтош, мармар ва пишиқ ғишт ишлатила бошланди, девор пардозига маҳсус қоришмалар, алебастрли қопламалар кириб кела бошлади. Айниқса грек меъморчилик санъати таъсирида қурилган саройлар, гимнасия, ибодатхоналар меъморчилик жараёнида муҳим бўлди. Лекин бу даврга хос меъморчилик ёдгорликлари кам ўрганилган.Бу давр ёдгорлиги шимолий Афгонистон ҳудудидаги Ой хонум ёдгорлиги шу давр меьморлиги ўзгаришларидан далолат беради.Унинг қурилиши услуби антик санъат анъаналари асосида ишланган поллари мазаика билан пардозланган. Капител ва устунлар ҳам унинг кўринишига алоҳида файз бахш этган Тасвирий санъат бу даврда ўз ривожини давом эттирди, сарой ва зодагонларнинг уйлари рассомлик ва ҳайкалтарошлик асарлари билан безатилди, маҳобатли ҳайкалтарошлик ва майда пластика санъатида асарлар яратилди. Мармарда ҳайкаллар, фил суягида ритонлар ишландии. Бу даврда қуйиш санъати ривожланди. Бу санъат ривожи нумизматика-тангалар зарблаш санатида яққол билинади. Марказий Осиё ерларига бўртма тасвирли тангаларнинг кириб келиши Салавкийлар сулоласи номи билан боғлиқ . Бундай услубда танланган чиқариш Юнон мамлакатида кенг ривож топган бўлиб уни Ўрта Осиё маданий- иқтисодий ҳаётига кириб келиш муҳим воқиа эди. Ўрта Осиёда пуллар зарб этиш мақсадида ўлкага Юнон усталарининг кенг қўламда жалб этилиши «Ўрта Осиёча» мўжаз портрет санъатининг ривожланишига сабаб бўлади. Бу ерда ишланган шундай

портретлар давр ҳукмронлигининг на фақат ташқи кўрининшига балки феъл атворини ҳам ўз ҳаққоний тасвирланиши билан юнонистонда яратилган танга юзасига ишланган бўртма тасвирлардан ўтиб кетди.

Юнон (Грек) Бақтрия давлати. Салавкийлар давридаислохатлар ўтказилиб, аввал мавжуд бўлган сатрапликлар майда қисмларга ажратилиб, бу қисмлар эпархия, унинг бўлаклари гипархия ва нихоят гипархия бўлаклари стасмосларига ажратилиб, ҳар бир бўлимга бошлиқлар - ҳокимлар белгиланган эди. Шундай эпархия ҳокими Диодот 1 Сотер Салавкийлар кураши ва зиддиятларидан фойдаланиб, у ўзини Бақтрия ерларининг подшоҳси деб эьлон қилган. Милоддан аввалги тахминан 250-йиллардан бошлаб бу давлат Юнон (Грек) Бақтрия деб юритила бошланган. Унинг ҳудуди Сўғдиёна, Маргияёна(Туркманистоннинг жанубий шарқий томонлари), Фарғона ва Чочнинг бир қисмини ўз ичига олган. Бу давлат деярли 100 йилдан ортиқ вақт мобайнида мавжуд бўлиб, Марказий Осиё тарихи ва маданиятида сезиларли из қолдирган. Грек - Бақтрия подишолиги даврида Марказий Осиёнинг жанубий ҳудудларида меъморчилик комплекслари юзага келади, шаҳарсозлик янги даврини бошидан кечирди. Меъморликда янги ғоялар ривожланди, янги янги шаҳарлар барпо этилди. Шулардан бири Дмитрий асос солган (П аср ) Термиз ( Демет-Термет ўзгаришида) шаҳри ривожланди. Бу даврда айниқса Эллин санъати таъсири сезиларли даражади бўлди. Ўлкада кўплаб бинолар қад кўтаради. Бино қуришда эллин меьморий услублари ишлатилган. Жумладан устун, капител ишлатилган, полларга мазаика ётқазилган, устунлар кўп холларда капителлар билан тугалланган. Грек-Бақтрия ерларида мавжуд шаҳарлар кенгайтирилди, одамлар яшайдиган катта бўлмаган аҳоли пунктлари шаҳарга айлантирилди. Янги шаҳарлар аниқ тўртбурчак ёки квадрат шаклида қурилиб, атрофи қалин девор билан ўраб чиқилди, тўртбурчаксимон миноралар бунёд этнлди. Қурилган биноларда сержило коринф ордери кенг қўлланилди. Греция санъати таъсири шу даврда зарб этилган тангаларда ва уларга ишланган бўртма тасвирларда ҳам сезилади. Тангаларнинг олд томонида ҳукмдор (подишоҳ) хомийси бўлган мобуда тасвири ва ёзув мавжуд, танганинг орқа томонида эса ҳукмдорнинг айлана ичидаги бўртма тасвири ён томонидан ишланган. Шуни такидлаш керакки бу тангалар юзасидаги бўртма тасвирлар услуби жиҳатидан юнон классик санъати анъаналарида , энг аввало Фидий, Пракситeл, Лиссип ижодига хос услубда бажарилган, жумладан Фидийнинг Олимпдаги Зевс ҳайкалига тахлид қилиш сезиларли Подишо бўртма тасвирлари реал ва ҳайкалтарош тасвирланувчи фақат ўхшатиб қолмасдан балки унинг ҳарактерининг ҳам очишга интилганлиги билинади. М. Деметрий тасвири туширилган тангада Димитрий ҳарактери ва мавқи фил шакли бор бўлган бош кийимда тасвирланган. Бу белги подишони Хиндистонинг заб этганлиги ва унинг ҳукмдорлигига ишора ҳисобланган. Дмитрий портрети шу давр реалистик портрети санъатининг нодир ёдгорлиги ҳисобланади. ҳайкалтарош бу портретда тасвирланувчининг ўзига хос индивидуал қиёфаси ва ҳарактерини ифодали акс эттира олиши билан кишини хайратлантиради. Шу даврда ишланган Эвкратид бўртма тасвирда

кучли, иродали шахс қиёфаси гавдаланади. Аксинича Гелиоил портретида падаркушлик билан тахтни эгаллаган ҳокимнинг мажруҳ дунёси юз мускуллари , думолоқ ва маъносиз боқишида билинади. Амалий санъатда ҳам Греция санъатига тақлид қилиш ёки Греция санъати намуналаридан фойдаланиш кенг авж олди. Маҳаллий усталар грек кулолчилик формаларидан ўз ижодларида кенг фойдаландилар.

Шарқ ва Ғарбнинг яқинлашувини Грек-Бақтрия бошлаб беради, Парфия давлати ва санъатида ривож топади. Эллинистик давр Ўзбекистон санъатида маҳобатли ҳайкаллар ҳам ишланганлиги маълум. Бу ҳайкалларда маҳаллий ва юнон санъати анъаналари уйғунлашиб кетган. Артемида бу ерда Анахит симосида мужасамлашди. Унинг олтиндан ишланган ҳайкалларининг бошида нур сочиб турган тожи бўлган, Бундай ҳайкал Бақтериянинг бош ибодатхонасида ўрнатилган. Бундай нур таратиб турган тож Демитрий тамгасининг орқа томонидаги ҳайкалларида ҳам ишлатилади.

Хоразм давлати. Эрамиздан аввалги VI-IV аср меъморлиги намуналарининг илк намунаси Хоразмдаги Каллали қир сарой қолдиқларидир. Саройнинг асосий қисми квадратга яқин бўлиб (75Х80 м) унга шарқ ва жанубдан ҳовлилар туташган. Шу ҳовлиларнинг сўнггисида бинога кириш учун мўлжалланган асосий дарвоза бўлган. Сарой хоналари эса, одатда, ички икки ҳовли атрофида жойлашган. Сарой томлари текис қилиб ёпилган. Устунлар узун тўсинларга мустахкамлик берган ва таянч вазифасини ўтаган. Бино устунлари тепага кичрайиб борувчи тўртбурчак ва айланалардан ташкил топган тагкурсига ўрнатилган бўлган ва улар тошлардан ишланган. Устунлар эса ёғочдан ишланган бўлиб, унинг капители бургут бошли грифонлар билан безатилган Каллали қир сарой планировкаси ва кўриниши, устунларнинг ҳарактери бевосита Ахмонийлар меъморлигини эслатади. IV асрларга оид кулолчилик буюмлари шу даврнинг бирмунча мўл фактик материалидир. Ўрта Осиё ерларидан топилган кўпгина сопол буюмлар кулолчилик дастгоҳларида ишланган, махсус печларда пиширилган. Улар шу асрларда кулолчилик хунармандчилиги юксак бўлганлигидан далолат беради. Булар ичида геометрик нақшлар солиниб безатилган идишлар, айниқса диққатга сазовордир.

Ўрта Осиёнинг эллинистик дунёга тортилиши унинг санъати ва маданиятида жиддий ўзгаришларни юзага келтирди. Бу ўзгаришлар меъморлик, амалий ва тасвирий санъат мазмуни ва ҳарактерида намоён бўла бошлади. Ўрта Осиёнинг эллинистик даврдаги меъморлиги ҳарактери унинг жанубий районларида сезилади. Бу даврда қурилган бинолар ҳарактерида Ахмонийлар даври меъморлиги услублари билан бирга, грек санъати анъаналари мавжуд. Айниқса, биноларнинг декоратив безалишида шу ўзига хослнк кўзга ташланади. Устунлари грек классик формасида ишланган бўлиб, коринф капителлари тошдан ишланган тош устун ва базадан ташкил топган. Сарой хоналари плястрлар билан безатилган. Сарой учун безак сифатида шер ниқоб, томни безаб турувчи палметкали антисфинкслар ишлатилиши ҳам ҳарактерлидир. Лекин саройни қуришда маҳаллий материал - хом ғишт, пахса ишлатилган, томлари текис қилиб ёпилган.

Гяур қалъа саройи қолдиқлари диққатга сазовор. Бино анъанавий Ўрта Осиё услуби - пахсадан қуриш принципига асосланган бўлиб, девор юзаси ганч билан сувалган. Асосий хоналар, айниқса, қабул-хона ниҳоятда серҳашам бўлиб, у деворий суратлар билан безатилган, ҳайкалтарошлик асарлари ҳам хона файзини оширишга хизмат қилган. Парча ва бўлакларда етиб келган сурат ва ҳайкалтарошлик намуналари қолдиқлари шу давр санъати реализми ҳақида гапириш имкониятини беради. Ишланган ҳайкалларда тасвирланувчинннг этник типи, ёши, ҳарактерини очишга интилиш сезилади. Шу хусусда, қалъа хоналарининг биридан топилган Ўрта Осиёда нодир ёдгорликлардан бири Тупроқ қалъа ҳисобланади. 12 м баландликка эга бўлган сунъий тепалик устига қурилган бу қалъа тўртбурчак шаклида бўлиб, 500Х350 м майдонни эгаллайди. Майдон атрофи мустахкам девор билан ўраб чиқилган. Қалъанинг шнмоли-Ғарбидаги бурчак томонда Хоразм шоҳларининг саройлари жойлашган. Саройнинг маҳобатли уч минораси эса бутун қалъа кўринишига мустахкамлик бахш этган, унинг жиддий бўлиб кўринишини таъминлаган. Тупроққалъа хоналари бир хил эмас. Тор йўлакчалар эгри равоқлар билан ёпилган, аксинча, катта хоналар нур-қудуқларга эга бўлган, мустахкам устунлар эса хона кенглигини ошириш учун, узун тўсинларга мустахкамлик бериш ёки уларни ўзайтириш учун ишлатилган. Сарой хоналари ҳайкалтарошлик ва рангтасвир билан безатилган. Қабулхона (мехмонхона) сербезак бўлган. Деворий сурат ва бўртма тасвирлар хонанинг кўркам ва гўзаллигини оширган. Лойдан ясалган ҳайкаллар девор бўйлаб қилинган супачаларга ўрнатилган. Супачалар жимжимадор панжаралар билан алоҳида секцияларга ажратилган. Ҳар бир секцияда мустақил ҳайкалтарошлик композицияси бўлган. Бу ҳайкаллар қисман сақланиб қолган. Ўтирган холда тасвирланган подшоҳлар (натурал ўлчамдан икки марта катта), ён томондан турган холда тасвирланган эркак, аёл ва болаларнинг ҳайкали қўйилган. «Суворийлар (жангчилар) зали» деб номланган хона деворида қолдирилган токчаларда подшоҳлар ҳайкали қўйилган. Девор олдида эса қўлида қурол ушлаб турган жангчилар ҳайкали бўлган. «Јайиқлар зали» деб номланган хонада ўсимликлар, пастроқ томонда натурал катталикда кийикларнинг бўртма тасвири - барельефи ишланган. Тупроққалъадаги кичик хоналар фақат деворий суратлар билан безатилган. Шундай хоналардан бирининг деворига ишланган арфа чалувчи қиз сурати бизгача бирмунча яхши сақланган. Милоддан авалги У1 асрдан дастлаб Аҳамонийлар, сўнг Искандар Зулкарнайн ва унинг ворислари даврида Марказий Осиё халқ ва элатларининг ўзига халқ ва элатлар билан алоқаси кўчайди. Буюк Ипак йўли устида жойлашган Ўрта Осиё ҳудудида янада чуқурроқ алоқалар доирасига тортилди. Савдо сотиқнинг кўчайиши мол айрибошлашга турли тасвирий ва амалий санъат буюмлари ва улар орқали айрим урф-одатлари кириб келишига сабаб бўлди. Одамларнинг яшаш тарзи ва фикр юритиши, эстетик қарашларига таьсир этаборди. Жумладан шу даврдан худоларга атаб ҳайкал ишлаш одати Марказий Осиё ерларида, айниқса унинг жанубий томонларида кенг ёйилди. Маьлумки шу давргача олимлар эьтирофига кўра, бу ерларда худоларни одам шаклида

тасвирлаш одати бўлмаган. Шунингдек ахмонийлар даврида Марказий Осиё ерларида меморлик санъати тизимида ҳам қатор ўзгаришлар содир бўлган. Плястр, капител, устун, таглик (база) ва бошқа бир қатор меъморчилик шакллари ахмонийлар даври Марказий Осиёда мавжуд бўлган сатрапликларда, уларнинг марказилари ва босқинчилар хомийлигида дабдабали ҳаёт кечираётган маҳаллии бой- задогонларнинг қўрғон ва саройларида ўз ифодасини топган. Биноларни режалаштириб куриш, уни ҳайкал ва ҳайкалчалар билан безаш одати ёйила бошлаган. Бундай ўхшашлик амалий санъат буюмларида, меъморлик бадиий безакларида айниқса кенг ўринни эгаллайди. Шу пуллар юзасига подшоҳлар қиёфасининг ён томонидан кўриниши бўртма тасвирлари туширилган

Кушонийлар даврида Ўзбекистон санъати

Кушонлар даври Марказий Осиё хусусан Ўзбекистон тарихида муҳим ўрин эгаллади. Бу ерда меъморчиликда аввалги давр анъаналари давом қилди ,шу билан бирга янги анъаналар рирожланди. Саройлар, зардуштийлик ва буддавийлик динлари билан боғлиқ меьморий мажмуалар яратилди, фуқоролар турар жойлари мураккааблаша борди, уларнинг эстетик жиҳатларига эьтибор ортди. Шаҳарсозик борасида ишлар амалга оширилди. Бу даврда Ўрта Осиё ерларида қатор шаҳарлар пайдо бўлди. Бу даврда шаҳар қурилиши ҳам авж олади. Шаҳар ҳокимлари, бой задогонлар ва амалдорларнинг саройлари ва уйлари ҳашаматли бўлишига эьтибор берилди. Унинг гўзал бўлиши учун ҳайкал, турли накш ва расмлар билан безак берадилар.

Далварзин тепа Қушон давлатининг муҳим шаҳарларидан бўлиб бу ерда буддизм дини билан боғлиқ ибодатхона,ступа бўлган. Ибодатхона серҳашам бўлиб унда бақтрия мабудаси ҳайкали бўлган.Бино безагида аканф барги антефикс ва безакдор устунлар кенг қўлланилган.

Кампиртепа, Қора-тепада ((Сурхондарё вил. Эски Термиз) олиб борилган археологик ишлар бу ерларда буддизм билан боғлиқ меъморчилик комплексларни очилишини таъминлади. Археологик ишлар давом этмокда, лекин очилган ғор- ибодатхоналарнинг безатилиши, у ерда мавжуд бўлган ҳайкал ва деворий суратлар диққатга сазовордир.

Айритомдан (Термиз яқинидан) топилган тошдан ишланган релефлар ва сўнгги қушон давлати меьморлигининг ҳаробалари бу ерда буддизм кенг ёйила бошлаганлигини кўрсатади. Айритомдаги ибодатхонага кираверишь томонга карниз тарзида ишланган фриз карнизларда аканф барглари орасида ярим белгача тасвирланган кўшнай, ноғора (барабан), лютна ва арфа чалаётганлар созандалар тасвирланган (улар 14 та).

Буддизм дини билан боғлиқ меъморчилик мажмуалар, монастир ва ибодатхоналар Ўзбекистоннинг жанубий томонларида кенг тарқалди. Эски Термиз яқинидаги "Зурмала қалъа" меъморлик колдиги шу ўринда муҳимдир, тўртбурчак шаклдаги тагликка тепа томони яримсферик тарзда тугалланган цилиндрик ступа қурилган. Расм1 Ступа. Миноранинг қозон шаклидаги тепа ва цилиндрик шаклдаги асосий устун қисми чегараси карниз билан ажратилган. Миноранинг таги, тепадаги ярим айлана шаклидаги қисмни эса қизил тош, плиталари билан пардозланган.

Миноранинг асосии устун қисми эса пишиқ ғишт билан пардозланган бўлиш эхтимоли бор. Қушон даврда шаҳар қурилишини авж олишида граждан меьморлиги ҳам алоҳида ўринни эгаллади. Шаҳар ҳокимлари, бой задогонлар ва амалдорларнинг саройлари ва уйлари ҳашаматли бўлишига эьтибор берилди. Унинг гўзал бўлиши учун ҳайкал, турли нақш ва расмлар билан безак берадилар.

Холчаёнда (Сурхондарё ) сакланиб қолган археологик топилма эътиборга лойиқ. Бу ерда бино шарққа қараб қурилган бўлиб унинг олд томонида 6 устунли айвон бўлган. У ердан асосий хона - катта залга ва икки устунли хонага кирилган. Бино ҳам ғиштдан қурилган. Устунлар ёғочдан ишланган бўлиб улар тош тагликка урнатилган. Бинонинг томи текис ёпилган бўлиб том чеккалари эса черепица ҳам антефикслар билан безатилган. Хоналар деворий сурат ва ҳайкаллар билан безатилган бўлган.

Бу даврнинг тасвирий ва амалий санъати йўналишлари бир канча манбалардан Бақтрия - Сўғд, эллинлашган-будизм, гарб томонда сак-парфия, Хоразм ва Олд Осиё санъати анъаналаридан асос олди ва ривожланди ва характери жиҳатидан бетараф ва ўзига хос мустақил санъат йўналиши сифатида эьтироф этилади. Ҳайкалтарошлик санъатида грек ва хинд санъати таьсирида сезилади. Бу хусусият ишланган ҳайкалларда тасвирланувчининг соч тараши, кийими боши ҳарактерини аниқ бўлишига, психологик холатини ифодалашга интилишида билинади.

Қушонийлар даври тангалари аввалги даврга нисбатан бўш, юзларига подшоҳларнинг портрети зарбланган орқа томонда эса худолар тасвири туширилган. Ёзувлар эса қушон Бақтрия тилида бўлиб, ёзиш учун грек алфавити асосида яратилган қушон ҳарфлари ишлатилган. Расм 3. Герай расми туширилган танга

Бу даврда маҳобатли рассомлик ривожланди ва сарой, ибодатхона, монастир ва қасрларни безашда кенг қўлланилди. Расмлар мавзуси бевосита бинолар функциясига қараб белгиланди. Жумладан ибодатхона ва монастирлар деворий расмларида диний мавзу етакчилик қилгани холда қаср ва саройлар деворларида дунёвий воқеалар тасвири ишланган. Албатта бу расмлар бизгача фақат парча, бўлакларда , шунингдек қадимги муаллифларнинг ёзма манбаларида сақланиб қолган. Лекин шуларнинг ўзи шу давр маҳобатли санъати ҳақида фикр юритишга асос беради. Бу даврда бой задогонлар ва амалдорлар ўз саройлари ва уйларини ҳашаматли бўлишига эьтибор берилди. Уларнинг хоналари деворий сурат ҳайкал, турли нақш ва расмлар билан безак берилган бўлган. Бу тасвирларда Еврипид трагедияларидан олинган сюжетлар, Хомер Иллиадасига оид воқеаларни ҳам учратамиз. Жумладан, Эзоп масалига ишланган расм - олтин тухум ҳақидаги деворий расм ҳам ҳарактерли. Унда олтин тухум бериб турган қушни ичини ёриб бирданига бойишни истаган одамнинг очкўзлиги кўрсатилади. Қачонлардир Сўғднинг муҳим манзилларидан бўлган Уструшона саройи деворига кадимги Рим афсонаси билан борлик тасвирнинг туширилиши ўзаро яқин алоқалардан далолат беради. Бу тасаирнинг муаллифи ҳақида албаттда маьлумотлар бўлмасада, лекин шу тасвирнинг Ўрта Осиёда пайдо бўлиши шу ерда ўз ватанини кумсаган

италий ёки сафарларда бўлиб тасурот билан қайтган маҳаллий жангчи, рассом, савдогар бўлиши мумкин.

Холчаён деворий суратлардан айрим тасодифий бўлакчалар ёмон холда бизгача етиб келган. Булар ичида йигит бошии сурати, узум новдалари бирмунча билинарли. Мавзуси ҳаёт, табиат манзаралари ислимийга яқин нақш композициялари ишланган.

Қора-тепада буддизм билан боғлиқ меъморчилик комплексида очилган ғор- ибодатхоналарнинг безатилиши, у ерда мавжуд бўлган деворий суратлар диққатга сазовордир. Номаьлум рассом томонидан ишланган деворий суратларда мавзусида Будда ва унинг яқинлари билан боғлиқ расмлар ишланган бўлиб номаьлум рассом ўз асарида фазовий кенгликни ифодалашга, ҳажмни тасвирлашга интилгани сезилади.

Қушон даври ҳайкалтарошлиги икки йўналишда- маҳобатли ҳайкалтарошлик ва майда сопол ҳайкалтарошлиги тарзида намоён бўлади. Маҳобатли ҳайкалтарошлик кўпроқ махсус лой ва қоришмаларда ишланган ва кўп холларда бўялган бўлган.Майда ҳайкалтарошликда сопол, тошбронза,кўмиш ,олтин шунингдек ёғоч кенг ишлатилган,инкрустация,кандакорлик услубларидан ҳам думалоқ ва бўртма тасвирлар ишлашда қўлланилган. Ҳайкалтарошлик мавзуси диний ва дунёвий бўлиб диниё ҳайкаллар зардўштлик ва буддизм билан боғлиқ холда ишланган.

Буддизмни Ўрта Осиёда таркалиши бевосита ҳайкалтарошлик йўналишига ўз таьсирини ўтказди. Будда, бодисатва ва бошқа диний персоналкларнинг ҳайкаллари ишланди ва улар ибодатхоналарнинг олди ва ичкари қисмида урнатилган.Бу ҳайкалларнинг ишланиш принциплари Хиндистонда яратилган канонларга асосланган.

Холчаёндаги бинони безашда ҳайкаллар кенг кўлланилган. Бу ҳайкаллар хоналарнинг деворларининг ё юқори қисмига барельеф ва горельеф услуби бажарилган. Унда подшоҳ ва унинг яқинлари шунингдек отликлар тасвири ишланган.

Қора тепалиги (Сурхондарё обл.) буддизм ибодатхоналаридан топилган ганч ҳайкаллар ҳам юқорида кўрган хусусиятларга эга. Бу ҳайкаллар натурал катталикда ишланган ва реал ҳарактерга эгадир. Ҳайкалтарош маҳаллий типларнинг ўзига хос томонларини кўрсатишга ҳаракат қилди. Бу уларнинг кўриниш, соч тараш ва кийинишларида сезилади. Қора-тепада олиб борилган археологик ишлар буддизм билан боғлиқ меъморчилик комплексларни очилишини таъминлади. Бу ерга археологик ишлар давом этмокда, лекин очилган ғор- ибодатхоналарнинг безатилиши, у ерда мавжуд бўлган ҳайкал ва деворий суратлар диққатга сазовордир. Ўрта Осиё, жумладан Ўзбекистон ҳудудининг жануби томонларида грек услубида ишланган метал идишлар, кўза ва ҳайкаллар топилганлиги фикримиз далилидир. Бу идиш юзаларига ишланган тасвирларда Еврипид трагедияларидан олинган сюжетлар, Хомер Иллеадасига оид воқеалар ўз аксини топган. Афина, Апполон, Ника, гул ушлаб турувчи ҳайкаллар ва тасвирлар шу даврда безак санъатида кенг ишлатилган. Амалий санъатда ярратилган кулолчилик, заргарлик ва

металлардан буюмлар ясаш, кумуш, олтин ва бронза санъати нафислиги билан ҳарактерланади. Далварзин тепадан топилган олтиндан ишланган турли тақинчоқлар, кўмиш буюмлар инкрустация санъати юқори бўлганлигини кўрсатади.

Бу даврда айниқса металл буюмлар ясаш ва уларнинг юзасини бўртма тасвирлар билан безаш санъатида- торевтикада Ўрта Осиёлик усталар катта ютуқларни қўлга киритдилар. Кандакорлик ниҳоятда ривожланди. Бу санъат ривожида грек-рим услуби кенг ёйилди. Нафақат ишланиш жиҳатидан балки тасвирлар мавзуси жиҳатидан ҳам ҳарактерли металда (олтин, кумуш, мис, бронза) ишланган ҳар хил лаган, ваза, калкон ва хум юзалари тасвирига антик дунё ҳаёти ва мифологияси асос килиб олинди.Бу ишларнинг тасвирланишини типларга ажратсак куйидаги холни курамиз антик муаллифларнинг асарларидан олинган сюжетларга ишланган тасвирлар; М.Еврипиднинг асарларидаги Вакх' байрами билан борлик тасвирлар, Хомер (Гомер) "Илиада" асаридаги воқеалар ва х.к.

Ўрта Осиё, жумладан Ўзбекистон ҳудудининг жануби томонларида грек услубида ишланган метал идишлар, кўзалар топилган. Бу идиш юзаларига ишланган тасвирларда Еврипид трагедияларида олинган сюжетлар, Хомер Қушонлар даврида эллин санъати тасвири кучли бўлганлиги анъаналар давомидагина эмас, балки грек тилининг бу ерларда кенг ёйилиши грек алфавитининг кенг истемолда ишлатилиши ҳам ана шу тасвир доирасининг кенглигидан далолат беради.

Қушон давлати кўп миллатли ва кўп динли давлат эди. Унинг ҳудудида яшайдиган турли халқ ва кабилалар ўз динига ва қарашларига эга бўлган. Динлари ичида зардуштийлик дини кенг ёйилганлигини эьтироф этиш керак. Хоразм, Сўғд, Бақтрия, Маргиёна ерларида шу дин билан боғлиқ кўпгина ёдгорликларнинг топилиши ҳам шундан далолат беради. Лекин Қушон даври зардуштийлик дини хинд ва эллин динлари таьсирида янгиланиш жараёнини бошидан кечирди, оссуарийлар типлари торая борди. Одам шаклидаги (аёл ва эркак шаклидаги) оссурийлар П-Шасрлардан бошлаб камайиб кетди ва тухтатилди.

Хулоса.

Эранинг бошларида ташкил топган Қушон давлати жаҳондаги тўрт буюк давлатнинг бири бўлди. Бу даврда даврда ўзаро алоқалар янада кўчайди. Тинч океанидан Бридан оролларигача бўлган катта ҳудуд ана шу давлатлар ҳукмида' бўлиб Буюк Ипак Йўлида марказий ўринни эгаллаган Қушон давлати Шарк ва Гарб алоқаларида алоҳида ўринни эгаллайди. Шаркдан Гарбга Жанубдан шимолгача бўлган тўрт буюк давлатлараро муносабатларнинт кенг ривокланиши, савдо сотиқнинг кўчайиши халқ ва элатларнинг турмуш тарзи ва эстетик карашларига таьсир этмай колмади.Бугунги кунгача кўплаб тадкик этилган ёки археологик казиш ишларида бу давлатлар ҳудудида шу давлатларнинг турли буюм ва ашёларининг , турли давлат тангаларининг шу ҳудудларда топилиши, амали безак ва кулолчилик буюмлари мавжудлиги, расм ва ҳайкалларнинг тип ва мазмуни яқинлиги ва ўхшашлиги шундан далолатдир. Деярли беш асрли қушон давлати тарихида ўзига хос санъат тарихи шаклланди.Ҳарактерли

жиҳатидан локал хусусиятга эга бўлган Қушон санъати ўз ривожида нафақат давлат таркибига кирган мавжуд халқ ва элатларнинг санъати заминида камол топди, балки даврнинг силсиасида юзага келган Шарк ва Гарб фалсафаси ва эстетикаси таьсвиридан ҳам четкада колмади. Шунинг учун ҳам бу санъат идрокида Юнон, Бақтрия санъати анъанаси ва ўзига хос йўналиши, шимолий кўчманчи-кабилалар санъати анъаналари ўзида Шарк ва гарб маданияти синтезига йўл оча борган ахмонийлар даври санъати белгилари Хиндистон, Покистон, Афгокистон маданияти тарихидаги кўпгина белги ва ўзига хосликларнинг сезилиб туриши қурилаётган масалани накадар кенг ва мураккаблигини кўрсатади. Шуни алоҳида кайд этиші лозимки Қушон санъати ва маданияти кейинрок,ўз ҳудудидан ташқарига чикишга ва кўпгина халқлар ва дав-латларнинг санъат ва маданиятига таьсир утказишга муяссар бўлди. Сўзсиз, Қушон давлатининг шаклланиши ва ривожланиши Ўзбекистон ҳудуди билан боғлиқлигиэътироф этиш керак. Қушон санъати ўз ривожида қатор халқ ва элатлар санъати таьсирида юзага келган бўлса ҳам, лекин-унинг ўзига хос, локал ва шу билан бирга бошқалардан ажралиб- турадиган томони мавжудлигини кайд этиш лозим Қушон давлати жаҳон тарихида ўзига хос тузумга эга бўлган давлатлардан бўлган. Бу давлат ҳудудида турли дин ва эьтикод мавжуд бўлиб санъат ва маданият мазмуни ва йўналишида ҳам ўз аксини топган. Заостризм, монийлик, буддизм ва бошқа дини йўналиш ва эътикодлар санъат услубий рангбаранглигини ҳам келтириб чиқарди. Меъморлик, тасвирий ва амалий санъат услуб ва йўналишлари шу давр эьтикод ва карашлари билан ривожда бўлди. Қушон давридан бошлаб Ўзбекистон жанубий томонларида Будда билан-боғлиқ бўлган ҳайкаллар кенг таркала бошлади. Будданинг инсон қиёфасидаги тасвири юзага келди. Грек мифологияси билан борлиқ образлар яратила бошланди. Улар маҳаллий қиёфа ва либосларда томошабин кўз ўнгида гавдаланади. Монументал рассомлик санъатининг намуналари Шарк ва Гарб бадиий дунёси синтези сифатида юзага келди. Шуни кайд этиш лозимки, Қушон подшоҳлиги даврида ҳам, эллин санъати, айниқса грек санъати таьсири сезиларли ўринни эгаллаган. Ўрта Осиё, жумладан Ўзбекистон ҳудудининг жануби томонларида грек услубида ишланган метал идишлар, кўза ва ҳайкаллар топилганлиги фикримиз далилидир. Қушон даври мафкурасида сўзсиз, буддизм дини муҳим ўринни эгаллади. У одамларнинг турмуш тарзи, маданияти, тгайди-ган мухитида ў'з аксини топди. тасвирии ва амалии акьат, меьморйикхусусиятларини белгиловчи муҳим актор сифатида майдонга чикди.

| 3-mavzu | EFTALITLAR VA TURK XOQONLIGI DAVRIDA SAN’AT |
|---|---|

*1.1. Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi*

| *Mashg’ulot vaqti* -2 soat | *Talabalar soni : 26* |
|---|---|
| *Mashg’ulot shakli* | Kirish –axborotli ma’ruza |
| *Ma’ruza rejasi* | 1. 1.Eftalitlar davrida O’zbekiston sanati<br>2. 2.Eftalitlar davrida me’moriy bezak san’ati.<br>3. 3.Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy aloqalarining kengayishi.<br>4. 4.Tasviriy va amaliy sanat, memorlik bezak san’ati anana va usullar |
| *O’quv mashg’uloti rejasi :* Eftalitlar va Turk xoqonligi davri san’ati haqida nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash | |
| *Pedagogik vazifalar*:<br>5. Eftalitlar va Turk xoqonligi davridagi O’zbekiston san’atini ilmiy yoritib berish<br>6. Eftalitlar davrida me’moriy bezak san’atini tahlil etish<br>7. Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiy xalqlarining madaniyati, tasviriy va amaliy san’at, me’morlik bezak san’atini talablarga yetkazish | *O’quv faoliyati natijlari:*<br>• Talabalar Eftalitlar davri san’atini o’rganadilar<br>8. Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati haqida bilimlarga ega bo’ladilar. |
| *Ta’lim berish usullari* | Ko’rgazmali ma’ruza, namoyish etish, savol javob, suhbat, tushuntirish. |
| *Ta’lim berish shakllari* | Ommaviy, jamoaviy, yakka tartibda, slaydlar |
| *Ta’lim berish vositlari* | O’quv qo’llanma, kompyuter texnologiyalari, doska |
| *Ta’lim berish sharoiti* | Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo’ljallangan auditoriya |
| *Monitoring va baholash* | Og’zaki nazorat , savol javob |

### 3.2. “QADIMGI O’RTA OSIYo SAN’TI” bo’yicha ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi

| *Ish bosqichlari va vaqti* | *Faoliyat mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *Ta’lim beruvchi* | *Ta’lim oluvchilar* |
| 1. Mavzuga kirish (15 daqiqa) | 1.1.O’quv kursi nomini aytadi.Ekranga o’quv kursining tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzular ro’yxati bilan tanishtiradi va ularning mazmunini qisqacha yoritadi.<br>1.2.uchinchi mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini e’lon qiladi<br>1.3.Klaster asosida o’tiladigan mavzuning mazmuni va mohiyatini qisqacha yoritadi. | Tinglaydilar<br><br>Tinglaydilar |
| 2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol javob usulini qo’llaydi:<br>9. 2.2. Eftalitlar davlati haqida nimalarni bilasiz? Eftalitlar davriga oid san’at namunalaridan bilasizmi?<br>Turk xoqonligi haqida nimalarni bilasiz?<br>2.3. Ekranda slaydlar namoyish etish bilan haqida to’liq ma’lumotlar beriladi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy jihatlariga qaratadi, ularning dolzarb va ahamiyatli ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.<br>2.4. Vazifani barcha talabalar yakka tartibda bajarishlarini aytadi.<br>Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularni yo’naltiradi, zarur maslahatlar beradi.<br>2.5. Bir necha talabaning ish natijasini tekshiradi, talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi. Zarur bo’lsa, qo’shimchalar kiritadi va ushbu savol bo’yicha to’liq ma’lumot berishini aytadi.<br>2.6. Rejaning ikkinchi savoliga doir bo’lgan slaydlarni ekranga chiqaradi va har bittasini to’liq yoritadi.<br>2.7. Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi. | Savolga javob beradilar<br>Fikrlarini bildiradi<br>Tinglay dilar, zaraur ma’lumotlarni yozib oladilar.<br>Vazifani yakka tartidda bajaradi.<br>Ish natijasini taqdim qiladi.<br>Tinglay dilar, zaraur ma’lumotlarni yozib oladilar. |
| 3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1. Mavzu bo’yicha yakuniy xulosalar qiladi.Mazkur mavzu bo’yicha egallagan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanligini alohida qayd etadi hamda kelajakda ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi haqida ma’lumot beradi.<br>3.2. Mustaqil ishlash uchun vaziqa beradi: (1)o’tilgan mavzu asosida B/B/B jadvalini to’ldirib kelish. B/B/B jadvalini to’ldirish qoidasinitushintiradi (2) ikkinchi mavzu bo’yicha keyingi o’quv mashg’ulotiga | Savollar beradilar.<br><br>Vazifani yozib oladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | tayyorlanib kelish. | |

## 3-MAVZU: EFTALITLAR VA TURK XOQONLIGI DAVRIDA O'ZBEKISTON SANATI

### Reja

1.Eftalitlar davrida O'zbekiston sanati
2.Eftalitlar davrida me'moriy bezak san'ati.
3.Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy aloqalarining kengayishi.
4.Tasviriy va amaliy sanat, memorlik bezak san'ati anana va usullar

O'rta Osiyoda quldorlik formasiyasi inqirozi III-IV asrlarda boshlandi. Ko'chmanchi turkiy qabilalarning tez-tez hujumi Qushon imperiyasining tanazzulga uchradi. Eftalitlar, keyinroq Turk xoqonligining O'rta Osiyo yerlarini o'z hukmronligiga bo'ysundirishi davrida yangi formasiyaga o'tish yanada tezlashdi. Eftalitlar va turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo yerlarida bir qator mustaqil podshohlik shahar-davlatlari mavjud bo'lib, bu podshohliklar Eftalit yoki xoqonlikka qaram bo'lib qolmadi. Balki unga soliq to'lash va ularning hukmdor ekanligini tan olish bilan cheklandi. Eftalitlar va turk xoqonligi davrida Xorazm, Tohariston, So'g'd (So'g'diyona) ularning asosiy yerlari bo'lgan. Ayniqsa, sharq va G'arb karvon yo'llari ustida joylashgan So'g'd madaniy va iqtisodiy jihatdan yuksak bo'lgan. U Eron, Vizantiya, Hindiston, Uzoq Sharq mamlakatlari, shuningdek, Xorazm orqali Sharqiy Yevropa bilan ham savdo-sotiq ishlarini olib borgan. So'g'dning eng katta knyazligi hisoblangan Samarqand esa, umuman, O'rta Osiyo ijtimoiy va madaniy hayotida alohida o'rinni egallab, boshqa podshohlik va knyazliklarga kuchli ta'sir o'tkazgan.

Me'morlik.Bu davrida Markaziy Osiyo me'morligi-so'ngi antik va ilk feodalizm davrida(U-USh asrlar) yangi me'moriy g'oyalar paydo bo'ldi. Feodallarning qasr-qo'rganlari, boy zodogonlarining shahar va shahardan tashqaridagi qo'rg'onlari yuzaga keldi, yangilandi. Amaliyotiga keng ko'lamda kirib kelgan ravoqli va gumbazli binolar, tom, darcha va eshiklar shahar siluetiga

yangi davr ruhini kirita bordi.

Ilk feodalizm me'morligining o'ziga xos tomonlari  qo'rg'on-qasrlar qo'shklar  qurilishida ham sezilarli bo'ldi.Bu qo'rg'on-qasrlar avvalgi badiiy-madaniy markazlardan birmuncha chekkada bo'lib asosan dehqon feodallarning turar joyi sifatida paydo bo'ldi. Bu qo'rg'onlar mustahkam devorlar bilan o'ralgan. Shu  qo'rg'on-kasrlar atrofida keyinchalik turar joylar, bozorlar paydo bo'la borgan. Vaqt o'tishibilan ana shu yerlar ham  qalin devor bilan aylantirib chiqila boshlagan. Shu yo'sinda ilk feodal shaharlar shakllanib borgan. Hunarmandchilik va savdo  jonlangan shu manzillarda o'rta asr shaharlari  paydo bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan O'zbekiston hududida shunday manzillar ko'plab yuzaga kelgan. Zarafshon, Qashqadaryo, Farg'ona, Xorazm, Toshkent vohalaridagi qasr, qo'shqlar shu o'rganilayotgan davr yodgorliklaridandir. Jumladan, Toshkent yaqinidagi Ok tepa ko'shki, Xorazmdagi Teshik qal'a, Buxro yaqinidagi Varaxsha  o'ziningko'rinishi, bezagi bilan bir biridan ajralib tursa  ham, lekin ularning hammasida umumiy o'xshashlik mavjudligi, davrning katta uslubiga bo'yso'nganligini etirof etish zarur.  Qasr, ko'shklar, tabiiy yoki suniy kesik peramida shaklidagi tepaliklar ustiga qurilgan. Saroyni bunday baland supada  qurish, tabiiy  ofatlardan, suv toshqinlaridan saqlanish, osoyishta  hayot kechirish, dushman hujumida mudofa qila olish va zarba berishga asoslanganligidir. Saroy tashqi devorlari mustahkam va baland bo'lishi ham shu mudofa va osoishtalikni taminlovchi zarurat hisoblangan. Saroyning tashqi tomonida bezak kam va jiddiy, ayrim saroylarning devor satxini gofirli (kungurali) , devor  tepasidagi uch tishli bezak plita, antefiks va  bo'rtma tasvirli rozetkalar ishlatilgan.  Saroylarning ichki bezagiga alohida etibor berilgan.  Xonalar devoriy rassomlik va haykaltaroshlik bilan  bezatilgan. 2-3 qavatli ravoqli binolar qubbali, gumbazli katta xona atrofida yoki butsimon tor dalon (koridor) atrofida joylashtirilgan. Binoni bezashda avvalgi davrda, jumladan qushon podshohligi, umuman ellinistik san'at tasirida yuzaga kelgani turli shakllar, masalan ion valyutasi, antik kapitellar, akant shakllari deyarli muomiladan chiqdi, yoki butunlay qayta ishlandi, ko'rinishi yangilandi. Toshkentdagi Yunusobod oktepasi ilk o'rta asrlarda shahar atrofida qad ko'targan qasrlardan bo'lib    arablar yurshidan keyin o'z umrini tugalagan. Bu feodal qo'rg'on  mamuriy-markaz hamda oziq-ovqat, qurol-yarog saqlanadigan ombor vazifasini bajargan. Bu yerda zardushtiylik dini bilan bog'liq  ibodatxona ham mavjud bo'lgan.  Oq tepa qo'rg'on qasri ham suniy tepalikka qurilgan, uning qalin devori pishiq  va sodda bezaksiz  bo'lgan.

Xorazmdagi Teshik qal'a  ko'shki ham tuproq uyumli tepalikka qurilgan. Lekin uning mudofaasi devorlari o'ziga xos gofrli bo'lgan  tashqi  parzodida bulardan tashqari perspektivali arkalar, pardoz shinak va devor yuqori qismi friz bilan pardozlangan. Buxorxudotlarning (hokimlarning) Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyi ilk feodalizm davri ko'shk memorchiligining ulug'vor ko'inishdir. Suniy tepalik ustiga  qurilgan bu saroy tashqi devorlari gofrli ko'rinishda, hamda devorning yuqori tomonidagi boy frizga egadir. Saroy darvozalari ham tantanavor ruhda katta shakllarda ishlangan. Devor tepasi uch tishli  plitasimon polmetkalar bilan ishlab chiqilgan, devorlari razetkalar bilan bezatilgan, Saroyning ichki qismi nihoyatda bezakka boy bo'lgan.

Haykaltaroshlik, rassomlik va amaliy bezak san'ati asarlari saroy ichki muhitini nihoyatda go'zal va ko'tarinki ruhda bo'lishiga xizmat qilgan. Malumotlarga ko'ra xorazm shohi Afrigning Al-Fir qasri ham hashamatli bo'lgan. U ikki qavatli bo'lib ikkinchi qavatiga maxsus ko'tarilma moslamalar-panduslar orqali chiqilgan. Ilk o'rta asarlarda, jumladan eftalitlar podshohligi davrida istehkomli qasrlar, feodal qo'rg'onlar va ayniqsa ko'shklarning keng yoyilganligini va davrniig muhim me'morchilik obidasi ekanligi bizgacha yetib kelgan ashyoviy dalillar, devoriy rasmlarda saqlanib qolgan qasr ko'rinishlari ham tasdiqlaydi. Shunga o'xshash ko'shklarni Panjikent devoriy rasmlarida, mis va kumish idish yuzalaridagi tasvirlarni uchratish mumkin. Masalan Ermitajda saqlanayotgan (Rasm)«Ko'rgonni kamal qilish» tasviri tushirilgan kumish laganda qo'rg'on qo'rinishi aks etirilgan.Keshk me'morligi keyingi monumental memorligi, saroy qurilishi san'atiga katta ta'sir o'tkazildi. m. friz, devorlarni gofrlash, tom tepasiga polmetka-dekorativ shakllar berishni, ularning ichki xona va dalonlari serbezak bo'lib naqsh va mavzuli rasmlar, dumaloq haykal va relyeflar bilan bezatilishi keyingi me'morlikda o'zifodasini topdi. Bu davrda Xorazmdagi Burgut qala, Tuproq qalalar ham yanada serhashamlikka xirs qo'ydi Burgut qaladagi otashparaslarning ibodatxonalari, Tuproq qaladagi ibodatxonalar xorazm shohlarining rasmlari bilan boyidi.Bu yerdagi bozor maydoni va shahar ibodatxonasi davr ruhi bilan boyidi.Turk xoqonligi davri me'morligi haqida gapirilganda shuni aytish mumkinki, bu xoqonlik Markaziy Osiyoga rivojlangan yoki rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarila boshlagan davrda kirib keldi.. xoqonlik davri san'ati, jumladan uning me'morligi eftalitlar davri an'analarini rivojlanishi bilan bog'liq bo'ldi. Xoqonlik davrida feodal qushk va saroylari, zodagonlarning shahar va shahardan tashqaridagi uylari o'zining rivojlanishini avvalgi davr an'analarining o'zluksiz davomi sifatida davom ettirdi. Bu davrda buddizm, zaostrizm, xristianlik va boshqa dinlar, xoqonlik tarkibidagi xalq va elat til va urf odatlari kabi rangbaranglikda mavjud bo'lib bordi. Shu bilan birga tinch hayot mahalliy zadagonlarning mustaqil hayot kechirishlari me'morchilik va tasviriy va amaliy san'atda o'ziga xos lokal xususiyatlarni ham kelib chikishini taminladi. Bu xususiyat So'g'd, Xorazm san'ati va memorligi, Farg'ona,Kuva Yettisoy, yodgorliklari, aks etgan.

Ibodatxona va monastirlar hamda boy va zodaganlarning saroy va qasrlari, hokimlarning qarorgohlari o'zining boy bezagi va badiiy yechimining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bizgacha vayronalarda tasodifan yetib kelgan me'moriy bino qoldiq va parchalari shu davr me'morlik madaniyatining yuksak bo'lganligi va eng muhimi shu davrda san'at sintezi a'lo darajada bo'lganligidan dalolat beradi. Bu yodgorliklarning katta qismi devorlariga suratlar ishlanganligi, interyer va eksteryerlarida haykaltaroshlik asarlari qo'yilganligidan dalolat beradi. Shu o'rinda xitoylik tarixchining Samarqand va Buxoro o'rtasida qurilgan hashamatli bino juda hayratlantirganligi, binoning shimoliy devorida bo'yoqlar bilan Xitoy imperatorlarining tasviri, sharqiy devorda turk xonlari va Hindiston hukmdorlari, G'arbiy devorda esa Eron va Rim podshohlari tasviri tushirilganligi haqida yozib qoldirgan. Shuni ta'kidlash kerakki, O'rta Osiyoda quldorlik tizimidan feodalizmga o'tish davri uning san'ati mazmuni va harakterida o'z ifodasini topdi. Bu hol dastlab davr uchun harakterli

katta oilalar yashaydigan qo'rg'on-qasrlar, ko'shklar qurilishida seziladi. Bunday qo'rg'on-qasrlar O'rta Osiyoning ko'pgina yerlarida saqlanib qolgan. Shahardan tashqaridagi shunday ilk qo'rg'onlardan biri Xorazmdagi «Yakkaparson» qo'rg'on-qasri bo'lib, uning markazida loydan qurilgan sun'iy tepalik (stilobat) da turar joy binosi joylashgan. Qasr atrofi esa, uch qator devor bilan o'rab chiqilgan.

Feodal munosabatlarning rivojlanib borishi bilan eski shahar tiplari o'zg'arb, shaharning yangi tiplari paydo bo'la boshladi. Agar quldorlik davridagi shaharlar to'g'ri va ko'p hollarda, kvartallarining to'g'ri joylanishi bilan harakterlangan bo'lsa, endilikda ilk feodal shaharlari atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralib, uning ichki qismi betartib qurilgan uylar, tor, egri-bugri ko'chalar bilan to'ldirilgan. Boylarning 2-3 qavatli binolari esa, feodal shahari qurilishiga o'ziga xos siluet bergan. Podshohlarning saroy va shahardan tashqaridagi qarorgohlari hashamatli va go'zal bo'lishiga e'tibor berilgan. Ko'p hollarda sun'iy tepalik ustiga qurilgan ustun, yarim ustun, arka hamda turli dekorativ me'morlik hajmlaridan podshoh saroyining xushmanzara va mahobatli bo'lishida foydalanilgan. Bu binolar ham xom g'isht va paxsadan ishlangan bo'lib, devorlari ganch bilan pardozlangan, devoriy surat va naqshlar bilan bezatilgan. Ganch, yog'och o'ymakorligi va bo'rtma tasvirlari binoga alohida fayz kiritgan. Bizgacha vayrona holida yetib kelgan bu saroylar qoldiqlari hozir ham o'zining ulug'vorligi bilan kishini hayajonga soladi. Ilk feodalizm davrida O'rta Osiyoda yagona din bo'lmaganligi ibodatxona qurilishlarida, ko'mish marosimi bilan bog'liq buyumlarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, Farg'ona vodiysi (Quva)dan topilgan ibodatxona harobasi ilk feodalizmda ham bu yerlarda buddizm mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bu yerdagi ibodatxona ikki xonadan iborat bo'lib, old xonasi ayvon tipida va unga kiraverishda haykallar o'rnatilgan. Ichki xonalarda ham haykallar qo'yilgan. Otashparastlik dini bilan bog'liq bo'lgan ibodatxonalar, odatda, tepalikka qurilib, old tomoni esa quyosh chiqish tomonga qaratilgan.

Eftalitlar va turk xoqonligi davridan bizgacha yetib kelgan tasviriy san'at asarlarining parchalari shu davrda rassomlik va haykaltaroshlik ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lganligini ko'rsatadi. Bu davrda monumental rassomlik va haykaltaroshlik diniy va dunyoviy binolarning bezatilishida keng ishlatilgan. Bu haykallarda diniy va afsonaviy obrazlar bilan bir qatorda, real hayotni aks ettiruvchi obrazlar ham uchraydi. Haykallar maxsus tayyorlangan loydan, yog'och, ganch, alebastr va toshdan ishlangan. Varaxshadagi saroyni bezashda ganch o'ymakorligi keng qo'llanilgan. Kandakorlik san'ati va o'ymakorlikda bo'rtma tasvir muhim rol o'ynagani shu davrdan saqlanib qolgan yodgorliklarda ko'rinadi. Rassomlik. O'rta Osiyoda muhim madaniy markazi bo'lgan O'zbekiston hududida ilk feodalizm badiiy madaniyatining yutuqlari monumental-dekorativ rangtasvir san'atida o'zini to'liq namoyon qiladi, Afrosiyob (Samarqand), Varaxsha (Buxoro vil.), Bolaliktepa (Surxondaryo vil..) devoriy suratlar jahon monumental-dekorativ rangtasvir san'atining nodir durdonasi hisoblanadi. Bu suratlar o'zining yuksak mahorat bilan ishlanganligi, real hayotni badiiy obrazlarda ifodali aks ettirishi bilan belgilanadi. Buxoro vohasidan topilgan Varaxsha hukmdori saroyi qoldiqlari va devoriy suratlari

taxminan VII-VIII asrlarda ishlangan. Varaxsha devoriy suratlari ichida ov manzarasi yaxshi saqlangan. Bu suratda fil ustida ketayotgan odamlarga sherning hujumi tasvirlangan bo'lib, bu kompozisiya o'zining dinamikasi va ajoyib rang gammasi bilan ijodkorning yuksak mahorat egasi ekanligini isbotlaydi. Rassom ishlagan har bir obrazning tugal shaklga ega bo'lishiga, har bir detalni ham iloji boricha aniq va tugal darajada ko'rsatishga intilgan. 1965 yili Samarqand yaqinidan afsonaviy podshoh Afrosiyob saroyi arxeologik topilmasi katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Bu topilma yana bir bor O'rta Osiyoda ilk feodalizm asridayoq yuksak madaniyat mavjud bo'lganligini jahonga namoyish etdi. Bu saroy qoldiqlarining devorlariga ishlangan tematik surat va naqsh kompozisiyalari yuksak mahorat bilan ishlanganligi bilan ajralib turadi.Afrosiyob devoriy surat kompozisiya ishlanishi, detallarga e'tibor bershshshi jihatidan, Varaxsha suratlariga yaqin bo'lsa ham, lekin badiiylik va mahorat jihatidan ulardan ustundir. Afrosiyob devoriy suratlarining ahamiyati yana shundaki, suratlar bilan birga, So'g'd harflarida yozilgan bir qator so'zlar ham uchraydi. O'rta Osiyoning ilk feodalizm asridagi monumental-dekorativ rangtasviri to'g'risida fikr yuritganda, Termiz yaqinidan topilgan «Yumaloq tepa», unga yaqin joylashgan «Bolalik tepa» devoriy suratlarini eslamay bo'lmaydi. Bu suratlar harakterining shakllanishida shu davr monumental-dekorativ rangtasviriga xos uslub mavjud bo'lib, bular birlikda O'rta Osiyo ilk feodalizm asrida bu san'atning yuksak bo'lganligi, bu san'atda turli uslub va yo'nalishlar mavjud bo'lganligini yana bir bor namoyon qiladi. Ilk feodalizm asrida amaliy-dekorativ san'at ham jiddiy ravnaq topdi. Bu asrlarda mayda haykaltaroshlik ham keng tarqalgan. turli haykalchalar, ayniqsa, So'g'ddan ko'plab ishlangan. Amaliy bezak san'at. Ganch va yog'och o'ymakorlik turi bezash ishlarida keng ishlatilgan. Shunisi e'tiborliki, o'ymakorlikda islimiy va handasiy naqshlardan tashqari, odam va hayvonlar, turli holat va harakatdagi hayvonlar, qush va parranda bo'rtma tasvirini qo'shib ishlash keng uchraydi. uy anjomlari, ov va jang qurollari, shuningdek, turli badiiy bezatilgan shoyi va oddiy chit materiallar va ulardan bichilgan liboslar shu davr estetik qarashlarini namoyon qiladi. Amaliy buyumlar yuzasiga bo'yoqda tasvirlar ishlangan, kumushdan yasalgan buyum va qurollar esa bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Bu tasvirlarda devoriy suratlarda aks ettirilgan obraz va voqyealar o'z ifodasini topgan. Podshohlar tasviri, bazm, ov manzaralari bu buyumlar yuzasiga go'zallik baxsh etgan. Xorazmdan topilgan ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan ossuariy yoki astadon deb nomlangan to'rtburchak quticha shaklidagi loydan yasalgan o'ziga xos tobutchalar bu yerlarda zoroastrizm mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Bu astadonlarga jasad suyaklari solinib, maxsus qabr tokchalariga qo'yilgan. Astadonlar So'g'd, Shoshda ham topilgan.

Markaziy Osiyo, umuman, O'rta Shark san'atida rassomlik va haykaltaroshlik, kandakorlik va tukimachilik san'ati rivrjlansh davrini boshidan kechirdi. Bolalik tepa, Varaxsha, Panjikent, Afrosiyob devoriy rasmlari shunday yodgorliklardandir.Rassomlar o'zrivojida so'ngi antik an'analarni yangi pogonaga ko'tarildilar o'z mazmuni, moxiyati, professional mahorat bilan ishlanish jihatidan jahon san'ati tarixida o'z Davrining tengi yo'k nodir yodgorliklar yaratdilar. Shuni alohida qayd etish kerakki, eftalitlar va turk

xokonligi davri qator mahal lokal maktablarini shakllantirdi. Bu xususiyat mahobatli rangtasvir san'atida sezilarli bo'lib, bu davrga oid yodgorliklarni keng o'rganilganligi Bolalik tepa, Varaxsha, Panjikent, Afrosiyob va boshqa devoriy rasmlarning badiy yechilishi bu madaniyatni nihoyatda yuqori darajada bo'lganligi hamda malum darajada atrof davlatlar san'atidan ta'sirlangani shu bilan boshqa davlatlarga tasir etganini ko'rish mumkin. Shu o'xshashlik va o'ziga xosliklarni umumlashtirib bu davr san'atini qator maktab yo'nalishlariga ajratish mumkin. Bu maktablarni O'zbekistonlik olimlar A.Pugachenkova va L.Rempel uchga ajratishadi:

1. Toharistton maktabi va uning yodgorliklari. Bolalik tepa saroyi rasmlari (Amudaryo xavzasi), Ajina tepa va Kofir qala (Janubiy Tojikiston).
2. Shimoliy Turkiston maktabi va uning yodgorliklari. Kuvadagi buddizm ibodatxonasi (Farg'ona). Yettisuv buddizm ibodatxonasi (Shimoliy Qirgiziston).
3."Garbiy o'lka" maktabi va uning So'g'ddagi, Xorazmdagi yodgorliklari. Afrosiyob, Varaxsha, Kaxkaxa saroylari, hamda Xorazm ostodonlari rasmlari (m.Tok qala). Bu devoriy va ossuariy rasmlar mavzusini ikkiga ajratish mumkin. Birinchi yo'nalish diniy marosim buddizm bilan bog'liq Ajina tepa, Quva, Oq Beshim, va boshqa ibodatxona rasmlari, ikkinchi yo'nalish dunyoviy mazmunda bo'lib saroy, zodagonlarning uy va ko'shklarida o'zifodasini topdi. Bular Bolalik tepa, Varaxsha, Afrosiyob, Panjikent, yodgorliklaridir(2). turk xokonligi davriga kelib Markaziy Osiyoning janubiy tomonlarida siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Jumladan buddizm bilan bog'liq karashlar asta sunaboshladi. Qo'shon davri san'ati aanalari mavjud bo'lsa ham, lekin buddizmni o'z MANBAIDAN uzoqlashishi va aloqalarning susayishi bu davrda yaratilgan asarlarda mahalliy xalq san'ati tasirini oshishiga olib keldi. Bu xususiyatlar Ajina tepa, Quva, Merv san'atida bilinadi. VI-VII asrlarda devoriy rassomlikda an'anaviy san'at budda monastirlarida o'zmavqyeini saqlab mahalliy va san'ati an'analarida mavjud bo'ldi. Jumladan Ajina tepa monastiri deaoriy rasmlari ayni ana shu xind va mahalliy san'at ananlari silsilasi hosilasi sifatida idrok etiladi. Bu monastirning xonalariga ishlangan rasmlar yuqori malkada bajarilgan bo'lib Budda va u bilan bog'liq voqyealar tasvirlanadi. Kompozisiyada sovga-salom olib kelayotganlar tasviri biriuncha jonli bo'lib an'anaviy kompozisiyaga o'ziga xoslik kiritadi. Mervdan topilgan ko'za yuzasiga ishlangan rasmlar shuningdek Tok qaladan (Xorazm) topilgan ostadon yuzasiga ishlangan rasmlar o'zharakteri jihatidan maishiy janrdagi ko'pfigurali kompozisiya U-UP asr san'ati yo'nalishi xususida fikr yuritish imkoniyatini beradi u kompozisiyalarda bo'lgan, bo'layotgan ishlar, voqyealar aks ettiriladi, Jumladan Merv ko'zasi yuzasiga ishlangan rasmda bir odamning umri, aniqrogi umriing to'rt fasli o'z ifodasini topgan. Unda inson tugulgandan to olamdan o'tgunga bo'lgan vankt tasviriy lavhalarda aks ettirilgan. Tok qala ossuariy yuzasiga ishlangan tasvirda aza tutish voqyeasi tasirli ishlangan. Bolalik tepa devoriy rasmlari O'zbekiston san'ati tarixida muhim o'rinni egallab Sharq monumental rangtasvir san'atining yangi qirrasini namoyon etadi(3),

Bu san'at mahalliy antik san'atga tayangan xolda uni qator o'zgarishlar bilan yangiladi. Jumladan shakl va qalamtasvir birmuncha soddlashtirilib uni

naqosh kompozisiyasiga yaqinlashtiradi. Rassom nur soyadan voz kechgan xolda fazoviy kenglikni odamlar xatti harakatida xal etadi. 5-6 asrlarda yaratilgan bu rasmlarda O'rta Osiyo monumental san'atining yangi bir yo'nalishi tarzida namoyon bo'ladi. Ishlanishidagi yaxlitlik shakl va chiziqlaridagi o'ziga xos qatiylik, rang shakl tizimidagi ritmik qaytarilish bu yodgorlikni ko'proq shu davrda Afgoniston hududida mavjud bo'lgan uslubga yaqinlashtiradi Bolalik tepa (V-VI asr). Shahardan tashqarida qurilgan, hajm jihatidan katta bo'lmagan kasr kvadrat shaklida bo'lib, uning eshik o'rnini hisobga olinmasa, xona devorlari yaxlit yeruglik tepada qolidirilgan darchadan tushgan. Shuning uchun rasm to'rt devorga yaxlit ishlanib aylanib ko'rishga mo'ljallangan panoramani eslatgan, bu yaxlitlikni eshik o'rni to'xtatgan xalos. Devor bo'ylab unga yopishtirilgan xolda ishlangan supa tarzidagi balandlik o'ltirish uchun mo'ljallangan. Rassom bu yerda o'ziga xos rassomlik badiiy yechimini topgan. Shu devor bo'ylab ketgan supa tepasidan xuddi shu supada ultirgandek odamlar tasviri ishlangan. Saroyning garbiy devorida Choganiyon hukmdori Turantoshning o'sha davr odatiga kura Samarqand ixshidi (Podshohsi) Varxuman huzuriga Choganiyon malikalaridan birini kanizaklari bilan ko'zatib borayotgan elchilar tasvirlangan Saroyning Sharqiy devorida uzoq sharq mamlakatlarining birida kayiklarda dengiz so'zib quriqliklarda esa yirtkich hayvonlar bilan yo'l-yo'lakay olishib kelayotgan mugul bashara elchilar guruhi kelishi tasvirlangan. Shimoliy devorda turli mamlkatlardan (Choch, Chogayon, Xitoy, Kuriya, Yaponiya ) kelgan elchilar Samarqand hukmdori tomonidan navbatma navbat qabul qilish marosimi Janubiy tomonda Samarqand hukmdori bilan azolari bilan muqaddas suv Vorukasha dengizida balik va toshbaqalar orasida cho'milish xolati tasvirlangan. Saroyning Chaganiyonmalikasiga bag'ishlangan kompozisiyasi bo'yniga katta qo'girchoq ilingan oqfilda malika undan keyin suvoriylar o'rtasida saman ot mingan kuyov - shoh aks ettiridgan. Otliqning oq parrandalar rasmi bilan bezatilgan qizil chakmoniga qurol-aslaxalar osilgan. Malikani oq otga mingan qizlar ko'zatib bormoqda. Qizil ko'ylakli, yelkasiga oq kulrang rumol tashlagan, sariq lozim kiygan bejirim etikli ayol rasmi yaxshi saqlangan. Uning qo'llarida nafis bilakuzuk. Ikki tuyalarga mingan ikki kishi kelayapti Ulardan biri kirgiy burun, oq yuz, igichka muylov, qora soqolli, ikkinchsi soch soqoli qizg'isht, qorachadan kelgan chol. Uning katta ochilgan ko'zlari oldinga tiqilgan, yuzlari yaxshi saqlangan. Ikkovi ham serbezak kiyimda. Bellariga kilich va xanjar osilgan, qo'llarida xassa. Tuyalarga guldor yopingich yopilgan. Ular orqasida oq parrandalar kelayapti. Bundan tashqari ikki kishi tasvirlangan ular oq kiyimda, yuzlarini pasti oq rumol bilan berkitib olingan. Qushlar ortida kuyov - shoh undan keyin otliqlar. Mexmonxona devori elchilar qabul qilishga bag'ishlangan. Elchilar kiyimi bezakdor. Doiraga olingan to'ngiz tog' echkisi afsonaviy qanotli maxluq tasviri shu kiyimlar bezagini tashkil etadi. Erkaklarda zirak, turli taqinchoklar birini qo'lida bir parcha mato. Ikkinchisida marvarid shodasi. Oq kiyimli erkak etagida So'g'd tilidan yozuv bor. Mexmonxona janubiy tomonida baliq toshbaka, o'rdak so'zib yuribdi. Mexmonxona Sharqiy qismi devorlari yer bilan olishuv rasmi bor.

Varaxsha saroy xonalaridan birining devorlarida ov manzarasi aks ettirilgan bo'lib har bir kompozisiya markazida oq fil va unda o'trigan jangchi ko'rsatilgan.

Bazida filning bosh tomonida filni boshqaruvchi (xaydovchi) tasviri uchraydi. Odamlar  filga ikki tomondan tashlanayotgan ikki yirtqich hayvon bilan olishmoqda. Bu hayvonlar goh, leopard, goh, sher goh esa afsonaviy maxluq tarzida uchraydi. Tadkikotchilarning fikriga ko’ra bu tasvirlar turli rivoyat va afsonalar shuningdek zardushtiylik talimoti bilan bog’liq fikrlar bayon etilgan jumladan Varaxsha devoriy rasmlarida aks ettirilgan fil ustidagi odamlarning turli vaxshiy hayvonlar bilan jangi Avestodagi yaxshilik va yomonlik kurashi g’oyalarini ifodalaydi deb xsoblanadi. Devorga ishlangan bu surat kompozisiyalar tepasida yana tasvirlar berilgan. Ularda o’ngdan chap tomonga odimlab borayotgan hayvonlar tasviri ko’rsatilgan. Bu tasvirlar birmuncha kichik. Afsuski bu rasmlar bizgacha yetib kelmagan.  Asosiy suratning past tomonida ham ensiz, xoshiya sifat naqsh kompozisiyasi berilgan.  Varaxsha devoriy rasmlari taxminan 7- 8  asrlarga to’g’ri keladi va o’zining yorqin rangi bilan ajralib turadi. Hayvonlarning yorqin sarg’isht oltin rangdan zargaldoqqacha bo’lgan tuslanishlari, pushti rang tuslanishida ishlangan odamlar hamda oq rangdagi fil tasviri ranglari asarning umumiy koloritini belilab uning tasirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rasmlarda hajm yo’q yassi ishlangan. Rassom fazoviy kenglik, buyumlar, tasvirlanadigan qaxramonlarning hajmli xolda ko’rsatishga intilmaydi. Tasvir foni zamini  yaxlit dekorativ rangda, aniqrogi, issiq tuk qizil rangda ishlangan, bu rang esa asosiy tasvirlangan obrazlarni hamda voqyeani aniq ko’rish imkoini beradi. Kompozisiyada ishlatilgan chiziqlar, tasvirlanuvchi odamlar qomati tasviri nisbatlari bo’layotgan voqyeani jonli va shiddatli harakatda ekanligini xis etishga ko’maklashadi. Nozik chiziqlar ritmik, tasvirlangan odamlar gavdasi aniq  va to’g’ri nisbatda olinishi rassomning yuksak mahoratidan dalolat beradi.

7-8 asr devoriy rassomligi alebastr suvoqda ishlangan. Natijada ishlangan rasmlar obrazlar yorqin va jarangdor ko’rinishga ega, bo’lgan. Yangi buyoqlarda ishlatilishi m.  moviy lazur, xom, asar emosional tomonini oshirgan. Yana muhim tomoni rassom O’Z asarida fazoviy kenglikni ochishga intiladi. Ung avvalgi tasvirlanayotgan siymo (obraz)ni va uni o’rab turgan narsalarni ishlanishiga alohida e’tibor beradi, orqa zamin esa biror bir rang bilan tekis buyaladi. Natijada tasvirlanuvchi obraz kiyimi, buyumlarilarning o’ziga xos boy badiiy bezagi asarning emosional ko’rinishini oshiradi. Yuqorida eslab o’tilgan arfa chaluvchi yarimyalangoch xolda tasvirlangan qiz qora zaminda yanada emosional bo’lib ko’ringan. Asarning qalami ( qalamtasviri, chiziqli konstruktiv tizmi, obrazni ajratib turuvchikontur chizigi) ham o’tkir. Tasvirdagi aniq va musiqaviy chiziqlar odam qomatini bo’rttirib ko’rsatishdan tashqarini yanada tasirchan bo’lishiga xizmat qiladi. Devoriy rassomlik va monumental haykaltaroshlikni xususiyati mazmuni ham shu me’morlik bilan bog’liq xolda o’zg’arb yaqinlanadi. Endilikda Antik v mavzular kamayib suvoriylar jasoratini kuylovchi romantik kompoeisiya va muhim tarixiy voqyea va xodisalar bilan bog’liq mavzular monumental san’atda keng o’rinni egallay boshladi. Eng muhimi shundaki eron- sosoniy va ko’chmanchi turkiy xalqlar san’ati bilan bog’liq turlari hamma san’at plastikasini asta yassi-dekorativ bezakka o’taboshladi. Bu bilan u keyingi naqqoshlik san’atining yetakchiligi uchun zamin yarata bordi. Haykaltaroshlik turk xokonligi davrida   dumoloq va relyef ko’rinishlari rivojda bo’lib, rassomlik san’ati bilan

bir qatorda yetuklikka erishdi. Mayda haykaltoroshlik, kulolchilik va zargarlik orasida ham yutuqlar qo'lga kiritildi.Koroplasika-mabudalarhaykalini yasash va ularga topinish ham keng tarqaldi.Samarqand,Buxoro.Naqshab va Toharistondan topilganshunday haykallar bir biridan kiyimi,ko'rinishi bilan ajralib turadi.Ular ko'p va xilma xil.Mahobatli haykal va relyeflar ham shu davrda ijtimoiy hayotda muhim o'rinni egallab ular ibodatxonada friz tarzida xona devorining tepa qismida, dumaloq yoki janrli kompozisiya sifatida taxmon-tokchalarga yoki bo'lmasa maxsus tagliklarga o'rnatilgan bo'lgan. Bu xolni XX asrning 30-50 yillarida arxeologik qazilmalar payti topilgan haykaltaroshlik namunalarida ham ko'rish mumkin. Panjikent, Quva, So'g'd san'atida yegoch o'ymakorligi va haykaltaroshligi o'ziga xos yo'nalishda mavjud bo'lgan. Yog'och o'ymakorligida murakkab naqsh kompozisiyalari ishlangan. Ularda borliq elementlari, qush va hayvonlar, odam haykallari uchraydi, xatto dumaloq haykallar ham yog'ochdan yo'nib ishlanganligi shu davr madaniy hayotining birmuncha jonli bo'lganligini ko'rsatadi. So'gd haykaltaroshligi nafaqat xonalarni bezashda balki bevosita ibodatxonalarda ham keng foydalanilgan . Shunga Zarafshondan topilgan yog'ochdan ishlangan haykal misol bo'laoladi.Umuman shuni aytish kerakki arablar kelgunga qadar So'g'd, Xorazm Ustrushonada olov uylari bilan birga xudo uylari xudo - sanam ibodatxonalari mavjud bo'lgan. Boshida nur taratayotgan shar chambar, belida belbog' va xanjar va qilich qilib haykal ishlangan. Haykal yog'ochdan yasalgan. U ma'lum kanon asosida ishlangan va yig'ilgan ya'ni qo'llar alohida ishlanib keyin ulangan. Ilk o'rta asrga oid bu yodgorlik So'g'd umuman Markaziy Osiyodagi Ilox , xudo , ma'bud sanamning namunasi bo'lib xudo Mitro , Axura haykali hisoblanadi. Sharqshunos olim V.V. Bartoldning fikriga ko'ra sanamlar yunoncha simo, o'xshash zardo'shtiylik ta'limotida muhim o'rnini egallagan. Ular odam yoki yoki hayvon shaklida ishlangan va shaharlarda o'rnatilgan. Uning balandligi 5 m. Yaqin bo'lib oltindan yasalgan. Bu shaharning katta sanamlaridan hisoblangan. Poykent, Zomindavor, Farg'onada ham haykallar o'rnatilagan bo'lib ular ham inkurstatsiya uslubida bajarilagn, ko'zlari qimmatboho toshlardan ishlangan. Samarqand yaqinidagi Chelekda o'rnatilagan oltin haykal mashhur bo'lgan Hitoy manbalarida ko'rsatilishicha bu sanamga siginish uchun uzoq - uzoqlardan odamlar ko'rish uchun kelishgan. Bu sanam rivoyat qilishicha odamlarni yomon ko'zdan saqlagan. Sanamlar ibodatxona ichida ham o'rnatilagn. Jumladan, Buxoro ibodatxonalarida shunday sanamlar bo'lgan.

Kuvada (Farg'ona) olib borilgan arxeologik qkazish ishlari olib borilganida bu yerdan buddizm bilan bog'liq bo'lgan ibodatxona qoldig'lari ochildi. Bu arxeologik qazilma o'rganilganida shu joyda buddaviylar ibodatxonasi mavjud bo'lganligi va u ikki xonadan iborat ekanligi aniqlandi.Ularning har biriga alohida kirish eshigi bo'lib xonalardan biri ayvon tipida , unga kiraverishda katta otlar va va katta sersoqol mabud tasviri o'rnatilgan. Mabudning peshonasi teppasida odam bosh suyagi shakli bog'liq xolda ishlangan. Haykal nihoyatda shijoatda jo'shin va vajoxat bilan yon tomonga qarab turgani payti ko'rsatilgan. Ikkinchi xona ham haykallar bilan bezatilgan bo'lib ularning bizgacha faqat parchalari yetib kelgan. Ayniqsa Budda haykalining saqlanib qolgan bosh qismi harakterli.Unda dumalok yuzli Budda boshining peshonasida qo'shimcha ko'z

tasviri ishlangan bo'lib u hamma narsani ko'radigan va biladigan Buddaning iloxiylligini takidlaydi.Haykal qunt bilan ishlangan uning tanasi, yuzi nafis ishlanilishiga etibor berilgan,badani qo'ngirokli zarjiyaklar bilan bezatilgan, kiyimlari yerkin kuk va boshqa harxil ranglar bilan pardozlangan bo'lgan.Budda haykali xonaning turida taxtda o'ltirgan xolda ishlangan bo'lgan. Ibodatxona arablar tomonidan yoqib yuborilgan, haykal esa buzib tashlangan.Haykalda saqlanib qolgan qilich izlari shundan dalolat beradir.

V-VII asrlarda amaliy bezak san'ati ham nihoyatda rivojlandi. Kandakorlik, badiiy to'qimachilik, kitobat san'atida betakror asarlar yaratildi. Inkrustasiya uslubida kitob muqovalari tayyorlandi, qadamatoshli oyoq kiyimlar ishalandi. Bu yodgorliklar haqida zamondoshlarning, tarixchilarning yozib qoldirgan xotiralarima'lumot beradi. Arab qo'shinlari Buxoroda bo'lganlarida xotun podshohning oyogidagi qadama toshli etigini ko'rib hayron bo'lib qolganliklari tarixchilar asarlarida uchraydi. Ustrushona hokimi qimmatbaho, javoxirlar bilan bezatilgan ajdodlarining g'ayridiniy kitoblarini kimhoblarga o'rab asragani uchun hiyonatda ayblangan. VII-VIII asrlarda Samarqand qog'oz ishlab chiqish borasida mashhur bo'lib qog'oz jahon bozorida yuqori baholangan.

**XULOSA**

O'zbekiston hududida ilk feodalizm darida O'rta Sharkda muhim madaniyat o'chog'i bo'lib uning shu davr san'ati badiiy tafakkurining yuksak ko'rinishi va mustaqil yo'nalishidir. Bu san'at o'zida davr ruhi, badiiy did va qarashlarini ifodaladi. Bu davr san'ati o'zida feodal tuzum zodagonlari qarashlari va ixtiyejlarini ifodaladi. Bu san'at Sharq va G'arb anganalari zamirida yuzaga kelgan bo'lsa ham, lekin uning asosini mahalliy san'at, uning asosi bo'lgan xalq ijodi tashkil etadi. San'atkorlarning yuksak mahorati, davr ruhi va nafasini xis etaolishi va shu tuyg'ulari ifodalab o'lmas asarlar yaratdilar shu bilan birga O'rta Osiyo, uning ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan san'at o'tmish san'ati an'analariga yakun yasab yang davr san'atiga yo'l ochdi.

Ma'ruza mashg'ulotlari

| 4-mavzu | Vatanimiz xududida markazlashgan davlatlarning tashkil topishi darida san'at (IX - XII asrlar). |
|---|---|

*1.1. Ma'ruzada ta'lim texnologiyasi*

| *Mashg'ulot vaqti* -2 soat | *Talabalar soni : 26* |
|---|---|
| *Mashg'ulot shakli* | Kirish –axborotli ma'ruza |
| *Ma'ruza rejasi* | 1. Arab istilosi va undan keyin paydo bo'lgan mustaqil davlatlar davrida Markaziy Osiyo sa'ati<br>2. Islom dini va san'at. O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi bilan bog'lik san'at va madaniyatda sodir bo'lgan o'zgarishlar.<br>3. IX - XII asrlarda tasviriy san'at |
| *O'quv mashg'uloti rejasi :* Vatanimiz xududida markazlashgan davlatlarning tashkil topishi darida san'at (IX - XII asrlar).haqida nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash | |

| | |
|---|---|
| *Pedagogik vazifalar*:<br>Arab istilosi va undan keyin paydo bo'lgan mustaqil davlatlar davrida Markaziy Osiyo sa'atini ilmiy yoritib berish<br>O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi bilan bog'lik san'at va madaniyatda sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil etish<br>10. IX - XII asrlarda tasviriy san'at<br>11.talablarga yetkazish | *O'quv faoliyati natijlari:*<br>• Talabalar Arab istilosi va undan keyin paydo bo'lgan mustaqil davlatlar davrida Markaziy Osiyo sa'atini o'rganadilar<br>O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi bilan bog'lik san'at va madaniyatda sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'aqida bilimlarga ega bo'ladilar.<br>•<br>• IX - XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati haqida bilimlarga ega bo'ladilar. |
| *Ta'lim berish usullari* | Ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol javob, suhbat, tushuntirish. |
| *Ta'lim berish shakllari* | Ommaviy, jamoaviy, yakka tartibda, slaydlar |
| *Ta'lim berish vositlari* | O'quv qo'llanma, kompyuter texnologiyalari, doska |
| *Ta'lim berish sharoiti* | Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat , savol javob |

2.2. "Vatanimiz xududida markazlashgan davlatlarning tashkil topishi darida san'at (IX - XII asrlar)." bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

| *Ish bosqichlari va vaqti* | *Faoliyat mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *Ta'lim beruvchi* | *Ta'lim oluvchilar* |
| 1. Mavzuga kirish (15 daqiqa) | 1.1.O'quv kursi nomini aytadi.Ekranga o'quv kursining tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzular ro'yxati bilan tanishtiradi va ularning mazmunini qisqacha yoritadi.<br>1.2.uchinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi<br>1.3.Klaster asosida o'tiladigan mavzuning mazmuni va mohiyatini qisqacha yoritadi. | Tinglaydilar<br>Tinglaydilar |
| 2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol javob usulini qo'llaydi:<br>12.2.2. Arab istilosi haqida nimalarni bilasiz?<br>13.Islom dinining kirib kelishi Markaziy Osiyo madaniyatiga qanday ta'sir ko'rsatdi?<br>14.O'sha davr tasviriy san'ati haqida nimalarni bilasiz?<br>2.3. Ekranda slaydlar namoyish etish bilan haqida to'liq ma'lumotlar beriladi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy jihatlariga qaratadi, ularning dolzarb va ahamiyatli ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. | Savolga javob beradilar Fikrlarini bildiradi<br>Tinglaydilar, zaraur |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.4. Vazifani barcha talabalar yakka tartibda bajarishlarini aytadi.<br>Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularni yo'naltiradi, zarur maslahatlar beradi.<br><br>2.5. Bir necha talabaning ish natijasini tekshiradi, talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi. Zarur bo'lsa, qo'shimchalar kiritadi va ushbu savol bo'yicha to'liq ma'lumot berishini aytadi.<br><br>2.6. Rejaning ikkinchi savoliga doir bo'lgan slaydlarni ekranga chiqaradi va har bittasini to'liq yoritadi.<br><br>2.7. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi. | ma'lumotlarni yozib oladilar.<br><br>Vazifani yakka tartidda bajaradi.<br><br>Ish natijasini taqdim qiladi.<br><br>Tinglaydilar, zaraur ma'lumotlarni yozib oladilar. |
| 3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo'yicha egallagan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanligini alohida qayd etadi hamda kelajakda ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi.<br>3.2. Mustaqil ishlash uchun vaziqa beradi: (1)o'tilgan mavzu asosida B/B/B jadvalini to'ldirib kelish. B/B/B jadvalini to'ldirish qoidasinitushintiradi (2) ikkinchi mavzu bo'yicha keyingi o'quv mashg'ulotiga tayyorlanib kelish. | Savollar beradilar.<br><br>Vazifani yozib oladilar. |

## 4-MAVZU; Vatanimiz xududida markazlashgan davlatlarning tashkil topishi darida san'at (IX - XII asrlar).

### Reja

1. Arab istilosi va undan keyin paydo bo'lgan mustaqil davlatlar davrida Markaziy Osiyo sa'ati.
2. Islom dini va san'at. O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi bilan bog'lik san'at va madaniyatda sodir bo'lgan o'zgarishlar.
3. IX - XII asrlarda tasviriy san'at.

Arablarning O'rta Osiyo yerlariga kirib kelishi xalqni katta baxtsizlikka duchor qildi, tinch hayotinn buzib, rivojlanib borayotgan iqtisodiy va madaniy hayotini izdan chiqardi. Arablar o'zlari bilan islom dinini olib keldilar. O'rta Osiyo

xalqlarining eski dini va u bilan bog’liq bo’lgan hamma yodgorliklarni buzdilar, vayron qildilar. Qimmatbaho metallardan ishlangan haykal va amaliy san’at buyumlari talandi, eritilib yuborildi, devoriy suratlar esa qirib tashlandi; loy va alebastrdan yasalgan haykallar parchalandi. Lekin bu qirg’inlik xalq ijodini to’xtata olmadi. Bosqinchilarga qarshi isyon ko’targan, erk va ozodlikni sevgan xalq noroziligi, uning son-sanoqsiz qo’zg’olon va ko’tarilishlari asta-sekin o’z samarasini ko’rsata boshladi. O’rta Osiyo xalqlarining arab boskinchilariga karshi olib borgan kurashi natijasida asta xalifalik parchalanib uning o’rnida mustaqil feodal davlatlar yuzaga kelaboshladi. Karluklar, o’g’uzlar, toxiriylar davlati shunday dastlabki davlatlardan edi. Arablarga qarshi kurash Markaziy Osiyo yerlarida uzoq vaqt davom etgan. Xalq g’alayonlarini bostirish uchun xalifalik mahalliy boylar, katta yer egalarining kuchidan foydalana boshladi. U yirik yer egasi Somon xudotning o’g’illarini kuchidan foydalanib, bir qator g’alayonlarni bostirishga muofaq bo’ldi. Shundan so’ng Movarounnahr yerlariga Somon xudotning o’g’illari hokim etib tayinlandi. Masalan, Nuxga Samarqandni, Ahmadga Farg’onani, Yax’yoga Shosh (Toshkent) va O’rtatepani berdi. Shunday kilib, maxalliy zadagonlar asta-sekin hokimiyatning qo’lga kirita boshladilar. Samoniylardan Ismoil 888 yili katta davlat tuzishga muvaffaq bo’ldi. Bu davlat tarixida Somoniylar davlati (819-999) nomi bilan mashhur bo’lib Movarounnahr, Xorazm, Xuroson, Sharqiy Eron yerlarini o’z ichiga oldi.Uning dastlabki poytaxti Samarqand bo’lgan. Keyinchalik poytaxt Buxoroga ko’chgandan keyin ham Samarqand davlatning muhim madaniy markazi bo’lib qolgan. Shu yerda birinchi marta samoniylarning ko’mush tangalari zarblangan. Samoniylar davlati 180 yildan ortiq vaqt mobaynida mavjud bo’ldi. Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan markazlashgan Somoniylar davlati O’rta Sharqda alohida o’rinni egallab fan, san’at va madaniyat rivojlanishiga katta to’rtki berish bilan bir qatorda keyinchalik yangi mustaqil G’aznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar kabi turkiy davlatlarining yuzaga kelishiga yo’l ochdi. X1 asrning 20-30 yillariga kelib esa Markaziy Osiyo maydoniga asli kelib chiqishi Sirdaryoning quyi tomonidagi turkiy- saljuqiylar mustaqil davlatlarini tuzib X11 asr 30 yillariga kelib esa Qoroxoniylar boshqaruvini ham o’z qo’llariga olaboshladilar. Lekin sharqdan boshlangan yangi qorxitoylar yurishi Saljuqiylar va Qoraxoniylar davlatini susaytira boshladi. Bu esa Xorazmshohlar davlatini yuksaltirdi. Bu davlat Takesh hukmronligi yillarida(1172-1200) esa sharqdagi qudratli davlatlardan biriga aylandi.

Arablar istelosi va undan keyingi davr Markaziy Osiyo san’ati va madaniyati tarixini qator boskichlarga ajratib ko’rish mumkin. Shuning dastlabkisi U111-1X asr o’rtalariga to’g’ri keldi. Bu istelochilarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi va u bilan bog’liq ozodlik kurashi davri bo’lib san’at va madaniyat o’zharakteri jihatidan tushkunlikni va shu bilan birga yangi jarayonlarning kurtak otishi bilan harakterlanadi. Bu jarayonlar avvalo islom dini va u bilan bog’liq yangi urf odat va marosimlarning kirib klishi (masalan,nomoz o’qish va u bilan bog’liq kiyinish,hayot tarzi va x.k.), qurilmalar paydo bo’lishida bilinadi. Shu davrda mavjud bo’lgan saroy va ayniqsa boshqa dinlarga(zardushtiylik,xristiyan,buddaviylik va x.k) oid ibodatxonalar buzilib yoki qayta o’zgartirib islom diniga mos machitlarga aylantirildi, yangi masjitlar

qurila boshlandi. Arablar istelosi Markaziy Osiyo yerlarida xalqlarning boy madaniy merosini barbod bo'lishiga, ajoyib rassomlik va me'morlik san'ati an'analarining izdan chiqarishiga olib keldi. Haykalaroshlik san'ati rivojini esa butunlay tuxtatib qo'ydi. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida sodir bo'lgan notinch jarayonlar o'ziga to'q va imkoniyati bor bo'lgan toifadagi odamlarni notinch yerlardan tinchroq joylarga o'tishga zaruriyat tug'dirdi. Natijada avvalgi tashlandiq xolga kelgan joylarda yangi qurilma va manzillar yuzaga kela boshladi.

Arab istilochilari O'rta Osiyoga o'zlari bilan arab yozuvini ham olib keldilar. Bu yozuv arablar kirib kelgunga qadar Markaziy Osiyo xalqlari yozuvlaridagi barcha kitoblar yo'q qilini uning bilimdonlari qirib tashlandi. Shunday qilib qadimgi xorazm, so'g'd, uyg'ur yozuvlarini siqib chiqardi. Arab xalifaligining deyarli biryarim asrli istilosidan keyin asta mahalliy madaniyat jonlana boshlandi, vayron bo'lgan shaharlar qaytadan tiklandi, yangilari barpo etildi.Qishloq xo'jaligi sezilarli yutuqlarga erishdi, tog' kon qidiruv ishlar rivojlandi, xunarmandchitlikda yangi texnologik jarayonlar qo'llana boshlandi, jumladan sirli koshin va g'ishtlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi me'morchilik va amaliy,amaliy bezak san'atida qator estetik o'zgarishlar yasay boshladi. VIII asrga kelib Samarqand va Buxoroda qog'oz ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi O'rta Sharq madaniy hayotida muhim o'zgarishlar yasadi. Avvallari qo'llanilgan pergament yoki shoiga nisbatan arzon va qulay qog'ozning muomalada keng ko'lamda ishlatish xattotlik, qo'lyozma kitoblar tayyorlash madaniyati kamol toptirdi. O'rta asrlarda Buxoro va Samarqand qog'ozlari nihoyatda qadrlanib unda rasm ishlashni harbir yevropalik rassom orzu qilar edi. Qog'ozni madaniy hayotga kirib kelishi bilan xattot-kotib mavqi ortib ketdi. Xattotlik shunchaki xunar, kasb bo'libgina qolmay uning ijrochisi san'atkor darajasiga ko'tarildi. Go'zal xattotlik yozuvi nihoyatda yuqori baholanib, mohir xattotlarning dastxatlari tushirilgan alohida varaq - qita san'at muxlislari tomonidan ezozlanib saqlangan va yig'ilgan. Qo'lyozma kitoblar tayyorlashda naqqosh - lavvah muhim o'rinni egallagan. U qo'lyozmaning hoshiya qismini go'zal bo'lishi uchun oltin ranglardan foydalangan, yengil siluetli qush, gul va hayvonlar tasvirini ishlagan. Lavvah kitob boshlanishi oldidan to'rtburchak chizilib ichki qismi murakkab naqsh kompozisiyasi bilan to'ldirilgan. Bunday naqsh kompozisiyalar ko'proq memoriy bezakda ishlanadigan kompozisiyalarga yaqin ishlangan. Rang tizimida esa oltin va kobolt-ko'k rang yetakchi o'rinni egallagan. Qo'lyozmaning yangi bo'lim, xatto boblari yangi varaqdan boshlanib ular ham bezakdor bo'lgan. Qo'lyozmaning so'ngi varagi-sarlaux dumaloq naqsh - medalon tarzida ishlanib undan nozik chiziqlarda shakllar ishlangan. Lavvax o'z ishini tugatgach qo'lyozmani miniatyurachi rassom- musavvir davom ettirgan. Shundan so'ng qo'lyozma muqovasoz qo'liga kelib tekkan. Muqavasoz qo'lyozmani qalin qog'oz yoki maxsus ishlov berilgan teridan tayyorlab qo'lyozma ishiga yakun yasagan. Shunday qilib kitob juda ko'p ustalar hamkorligida yaratilgan jamoaviy ishda har bir mutaxassis o'z ishining mohir ustasi bo'lgan va o'z ishini yuqori mahorat bilan bajargan. Ishga bunday munosabat yaratilgan har bir kitobni nodir san'at darajasida bo'lishiga olib kelgan. Shuning uchun shoh saroyida o'rta asr

madaniyati andozalari yaratildi. Davlatlar poytaxtidagi katta kutubxonalar nodir qo'lyozma va kitoblar bilan to'lib bordi. Olimlar ishlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Shu rivojlanish bosqichidaSamoniylar davri alohida o'rinni egallaydi.Shu davrda davlat poytaxti Buxoro Sharqdagi muhim madaniy va ilmiy markazga aylandi.Uning mashhur kutubxonasi shuhrati olamga taraldi. Algebra otasi, 1X asr buyuk matematik olimi va astronomi Al Xorazmiy yashab ijod qildi, buyuk tabib Ibn Sinoning yoshlik yillarishu Buxoro shahrida o'tdi,u olim sifatida shakllandi.

VIII asr o'rtalaridan boshlab, madaniy va ijtimoiy hayot yana jonlana boshlanib O'rta Osiyo feodalizm formasiyasining rivojlangan davriga qadam qo'ydi, nihoyat IX-X asrlarda O'rta Osiyo yana mustaqillikka erisha boshlagan xalq tasviriy va amaliy san'atda jonlantira boshladi, me'morlikda esa nodir yodgorliklar vujudga kela boshladi. Bu davrga kelib, O'rta Osiyo jahon ilm va fani taraqqiyotida muhim markazlardan biriga aylandi. Bu davrda yashagan tarixchilardan biri somoniylar idora qilgan davrda Buxoro ulug'vorlik markazi, podshohlikning zamini, muqaddas zamonaning dongdor kishilari istiqomat qiladigan makon, butun yer yuzi adabiyotining ajoyib yulduzlari tug'iladigan joy va o'sha zamon olimlarining markazi bo'lib qoldi, deb yozgan edi. Somoniylar davlatni tashkil etishga katta e'tibor berdilar. Sharq va G'arb orasidagi aloqalar rivojlandi. Karvon yo'llar ochildi. Fan va madaniyat yuqori darajada rivojlandi. Markaziy Osiyo olimlari jahon faniga ta'sir ko'rsatdilar. Madrasalar - ukuv yurtlari haqikiy bilim o'chog'iga aylandi. Samarqand, Marv, Urganch, Farg'ona, Choch kabi shaharlar ham madaniy markazlar sifatida tanildi. Haqiqatan ham, bu davrda O'rta Osiyo jahonga qator buyuk allomalarni yetkazib berdiki, ular o'z mehnat va aql-zakovatlari bilan jahon ilmu fani taraqqiyotiga yangi yo'nalish berdilar, uning yangi qirralarini ixtiro etib, ularga jon baxsh etdilar. Al-Xorazmiy, Yevropada Avisenna nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning o'lmas asarlari ko'pgina mamlakat o'quv yurtlarida bir necha asr mobaynida darslik vazifasini o'tab keldi. Al-Beruniy, al-Farobiy, al-Farg'oniy kabi qator mutafakkirlar ijodidagi materialistik dunyoqarash xalq ongiga ta'sir qildi. Bu asrning buyuk Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy kabi allomalari keyingi poeziya taraqqiyotida ham muhim o'rin egalladi.

**Me'morlik.**Me'morchilik san'atida yangi tipdagi binolar, ijodiy g'oyalar yuzaga keldi. Qurilishda pishik g'isht, alibastr, ganch kabi materiallari keng ishlatildi. Mexmonxonalar, istirohat bog'lari qurilishi shahar qiyofasi va topografiyasining o'zgartirib yubordi. Shahar hayoti *rabodga* ko'chdi. Shu yerda shovqin va govjum bozorlar paydo bo'ldi. Savdo qatorlari yaqinida esa xunarmandlar jamoalari shakllana bordi. Shahriston atrofi govjumlashib shahar madaniyati keng yoyilib bordi. Shahristonning muhim qismi mamuriy apparat, hokim saroyi, qamoqxona, maschit qurilib shaharning markazi vazifasini o'tadi. Samoniylar davlatining poytaxti Buxoroda katta qurilish ishlari olib borildi. Kengaygan shahar mudofaa devori bilan mustaxkamlanib 11 darboza orqali shaharga kirish yo'llari belgilandi. Shaharda va undan tashqarida jamoat va turar joylar ko'plab qurildi. Bu qurilishlar asta o'rta asr shahar me'morchilik qiyofanini belgilay boshladi. Masjit diniy va madaniy markaz vazifasini o'tadi. Bu yerda toat ibodat bilan bir qatorda targ'ibiy ishlar ham olib borildi. Masjitlar o'rni va mazmuniga

ko'ra mahalla masjiti(guzar masjiti), juma masjiti, bayram masjiti-nomozgoh(iydgoh, musallo) hamda saroylar, madrasalar va karvonsaroylar tarkibiga kirgan masjitlar qurildi va ularning bezagi va hajmi shunga qarab belgilangan. Odatda juma masjitlari shahar markazida ko'rinarli joyda barpo etilib hajm jihatidan katta bo'lgan. Juma kunlari shahar ahli shu yerga to'plangan, ibodat qilish bilan birga yangiliklardan habardor bo'lgan. Nomozgohlar shahardan tashqarida qurilib uni bayram masjitlari deb ham yuritilgan. Masjit ichida kibla tomonda *mexrob* yonida *minbar* qurilgan. Nomozgohga chiqish uchun *minora* ishlanishi ham shu davr maxsulidir. O'quv dargohlari bo'lgan *madrasala*r qurilishi ham jonlanaboshladi.Sufizm vakillari yig'ilishlari uchun mo'ljallangan maxsus qurilma -*xonakoxl*ar ham shu davrda keng yoyilaboshladi. Xonakoxlar alohida yoki maschit va madrasalarda, ularning yaqinida qurilgan. Shunday xonakoxlar Samarqand, Buxoroda ko'plab uchraydi. Savdo chorraxalarida Chorsu savdo gumbazlari, shahar darbozalari oldida esa *karvon saroylar*, hamda shahar va undan tashqarida maqbaralar qurilishi shu davr memorligini o'ziga xos yangi yunalishlari maxsuli edi. Bu qurilishda bezak san'ati yutuqlari o'z ifodasini topdi. Qurilishda xom g'isht, paxsadan tashqari pishiq g'ishtva alebastr korishmalaridan foydalanish ham muhim bo'ldi. Uchli arka va toqilar ham me'morlik san'ati o'zgarishlarni belgiladi. Bu davrga kelib turar joylar kurilishida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Rejalashtirish asosida qurilgan turar joy binolari kichik hovlilar atrofida qurildi. Shahardan tashqaridagi turar joy binolari qo'rg'on tipida bo'lib baland tepalik ustiga qurilgan. Tashqi devorlari esa gafrili bo'lgan. Somoniylar davlatining muhim markazlaridan bo'lgan Marvda shunday kal'a qoldiqlari saqlanib qolgan. Bu davrda qurilgan binolar to'rtburchak, kvadrat shaklida bo'lib tepasi ravoqli yoki gumbazli bo'lgan. Ma'lumortlarga ko'ra shu davrda qurilgan kasrlar ikki kavatli bo'lgan. Masjitlar tusin bilan yopilgan.

Bu davrga kelib qurish texnikasi mukamallashdi, qurilishda pishiq g'ishtning keng qo'llanilishi me'morlikning murakkab kompozisiyalarini yaratish imkoniyatini berdi. Egri ravoqli tomlar bilan bir qatorda, gumbazli binolar qurilishi ham keng yo'lga qo'yila boshlandi. Pishiq g'ishtlarni turlicha terish natijasida bino devorlarining o'ziga xos bezagini yaratish tendensiyasi ortdi. Arka va yarimarkalar me'morlikda eshik, darcha, tokcha va taxmonlarda ishlatila boshlandiki, bular ham shu davr binolarining o'ziga xos ko'rinishida muhim rol o'ynadi. Bu davrda naqshinkor mehmonxonalar, ko'rkam istirohat bog'lari hamda antiqa hovuzlar bunyod etildi. Shu davrlarda, hatto islom dini bilan bog'liq bo'lgan gumbazli machitlar bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjuddir.

Davrning ajoyib me'moriy qurilmasi bo'lgan somoniylar maqbarasi haqli ravishda jahon me'morlik san'atining nodir yodgorligi hisoblanadi. Rasm Samoniylar maqbarasi.Bu yodgorlik dastlab o'zining soddaligi va tuzilishining aniqligi, nisbatlarining mutanosibligi va me'morlik shakl bezagining bir-biri bilan nihoyatda nafis uyg'unlashib ketganligi bilan ajralib turadi. Maqbara asosi kvadrat bo'lib, uning hajmi katta emas (7,20x7,20 m.), to'rt tomonida nayzasimon arkali eshik mavjud. Maqbara tashqi tomondan tepaga bir oz torayib boruvchi kub va uning ustiga o'rnatilgan yarim aylana shaklidagi qozonni eslatadi. Binoning tashqi devor yuzasi pishiq g'ishtning turlicha taxlanishi hisobiga

badiiylashtirilgan. g'ishtning goh yon, goh burchak qilib qo'yilishi yuzada yorug'-soya o'yinini oshirib, uning xushmanzarali bo'lishini ta'minlagan. Bu yorug'-soya o'yini esa quyosh no'rining o'zgarishi bilan turlanib boradi va binoga har safar qaytarilmas joziba kiritadi. Bir oz mungli ko'ringan bino abadiy uyqudagilar uchun sokin va mungli sukut saqlayotgandek tuyuladi.
X asr oxiri X1 asr boshlarida qurilgan Mir Said Baxrom maqbarasi ham kub-gumbazdan tashkil topgan. Lekin, sodda ishlangan bir eshikli bu maqbaradan boshlabg'ishtning bezak roliqisqara bordi.

Rabot Malik karvon saroyi X1 asr barpo etitlgan.Bu binoning chekkasida minorasi pishik g'isht bilan kafelga o'xshatib pardozlangan .Devor old tomon devorini yarimaylana ustun va arkali ishlanishi hamda peshtoqli darboza qurilishi keyingi Movarounnahr memorligi rivojida muhim rol uynaydi. Bu me'morchilik VII-VIII asr mahalliy me'morchilik va bezak san'ati an'analari asosida qurilgan yangi davrdagi rivoji edi. Bu davrda katta qurilishlar rivoji mavjud qurilshp konstruksiyalarining o'zgarishi va murakkablashishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar pishik g'ishtdan foydalanish bilan bog'liq va gumbaz ravoqlarning harakterida ifodasini topdi. Katta qurilishlar esa quruvchilarga talabni oshirdi. Xunarmandlar sexlari vujudga kela boshladi. Shogirdlik keng kuloch yoyaboshladi. Ayni shu davrga kelib umuman keyingi feodalizm davriga xos bo'lgan monumental me'morchilik qurilmalarining tiplari yaratildi. To'rt ayvonli kompozisiya ayniqsa keng yoyildi. Rabati molik (Buxoro) yodgorliklari old tomoni to'rtburchakli nayzasimon arkali taxmonga o'xshash peshtoq bilan kirish qismi boshlangan.

X1-X11 asrda maschit qurilishi ham keng rivojlandi va uning o'ziga xos tipi yuzaga keldi. Asosi kvadrat shaklidagi gumbazli bino kompozisiyalar O'rta Osiye yerlarida keng tarkaldi va mahalliy sharoitga karab ueiga xos fazilat va ko'rinish kashf etdi. Bu davrda *peshtoq-gumbazli maqbaralar* qurilishi ham rivojlandi. Peshtoqlari esa badiiy bezatilgan. Maschitlar qurildi, ularda ham yangi uslub va yunalishlar yuzaga keldi. Jumladan: XP asrda qurilgan Magoka Attori maschiti Movorounnaxr me'morligida yangi uslubiy izlanishni boshlanishida turgan yodgorliklardan hisoblanadi. X1-X11 asrda minora qurilishi ham keng odat tus oldi. O'rta Osiyedagi eng baland minora Buxorodagi Kolon maschiti minorasi bo'lib uning badandligi 60 m,ga yetadi. Bularda ham g'ishtning badiiy imkoniyatlari ularning tashki bezagini belgilashda muhim rol uynagan. Aslida g'isht minora yuzasi naqshini tashkil etuvchi birdan bir element bo'lib qolgan. Ularning taxlanishi va turish xolati hisobiga yuza o'ziga xos ko'rinish va latofat kashf etgan. Jarqo'rg'on minorasi (1108-09 yillar) o'ziga xos uslubda yaratilgan va harakteri jihatidan avvalgi U1-USh asr me'morchilik uslubini davom ettiradi( rasm). Bu minora usta Maxmud ugliAli tomonidan qurilgan. Keyinchalik shu Jarko'rgon minorasiga o'xshash qurilma Delida (Kutb-Minor), Xurosondagi minorali maqbarada o'z aksini topgan. Va bu minoralar rivojiga O'rta Osiyo memorligi uslubini tasiri borligini etirof etish kerak.Kalon maschit va uning ajoyib minorasi (1127) O'rta Osiyo megmorligida g'ishtdan bezak berish, san'atining yuksak namunasi sifatida mashhurdir( rasm).

1196-1211 yillarda qurilgan Vobkentdagi minora nisbatlarining nozik topilganligi va nihoyatda yuqoriga intiluvchan ajoyib konussimon shaklining

mustaxkam va mag'rurligi bilan harakterlanadi. Quruvchi Sadr Burxonidin Abdulaziz P nomi minora bezak ichida yozib koldirgan. Bu davrda marhumlar ruhini abadiylashtirishga qaratilgan maqbaralar qurilishi ham o'ziga xos shakllarni yaratdi. Ko'hna Urganch (Xorazm) dagi Faxriddin Roziy va Tekesh maqbarasi o'ziga xos xususiyatga ega. Garchi u O'rta Osiyoda keng tarqalgan peshtoq-gumbazli kompozisiya tipiga kirsa ham, lekin u qirrali barabanga o'rnatilgan chodirsimon gumbazdan tashkil topgan. Turkmanistondagi peshtoq-gumbazli binolar bezatilishida g'ishtning badiiy imkoniyatidan keng foydalanilgan.

T*asviriy san'at*. Arab istelosidan keyin Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan Somoniylar va undan keyin paydo bo'lgan, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Horazm shohlar davlatlarning hukmdorlari o'z saroy va qasrlari, mexmonxona va hammomlarni mavzuli va manzarali rasmlar va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e'tibor berdilar, Bu tasvirlarda jang va ov manzaralari, qabul marosimlari va ziyofatlar, hokimlarning portretlari ishlangan. Jumladan Maxmud Gaznaviyning saroy devorlariga turli rasmlar, hukmdor va uning yaqinlari tasvirlari ishlangan, saroy devorlarida bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. G'aznaviylar saroyi bezaklarida monumental haykaltaroshlik keng o'rinni egallagan. Lashkari bozor saroyi relyeflari, gilamsifat bo'rtma naqsh namoyonlari yuksak mahorat bilan ishlangan. Maxmudning davomchisi bo'lgan shaxzoda Masud saroyi rasmlarida ishq-muhabbat mavzuidagi rasmlar ishlangan bo'lgan. IX-XIII asrlarda O'rta Osiyo san'atida haykaltaroshlik hali to'liq siqib chiqarilmagan edi. Yozuv manbalarida, bu asrlarda keng maydonlarda haykallar bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Lekin ular bizgacha saqlanmagan. Lekin shu davrdan boshlab, ijtimoiy hayotda rang va o'yma naqqoshlik san'ati keng o'rinni egallay boshlagan. Naqqoshlar o'z ijodlarida turli geometrik shakllardan tashqari, o'simliklar, hayvon va qushlar tasviri bo'lgan naqshlardan foydalanib kompozisiyalar yaratganlar. Ularda davr kishilarining fikr-tuyg'ulari ifodalangan. Bu davrda tasviriy san'atning portret janrida asarlar yaratilganligi haqidagi ma'lumotni sharqning buyuk allomasi Abu Ali ibn Sino portretini chizish to'g'risidagi voqyea ham harakterlaydi.Bu rivoyatda Ibn Sino Mahmud G'aznaviyning injiqliklaridan bezib saroydan ketib qolganligi uchun hukmdor g'azablanib uni topishni buyurgan va rassom Ibn Arroqga Ibn Sinoning portretini chizdirib rassomlarga berib ko'paytirtirgan va shu portretlarni atrofdagi qishloqlarga tarqattirgan ekan.

Bu davrda amaliy san'at yana jonlandi. Kulolchilik, shisha san'ati, zargarlik rivojlandi. Buyumlarini turli tasvirlar bilan bezatish keng yoyildi. Bezak san'atida keng jonivor va qushlar , afsonaviy hayvonlar tasviri ishlatildi. Buxorodagi Magoki Attori maschiti, Termizdagi saroy bo'rtma tasvirlari shunga misol ilib olish mumkin. Lekin ularda ayrim tasvirlar masalan, hayvonlar tasviri real shakllar ishlanganini inobatga olinmasa ko'p xollarda real borliq nihoyatda soddadashtirilgan va naqsh elementiga aylantirilgan xolda ishlangan. Real tasvir unsurlari yog'och va tosh o'ymakorligi san'atida ko'p uchraydi. Shunday uymakorlik Zarafshon vohasida topilan ustunga ishlangan naqshlarda ko'rish mumkin. Unda o'simliklar, hayvon va qushlar tasviri bilan qo'shilib ketgan. Qush, baliq, hayvonlar soddalashtirilib ishlangan.

Misgarlik, kandakorlik(torevtika) va metall quyish san'ati ham bu davrda yuksaklikka erishgan. Katta naqshli mis kozonlar, turli satil va shamdonlar shu davrda yuksak badiiy buyum kuyish san'atidan dalolat beradi. Shu davrda katta va o'rta kattalikdagi shaharlarda shishadan buyumlar yasash yo'lga kuyilgan edi. Kuldortepa (Samarqand yaqinida), Varaxsha (Buxoro yaqinida)da shishasozlik manzillari arxeologlar tomonidan ochilgan. Shishadan amaliy va pardoz buyumlari ishlangan. Ularning shakli har xil, oyokli bakal, ko'za, mayda idishchalar shuni dalilidir( shisha idishlar rasmi). Ko'pgina shaharlar va qishloqlarda kulol ustaxonalari tashkil topdi. Ishlangan kulolchilik buyumlariga ishlov berish, amaliy, ko'p xollarda okfonga bo'yalgan sopol buyum yuzalariga Qora-kizg'isht-jigarrang buyoklarda tasvirlar ishlangan, kufiy yozuvida turli nasixat so'zlari yozilgan. Bu davrda uyma koshinlar ishlash ham keng tarqalgan. Bunday o'yma koshin va sopol buyumlar amaliyotda ishlatilgan,me'morchilik majmularii bezatilishi ham shu yangi san'at ishlatilgan. Samarqandagi Ibroxim ibn Xasan (1186-1199), Termizdagi maqbara va saroylarda, Xorazmda qurilgan maschit (m.Juma Maschit) shunday uyma sopol koshinlarda pardozlangan.

Bu davr monumental-dekorativ san'ati ko'prok uymakorlik va bo'rtma nakkoshlik san'ati sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda qurilgan binolarning devorlari, ayniqsa tashki tomonlari sirli koshinlar hamda pishirilgan g'isht yoki shakllar bilan bezatilgan. To'qimachilik, borasidagi jiddiy yutuqlarga erishildi .

**Ma'ruza mashg'ulotlari**

| **5-mavzu** | **Markaziy Osiyoning XIII-XIV asrlar (birinchi yarimi) davri san'ati** |
|---|---|

*5.1. Ma'ruzada ta'lim texnologiyasi*

| *Mashg'ulot vaqti* -2 soat | *Talabalar soni : 26* |
|---|---|
| *Mashg'ulot shakli* | Kirish –axborotli ma'ruza |
| *Ma'ruza rejasi* | 1. Mo'g'ullar istilosi davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvol.<br>2. Mo'g'ul davri ilk memorchiligi. Uzoq sharq sanati tasiri.<br>3. Amaliy san'at. Kulolchilik, o'ymakorlik san'ati |
| *O'quv mashg'uloti rejasi :* Markaziy Osiyoning XSh-XIV asrlar (birinchi yarimi) davri san'ati haqida nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash | |
| *Pedagogik vazifalar*:<br>Mo'g'ullar istilosi davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvol ilmiy adabiyotlar asosida yoritib berish Mo'g'ul davri ilk memorchiligi. Uzoq sharq sanati tasiri tahlil etish 15. | *O'quv faoliyati natijlari:*<br>Talabalar Mo'g'ullar istilosi davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvol haqida bilib oladilar. Markaziy Osiyoda mo'g'ullar istilosidan keyin ma'morchilik, o'ymakorlik san'ati va boshqa san'at yo'nalishlari haqida bilimlarga ega bo'ladilar. |
| *Ta'lim berish usullari* | Ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol javob, suhbat, tushuntirish. |
| *Ta'lim berish shakllari* | Ommaviy, jamoaviy, yakka tartibda, slaydlar |
| *Ta'lim berish vositlari* | O'quv qo'llanma, kompyuter texnologiyalari, |

| | |
|---|---|
| | doska |
| *Ta'lim berish sharoiti* | Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat , savol javob |

2.2. "Markaziy Osiyoning XIII-XIV asrlar (birinchi yarimi) davri san'ati" bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

| *Ish bosqichlari va vaqti* | *Faoliyat mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *Ta'lim beruvchi* | *Ta'lim oluvchilar* |
| 1. Mavzuga kirish (15 daqiqa) | 1.1.O'quv kursi nomini aytadi.Ekranga o'quv kursining tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzular ro'yxati bilan tanishtiradi va ularning mazmunini qisqacha yoritadi.<br>1.2.beshinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi<br>1.3.Klaster asosida o'tiladigan mavzuning mazmuni va mohiyatini qisqacha yoritadi. | Tinglaydilar<br>Tinglaydilar |
| 2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol javob usulini qo'llaydi:<br>16.2.2. Markaziy Osiyoga mo'g'ullar istilosi qanday oqibatlarga olib keldi?<br>17.Mo'g'ullar istilosi Markaziy Osiyo madaniyatiga qanday ta'sir ko'rsatdi?<br>18.O'sha davrda qaysi shaharlar qurilgan?<br>2.3. Ekranda slaydlar namoyish etish bilan haqida to'liq ma'lumotlar beriladi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy jihatlariga qaratadi, ularning dolzarb va ahamiyatli ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.<br>2.4. Vazifani barcha talabalar yakka tartibda bajarishlarini aytadi.<br>Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularni yo'naltiradi, zarur maslahatlar beradi.<br>2.5. Bir necha talabaning ish natijasini tekshiradi, talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi. Zarur bo'lsa, qo'shimchalar kiritadi va ushbu savol bo'yicha to'liq ma'lumot berishini aytadi.<br>2.6. Rejaning ikkinchi savoliga doir bo'lgan slaydlarni ekranga chiqaradi va har bittasini to'liq yoritadi.<br>2.7. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan | Savolga javob beradilar Fikrlarini bildiradi<br>Tinglay dilar, zaraur ma'lumotlarni yozib oladilar.<br>Vazifani yakka tartidda bajaradi.<br>Ish natijasini taqdim qiladi. |

| | | |
|---|---|---|
| | savollarga javob beradi. | Tinglay dilar, zaraur ma'lumotlarni yozib oladilar. |
| 3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo'yicha egallagan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanligini alohida qayd etadi hamda kelajakda ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi.<br>3.2. Mustaqil ishlash uchun vaziqa beradi: (1)o'tilgan mavzu asosida B/B/B jadvalini to'ldirib kelish. B/B/B jadvalini to'ldirish qoidasinitushintiradi (2) ikkinchi mavzu bo'yicha keyingi o'quv mashg'ulotiga tayyorlanib kelish. | Savollar beradilar.<br>Vazifani yozib oladilar. |

## 5-MAVZU: Markaziy Osiyoning XIII-XIV asrlar (birinchi yarimi) davri san'ati

### Reja

1. Mo'g'ullar istilosi davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvol.
2. Mo'g'ul davri ilk memorchiligi. Uzoq sharq sanati tasiri.
3. Amaliy san'at. Kulolchilik, o'ymakorlik san'ati

Markaziy Osiyodagi yirik Xorazmshoh davlati 1219 –1221 yillari Chingizxon boshliq mo'g'ul qo'shinlari yurishidan parchalanib, gullab turgan bog'u-rog'lar, sergavjum bozorlar, qanchadan-qancha shaharlar kulga aylandi. Mo'g'ullarga qarshi kurashda Jadoliddin Manguberdi va xo'jandlik Temur Malik katta jasorat ko'rsatdilar. Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi birgalikda mo'g'ullarga katta talofat yetkazdilar. Lekin mo'g'ullar ko'p va kuchli edi. Buning ustiga mahalliy zadogonlar o'z jonlarini saqlab qolish uchun mo'g'ullar bilan til topishga harakat qilib, mudofaachilarga ziyon yetkazdilar.

Chingizxon bosib olgan mamlakatlarini tiriklik paytidayoq o'gillariga bo'lib bergan edi. Amudaryoning sharqiy tomonlari va Mavorounnaxr uning ikkinchi o'g'liChig'atoyga tegdi, lekin xokimiyatni aslida mahalliy zodogon Maxmud Yalovoch boshqardi. Bu hududning poytaxti etib Kuxna Urganch belgilandi.
Mavorounnaxr yerlariga o'rnashgan mo'g'ullar asta-sekin o'troqlashib mahalliy xalq urf-odatini qabul qila boshladilar. Ular mahalliy aholi bilan yaqinlashgan sari turmush tarzi ham o'zgarb bordi. Mo'g'ullar bosib olgan yerlaridagi muhit ularning tillarida ham ifodasini topdi. Chunki, mo'g'ullarning O'rta Osiyoga kirib kelishlari bilan bu yerda turkiylashuv yanada oshdi. Turkiylar Tyanshan dalalaridan va Oltoy tog'laridan bu yerlarga mo'g'ullarning ittifoqchilari va yordamchilari bo'lib kelgan edilar. Jayhun sohilida o'zlarining hamqabilalari va qarindoshlarini - ilgari zamonlarda kelib o'rnashib qolgan turklarni topdilar. Keyinchalik bu tilning kengayishida va yoyilishida Markaziy Osiyoga kelib o'troqlashgan mo'g'ul zodogonlarining turkiy tilni saroy tili hamda jonli so'alashuv tili sifatida ishlatilishi ham muhim bo'ldi.

Mo'g'ullar o'zlarining madaniy-manaviy rivojida bosib olgan xalqlar, jumladan, O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan orqada edilar. Ularning o'ziga xos san'ati mavjud bo'lsa ham, lekin uning bosib olgan yerlariga tasiri deyarli yo'q, tasviriy san'at va me'morchilikda esa tasir etishdan ko'ra ta'sirlanishga moyillik kuchliroq edi.

Me'morchilik. Mo'g'ul xonlari boshqargan dastlabki yillarda Markaziy Osiyo yerlarida buddaviylik ibodatxonalari barpo etilgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra Mervda(Turkmaniston) shunday ibodatxona qoldiqlari ochilgan bo'lib Uzoq sharq va maxalliy san'at an'analari uyg'unligida yaratilgan , bezak san'atida esa O'rta Osiyo girix va koshinlar qo'llanilgan. Mo'g'ullar o'troqlashib mahalliy urf-odatlarni o'zlashtirganlari sari o'zlari ham san'at buyurtmachisiga aylanabordilar. 1321 yili mo'g'ul xoni Tarmashirin islom dinini rasmiy din sifatida qabul qildi. Shu davrdan boshlab shu din bilan bog'liq qurilmalar ko'paya boshladi. Mo'g'ul xonlari shu din bilan bog'liq qurilishlarga pul ajrata boshladilar. Mamlakatda osoishtalik fan va madaniyatning jonlantira boshladi. Shu davrda pochta xizmati yo'lga qo'yildi, qog'oz pullar chiqarildi, Naqshbandiylikka asos solindi. Bahovuddin Naqshbandiy (1318-1389) uning asoschisi edi.

Mashhur sayoh Ibn Batuta mo'g'ul xoni Tarmashirin davrida Kuxna Urganchda bo'lib u yerdagi yog'ochdan qurilgan saroyda ko'p xonalar va ikkita qabulxona bo'lganligini, boy zodagonlarning uylarining xonalari turli gilam va palaklar (so'zanalar) bilan bezatilganligini, devor sathida juda ko'p tokchalar , ularda turli idishlar qo'yilganligi haqida yozgan.

Bu davrda mo'g'ul xonlari maschid, madrasa, maqbaralar qurishga xomiylik qildilar, mablag ajaratganliklari davr yodgorliklarida o'z ifodasini topgan. Jumladan mo'g'ul xoni Munkening (1251-59) onasi mablag'iga Xoniyo madrasasi qurilgan, Duvaxon (1282-I306) Andijon shahriga asos soladi, Kepakxon(1306-1326) esa qadimgi Nasaf shahri yonida hashamatli saroy qurdiradilar. Keyinchalik bu saroy atrofida Qarshi shahri vujudga kelgan. Bu davrda eski shaharlar tamirlanadi, yangi shaharlar qurildi. Xunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari jonlana boshladi. Istelo davridagi madaniy jonlanishda mahalliy zodagonlar ham ishtirok etaboshladilar. Jumladan Mahmud Yalovochning o'G'LI Masudbek (1238-89) epchil, ishbilarmonligi bilan tanildi. Uning davrida katta qurilishlar amalga oshirildi. Qurilishda me'morlikning mo'g'ullar kelgunga qadar O'rta Osiyoda shakllangan me'morchilik uslubi yetakchi o'rnni egallab mazmunan boyidi. Peshtoqli gumbazli binolar, sirli koshin va bezaklar bilan pardozlandi. Bu davrdan yana koshinsozlik, me'morchilik bezaklarini ishlash san'ati rivojlana boshladi. Ma'sudbek qurdirgan binolar ichida so'zsiz, Masudbek madrasasi alohida o'rinni oldi. Tarixchilarning yozishicha bu madrasa o'z vaqtida 1000 dan ortiq talabalar o'qigan. Bu davrda qurilish murakkablashib borganligini qo'sh gumbazli, chodirgumbazli va markaziy peshtoq gumbazli binolarda ham ko'rish mumkin. Shu yillarda madrasalar qurilishiga asos solindi. dastlab Buxoroda, so'ng musulmon dunyosining Eron, Iroq.,Suriya, Kichik Osiyo, Misr va boshqa o'lkalariga yoyildi. Buning sabab, islom dini aynan shu zaminda, zardo'shtiylik va buddizmning kuchli ta'siriga to'qnash kelgani, diniy g'oyalar o'rtasida kuchli raqobat islomni targib qiluvchi

malakali da’vatchilarni tayyorlovchi oliy maktablarga ehtiyojni ko’chaytirib yuborgan edi. Mo’g’ul xonlari, ayniqsa, Qutlug’ Temur davrida Xorazm poytaxti Urganch gullab yashnadi. Uning jo’g’rofiy o’rnining qulayligi, Sharqni Yevropa bilan bog’lovchi buyuk Ipak yo’li ustiga joylashganligi shu rivojda muhim bo’ldi. Bu shahar sergavjum va go’zal edi. Keng ko’chalar, gavjum bozorlarda turli mamlakat odamini uchratish, xoxlagan molni harid qilish mumkin edi.

Bu davrda fan va madaniyat ham jonlana boshladi. Mahalliy zodagonlarning rolini ortib bordi, mo’g’ul istelosi davrida yashab ijod etgan , unga ochiq yoki zimdan kurash olib borgan shaxslar Najmiddin Qubro(14 asrning 30 yillari, Turkmaniston), To’rabek xonim(14 asrning 60 yillari, Turkmaniston, Kuxna Urganch),Jalodiddin Rumiy, Burxoniddin Rabg’o’ziy, Sayfi Saroyi uchun maqbaralar qurildi. Quxna Urganchdagi minora mo’g’ul xoni Qutlug’ Temurning xotini To’rabek xonim masjitiga taaluqli. Tura bek xonim minorasida Qutlug’ Temur va O’zbekxon nomi yozilgan. Minoraning balandligi 62 metr bo’lib bu minora O’rta Sharqdagi dastlabki eng katta minoralardan hisoblanadi. Minoraning bezak yechimi ham o’ziga xos.Unda g’ishtning terishda turlicha yo’nalishda olinganligi hamda minorani o’rab turgan o’rama bezaklar mavjudligi shu o’ziga xoslikni hosil qilgan. Minoraning teppa tomon sari torayib borishi unga mustahkam ko’rinish bergan. Minoraning teppa qismi muqarnasli bo’lgan deb taxmin qilinadi. 13-14 asrlarda me’morchiligida bir qator uslubiy o’zgarishlar sodir bo’ldi. Me’morchilik kompozisiyasida hajm va fazoviy kenglik yechim murakkablashdi. Murakkab me’moriy majmualar barpo etildi. Maqbaralarda ziyoratxona, darvishlar zikr tushadigan xona va xo’jalik uchun kerak bo’lgan qurilmalar ishlandi. Bu xususiyatlar shu davrda qurilgan Buyon Qulixon, Sayid Alovuddin, Shayh Muxtor Vali maqbaralari majmuasida ko’rish mumkin. Shu bilan birga bu asrlarda me’moriy bezak san’atining o’rni ortib bordi. Xandasiy va islimiy naqshlar kitobalar bilan uyg’unlikda qurilgan majmualarning ko’rinishini belgilab yangi estetik muxitni yarata boshladi. Binoning tashqi va qisman ichki pardozida rang yetakchi o’ringa chiqa boshladi. Shu davrda Shohi zinda me’moriy majmuasi shakllana boshlandi, bezakdor maqbaralar yaratildi. Shunday yodgorliklardan biri Sayfiddin Boharziy maqbarasidir. Baland peshtoqli, tuxumsimon qo’shgumbazli bu maqbara shu tomonlari bilan avvalgi davr yodgorliklaridan ajralib turadi. XIV asrlarda Samarqand, Xiva shaharlarida, Qozog’iston, Tojikiston, Turkmaniston yerlarida ham muhim yodgorliklar yaratilgan. Shulardan Buxorodagi Buyan kuli xon, Kuxna Urganchdagi To’rabek xonim maqbaralari va ularning badiiy yechimi,Tojikistondagi Duva xon maqbaralari mashhur. Shuni ta’kidlash kerakki, XIII asr oxri XIV asr boshlarida me’morlik san’ati birqator yangi uslub va texnologik jarayonlar bilan boyib mukammallashdi. Qubbali, qo’shgumbazli va chodirsimon gumbazli binolar qurildi. Bu davrda turli dinga sajda qiluvchilar bo’lganligi sababli u dinlar bilan bog’liq qurilmalar mavjud bo’lgan. Mashhur sayyoh Marko Poloning yozishicha Samarqand, Tabriz, Qashg’arda xristianlarning cherkovlari bo’lgan. XIII asr oxri XIV asrlar tasviriy san’at haqida gapirish qiyin. Bu san’atga oid muhim asarlar hozircha chuqur taxlil etilmagan, lekin amaliy, amaliy bezak san’ati jonlangani hamda bu san’at shakl va rang jihatidan boyib borganligini e’tirof etish mumkin. Jumladan bu davrda

me'morlik uchun sirli koshinlar ishlash, ularning yuzasiga islimiy va handasiy naqshlar chizish shu davrdan bizgacha yetib kelgan sopol parchalari va koshinlar keng uchraydi Bu topilmalada sopol yuzasiga sir berishda rang tuslanishiga katta e'tibor berilganligi ko'rinadi. Shu davrga mansub sopol tovoqchalarning parchalarida saqlanib qolgan turli qush va hayvonlarning rasmlari, bronza idishlarning yuzasiga ishlangan bo'rtma tasvirlar ham shu davrda tasviriy san'at kishilar muhitining ajralmas qismi bo'lganligini ko'rsatadi. Bu davrdan xattotlik va miniatyura san'ati ham rivojlana boshladi. Islom dinini rasmiy din sifatida qabul qilinishi bu rivojga ijobiy ta'sir qildi. Chunki dinni o'rganish va targ'ib qilish uchun zarur bo'lgan kitobot san'ati shunga mos keldi. Saroy va masjitlar qoshida xattotlar va miniatyura rassomlari - musavvirlar to'plana boshladi. Xattotlik va u bilan bog'liq kichik hajmli tasvirlar- miniatyuralarga talab ortib bordi, raqobat paydo bo'ldi. Raqobat esa san'atni rivojlanishida kuchli stimul bo'ldi.

## Ma'ruza mashg'ulotlari

| **6-mavzu** | **Amir Temur davri san'ati** |
|---|---|

*6.1. Ma'ruzada ta'lim texnologiyasi*

| | |
|---|---|
| *Mashg'ulot vaqti* -2 soat | *Talabalar soni : 26* |
| *Mashg'ulot shakli* | Kirish –axborotli ma'ruza |
| *Ma'ruza rejasi* | 4. Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqand va Hirotda kurilish va me'morchilik, tasviriy san'at.<br>5. Amir Temur davri sanati<br>6. Miniatyura va devoriy rassomlik |
| *O'quv mashg'uloti rejasi :* Mo'g'ullar istilosi davrida O'zbekiston san'ati haqida nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash | |
| *Pedagogik vazifalar*:<br>Temur va temuriylar davlati xususiyati, uning san'at va madaniyat rivojiga qo'shgan xissasi. Amir Temur davri sanati Miniatyura va devoriy rassomlik, Temuriylar davri san'ati, Shohruh va Ulugbek davri san'ati, Kamoliddii Bexzodning Hirot maktabi ni yoritib berish | *O'quv faoliyati natijlari:*<br>Talabalar Temur va temuriylar davlati xususiyati, uning san'at va madaniyat rivojiga qo'shgan xissasini bilib oladilar.<br>Amir Temur davri sanati Miniatyura va devoriy rassomlik, Temuriylar davri san'ati, Shohruh va Ulugbek davri san'ati, Kamoliddii Bexzodning Hirot maktabi haqida bilimlarga ega bo'ladilar. |
| *Ta'lim berish usullari* | Ko'rgazmali ma'ruza, namoyish etish, savol javob, suhbat, tushuntirish. |
| *Ta'lim berish shakllari* | Ommaviy, jamoaviy, yakka tartibda, slaydlar |
| *Ta'lim berish vositlari* | O'quv qo'llanma, kompyuter texnologiyalari, doska |
| *Ta'lim berish sharoiti* | Texnik vositalardan foydalanishga va |

| | |
|---|---|
| | guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat , savol javob |

2.2. "Amir Temur davri san'ati" bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

| *Ish bosqichlari va vaqti* | *Faoliyat mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *Ta'lim beruvchi* | *Ta'lim oluvchilar* |
| 1. Mavzuga kirish (15 daqiqa) | 1.1.O'quv kursi nomini aytadi.Ekranga o'quv kursining tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzular ro'yxati bilan tanishtiradi va ularning mazmunini qisqacha yoritadi.<br>1.2.oltinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi<br>1.3.Klaster asosida o'tiladigan mavzuning mazmuni va mohiyatini qisqacha yoritadi. | Tinglaydilar<br><br>Tinglaydilar |
| 2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol javob usulini qo'llaydi:<br>*7.* 2.2. Amir Temuriylar davlati haqida nimalarni bilasiz?<br>*8.* Temuriylar davriga bag'ishlab yozilgan tarixiy asarlarni bilasizmi?<br>*9.* Amir Temur davrida qanday obodonchilik ishlari olib borilgan?<br>*10.*Temuriylar davrida ilm fan madaniyat rivojlanishiga nimalar sabab bo'ldi?<br>*11.*Ulug'bekning ilmiy maktabi haqida nimalarni bilasiz?<br>*12.*2.3. Ekranda slaydlar namoyish etish bilan haqida to'liq ma'lumotlar beriladi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy jihatlariga qaratadi, ularning dolzarb va ahamiyatli ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.<br>2.4. Vazifani barcha talabalar yakka tartibda bajarishlarini aytadi.<br>Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularni yo'naltiradi, zarur maslahatlar beradi.<br>2.5. Bir necha talabaning ish natijasini tekshiradi, talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi. Zarur bo'lsa, qo'shimchalar kiritadi va ushbu savol bo'yicha to'liq ma'lumot berishini aytadi.<br>2.6. Rejaning ikkinchi savoliga doir bo'lgan slaydlarni ekranga chiqaradi va har bittasini to'liq yoritadi. | Savolga javob beradilar Fikrlarini bildiradi<br><br>Tinglay dilar, zaraur ma'lumotlarni yozib oladilar.<br><br>Vazifani yakka tartidda bajaradi.<br><br>Ish natijasini taqdim qiladi.<br><br>Tinglay |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.7. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi. | dilar, zaraur ma'lumotlarni yozib oladilar. |
| 3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo'yicha egallagan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanligini alohida qayd etadi hamda kelajakda ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi.<br>3.2. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: (1)o'tilgan mavzu asosida B/B/B jadvalini to'ldirib kelish. B/B/B jadvalini to'ldirish qoidasinitushintiradi (2) ikkinchi mavzu bo'yicha keyingi o'quv mashg'ulotiga tayyorlanib kelish. | Savollar beradilar.<br><br>Vazifani yozib oladilar. |

## 6-MAVZU: Amir Temur davri san'ati

### Reja

1. Amir Temur va Temuriylar davlati xususiyati, uning san'at va madaniyat rivojiga qo'shgan xissasi.
2. Amir Temur davri sanati
3. Miniatyura va devoriy rassomlik

**Tayanch iboralar:**Amir Temur, miniatyura, xattotlik, devoriy rassomlik, temur bog'lari.

Chingizxon barpo qilgan imperiya XIII asr oxirlariga kelib qator mustaqil, bir-biriga alohasi bo'lmagan davlatlarga ajrala boshladi. Buning ustiga Chingizxon vorislari tomonidan taxt uchun bo'lgan kurashlar ham bu davlat qudratini susaytira boshlagan edi. Ana shu davrda Markaziy Osiyoda yangi hukmdor Amir Temur maydonga chiqa boshladi. Temur o'zmavqyeini mustahkamlab borib, 1370 yili butun Mavorounnaxrni egalladi va Samarqand shahrini o'zsaltanatining poytaxti etib tayinladi. Asta-sekin bu davlat kengayib O'rta Sharqda yirik davlatga aylandi. Bu davlat Temur davlati nomi bilan tarixga kirdi.

Temur va uning sulolasi davrida O'rta Sharqda fan, san'at va madaniyat rivoj topdi. Shu davrda ajoyib saroylar, masjid va madrasalar, koshinkor maqbaralar qurildi. Buyuk olimu-fozillar bu davlat shuhratini olamga tanitdilar. Buyuk Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahon Jomiy, Kamoliddin Behzod kabi olimlar, shoirlar va miniatyura ijodkorlari shu davrda yashab ijod qildilar.
Shu davrda bu ulug' saltanatda yashagan ko'p xalq, va elatlar san'ati, madaniyati urf odatlari chatishib rivojda bo'ldi, Shu san'at hududida shakllangan yangi an'ana va jarayonlar esa tezda boshqa yerlarda o'z Davomini topib yangi maktab va yo'nalishlarga turtki berdi. .

Kitobat san'atida yangi kashfiyotlar ya'ni kitob muqovasini relyefli bo'rtma shakl va tasvirli ishlash yuzaga keldi. keyinchalik o'rta sharq kitobatida

keng o'rin egalladi. Amaliy, amaliy-bezak san'ati nihoyatda keng rivojlandi. Bronza, kumish va oltindan quyma idishlar yasash borasida katta muvaffaqiyatga erishdilar. Ayniqsa kumish va oltindan nafis buyumlar yasash keng rivojda bo'lib saroy ahllari talabiga javob berdi. PIu xususda ispan elchisi Klavixo Temur saroyida bo'lganida oltin va kumushdan ishlangan buyumlarning ko'pligi, Temurning oltin taxti va stoli, uning dam oladigan xonasida oltindan va qimmatbaho toshlar bilan ishlangan daraxt, undagi mevalar, mevada o'ltirgan ajoyib qushchalar bo'lganligini yozib qoldirgan. Vamberi temuriylar davri madaniyati haqida:

- " Temur davrida yaratilgan sarf-naxv kitoblari islom dunyosidagi yoshlar qo'lida hozirgacha dasturilamal tutilmoqda va O'rta Osiyo musulmonlarining etiqod va ibodatga oid ko'pgina xususiyatlari shu vaqtlarda yozilgan fiqh, va uslub kitoblariga zamin bo'lmoqda. Osiyo va umum jahon musulmonlari qoshida eng nozik san'at va eng oliy mukammal ma'lumot sanlagan, hozirda yolgiz nomlarigina qolgan nimaiki bor bo'lsa ularning orasida Hirot va Samarqand hukmatlari vaqtida taraqqiy etgan narsalar, shular orasida avvalo xattotlikni ko'rsatish mumkin deb yozadi .

Yana davom ettirib: - "Garchi temuriylar sunniy mazhabiga ixlosmand bo'lsada, ularning kitoblarini turli rangdagi tasvirlar bilan bezamoq , binolarni har xil rasmlar bilan ziynatilmoqqa intildilar, suv bo'yoq bilan ishlangan bu rasmlarda rangbarang naqshlar va jonsiz narsalarning suratlari emas, balki mashhur xonlar, askarlar, xatto avliyolarning tasvirlari ham bor"[1] deb takidlaydi.Temur va temuriylar davrida turli millat va dinlar mavjud bo'lib diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror edi. Shu davrda Naqshbandiya tariqatining asoschisi Shayx Ho'ja Bahovuddin yashab ijod etdi. U o'sha zamonda Buxoroda juda xurmatli kishi , Buxoroning milliy avliyolaridan hisoblangan. Vafotidan keyin uning qabrini uch marta borib ziyorat qilishlik uzoqdagi Kabaga xaj qilish bilan barobar sanldi. Dunyoviy ilmlar ichida saroy shoiriLutfillo Nishopuriy (1384 y. vafot etgan), Shayx Kamoliddin Ho'jandiy, "Temurnoma", shoir Ahmad Kirmoniy eslash mumkin.

Temur davridan madrasalar ta'sis etildi. Ular hayr-saxovat tufayli keng miqyosda taraqqiy etdi. Temur bu ishning tashabbuskori bo'lgani uchun uningxonadoni a'zolari, vazirlari ham mamlakatning boylari-barchayaxshilar madrasayu machitlar, qaroatxonalar, kasalxonalar ta'sis etish hamda ularga ehson berishda o'zaro musobaqada bo'lishgan- Binobarin, O'rta Osiyoning manaviy taraqqiti, bilvosita bo'lmasada, har holda Amir Temur xizmati va himmatiga chambarchas bog'liq holda kechdi.

Samarqand butun Osiyo savdosida mol ombori o'rinni oldi. Bu yerda Hindistondan bo'yoq va attorlik, Xitoydan Ipak gazlama, chinni kosa, qadaxlar, qimmatbaho aqiq toshlar, mamlakat shimoldan noyob po'stinlar kelar edi. Shu yerdan Osiyoning katta shaharlariga va buyuk Ipak yo'li orqali garbiy Yevropaga jo'natilar edi. O'rta Osiyo asl turklik davri Temurdan boshlandi. Chunki xorazmshohlar va saljuqiylar garchi maishat tarzi jihatdan turk bo'lsalarda, ular garbiy islom, eron madaniyatiga muhslis edilar. Temur davrida mamlakatning rasmiy tili turkcha edi. Temurning o'zi tiniq va ochiq turk shevasida yozar edi. «Temur tuzuklari» shuning dalilidir. Temur o'zsaltanati taxtini mamlakatlar

zaminiga, ularning barchasidagi urf-odatlar va marosislarni o'zsaroyida turladi, taraqqiy ettirdi. Saroy ayonlarining Ipak, duxoba va atlas kiyimlari arab yoki musulmonla rasm rusumida tiklangan edi. Saroyda ayollarning libosi xususan burk, shokila qadimgi Eron va Xorazm urfiga xos edi. Saroy hokimlari oltin uqa bilan bezatilgan uzun kiyim (qabo-Sa) kiyar edilar. U kiyimni yokasi bo'yinini kechib turar, o'zI yengsiz bo'lgan, orqa etagi juda uzunligi uchun uni maxsusjoriyalar ko'tarib yurishgan. Ularning soni bazan o'n besh kishiga yetgan. Yuzga xijob tutganlar. Yuqoridagi fikrlar ham Vamberi qalamiga mansub bo'lib, sobiq sho'ro davrida Temur davri haqida fikr yuritish mos etilgan payt-da mavjudligi, davrni G'arb tarixchi va madaniyatshunoslar birmuncha keng va atroflicha o'rganilgani ko'rsatiladi..., Temuriylar inqirozidan so'ng O'rta Osiyo ham oliymaqom madaniyatdan va haqiqiy nafosatga berilishdan ayrilib, nihoyatda jaholat va daxshatga tushdiki, u bundan sira ham ozod bo'la olmas.Madaniyat davri so'nib, uning hukmronlik hayoti ham zaiflikka yuz tutdi. Vaqti bilan hukmdorlar Islom Osiyosining eng muhim qitalarda birnecha asrlar mobaynida nufo'zini o'tkazgan Buxoro va Samarqand jahon tarixi saxifasida o'zvazifalarini yo'qotdilar. G'oyat go'zal o'tgan zamonning naqadar go'zal bo'lgan Movarounnahr davlati bundan etiboran qashshoq Buxoro xonligi tarzida tanzzulga yuz tutdi.

## Temur davri san'ati

Me'morchilik.

O'rta asr memorchilik san'ati o'zining gullagan davrini boshida kechirdi. Yangi chin manodagi aristokratik me'morchilik-hashamatli va go'zal binolar qurish san'at uslubi vujudga keldi, rivojlandi. Devoriy rassomchilik, amaliy dekorativ san'at sohasida qator yangi an'analarni shakllandi. Jumladan me'morchilikda birinchi bor vujudga kelgan yirik va murakkab me'morchilik majmualari shaharsozlikda muhim o'rinni egallay boshladi. An'anaviy me'morchilik shakl va uslublarini kayta qurib chiqildi. Ayniqsa memorchilik yodgordiklarini rangli koshinlar bilan boyishi katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta rangli bezak O'rta Osiyo an'anaviy me'morligining ham ajralmas qismi bo'lgan. Lekin 14 asrga kelib bino ichki va ayniqsa tashqi pardozida bu uslub alohda o'rinni egallay boshladi. Sirli sopol taxtachalardan ishlangan rangli naqshlar, 14 asr oxiridan keng tarqala boshlagan o'yma sirli naqshlar keng ko'lamda amalga tadbiq etilishi O'rta Sharq xalqlari ijodiy tafakkurining katta yutigi bo'ldi.O'rta Osiyo me'morchiligidagi bu o'zgarishlar ilk bor Ko'xna Urganchdagi Turabek xonim maqbarasida namoyon bo'lgan edi. Xorazm ustalari yaratgan bu ajoyib yodgorlik an'analari keyinroq Temur farmoyishi bilan Samarqand saltanatining boshqa yerlarida keng foydalanilgan. Va bu ishlar uchun Xorazm ustalari jalb etilgan. 14 asr oxiri va 15 asr boshlarida Samarqandda ayniqsa katta qurilish ishlari olib borilgan. Shahar qalin devor bilan o'rab chiqildi. Unga olti darvoza orqali kirilgan. Shaharning baland ark(sitidel)ida baland Bo'ston saroy, Ko'k saroylar qurilgan. Bu davrda pishiq g'ishtda qurilgan, moviy rang koshinlar bilan bezatilgan maschit, madrasa va maqbaralar, osmono'par minoaralar so'lim tabiat qo'ynida alohida fayz va latofat kashf etgan. Temur davrida shahar va shahardan tashqarida saroylar qurish, istirohat bog'lari yaratish keng tus oldi. Temur nafaqat o'z ona shahri Kesh va poytaxti

Samarqandda balki o'z mamlakatining boshqa shaharlarida ham qator hashamtli binolar qurdirdi. Jumladan Tabrizda maschit, Sherozda saroy, Bog'dodda madrasa, Turkistonda maqbara qurdirganligi shuning isbotidir.

**Temur bog'lari .**

Uning shahardan tashqarida qurdirgan saroyi sharq tomonda joylashgan bo'lib uning shahar tomonga qaragan darvozasiga «Darvozai feruza» so'zi yozilgan bo'lgan. Saroy ichida birnecha hovli bo'lib shulardan birida oltin naqshli taxt joylangan. Shu taxtda u elchilar qabul qilgan. Hovlining tashqarisida esa favvoralar bo'lib atrof-muhitni mo'tadillashtirishga xizmat qilgan.Shaharning janub tomonida qurilgan Bog'i bahisht, saroyi asa suniy tepalikda Tabrizning sof oq marmaridan qurilgan. «Bog'i shamol», "Bori naf" asarlari ham marmar va koshinlar bilan pardozlangan bo'lgan.

Temur davrida ko'plab saroylar qurilgan Shular ichida Oq saroy majmuasi alohida o'rin egallaydi.O'n ikki yildan ortiq vaqt mobaynida qurilgan busaroy peshtoqi xitoy koshinlari, arabiy naqshlar, gullar va o'ymakorlik bilan bezatilgan. Devoring tashqin tomoni ko'k va oltin ranglardagi naqshli koshinlar bilan pardozlangan. Oq saroy ichi tomonida katta hovli bo'lib uning o'rtasida favvora ishlanganbo'lgan. Shu hovlidan katta xonaga kirish eshigi bezakka boy, uning tepa tomoni o'rtasida she'r va quyosh tasviri ishlangan bo'lgan. Oltin suvi yuritilgan, lojuvard va boshqa ranglar bilan pardozlangan bu saroy chet ellik mehmonlarni kutib olish, majlislar o'tkazish uchun foydalanilgan. Oq saroyida 1404 yili bo'lganmashhur sayyoh Klavixo uning ichki va tashqi tomoni nihoyatda bezakka boyekanligini ta'kidlab saroy ustalarining ishini Parij ustalarining ishidan ham yuqori qo'ygan.

Temur davrida ulug'vor masjitlar barpo etildi Shulardan biri1399-1402 yillarda bunyod etilgan Bibixonim jome masjiti bo'lib buqurilishiga Temur alohida etibor bergan. Uning Farmonga binoan masjid tarxi(plani) ishlangan va 1399 yidi bo'lajak maschitning poydevoriga birinchi g'isht qo'yildi. Qurilishda Ozarbayjon, Hindiston va Erondan kelgan 200 dan ortiq usta, 500 dan ortiq tosh kesuvchi mehnat qildi. Qurilishda 95 ta fil band bo'ldi. Qurilish ishlari avjiga chiqqan payitda Amir Temur safarga jo'nab ketadi. Oradan ancha vaqt o'tib, qaytganida maschit deyarli bitgan edi. Lekin Temur bu qurilishdan ko'ngli to'lmaydi.G'azablangan Temur me'morchilik boshligi usta Jalodiddin Mahmud Ibn Dovudni qatl ettiradi va masjidni qaytadan qurishni buyuradi. Shundan so'ng masjid peshtoqi qaytadan qurilib, keng ko'rinishga ega bo'ldi.

Bibixonim masjidi katta to'rtburchak shakilidagi maydonni egallagan , uning atrofi esa devor bilan o'rab chiqilgan.To'rt burchakgida minoralar qurilgan. Masjit sharqqa qaragan juda katta peshtoqli darboza bilan boshlanadi. Maschit chor hovlisi atrofi ustunli ochiq ayvonlar balan o'ralgan, ikki yon tomoni va o'rtasida uncha katta bo'lmagan peshtoq-gumbazli binolar qurilgan. Hovlining ichkarisida esa 40 metrli peshtoq va uning burchaklarida esa qirrali minora ishlangan. Shu peshtoq bilan masjitni asosiy "muqaddas" yarim sferik gumbazli binosi boshlanadi. Masjad ichki va tashqi tomonini bezagiga alohida etibor berilgan. Sirli koshinlar bilan bezatilgan, bino dekorida ko'k va sarg'isht oxra, yashil rang gammasi keng o'rinni egallaydi. Ayniqsa moviy rang butun bino koloritida hukmronlik qilib uning yaxlit va ulug'vorligini ta'minlab guyo uni

cheksiz falak bilan musobaqalashayotgandek qilib ko'rsatadi. Qurilishda Sharq va Garbning ko'p ustayu –naqqoshlari, me'moru-toshtaroshlari ishtirok etganligi yozuv manbalaridan ma'lum.

O'rta asr memorligining haqiqiy durdonasi bu Temuriylar maqbarasidir. Temur farmoniga binoan qurila boshlangan bino O'rta Sharq memorligida muhim o'rinni egallaydi. Bino tantanavor monumentalligi va dekorativ-qurilganligi bilan ajraladi. Bino sodda me'morchilik xajimlardan sakkiz qirrali asos, silindirik baraban va qirrali ko'k-moviy gumbazdan tashkil topgan. Binoning ichki qismi ham juda serjilva. Uning ichki devorlari marmar bilan pardozlangan o'yma naqsh va rangli va oltin suvi yuritilgan naqshlar bino ichi qismiga alohida fayz kirgan.
Temur davri me'morligini «Shohi zinda» me'morchilik kompleksisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Afsonaviy Afrosiyob yonbag'riga joylashgan bu ansanbli II-I2 asrlarda bu yerda qurilaboshlagan maqbaralar o'rnida barpo etilgan. Bu yer musulmonlarga qadar ham muqaddas sig'inish joyi bo'lgan. Afsonalarga ko'ra shu yerda musulmonlar avliyosi bo'lgan Kusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, go'yo u shu yerda tirilib yer ostiga kirib ketgan va oxiratgacha shu yerda yashashga qaror qilgan. "Shohi zinda"- tirik podshoh", "tirik shoh" nom shu yerdan olingan. Hozirgi Shohi zinda maqbara majmuasi 14-15 asrlarning birinchi yarmida qurilgan yodgorliklardan tashkil topgan bo'lib bu majmua biroz kechroq, 1334-1435 yillarda Ulug'bek tomonidan qurdirilgan peshtoq bilan boshlanadi. Ichkarida kirishga yaqin joyda 15 asrning qo'sh maqbarasi bo'lib unda gumbaz baland baraban ustiga joylashgan. So'ngra zinadan boshlanib qator maqbaralar bir-biriga yaqin qurilgan. Bular Temur tomonidan 14 asrning 70-80 yillarida qurdirilgan. Majmua so'ngida esa 14 asr o'rtalarida qurilgan Xo'ja Ahmad maqbarasi o'rin olgan. Tuman oqo majmuasi (1372) peshtoqi o'simliksimon naqshlar bilan bezatilgan. Devorlarida mayda manzarali panolar ishlangan. Shirinbeko oqo (1385-86 yillar) xonalarida tilla xall berilgan hamda shu yerda ilk bor o'yma naqsh ishlatila boshlagan.

Shoh i zinda memorlik majmuasidagi maqbaralar turli davrlarda qurilgan shunga qaramasdan ular hammasi yagona me'morchilik kompozisiyasi sifatida idrok etiladi. Memorlar har safar yangi maqbara qurganlarida relyefni, ya'ni yer satxi harakteri va qiyaligi, hamda avvalgi qurilgan maqbaralarni harakteriii hisobga olgan xolda me'morchilik hajm va bezagini tanlaganlar. Temur davrida qurilgan maqbaralar o'zINING badiiy yechimining yuksakligi va yorqin rangdorligi bilan ajralib turadi. Sirli koshin va naqqoshlik san'ati butun ansamblga ajoyib fayz kiritib davr kishilarning go'zallik tushunchalarini ifodalaydi. «Bu yer jannat bog'i, bu yerda baxt yulduzlari ko'milgan» deb maqbara peshtoqlarining biriga yozilgan so'zlarda butun ansamblning g'oyaviy-badiiy va falsafiy mazmuni yechiladi.

Temur davrida Markaziy Osiyoning ko'pgina yerlarida ham me'morlik kompozisiyasi va majmumalari vujudga keldi. Shahrisabzdagi (Temur tug'ilgan joy) Oq saroy (1380), Turkistonda Ahmad Yassaviy barpo etilgan, Toshkent viloyatida Zangi ota me'moriy shular jumlasidan. Amir Temur farmoni bilan barpo etilgan Zangi ota majmuasining maqbara peshtoq, gumbazli ziyoratxona va go'rxonadan iborat bo'lib naqshlar bilan bezatilgan. Bino me'moriy bezagilarida Kufiy va suls xatida yozuvlar bilan birga tosh o'ymakorligi, rangli

naqsh keng ishlatilgan.

Temur va temuriylar davrida tasviriy va amaliy bezak san'ati o'zining haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi. Miniatyura va devoriy rassomlik san'atida nodir asarlar yaratildi. Haykaltaroshlik esa asosan bo'rtma tasvir tarzida mavjud bo'ldi.

Temur davrda monumental rangtasvir nihoyatda rivojlandi. Shu davrda qurilgan saroy, qasr, machit va maqbaralar, zodogonlarning xonadonlari turli mavzudagi rasmlar bilan bezatilganligi haqida tarixchilarning yozma bayonlari saqlanib qolgan. Afsuski, shu davrda qurilgan saroylar, jamoat binolari bizgacha yetib kelmagan yoki ayrim parcha va ko'chirmalarda saqlanib qolgan xalos.Shularning o'zi ham davr san'ati to'g'risida tasavvur beradi.
Jumladan, Shirin Bika oqo, maqbarasi devorlarida tabiat ko'rinishi tasvirlangan bo'lib daraxtlarda qushlar aks ettirilgan bo'lgan. Bibixonim machiti devorlariga naqshli bezaklar bilan birga tabiat manzaralarini aks ettiruvchi rasmlar ishlangan. Rasm…. Bibixonim machiti rasmlari …

Bu davrda devoriy rassomlik saroy va qasrlarni bezatishda keng ishlatilgan. Saroy devorlari murakkab syujetli kompozisiyalardan tashkil topgan. Ularda Temurning olib borgan janglari, o'tkazgan bazmlari, o'ziva yaqinlarining portretlari tasviri, ov manzaralari aks ettirilgan. Tarixchi ibn Arabshohning so'zlariga qaraganda , Temurning fikriga ko'ra, uning jasoratini ko'rmaganlar rasmlar orqali bilib olishlari kerak bo'lgan. Bog'i Shamol saroyi devorlariga ham rassomlik asarlari bilan bezatilgan bo'lgan. Dilkusho saroyi devoriy rasmlarida esa Temurning Xindistonga yurishi tasvirlangan. 1400 yili Xirotda qurilgan bino devorlari ham bezakka boy bo'lib u yerda Temurning jangu jadallari aks ettirilgan.

O'rta Osiyo, umuman O'rta Sharq madaniyatida kitobni bezash, xattotlik va miniatyura san'ati tarixida o'ziga xos qaytarilmas jozibasi bilan tengi yo'qdir. Bu san'at turlarida nodir yodgorliklar yaratiladi. Ayniqsa kitoblarga illyustrasi tarzida ishlangan miniatyura san'atida yutuqlar kattadir. Movarounaxr san'atida mahalliy madaniy an'analar unga kirgan ko'pgina xalqlar an'analari silsilasi ko'chaya bordi. Natijada yangi, ilg'or ijodiy jarayon shakllanabordi. San'atkorlar mavjud va o'tmishsan'ati yutuqlarini inkor etmaganlari xolda an'anaviy shakl va yo'nalishlarga yangi badiiy ruh kiritaboshladilar. Eng muhimi ijodkorlar yangi ijodiy yechimlarga erishib zamon talabiga mos asarlar yaratishga muyassar bo'ldilar.

Ustod Gung O'rta Osiyo rassomlik maktabining asoschisi malumotlarga ko'ra Xitoyda tasviriy san'at asoslarini egallab qaytgan.

Amir Temur saroyining yirik musavviri Xo'ja Abd al Xayya rassomlar ustaxonasining boshligi lavozimida ishlagan. Uning ishlash uslubi samarqan rassomlik maktabini asosini tashkil etdi.Rassomning birqator asarlari bizgacha ko'chirmalarda yetib kelgan. «Sher», «Suvdagi o'rdak», «Urushayotgan ikki jangchi» rasmlari shu san'tkor ijodini namunalaridan bo'lib u ishlanishi nafisligi va rang va oltin hallar boyligi bilan ajralib turadi.

Sadiyning "Guliston" asariga ishlangan rasmda darvish haqida hikoya tasvirlangan. Unda cho'l-saxrodan o'zeshagida qo'shiq va hazil bilan og'ir yo'l qiyinchiliklarni yenggan darvish va uni yo'l davomida mayna qilib kelgan, o'ziga

zeb bergan tuyaga mingan boy yo'lovchi tasvirlanib u oxiri oqibatda ovullardan birida yiqilib o'lganligi hikoya kilinadi. Asarga xos xususiyat hikoyanavislik bo'lib ko'pgina hayotiy lavhalar asar mazmunini boyitadi. Rassomning "Suvdagi o'rdak " asari ham e'tiborga loyiq. Bu rasmda Xo'ja Abd al Xayya o'zini kuzatuvchan ekanligini , real borliq ko'rinishlarini o'ziga o'xshatib ishlashga intilishi shu rasmlarda ham o'z ifodasini topgan. Rassom shu tomonlari, shuningdek qalamining o'tkirligi, koloritining aniq va jiddiyligi keyingi Xirot maktabi shakllanishida muhim o'rinni egalladi.

Temur saroyida xizmat qilgan musavvirlardan yana biri Pir Ahmad Bog'i Shamoliy bo'lgan. U Abu al Xayya zamondoshi va shogirdlardan. Tarixchilar Pir Ahmad Bog'i SHamoliyga yuqori baho berib davrning eng yuksak, tengi yo'q musavviri deb ta'riflashadi. Bog'i-Shamoliy rassomning taxallusi bo'lib Bog'i Shamol bog'ining saroylari bosh bezakchisi bo'lganligi va ishlagani uchun berilgan deb taxmin qilinadi. Temur davrida saroy aristokratiyasi nozik didiga mo'ljallangan amaliy-bezak san'ati namunalari yuzaga keldi. Ayni shu davrda shahar hayotida o'rta xol aholsining o'rni muhim o'rinni egalladn. U na faqat shu ma'naviy dunyoning yaratuvchisi balki istemolchisiga ham aylandi.

## Шоҳруҳ ва Улугбек даври санъати. Камолиддин Бехзоднинг Ҳирот мактаби.Темур вафотидан кейинги даврда Ўзбекистон санъати

Темур вафотидан кейинги унинг улкан салтанатини Хуросон ва Мавороуннаҳрни унинг ўғли Шохрур ва набираси Улуғбек бошқарди. Деярли 40 йилдан ортиқ вақт мобайнида бу ерларда Темур бошлаб берган анъаналар давом этди. Меъморчиликда маҳобатли меъморий мажмуалар барпо этилди . Самарқанд, Бухоро ва Вобкентда қурилган мадрасалар шу давр меьморлигининг анъаналари асосида вужудга келган.

Улуғбек мадрасаси дарвнинг улуғ ёдгорликларидан ва ноёб тарихий қурилма. Бу бинога буюк олим Улуғбекнинг рухи синган.

Улуғвор ва мағрур бу иншоатда буюк олим ва уламолар дарс ўтишган. Хандасий ва ислимий нақшлар пештоғ ёзувлари билан давр кишиларининг ҳам фалсафий ҳам эстетик қарашларини намоён этган.

1420-28 йилларда Улуғбек фармони билан барпо этилган дунёвий илм маскани расадхона ҳам даврнинг нодир ҳайкали бўлган. Уч қаватли ўртасида юлдузларни кўзатадиган мослама бўлган бу бино деворлари эса турлм-туман расмлар билан безатилган. Уларда тоғ, дарё ва ажойиб табиат кўринишлари тасвирланган. Темурийлар даврининг муҳим ёдгорликларидан бири

Шоҳи зинда меъморий мажмуаси Улуғбек сайи ҳаракати билан тугаллик кашф этди. Унинг фармони билан қурилган маҳобатли безакдор катта пештоқ шу мажмуага яхлитлик бахш этган.

Улуғбек бошқарган Мовароуннаҳрда Самарқанд Ўрта Шарқдаги гўзал ва бой шаҳарлардан бўлган. Шу ерда кўзга кўринган олим ва уламолар яшаб ижод қилган. Шу ерда дунёвий фанлар ривожланди. Улуғбек олим сифатида ўз атрофида шогирдлар тўплади, уларга дарс берди. Қози зода Румий, Ғиёсиддин Жамшид, Али Қўшчи тадқиқодлар олиб боришди. Уларнинг изланишлари "Юлдузлар жадвали китоби»да ўз аксини топди. Улуғбек фармони билан барпо этилган расадхона кутубхонаси даврнинг ҳақиқий

академияси эди. Бу ерда турли назарий фанларга оид рисола ва тадқиқодлар кўчирилар, таъмирланар ва улар зарурий расмлар билан тўлдирилар эди. Бу ишлар билан кутубхона қошида фаолият кўрсатган хаттот ва мусаввирлар шуғулланар эди. Шундай астрономияга оид қўлёзмалардан бири ас- Сўфий рисоласи(трактати) бўлиб унда ишланган миниатюралар эьтиборга лоиқ.

Мусаввир миниатюраларни шунчаки тушунтиришга мўлжалланган астрономияга оид расмгина эмас, балки бадиий қийматга эга бўлган бадиий асар даражасига кўтаришга интилади.Тасвирланган одам, ҳайвон ва афсонавий мавжудодларни ҳаётий ва жонли бўлишига ҳаракат қилади. Астрономияга оид расмларни ҳаққоний бўлишига интилиш Улуғбек даври санъати реалистик йўналишда ривожланганлигидан далолат беради. Шуни таъкидлаш керакки, Темурийлар даврида шоҳ саройлари қошидаги кутубхоналар ҳақиқий санъат мактаби ролини ўйнади. Бу ерга машҳур рассом, хаттот, нақошлар тўпланадилар. Кутубхонада нодир қўлёзмалар тўпланиб, кўчирилиб китоб холига келтирилар, тасвир ва безак нақошлар билан безатилар , яроқсиз холга келган қўлёзмалар таъмирланар эди.

Шунинг учун ҳам бу кутубхоналардаги ижодконалар рассом, нақош ва хаттотлар учун таьлим ва маҳорат мактабини ўтаб ҳар бир санъаткорни ижодий ўсиши ўз хунар касбини янада ривожланитириши имкониятини яратган. Нигористон номи билан танилган бу ижодхона мазмун ва моҳият жиҳатидан бугунги бадиий Академия мазмун ва йўналишига яқинлашиб кетади. Шу ерда устоз ўзининг мукаммал кўринишига эришди.

Бу хусусиятни шу даврда ишланган жанрли композиция ва портретларда ҳам кўриш мумкин. Шу ўринда Улуғбекка бағишлаб ишланган портрет ва жанрли композициялари эътиборли. Улуғбекнинг навбатдаги овдан кейин ўз оила аьзолари билан шийпонда дам олиб ўлтирган пайтини акс эттирувчи расм ( 1441- 1442 йилар) юксак маҳорат билан ишланган. Қалам чизгиси нозик, ранг тизими бой, тасвирланган ҳар бир образлар эса ўз хатти ҳаркати билан ажралиб жонли ишланган. 1447 йили Шоҳруҳ вафотидан кейин, Хирот Улуғбек қўлига ўтди. У Хуросон ва Мавороуннахрни бошқарди. Шу даврда бир қатор хаттот ва мусаввирлар Самарқандга кўчиб ўтишди, айримлари таклиф этилди. Жумладан даврнинг машҳур мусаввирлари Мавлоно Захриддии Абдулла, Мавлоно Захриддин Азҳар ва бошқа йирик санъаткорлар Самарқандга, Улуғбек давлати пойтахтига таклиф қилинди. Уларга бу ерда Улуғбек ҳукмронлик йиллари ҳақидаги баённомани расмлар билая безатиш топширилди. Афсуски бу баённома ва расмлар бизгача сақланмаган.

Алишер Навоий даври.Марказий Осиё санъатининг янги босқичи темурий Султон Абу Саид номи билан боғлиқ. У 1451 йили мамлакатдаги нотинчликлардан фойдаланиб қаттиқ курашларда ҳокимиятни ўз қўлига олади. 1456 йили эса у пойтахтни Самарқанддан Хиротга кўчирди. Натижада Моворуннахрда яшаб ижод этган санъаткор ва давлат арбобларини шу янги жойга кўчиб ўтишларига сабаб бўлди. Шулар қаторида кўплаб шоир, рассом, меъмор ва хаттотлар ва уларнинг оилалари бор эди. Темурийлар даври санъати ва маданияти шу ерда ўз ривожини

янги босқичини ошлади. Шу ерда даврнинг уламолари, буюк мутафаккирлари, рассому меъморлари Абдурахмон Жомий, Алишер Навоий, Камолиддин Бехзод ва бошқалар ўз ижодларини қиёмига етказдилар. Темурзода Хусайн Бойқаро 40 йилдан ортиқ ҳукумронлиги даврида мамлакатда каттагина ободонлаштириш ишлари амалга оширилди. Бу ишларда даврнинг буюк мутафаккири, ўзбек шъериятининг юлдузи Алишер Навойининг хизматлари катта бўлди. Унинг раҳнамолигида йирик иншоотлар, масчит ва мадрасалар қад кўтарди. Шу ерда Ўрта Шарқ миниатюра мактаби ўзининг энг юксак чўққисига эришди.

**Камолиддии Бехзод (1455-1530 ).**

Ўз мавқи жиҳатидан зодагонлар хонадонига яқин бўлган Камолиддин Беҳзоднинг Хиротда дунёга келди.Ота онасидан жуда эрта жудо бўлган Беҳзод Алишер Навоий хомийлигида камол топди.Шу ерда у дастлаб хаттот ва мусаввир Мирак Наққош қўлида тарбияланиб ундан тасвириёт ва хаттотлик сирларини ўрганди. Сўнгра бухоролик мусаввир Усто Жаҳонгирнинг шогирди Пир Сайид Табризий қўлида ўқишини давом эттирди ва тезда моҳир санъаткор наққош ва мусаввир сифатида танилди. У ўз давригача бўлган тасвирий санъат соҳасида эришилган ютуқларни мукаммал эгаллади ва мусаввирликда юксак инсоний фикрлар ва бошқа илғор ғоялар билан суғорилган ҳаётий тасвирлари билан шухрати орта борди. Бехзод дастлаб Алишер Навоий бироз кейинроқ Хусайн Байқаро китобхонасида ишлади. Шу даврдан Беҳзод шеьрий мунозара ва ижодий мажлисларда, анжуман ва йиғ илишларда қатнашди, ишлаган тасвирларини намойиш этиб фикр мулоҳазаларни эшитди. Бехзоднинг сақланиб келган илк асарлари, 1470-1490 йилларга тўғри келади. Шу йилларда у достон ва солномаларга кўплаб расмлар ишлади. Шулар ичида Шайх Саъдийнинг «Бўстон»(1475,1488) , “Гулистон”(1495), Алишер Навоий “Хамса”(1485), Амир Хисрав Деҳлавийнинг “Хамса”(1485), “Лайли ва Мажнун”(1495), Ал Яздийнинг “Зафарнома”(1490 йиллар) асарларига чизган суратлари бор. Уларда турли воқеалар - майиший ҳаёт, жанг ва ов воқеалари, шахзода ва маликаларнинг расмлари ишланган.

Жумладан, Саьдий "Бустони"(1488)га Султон Хусайн Мирзо сурати базм пайтида ишланган. . Бўстонга ишланган суратлардан бошқа бирида Эрон шоҳи Доронинг йилқичи сарбонлар қаршисидан чиқиб қолиши тасвирланади. Унда Эрон шоҳи Доро ов қилиб юриб, ўз шерикдаридан адашиб қолганлиги ва қаршисидан йилқичи чиқиб қолганлиги кўрсатилади. Композиция марказида қўлларини очиб олдинга чўзиб турган, қадди бехад букчайган кекса чўпон тасвироанган . Унинг атрофида тоғлар, арчазорлар, яшил ўтлов ва зилол суви оқиб турган ариқ,, наслдор отлар, йилқичилар кўрсатилган. Али Яздийнинг “Зафарнома”(1490 йиллар) Беҳзод безаган кўпгина қўлёзмаларда турли тарихий воқеалар, жанг холатлари, саройдаги қабул маросими ҳам ўз ифодасини топган. Жумладан унинг масжит курилишида асари шундай ишлардан. Рассом турли воқеалар, - тантанали қабул маросимларини ишлаганида, келган турли мамлакат элчилари ва сарой мансабдорлари тасвирланганда . Улар турли кийим-либосда холатлари улар эгаллаган

лавозимига мос. Хива Қалъасининг Амир Темур қўшинлари томонидан қамал қилинишини расми ҳам жонли. Унда баланд, мустахкам қальа, ёнида ток чирмашган улкан чинор акс эттирилган. Мусаввир жангнинг энг қизгин пайтини танлаб олган: қальа химоячилари кунгурали баланд тик девор устида катта ҳарсанг тошлар ирритишмоқда. Аммо Амир Темур аскарлари қалгьа дарвозасига кираверинщда кўтариб қўйилган осама кўприкни туширишга муваффақ бўлганлар. Илғор қисмдаги суворийлар қальа ичкарисига кириб бормоқда. Баьзиларига ўқ тегиб, отдан агдарилган. Қалъа химоявилари орасида хотин- қизлар ҳам кўринади. Амир Темур қўшинларининг Олтин Ўрда хони Тўхтамиш (1361-I395) билан бўлган жанги унинг қурилиш борасидаги фаолияти ҳам Зафарномадан ўрин олган. Шундай расмлардан бирида Бибихоним маддасасини қуриш пайти кўрсатилган. Усталар ўз ишлари билан банд, улар турлии холатларда, пастда қурувчиларнинг бир қисми девор юзасини қоплаш учун ишлатиладиган оғир мармар тахталарни ташимоқдалар, бошқалари бўлса ғишт терувчилар учун лой тайёрламоқдалар. Энг юқорида кўлида бир шаклни ушлаб турган меьмор кўринади. Санкт-Петербургдаги Салтиков-Шедрин номидаги халқ кутубхонасида амир Хисрав Дехлавийнинг икки нусхада сақланаётган "Лайли ва Мажнун" достонига ишланган суратлар ҳам Бехзод қаламига мансуб. Унда Лайли ва Мажнуннинг мадрасада ўқиш пайтини тасвирлайди, у 1495 йили бажарилган. Бу ерда ҳам бинонинг меьморий безаги, нақшлар жуда аниқ ва гўзал ишланган. Бехзод табиат манзарасини тасвирлашда ўз даври учун наёб маҳоратини намоён этган. К.Бехзод портрет санъатида ҳам самарали ижод этган. Унинг А. Навоий, А. Жомий, Хусайн Бойқаро, Шайбонийхон, Султон Хусайн, Мирзо шунинг далилидир. Париждаги шахсий коллекцияда сақланаётган Султон Хусайн Мирзо портретида у шоҳона кийимда тасвирланиб, унинг барча хислатларини ифодалашга ҳаракат қилинган. Расм... Қиёфасидан кучли ирода, жисмоний қувватга эга бўлганлиги сезилиб туради. Тўладан келган гавдаси, хорғин юзли, қисиқроқ кўзи, узукли нозик қўллари тасвирдагига ҳукмдор умрининг кўп қисми фақат маишат билан ўтганлигида далилдир. Бехзод Султон Хусайин Мирзонинг ички дунёсини ва ташқи дунёсини кўринишини реал тарзда тасвирлай олган.

XVI асрнинг дастлабки йиллари яратилган Бехзод муйқаламига мансуб суратлардан мусаввирнинг юксак камолоти, шунинг билан бирга хиссий кечинмаларнинг мураккаблаша бошлагандиги , ички дунёсида пайдо бўла бошлаган руҳий маьюсликнинг акс кўрина бошлади. Бу бежиз эмас албатта. Унинг буюк мураббийси ва устози Алишер Навоий (1501 йил, январь), Султон Хусайин Мирзо (1506 йил 5 май) вафот этишди. Шундан кейин амирлар ўртасида бошланиб кетган низолар Муҳамад Шайбонийхонга Хиротни осонликча қўлга киритишга (1507 йил, май) ёрдам берди. Ана шу нотинчликлар Бехзод ижодига ҳам салбий таьсир этмай қолмади. Бехзод Шайбонийхон хизматига ўтди. ХУ1 аср бошларида Бехзод ижодида мазкур ходисалар чуқур уйчанлик, нозик лирик кечинмаларни ифодаловчи сахналарда ўз аксини топди. Бундай суратлар Хисрав Дехлавийнинг "Лайли ва Мажнун" достонида мавжуд. Бехзоднинг Лайли

ва Мажнуннинг сахродаги висол чогини тасвирдовчи сурати ўрин олган. Сахро Лайли хижрон азоби туфайли холдан тойган севгилисини бошини авайлаб тиззаси устига қўйиган. Инсон азобига табиатдаги тинч ҳаёт ҳамохангдек. Сахро қаьридан ўтган зилол сувли ариқ қиргоқлари турли-туман гуллар билан қопланган. Ҳарсанг тошлар орасидан кўм-кўк буталар икки ошиқ севгиси барҳаётлигига гувоҳдек. Сахро ҳайвонлари: шер, қоплон, тоғ буруси, погол, туя икки инсон юрагини гарқ қилган улкан севги кучи билан сехирлангандек сукутда, улар дардига шерик. Руҳий кечинмалар оханги улкан муйқалам сохиби томонидан моҳирона очилган. Бехзод замондошлари бу расмдан кўплаб нусха кўчиришган, хатто шу манзара тасвири туширилан гиламлар ҳам пайдо бўлган эди. Бехзод ўз давригача бўлган тасвирий санъат ютуқларини қунт билан эгаллади ва санъатнинг мазкур турида реалистик ва инсонпарвар сифатида гавдаланади. Шунинг учун ҳам Бехзод асарлари таъсирнинг ҳаққонийлиги ва жозибадорлиги билан кишига завқ бахш этади. Бехзод Шайбонийхон хизматида бўлган кезлари унинг портретини ҳам ишлади. Тасвирда Шайбонийхон оёқларини чалиштириб болишга (ёстиққа) суянган ҳолда икки қўлини тиззасига тираб алла нималар ҳақида ўйлаб ёзишга тайёрланган пайти тасвирланган. Унинг кийимлари оддий, гавдаси пишиқ, ҳийла қорин солган. Унинг олидида турган ёзув ашёллари: сиёҳдон, қалам, китоб Шайбонийхониинг ўқимишли билимдон,ҳар бир ишни пухта ўйлаб амалга оширадиган шахс сифатида тасвирлайди. Асарда тасвирланган қамчи эса унинг қаттиқ қўллилиги, моҳир чавандозлиги рамзи сифатида идрок этилади. Шайбонийхоннинг мазкур сурати ҳозир АҚШда шахсий коллекцияда сақланади.

Шайбонийхон 1510 йили Марв ёнида Эрон сафавийлари қўшини билан бўлган жангда маглуб бўлиб, ўлдирилгандан кейин, Хиротни 1512 йили Эрон шоҳи Исмоил Сафавий (I50I-I524) босиб олди. Шу билан Хирот тасвирий санъат мактаби ўзининг илгариги. темурийлар давридаги мавқеини йўқотди. Бехзод Табризга қўчиб ўтди. 1520 йили 1522 йили Шоҳ Исмоил фармони билан ўз кутубхонасига бошлиқ қилиб тайинлади.

Бехзод ҳаётининг сўнгги йилларидаги шоҳ асарларидан бири икки туянинг олишувини акс эттирадиган суратдир. Унинг ижоди Шарқ халқлари айниқса Ўрта Осиё, Эрон, Афгонистон, Азарбайжон санъати ривожига катта таьсир ўтказди. Бу таьсирда унинг кўпсонли мухлислари муҳим ўринни эгалладилар Улар Бехзод ижодини давом аттириб Шарқ миниатюра санъатининг кенг қирраларини очилишида етакчилик қилдилар.

| **7-mavzu** | **Шайбонийлар ва Аштархонийлар даврида санъат** |
|---|---|

7.1. Маърузада таълим технологияси

| | |
|---|---|
| Машғулот вақти -2 soat | Талабалар сони : 39 |
| Машғулот шакли | Кириш –ахборотли маъруза |

| | |
|---|---|
| Маъруза режаси | Шайбонийхон ва унинг сулоласи даври маданияти<br>Шайбонийлар даврида китобат саньати, хатоттлик, миниатюра саньатининг ривожланиши.<br>Аштархонийлар сулоласи даврида санъат ва маданиятдаги ўзига хослик. Тасвирий санъат |
| Ўқув машғулоти режаси : Шайбонийлар ва Аштархонийлар даврида санъати ҳақида назарий ва амалий билимларни чуқурлаштириш ва мустаҳкамлаш | |
| Педагогик вазифалар: Шайбонийлар ва Аштархонийлар даврини ёритиб бериш | Ўқув фаолияти натижлари:<br>Талабалар билиб оладилар.<br>билимларга эга бўладилар. |
| Таълим бериш усуллари | Кўргазмали маъруза, намойиш этиш, савол жавоб, суҳбат, тушунтириш. |
| Таълим бериш шакллари | Оммавий, жамоавий, якка тартибда, слайдлар |
| Таълим бериш воситлари | Ўқув қўлланма, комьпютер технологиялари, доска |
| Таълим бериш шароити | Техник воситалардан фойдаланишга ва гуруҳларда ишлашга мўлжалланган аудитория |
| Мониторинг ва баҳолаш | Оғзаки назорат , савол жавоб |

8.2. “Шайбонийлар ва Аштархонийлар даврида санъат” мавзуси бўйича маъруза машғулотининг технологик харитаси

| Иш босқичлар и ва вақти | Фаолият мазмуни | |
|---|---|---|
| | Таълим берувчи | Таълим олувчилар |
| 1. Мавзуга кириш (15 дақиқа) | 1.1.Ўқув курси номини айтади.Экранга ўқув курсининг тузилмавий мантиқий чизмасини чиқаради, мавзулар рўйхати билан таништиради ва уларнинг мазмунини қисқача ёритади.<br>1.2.саккизинчи машғулот мавзуси, унинг мақсади ва ўқув фаолияти натижаларини эълон қилади<br>1.3.Кластер асосида ўтиладиган мавзунинг мазмуни ва моҳиятини қисқача ёритади. | Тинглайдилар<br><br>Тинглайдилар |
| 2-босқич Асосий босқич (55 дақиқа) | 2.1. Талабалар билимини фаоллаштириш мақсадида савол жавоб усулини қўллайди:<br>2.2 Шайбонийхон ва унинг сулоласи даври маданияти ҳақида нималарни биласиз?<br>Шайбонийлар сулоласи ҳақида қандай ёзма манбалар мавжуд?<br>Шайбонийлар даврида хатоттлик, миниатюра саньатининг ривожланишига ҳиса қўшган ҳаттотлар? | Саволга жавоб берадилар<br>Фикрларини билдиради |

| | | |
|---|---|---|
| | Аштархонийлар даврида тасвирий санъатнинг ривожланишига ҳисса қўшган рассомлар?<br>2.3. Экранда слайдлар намойиш этиш билан ҳақида тўлиқ маълумотлар берилади. Талабалар диққатини мавзунинг асосий жиҳатларига қаратади, уларнинг долзарб ва аҳамиятли эканлигини илмий жиҳатдан асослайди.<br><br>2.4. Вазифани барча талабалар якка тартибда бажаришларини айтади.<br>Талабалар фаолиятини кузатади, уларни йўналтиради, зарур маслаҳатлар беради.<br><br>2.5. Бир неча талабанинг иш натижасини текширади, талабалар билан биргаликда муҳокама қилади. Зарур бўлса, қўшимчалар киритади ва ушбу савол бўйича тўлиқ маълумот беришини айтади.<br><br>2.6. Режанинг иккинчи саволига доир бўлган слайдларни экранга чиқаради ва ҳар биттасини тўлиқ ёритади.<br><br>2.7. Мавзу бўйича талабаларда юзага келган саволларга жавоб беради. | Тинглайдилар, зараур маълумотларни ёзиб оладилар.<br><br>Вазифани якка тартидда бажаради.<br><br>Иш натижасини тақдим қилади.<br><br>Тинглайдилар, зараур маълумотларни ёзиб оладилар. |
| 3. Якуний босқич (10 дақиқа) | a. Мавзу бўйича якуний хулосалар қилади. Мазкур мавз<br>b. у бўйича эгаллаган билимларнинг долзарблиги ва аҳамиятли эканлигини алоҳида қайд этади ҳамда келажакда ушбу билимлардан қаерларда фойдаланиши мумкинлиги ҳақида маълумот беради.<br><br>3.2. Мустақил ишлаш учун вазифа беради: (1)ўтилган мавзу асосида Б/Б/Б жадвалини тўлдириб келиш. Б/Б/Б жадвалини тўлдириш қоидасинитушинтиради (2) иккинчи мавзу бўйича кейинги ўқув машғулотига тайёрланиб келиш. | Саволлар берадилар.<br><br>Вазифани ёзиб оладилар. |

**7-Мавзу: Шайбонийлар ва Аштархонийлар даврида санъат**

**Режа**

1. Шайбонийхон ва унинг сулоласи даври маданияти
2. Шайбонийлар даврида китобат саньати, хатоттлик, миниатюра саньатининг ривожланиши.

3.Аштархонийлар сулоласи давридаги санъат ва маданиятдаги ўзига хослик. Тасвирий санъат.

Дашти қипчокдаги кучманчи туркий қабилалар ХУ аср бошларига келиб, Олтин Ўрдадан ажралиб чиқди. Мустақил давлат тузиш ҳаракати бошланди. Буни Абулхайрхон (I4I2-I466) бошқарди. Лекин бу давлатнинг умри узоққа бормади. Абулхайрхон вафотидан кейин бу давлат парчаланиб кетди. Кейинчалик унинг набираси Муҳаммад Шайбонийхон парчаланиб кетган бу давлатни қайта тиклашга муяссар бўлди. Шайбонийхон бу давлатни тиклабгина қолмай, балки унинг ҳудудини анча кенгайтириб, янги давлат тузишга муяссар бўлди. Шайбонийхон ўз давлатини кенгайтириш режаси устида бош қотираётган бир пайтда тумурийлар салтанатида тожу-тахт учун кураш авжига чиқди. Бунинг устига деҳқонлар билан катта ер эгалари орасидаги низолар ҳам кўчайиб бораётган эди. Бундан фойдаланиб Шайбонийхон тез орада темурийлар ерини бирин-кетин ўз ерларига қўшиб ола бошлади ва қисқа вақт ичида тумурийларнинг асосий таянчи бўлган Мовароуннаҳр билан Хуросонни ўзига бўйсундириб, Сирдарёдан Афронистонгача бўлган ердари ўз ичига одган ўлкан давлат тузди.Темурзода Бобур Шайбонийхон билан бўлган урушда (1507) енгилиб, Афғонистонга чекинади . *(Абулхайрхон 1412 йили туғилган. Чингизхон набираси, Жўжининг ўғли. Абулхайрхон Сибирда хон унвонига сазовор бўлган. У кўчманчи туркий қабилаларни бирлаштириб Дашти Қипчоқда кўчманчи ўзбеклар давлатини тузган. Абулхайрхоннинг Будоғ Султон номли ўғлидан Муҳаммад Шайбонихон дунёга келган).*.

Шайбонийлар давлати деярли 100 йил мобайнида (I500-I601) Марказий Осиёдаги йирик давлатлардан бўлиб, тарихда салмоқли из қолдирди. Бу давдатнинг пойтахти турли йилларда Самарқанд ва Бухорода бўлган. Шайбонийхон Марв дарёси ёнида бўлган жангда мағлубиятга учраб халок бўлгач, қатор жанглардан кейин тахтни жиняни Убайдуллахон эгаллайди. Лекин хонзодалар орасида тожу тахт учун кураш ва ўзаро урушлар натижасида Шайбонийлар давдати иккига бўлиниб, бирининг пойтахти Самарқанд, иккинчисиники эса Бухоро бўлиб қолди. Самарқанд хони "Улуғхон" деб эьлон килинди. Лекин кейинчалик Улуғ хон қайси жойда истиқомат қилса, ўша жой мамлакат пойтахти ҳисобланди. Шунинг учун ҳам кейинроқ, яъни Абдуллахон ҳукмронлик қилган даврда(ХУ1 асрнинг иккинчи ярми) Бухоро қайтадан пойтахтга айлантирилди. Бухоро хонликнинг муҳим маданий ва сиёсий марказига айланиши унинг мавқиени ошириб юборди. Хунармандчилик ниҳоятда ривож топди. Бухоро хунарманддари яратган буюмлар ташқарида ҳам машҳур бўлди. Пахтадан мато ишлаб чиқариш, терини қайта ишлаш, гиламчилик, кандакорлик, кулолчидик ва қуролсозлик борасида бухоро усталари катта ютуқларга эришдилар. Дунёвий фанлар, мусиқа, шеьрият, хаттотлик ва миниатюра рассомлиги ривожланди.

**Меъморчилик**.

Шайбонийлар даври меьморлиги икки босқичда ўрганиш мумкин.

Булардан биринчиси ХУ1 асрнинг 60- йилларгача бўлган даврни ўз ичига олади. Бу йилларда темурийлар даври меъморлиги услуби давом этиб, унинг янги йўлларини топишга ҳаракат қилинди. Шайбонийлар давлатининг пойтахти Бухоро шаҳрида катта қурилишлар олиб борилди. Шаҳарни таъмирлаш ишлари кенгайтирилди унинг мудофаа деворлари янада мустахкамланди. Шаҳарнинг шоҳ кўчаларида маҳобатли жамоат бинолари барпо этилди.Бу қурилишларда, уларни безаш ишларида Мавороуннахр, Хирот, Балх усталари иштирок этдилар.

I530-I536 йилларда Мир араб мадрасаси , 1531-32 йили Тошкентда Шайбонийлар авлодидан бўлган Абулхайрхон ва Улуғбекнинг Робия Султон исмли қизидан туғулган Суюнижхон мақбараси қад кўтарди. Суюнчхўжа Тошкентда 1524 йили вафот этганидан кейин бу мақбара қурилган эди. Бу қурилган биноларнинг ташқи ва ички хоналари безакка бой, олтин хал суви шу безак кўриини алоҳида жозиба берган. Шу даврда Тошкентдаги Хазрати имом меъморий мажмуасига асос солинди, Ал Бакр Кафали Шоший (1541-42) мажмуалари барпо этилди.

Хонлик меьморлигининг иккинчи босқичи XVI асрнинг 60-90 йилларга тўғри келади. Абдуллахон П бошқарга бу даврда Бухоро ва ундан ташқарида ҳам катта қурилишлар олиб борилди, мавжудлари таъмирланиб йирик мажмуаларга айлантирилди. Шу даврда Бухорода Пои Калон Жомеь мачити, Мадарихон(1566-67) ва Абдуллахон(1588-90), Кўкалдош(1557-98) мадрасалари, Лаби ховуз меъморий мажмуаси вужудга келди. Шу йилларда Бухородан ташқарида ҳам шундай мажмуалари яратилди. Жумладан Тошкентда Кўкалдош мадрасаси қад кўтарди. Уни Тошкент хокими Кўкалдош қурдирган эди. Худди шу номдаги Бухородаги Кўкалдош мадрасасини эса Абдуллахон П нинг саркардаси Қулбобо Кўкалдош қурдирган). Чор Бакр меъморий мажмуаси(1559) ҳам даврнинг йирик қурилмаларидандир. Абдуллахон П маблағига бу ерда хонакоҳ, масжит ва мадрасалар барпо этилган. Қурилмалар ободонлаштирилиб атрофи чорбоғга айлантирилган. Шу даврда катта сув иншоатлари, усти берк расталар - тимлар барпо этилди. Абдуллахон банди шундай иншоатларддан бўлган. Тўғон ва сув омборини ташкил этган бу Абдуллахон банди шу йиллар қишлоқ хўжалиги ишларини яхшилашга қаратилган тадбирлардан бўлган. Бухорода бизгача сақланган Абдуллахон томонидан барпо этилган тим ҳам давр меъморлигидаги жараёнларни - майиший ҳаёт билан боғлиқ қурилмаларни барпо этилганлигини кўрсатади. Кўп гумбазли қилиб қурилган тим расталари равоқли йўлаклар билан бир бири билан боғланган. Бу давр ёдгорликларидан яна бири сардобалар, яъни усти берк сув ховузлар бўлиб уларнинг устига катта гумбазлар ишланган..

16 асрнинг 80 – йилларида барпо этилган Абдуллахон мадрасаси даврнинг янги йўналиши қўш мадраса қуриш жараёнини ёрқин намоён этади Бир бирига қаратилиб қурилган меъморий мажмуаларнинг намунаси хисобланади. Бу мадраса Модарихон мадрасасига қарама қарши пештоқлари бир бирига қаратиб қурилган. Улар биргаликда ягона йирик меъморий мажмуани ташкил этган. Шу даврда Тошкентдага Хазрати имом меъморий мажмуаси янада кенгайтирилиб қўш мадраса услубида мадраса

ва мақбаралар барпо этилди, айвонлар қурилиб ховуз ва кўқаламзорлаштириш ишларига эътибор берилди. *Абдуллахон II 1534 йили туғилган,1583 йили у бутун ўзбеклар хони деб эълон қилинган.Кўк гумбаз(1590-91)....* Тоқи заргарон(16 аср), Тоқи саррофон(16 аср)

**Тасвирий санъат**

Шайбонийхон қўлига киритган Мавороуннахр бой маданий меросга эга эди. Шу йилларда Камолиддин Бехзод ва унинг атрофида тўпланган кўпгина рассом ва хаттотлар ижод қилишар эди. Шайбонийхон ва унинг давомчилари даврида Ўрта Осиё, хусусан Бухорода санъат ва маданият ўзининг гуллаган даврини бошидан кечирди. Шу ерда, айниқса, китобат санъати, хатотлик ва у билан боғлиқ ҳолда миниатура санъати ривожланди. Кулёзмалари безаш, уларни китоб холига келтириш борасада бухоролик усталар донг таратдилар. Бу ерда таниқли хаттот ва мусавирлар кўчиб келди. Бухоро, Самарқанд, Тошкентда бетакрор ўрта осиёча миниатюра мактаби шаклланa бошлади. Шу санъат ривожланишининг дастлабки босқичини Шайбонийларнинг тарихий баённомаларига бағишланган «Шайбонийнома», «Фатхнома» ва «Тарихи Абулхайрхон» қўлёзмаларида ўз ифодасини топди. Бу қўлёзмаларга ишланган миниатюраларни маҳаллий рассомлар божарган бўлиб, бу миниатюраларни хирот мактаби расмлари билан солиштирганда Хирот мактаби миниатюраларига хос нафислик, киборий руҳ сусайганини, сезиш мумкин. Бу миниатюраларнинг қалами жиддий, колорити сиқиқ ва яхлит, йирик ишланган образлар бирмунча қотиб қолган холда кўрсатилган, манзара тасвири ҳам содда. Яна бир муҳим томони шундаки бу миниатюраларнинг,уларда тасвирланган одамлар,уларнинг кийимлари ва уларни ўраб турган мухитда ўзбек типларига хос фазилатларни кўрамиз. Шу хусусда «Тарихи Абулхайрхон миниатюралари эьтиборга лоиқ. Қўлёзма учун 28 миниатюра ХУ1 асрнинг 40 йилларида ишланган.

Шу даврдан хаттотлик санъати ҳам янада ривожланди. Бу ривожга хирот мактаби кучли таъсир этди. Бу ишларда 1528 йили Хиротдан Бухорога кўчиб келиб, умрининг охиргача шу ерда меҳнат қилган К.Беҳзод шогирдларидан «хаттотлар қироли» Мир Али сезиларли из қолдирди. Мир Али бу ерда замондошиМ.Музаҳҳиб ва унинг шогирдлари билан хамкорликда ишлади ва қўлёзмаларни кўчирган. Париждаги Миллий кутубхонада сақланаётган Низомийнинг достони кўчирмаси шундай ҳамкорликда яратилган.

Ўрта Осиёда миниатюра мактабининг йирик вакили Махмуд Музаҳҳиб хисобланади. Асл исми Маҳмуд Шайҳзода бўлган Музаҳҳиб Камолиддин Беҳзод, Мироқ Наққош қўлида тасвирий санъат сирларини ўрганган. Темурийлар салтанатига чек қўйилиб ҳокимият Шайбонийлар қўлига ўтганидан кейин у салтанатининг пойтахти Самарқандда кейинроқ Бухорода яшаб саройда хизмат қилган. Бухорода 80 ёшда оламдан 1572 йили Бухорода вафот этган. Махмуд Музаҳҳиб 1485-90 йиллар орасида туғилган деб тахмин қилинади. У китоб безаш ҳамда миниатюра ишлаш борасида юксак маҳоратга эга бўлганлиги учун ҳам унга "Музаҳҳиб" я'ьни "олтин суви юритувчи" тахалуси берилган. Маҳмуд Шайҳзоданинг 30 га

яқин асарлари аниқланган. Рассомнинг илк асарларидан бири Алишер Навоийнинг хассага таяниб турган холда тасвирланган сурати хисобланади. Расм. Хассага таяниб турган Навоий сурати. Портретда кексаиб қолган Навоийнинг хассага таяниб турган холатида акс эттиради. Махмуд Музаҳҳиб портретлар ишлаш билан бир қаторда тарихий ва маиший жанрларда ҳам асарлар яратган. Рассом ижодининг гуллаган даври ХУ1 асрнинг 30-40-йилларига тўғри келади. Шу даврда ишланган миниатюралар ичида«Султон Санжар ва тўқувчи кампир билан учрашуви» унинг етук асарлардан биридир. Унда салжуқийлар ҳокими Султон Санжар овга кетаётган пайтда қари тўқувчи кампир уни халқ бошига кўп ташвиш ва уқубатлар туширгани учун койиганлиги ҳикоя қилинади.(Расм. Султон Санжар овда.) Бу асари билан рассом ўз давр иллатларини ҳам кўтариб чиққанлигини кўрсатади. Саадийнинг «Бўстон» асари миниатюралари ҳам М.Музаҳҳиб қаламига мансуб деб ҳисобланади. Бу қўлёзма Тошкент ҳокими Баракхон тахаллуси билан танилган Наврўз-Ахмад учун 1555 йили ишланган. Бу қўлёзма ҳам Миллий кутубхонада Парижда сақланади.

Махмуд Музаҳҳиб шогирдлари Муҳаммад Чагри Мухассин, Абдулла, Муҳаммад Мурод Самарқандий ва бошқалар китоб, миниатюра санъатини ривожлантиришда ўзларининг муносиб ҳиссаларини қўшдилар.

Муҳаммад Мурод Самарқандий. Муҳаммад Мурод Самарқандий ХУ1 асрнинг бошларида Самарқандда туғилган. Шу ерда диний ва дунёвий билимларни эгаллади, хусусий мактабда рассомлик ва хаттотлик билимларини эгаллаган. Самарқанддаги Улуғбек мадрасасида диний ва дунёвий билимларини ошириб шу ернинг ўзида китоб кўчириш, уларни турли нақш ва расмлар билан безаш билан шуғулланди. Темурийлар инқирози кучайиб борган кезларда ақидапарастлар томонидан жонли нарсалар расмини чизиш ман этилиб рассомлар тақибга учрайбошлаганида у дўсти Нодир Самарқандий билан бирга Хиндистонга, бобурийлар давлатига ўтиб кетди ва шу ерда умрининг охригача яшаб ижод қилди ва хинд миниатюра мактабининг шаклланишида муҳим рол ўйнади.

Самарқандий ҳам ўз ижодида жамият иллатларини очиб кўрсатишга ҳаракат қилганлиги унинг қатор асарларида ўз ифодасини топган. Темирчи Кова қўзғолониига бағишланган миниатюраси шундай танқидий руҳда ишланган. Булардан ташқари шоҳларнинг қабул маросимлари, ов ва жанг манзаралари унинг асарларида ўз ифодасини топган. Абулқосим Фирдавсийнинг “Шоҳнома”, Сааъдийнинг “Гулистон”, “Бўстон” достонларига ишланган миниатюралар ҳам машҳур. Муҳаммад Мурод Самарқандийнинг бизгача сақланган асарлари ичида 1556 йили ишланган «Шоҳнома» қўлёзмасигаишланган миниатюралари алоҳида ажралиб туради. Бугунги кунда бу қўлёзма Тошкентдаги Беруний номидаги Шарқшунослик институти кутубхонасида сақланади. Достонга ишланган 115 та миниатюра сюжетлари тугал, достондаги воқеаларни моҳияти билан очиб беришга ҳаракат қилади. Унда рассом достондаги воқеаларнинг мазмунини атрофлича ёритишга, жамият иллатларини очиб кўрсатишга ҳаракат қилади. “Темирчи Кова қўзғолони”, “Заҳҳокнинг Фариддун томонидан аср олиниши”, “Фариддуннинг ўғиллари Яман шоҳи хузурида”, “Рустамнинг

туғулиши” ва бошқа миниатюраларда шу хусусиятлар намоён бўлади.

ХУ1 аср иккинчи ярмидан бошлаб Бухоро Ўрта Осиё бадиий ҳаётида муҳим ўрин эгаллади  Портрет санъати ривожланди. Хонлар портретлари ишланди. Абдуллахон  , Имонқулихон портретлари шулар жумласидан. Шайбонийлар даврининг машҳур мусаввирлари  Абдулло Бухорий, Менучеҳр,  Жамолиддин Юсуф каби миниатюра усталари  ҳам тарих саҳифаларидан муносиб ўринни эгалладилар. Уларнинг бизгача етиб келган айрим асарлари уларнинг юксак дид ва ижодий баркамолликларидан далолат беради..

## АШТАРХОНИЙЛАР ( ЖОНИЙЛАР)  ДАВЛАТИ(1601-1756)

Шайбонийхон вафотдан кейин парчалана бошланган катта салтанат янги  Аштархонийлар сулоласига йўл очиб берди. Ашгархонийлар сулоласи 1601 йилдан 1753 йилгача ҳукмдронлик килди.  Аштархонийлар сулоласининг асосчиси Жони Муҳаммад асл астраханлик бўлиб, руслар бу хонлик ерларини босиб ола бошлаган пайитларда у ўз ўғиллари билан Бухорога, қайнотаси Абдуллахон паноҳига қочиб келган эди. Кейинчалик шу сулола вакили Имонкулихони Бухоро зодагонлари улуғ хон килиб кўтардилар. Имонкулихон 30 йилдан ортиқ  Бухорода ҳукмронлик қилди. 1642 йили укаси Нодирмухммад ўрнини бўшатиб беради, чунки унинг кўзи ожиз қолган эди. Аштархонийлар даври ноинчлик , қўзғолон ва кўтарилишлар билан тўла.  Самарқанднинг Дахбид деган жойида , I713-I4 йиллари Бухорода, 1719 йили Балхда, 1746 йили Тошкентда шундай ғалаёнлар бўлиб утада.1713 йил Самарқанда бўлган хунармандлар қўзғолони ҳам хонликка катта ташвиш келтиради.Ғалаёнлар ҳам, тахт учун олиб борилган низолар ҳам аста давлатнинг емирилиб парчаланишига олиб борди.Натижада кўпгина санъаткорлар,жумладан миниатюрачилар Ўрта Осиёдан ўзга юртларга,бобурийлар ҳукмронлигида бўлган Хиндистонга кўчиб кета бошладилар. М.М.Самарқандий ва Нодир Мурод Самарқандийлар шулар жумласидан эди. Шунга қарамай 17 аср ҳам санъат янгиликларига бой Меъморлик, тасвирий, амалий безак санъати ва китобот ҳамда миниатюра соҳасида сезиларли асарлар яратилди.

### Меъморчилик.

Бу давр меъморлигида аввалги йилларда мавжуд бўлган меъморлик анъаналари давом этди.  Меъморлар  бу анъаналарни бойитиб равоқ ва гумбаз имкониятларидан фойдаланиб бир бири билан кесишадиган йўлак ва катта заллар яратишга ҳамда муқарнасли  уймакорлик санъатини ривожлантиришларида  намоён бўлди. Шаҳарсозликнинг  яна бир ўзига хослиги аввалги асрда бошланган йирик меъморий мажмуаларни яратиш борасидаги жараёнлар  янада ривожлантирдилар. Шу асрда Бухорода Пойи Калон, Лаби ховуз, Самарқандда Регистон  меъморий мажмуаси ўзининг тугал кўринишини олди. Бухоро, Шахрисабзда гумбаз-равоқли ёпиқ бозорлар  кенгайтирилди.  Бу даврга келиб меъморлик санъатида безакка яна эътибор орта бошлади.16 аср икинчи ярмидан  сусая бошлаган  бу санъат яна жонланди. Интерьер безагида  кундал услуби(техникасида)ишланган нақшлар,  ёғоч ўймакорлигида ишланган эшик ва панжаралар, сергул намоёнлар давр меъморлигини  ажратиб туради

ва қайтарилмас жозибаси билан кишига қувонч бағишлайди. Бу даврда Бухорода катта қурилишлар давом этди. Шундай ёдгорликлардан бири І652 йили барпо этилган Абдулазизхон мадрасаси ҳисобланади. Нисбатлари ниҳоятда гўзал, олтин халли кошинлари ёзув, нақш ва расмлар уйғунлигида ажойиб манзара хосил қилади. Мадрасанинг ташқи пештоқ безаги нақш ва афсонавий жониворлар тасвири билан безатилган. Мадрасанинг ички хоналари ҳам эътиборли. Бу ёдгорлик гумбази безагида ганч муқарнаслар, деворларида гулга тўла гулдонни акс эттирувчи панолар ўз аксини топган. Пештокнинг иккинчи қаватидаги безаги ҳам ҳарактерли. Унда куёшга учиб бораётган кенг ёйилган қанотли икки қуш тасвири ишланган. 1630 ьйилларда Нодир Муҳаммад Девонбеги қурдирган мадраса ҳам безакка бой. Унинг пештоқига ишланган афсонавий қушлар тасвири ҳам уни бошқа мадрасалардан ажратиб туради. 17 асрнинг йирик меъморий ёдгорликлари бу Шердор мадрасаси бўлиб у бироз илгарироқ барпо этилган Тиллақори ва Улуғбек мадрасалари билан биргаликда яхлит меъморий мажмуани ташкил этади ва Регистон майдонга тугаллик берган. 1619-1636 йилларда меъмор ....Тасвирий санъат меьморий безакларда, амалий санъат буюмлари кенг ўринни эгаллайди ва уларнинг ахралмас қисмига айланган. Шу даврда ишланган гилам ва сузаналар, сопол буюмлар, Бухородаги Нодир-Девон Беги Самарқанддаги Шердор, Тиллакори мадрасаларининг безакларида тасвирий санъат ўз ифодасини топган.

Умуман шуни таъкидлаш керакки, бу асрда ҳам борлиқни, табиат кўринишлари, гулдон ёки тувакда кўкариб турган гул, дарахт шохида хиргойи қилаётган чиройли қушлар ва ҳайвонлар тасвири шу даврда ишланган сопол буюмлари, гилам ва сўзаналарда биноларнинг ташқи ва ички безакларида, турли хил шакллар (медадьонлар) ичига ишланган тасвирларда кенг учрайди. Шу хусусда Самарқанддаги Тилла қори мадрасаси (ХУП аср) нақш ва безаклари диқатга сазовор. Бу мадраса деворий расмларида Биби Хоним масчити, оқ сарой, деворий расмдарига ўхшаш композициялар учрайди. Унча катта бўдмаган манзаралар - дарахт шоҳлари, гуллар кўриниши мовий заминда (фонда) олтин халдан ишланган Бу ҳисобига хоналар кўриниши эртакнамолик кашф этган.

17 аср миниатюра ва китобот санъати ҳам бой тарихига эга. Бу асрда санъатнинг шу турларида нодир асарлар яратилди. Сарой қошидаги кутубхоналарда рассом ва хаттотларнинг катта гуруҳи меҳнат қилган. Жумладанмусаввирлар Хўжа Гадо, Аваз-Муҳаммад, Хўжа Муқим, Мулла Бехзод , хаттотлар Мирза Барки, Мирза Мир Муниш ва Араб-Шоҳ саройкитобхонасида яшаб ижод этган . Булардан ташқари хонлар таклифи ва буюртмалари асосида ташқаридан ҳам истедодли рассомлар китоблар кўчириш ва безаш ишларига жалб этилган. Жумладан Аштархонийлардан Абдулазизхон учун кўчирилган Саьдийнинг «Бўстон» асари учун кўчирилган қўлёзмада(1649) Фарход исмли мусаввир дасхати учраши шундан далолат беради. Низомийнинг «Ҳамса» асари қўлёзмасида эса Муҳаммад-Муқим (Хўжа Муҳаммад),Муҳаммад Амин,Беҳзод дастхатлари бор.

**Ma’ruza mashg’ulotlari**

| | |
|---|---|
| **8-mavzu** | **O’zbek xonliklari davrida san’at (Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo’qon xonligi)** |

*8.1. Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi*

| | |
|---|---|
| *Mashg’ulot vaqti* -2 soat | *Talabalar soni : 39* |
| *Mashg’ulot shakli* | Kirish –axborotli ma’ruza |
| *Ma’ruza rejasi* | 4. Buxoro amirligida iqtisodiy va madaniy ahvol. Monumental rassomlik.<br>5. Xiva xonligida san’at<br>6. Qo’qon xonligida siyosiy va iqtisodiy-madaniy axvol. Miniatyura va kitobat san’ati |
| *O’quv mashg’uloti rejasi :* O’zbek xonliklari davrida san’at (Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo’qon xonligi) haqida nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash | |
| *Pedagogik vazifalar*:<br>O’zbek xonliklari davrida san’at (Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo’qon xonligi) san’tini yoritib berish | *O’quv faoliyati natijlari:*<br>Talabalar O’zbek xonliklari davrida san’at (Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo’qon xonligi) san’atini bilib oladilar. |
| *Ta’lim berish usullari* | Ko’rgazmali ma’ruza, namoyish etish, savol javob, suhbat, tushuntirish. |
| *Ta’lim berish shakllari* | Ommaviy, jamoaviy, yakka tartibda, slaydlar |
| *Ta’lim berish vositlari* | O’quv qo’llanma, kompyuter texnologiyalari, doska |
| *Ta’lim berish sharoiti* | Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo’ljallangan auditoriya |
| *Monitoring va baholash* | Og’zaki nazorat , savol javob |

9.2. “O’zbek xonliklari davrida san’at (Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo’qon xonligi)”
mavzusi bo’yicha ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi

| *Ish bosqichlari va vaqti* | *Faoliyat mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *Ta’lim beruvchi* | *Ta’lim oluvchilar* |
| 1. Mavzuga kirish (15 daqiqa) | 1.1.O’quv kursi nomini aytadi.Ekranga o’quv kursining tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzular ro’yxati bilan tanishtiradi va ularning mazmunini qisqacha yoritadi.<br>1.2.sakkizinchi mashg’ulot mavzusi, uning maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini e’lon qiladi<br>1.3.Klaster asosida o’tiladigan mavzuning mazmuni va mohiyatini qisqacha yoritadi. | Tinglaydilar<br>Tinglaydilar |
| 2- | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol javob usulini qo’llaydi: | Savolga javob |

| | | |
|---|---|---|
| bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa) | 2.2 Buxoro amirligi san'ati namoyandalaridan kimlarni bilasiz?<br>Xiva xonligi va Qo'qon xonligida qaysi me'moriy obidalarni bilasiz?<br>Chor Rossiyasining Turkistonni bosqini davrida madaniyatga ta'siri qanday oqibatlarga olib keldi?<br>2.4. Vazifani talabalar yakka tartibda bajarishlarini aytadi.<br>Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularni yo'naltiradi, zarur maslahatlar beradi.<br><br>2.5. Bir necha talabaning ish natijasini tekshiradi, talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi. Zarur bo'lsa, qo'shimchalar kiritadi va ushbu savol bo'yicha to'liq ma'lumot berishini aytadi.<br><br>2.6. Rejaning ikkinchi savoliga doir bo'lgan slaydlarni ekranga chiqaradi va har bittasini to'liq yoritadi.<br><br>2.7. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi. | beradilar Fikrlarini bildiradi<br><br>Tinglay dilar, zaraur ma'lumotlarni yozib oladilar.<br><br>Vazifani yakka tartidda bajaradi.<br><br>Ish natijasini taqdim qiladi.<br><br>Tinglay dilar, zaraur ma'lumotlarni yozib oladilar. |
| 3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo'yicha egallagan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyatli ekanligini alohida qayd etadi hamda kelajakda ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi.<br>3.2. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: (1)o'tilgan mavzu asosida B/B/B jadvalini to'ldirib kelish. B/B/B jadvalini to'ldirish qoidasinitushintiradi (2) ikkinchi mavzu bo'yicha keyingi o'quv mashg'ulotiga tayyorlanib kelish. | Savollar beradilar.<br><br>Vazifani yozib oladilar. |

## 8-Mavzu: O'zbek xonliklari davrida san'at (Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi)

### Reja

1. Buxoro amirligida iqtisodiy va madaniy ahvol. Monumental rassomlik.
2. Xiva va Qo'qon xonligida siyosiy va iqtisodiy-madaniy axvol. Miniatyura va kitobat san'ati.

3. O'zbekiston Rus chorizmi asorati yillarida.

## БУХОРО АМИРЛИГИ

Аштархонийлар ҳокимлигининг ичидаги зиддиятлар уни аста-секин парчалаб борди. XVII аср бошларида Хоразм, сўнгра Фарғона мустақилликка эришиб, Хива ва Қўқон хонликлари барпо этилди. Мамлакат ичидаги бундай ўзгаришлар Дашти Кипчокдан келиб аштархонийларга суворий бўлиб ёлланган мангитлар сулоласига қўл келди. Бу сулола бошлиги, аштархонийларнинг сўнгги вакили Абдулфайзхон (1711-1747)нинг бош вазири лавозимига иш юритган Муҳаммад Рахим сарой тунтаришига эришиб, хонни ва унинг ўғлини йўқ қилади. Окибатда аштархонийлар сулола ўрнини эгаллаб Бухоро амирлигини бошлаб берди. Бу амирлик 1753 йилдан 1920 йилгача Марказий Осиё ҳудудининг катта қисмини эгаллаб ўзҳукмини ўтказган. Бухоро амирлигининг ерлари Зарафшон, Қашқадарё водийси, Сурхондарё вилояти, Тожикистон, Туркманистон, Қозоғистон ерларининг катта қисмини эгаллаб бу ерлардаги ҳар қандай норозилик ва ғалаёнларни шафқатсизларча бостирилиб борди, шу ердаги қатор кабилаларни ўз ерларидан кўчириб ҳукмронлигини мустаҳкамлашга интилди.

Бухоро хонлиги Марказий Осиё ҳудудидаги катта, аҳолиси ҳам бошқа хонликларга нисбатан кўп эди. Бу хонликда ўзбек, тожик, қозоқ, туркман, ҳирғиз, қорақалпоқлардан ташқари араб,эрон, якудий ва б. миллатлар истиқомат қилар эди. Амирликнинг пойтахти Бухоро эса Марказий Осиёдаги хонликларнинг диний маркази эди. Меъморликда анъанавий қурилишлар давом этди. 18-19 асрларда барпо этилган , Болоҳовуз масжити(18-20 аср),Чор Минор(1807), Ситораи Моҳи хоса(1826-1920)... *Рус истилосидан кейинги Бухоро амирлиги Бухоро рус қушинлари босқинидан кейин рус подшоҳсининг итоаткори эканлигини тан олиб ўзмулкининг анчагина қисмини Руссияга бериш шартига кўл куйди. Шу шартга биноан Самарқанд, Жиззах, Каттақўрғон, Ўратепани Россия ерлари деб эьтироф этила бошланди. Абдулахад (1885-1910), набираси (Абдулахаднинг угли) Олимхон (I910-I920)….*

*Амир Олимхон фаолияти диққатга сазовор. У рус подшоҳси Николай 11 маьрўзаларини тинглаган Петербургда зодагонлар учун ташкил этилгак мактабда таьлим олган. Европа ҳаёти ҳақида озми кўпми тасаввурга эга бўлган хонлардан эди. Шунинг учунҳам у ўзини рус подшоҳсидан миннатдорлигини унга сидки дилдан хизмат килишни шараф деб билди. Николай II моддий кийин ахволга тушганида унга Бир миллиондан ортиқ пул йигиб унга иньом килди. Николай II ҳам унинг хизматларини унутмади. Олимхонга генерал адьюьант рус олий унвони билан такдирлади. Олимхон бу унвон ва унинг нишонини фахр билан намойиш этиб юрди.*

## ХИВА ХОНЛИГИ.

Хива хонлиги ҳам шайбонийлар давлатининг парчаланиш даврида шакилана бошлаган эди. 1512 йил шайбонийлар сулоласининг вакили Элбарсхон 1512-1538 хонликка асос солада. Бу хонликнинг ҳудуди Мангқишлоқ ва Хуросонинг шимолий тамонларини ўз ичига олди.

Хива хонлигининг меъморчилиги ривожининг янги даври ХУШ аср охри Х1Х аср бошларига тўғри келада. Бу даврда Темур ва темурийлар даври меъморчилик санъати анъаналарида бинолар қад кўтарди. Хива, Хазорасп, Тошовуз, Гурлан ва Кенжа каби шаҳарларда ҳаёт, савдо-сотиқ, хунармндчилик ривожланада. Кунгирот уригидан бўлган Муҳаммад Рахим 1806-I825 ва унинг ўғли хонлик қилган йилларда(1825-1848) Хива хонлигининг ерлари бирлаштирилада. Шу йиллардан катта қурилишлар амалга оширилади, божхона ва зарбхонлар ташкил топади. Хиванинг машхур ёдгорликлари ўзининг тугаланган кўринишга эга бўлади. Дарвозалар каронсаройлар ва мадрасалар ҳисобига шаҳар курки очилади.

**Пахлавон Макмуд мақбараси 1810 ,**

Тош Ҳовли 1838 каби ёдгорликлар бугунги кунда безакдорлиги билан ҳам ўзининг гўзаллиги билан кишиларни хайратга солада

Ичан калъада хон кароргоҳи ва бошқа муҳим мамурий бинолар жойлашган. Каланинг бош майдонини бўлиб, у ерда савдо ишлари олиб борилган,турли йигинлар утказиган.Бу ерда урнатиган дор эса хон гаэабига учраганлар учун охри манзил бўлган. Муҳаммад Рахимхон угли Оллокулихон 1825-1848 даврида Хива хонлигининг ҳудуди янада кенгаяди. Хива хонлигида турли миллат вакилари яшаган. Турккман шоири Матхумкули, қоракалпок шоири Белдак ижоди алоҳида ажралиб туради. Улар ўз асарларида халқни бирликка биродарликка чакирадилар. Хива хонлигида фан жонланди Шу даврда жаҳон халқлари тарихи ўзбек тилига таржима килинди. Хоразим тарихи ёзилди бу ишларин амалга ошишида таниқлий шоир ва тарихчи Мунис Хоразмий (асл исми Шермуҳаммад Авазбой ўғли ) (1778-1829) ва унинг жияни Огахий (1809-1874)ларнинг ўрни катта.У Феруз тахаллуси билан шеърлар ёзган, куйлар басталаган, фан ва маданиятга хомийлик қилган, қурилиш ишларига эьтибор берган.

Хива хонлари ўз кутубхоналари қошида китобдорлар ва рассомлар гуруҳини сақлаганликлари ҳақида маьлумотлар бўлмаса ҳам, лекин хонларнинг даврнинг машҳур рассомларини Хивага таклиф этганликлари ва рассомлар ва хаттотлар улар учун қўлёзмалар кўчириб берганликлари ҳақида маьлумотлар сақланиб қолган Жумладан Хива хони Элбарсхон таклифига биноан Муҳаммад Мурод Самарқандий китоб қўлёзмасини ишлаган..

**Қўқон хонлиги**

ХУП аср ўрталаридан бошлаб Фарғона водийсида мустақиллик учун кураш кизиб Марказий Осие ҳудудида шаклланган янги хонлик Қўқон хонлиги сулоласини бошлади. Деярли 170 йид мавжуд бўлган бу хонлик даврида унинг чегараси Фарғона водийсидан ташқарига чикиб, Козогистоннинг жанубий томонлари, бугунги Киргизистон ерлари, Тожикистон, мулклари, Тошкент воҳаси ерларини ўз ичига олди. Қўқон хонлиги даври ривожланиши ХУ111 аср охиридан жонланиш сезиларли бўлиб борди. Хонлардан Олимхон (1800-1810), Умархон (1810-1822) Муҳаммад Али Маьдаги (1822-1842) ҳукмронлиги йилларида хонлик чегаралари мустахкамлана бошлади, Тошкент, Чимкент, Сайрам ерлари ҳисобига хонлик чегаралари кенгайди. Шу даврда қатор қальа ва қўрғонлар

қад кўтарди. Махрам қальаси, Ок масчит (ҳозирги Қизил урда), Авлие ота (Жамбўл), Пешпек (Бишкек) каби қатор ҳарбий истехкомлар бунёд килинди, айниқса хонлик пойтахти Қўқон шаҳрида катта қурилиш ишлари амалга оширилди, масчит мадрасалар кад кутарди. Шаҳар марказида бозор ва гўзарлар,жума мачит,чорраҳаларда эса катта бўлмаган карвон саройлар қурилди.Бу давр меьморлиги кам безакли бўлиб биноларни катта қисми лой ва пахсадан бунёд этилди. Фарғона водийси меьморлиги шу давр меъморчилик услубларда ишланган бўлишига қарамай ўзига хос кўринишга эга эканлигини ҳам эьтироф этиш керак Жумладан Намангандаги Хўжамнинг қабри мақбараси шу хусусда эьтиборлидир.Унинг гумбаз ости кўриниши муқарнасли қилиб ишланганлиги билан ҳарактерланади.МеьморМуҳаммад Иброхим томонидан бажарилган бу мақбарада ранг ҳам ишлатилган бўлиб у гумбаз ости кўринишига ўзига хом кўриниш ҳосил қилади. Фарғонанинг бош шаҳри бўлган Маргилондаги Зулқарнайн мақбараси минорали бўлиб улар(Иккита минораси сақланиб қолган)нинг теппа қисми муқарнасли. Булардан ташқари Фарғонада авлиёларга атаб қурилган қатор мозорлар сақланиб қолганБулар унча катта бўлмаган пештоқ--қуббали бинолар бўлиб уларнинг эшиклари ўймакорлик санъати билан пардозланган.Бу даврда ишлатилган устунлар ҳам муқарнасли бўлиб уларнинг устунлари ҳам ўймакорлик санъати билан пардозланган. ХУ111 аср ўрталаридан Хўқанд қишлоги Қўқон хонлиги пойтахтига айлантирилдиБу хонлик қурилиш учун бухороли усталарни янги пойтахтга таклиф этдилар.Натижада бу ерга Бухородан кўплаб усталар кўчиб кела бошлади.Натижада шу даврда қурилган бинолар безаги ва тархида Бухоро таьсири сезиларли ўринни эгаллади.Буни Норбўта бий мадрасаси кўринишида кўриш мумкин.Бино учун ишланган ўйма эшик эса ўз ишланишининг юксаклиги билан ажралиб туради. Бу даврда Қўқон хонлигида хунармандчилик ривож топди, ажойиб кошинлар, сирли сопол буюмлар, уймакорлик эшиклар шу даврда кутаринки руҳини ўзида акс эттиради.

Реалистик тасвирий санъат ҳақида гапириш қийин,лекин декоратив йўналишдаги тасвирлар бу давр деворий рассомлигида учрайди. Гулдон ва ундан чиқиб турган турли гуллар тасвири , анор шоҳчаси тасвирлари шу давр сарой ва турар жойларда учрайди. Шундай расмлар Хўжамнинг қабри(Наманган) мақбарасида кўриш мумкин. Адабиет санъатида Қўқон Марказий Осиё ҳудудида ўзининамоён килди. Бу ерда яшаб ижод қилган Гулханий, Нодира, Увайсий, Махзуналар ўз даврларининг руҳини шеьрларида акс эттирдилар.

## 9-Mavzu: G’arbiy Yevropada madaniyatida Vizantiya san’ati.

### Reja:

1. Yevropada san’at tushunchasi va turlari.
2. O`rta asrlar san’ati.

3. Vizantiya san’ati

❖ **Darsning o`quv va tarbiyaviy maqsadi:** San’atning paydo bo’lishi, rivojlanishi, san’at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memor8chilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo’lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayonini o’rganishdan iborat. Shuningdek Jahon mamlakatlaridagi sanat ohalarining bir biridan farqli jihatlarini ham o’rganadi
❖ **Dars o’tish vositalari:** (Doska, plakat, fan yuzasidan manba va adabiyotlar, tarixiy ma’lumotlar, mavzu yuzasidan har xil testlar, kompyuter, jahon siyosiy xaritasi, izohli lug`atlar)
❖ **Dars o’tish usullari:** Takrorlash, suhbat va savol-javob (mavzuni o`zlashtirishni mustahkamlash), jonli muloqot o`tkazish, erkin fikrlash va so`zlashga o`rgangan holda fikr mulohazalarini bayon qildirish, buning uchun har bir talabaga o`tilgan mavzular, tayanch iboralardan savol tashlanadi. O`qituvchi va talabalar o`rtasida berilgan savollarni tahlil etish. Talabalarga San’atning paydo bo’lishi, rivojlanishi, san’at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memor8chilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo’lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayoni to’g’risida tushuncha berish. Tarqatma testlar asosida talabaning mavzuni qay darajada o`zlashtirganligini aniqlash. Talabalarni voqealarni tahlil etishga o`rgatish. Xarita bilan ishlashni talabalarga o`rgatish. Iboralarni izohlash va unga tahlil berish.
❖ Darsning xrono kartasi – **80 minut.**
❖ O’qituvchi dars davomida quyidagi ishlarni bajaradi
❖ Tashkiliy qism: xonaning tayyorgarligi, jihozlanishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati **– 2 minut**
❖ Hafta davomida bo`lgan yangiliklar-**5 minut**
❖ Yo`qlama- **5-minut**
❖ Dars yuzasidan talabalarni zarur adabiyotlar bilan tanishtirish- **10 minut**
❖ Yangi mavzu bayoni – **50 minut**
❖ sinov savollar namunasi – **5 minut**
❖ Uyga vazifa berish – **3 minut**

**G’arbiy Yevropada madaniyatida Vizantiya san’ati**.

San’at-ijtimoiy ong shakllaridan biri, insoniyat, ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi, dunyoni amaliy-ma’naviy anglashning spetsifik turi. O`z ichiga tasviriy san’at, arxitektura, musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot va boshqalarni oladi. San’atning turli ko`rinishlari voqealikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o`zlariga xos usullar yordamida aks ettiradi (masalan, musiqada tovushlar, ularning o`zaro bog`lanish garmoniyasi orqali, badiiy adabiyotda-so`z obrazlar orqali).

Lekin shu bilan birga ular o`rtasida ma’lum umumiylik mavjud. Bu umumiylik shundan iboratki, ularning hammasida voqealik badiiy-obrazlar tarzda aks ettiriladi.

Insoniyatning badiiy-ijodiy faoliyati rangbarang bo`lib, u san’at turlari yoki janrlarda namoyon bo`ladi. Ular o`z navbatida qator ko`rinishlarga ega bo`lishi mumkin. umuman olganda, san’at dunyoni badiiy-obrazli anglashning turli-

umumiy va individual-spetsifik xususiyatiga ega bo`lgan usullar majmuasidan iborat tarixiy sistemadir. San’at juda qadimiy tarixga ega. U jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog`liq holda vujudga kela boshlagan. San’at alohida fan sifatida XVI-XIX asrlar mobaynida shakllandi. San’atga doir ma’lumotlar dastlab Yunonistonda qadimdan o`rganila boshlagani ma’lum. Aristotel’, Platon kabi o`sha davrning yirik filosoflari Yunonistonda san’at nazariyasi va tarixi bilan ham shug`ullanligi to`g`risida ma’lumotlar saqlangan.

Qadimgi Rimda yunon san’atiga katta e’tibor bilan qaralgan. Melodiy dastlabki asrlarda Osiyo mamlakatlarida arxitektura va san’atga oid misollar yaratilgan. O`rta asrlarda Evropada san’at ilohiyot (teologiya)ning bir qismi bo`lib qoldi, o`rta asr san’atshunoslari san’ati narigi dunyoning bu daryodagi moddiy obrazi deb baholadilar. San’at sohasida yaratilgan asarlarning janri asosan, shahar, monastir, ibodatxonalarning tavsiflardan va binokor, naqqosh, rassom haykaltaroshga maslahatlardan iborat risola bo`ldi, uyg`onish davri san’atning rivojiga muhim davr bo`lib tarixga kirdi. XIV-XVI asrlarda gumanizm va realizm tendentsiyalari bilan bir qatorda san’atni cherkov ta’siridan ajralishga intilish kuchaydi va uni ilmiy tavsiflash yo`lida muhim qadam qo`yildi. Bu davrda yaratilgan ko`ng risolalarda rassom, haykaltaroshga asosiy yo`l-yo`riqlar ko`rsatildi, umuman, plastik san’at, uning nazariyasi va tarixi bo`yicha qimmatli asarlar maydoncha keldi Leonardo da Vinchi kabi rassom, axitektorlar rassomlik, uning ilmiy asoslari va imkoniyatlari, tasviriy san’atda inson ma’naviy hayotining aks ettirilishi kabi san’at tarixida muhim ahamiyatga ega bo`lgan fikrlarni bayon etdilar. San’atning XVIII asrdan boshlab mustaqil fan sifatida shakllanishi XVIII asr oxiridagi frantsuz burjua revolyutsiyasini tayyorlash va uni amalga oshirish davrida eski tartiblar hamda feodalizmga qarshi ilg`or ma’rifatparvarlaik g`oyaviylik va realizm uchun kurash avj oldi. Germaniyada G.E. Lessing realizm nazariyotchisi sifatida maydonga kelib «tasviriy san’at» terminini fanga kiritdi.

**Tasviriy san’at** – san’at turi. Rassomchilik san’ati, grafika, haykaltaroshlik va foto san’ati sohalarini o`z ichiga oladi. Tasviriy san’at real borliqni ko`rgazmali obrazlarda, mavjud predmetlarni ularning tabiiy shakli, o`rni va belgilarni o`ziga o`xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi.

Tasviriy san’at asarlari voqea hodisa, holatining ma’lum bir zumdagi ko`rinishini ifodalab, shu bilan bir qatorda voqea rivoji, mohiyati, ma’naviy qiyofasi, psixologik holati, xarakteri va to`g`risida ham ma’lum beradi. Tasviriy san’at asarlarida real borliqda uchraydigan, balki inson fantaziyasi mahsuloti bo`lgan voqea va predmetlar ham aks etirilish, real borliqni ayrim jihatlari o`zgartilib ko`rsatilishi ham mumkin. Tasviriy san’at borliqni bilish shakllaridan biri, voqelikni badiiy aks ettirish vositalaridan hisoblanadi.

Tasviriy san’atning eng qadimiy va keng tarqalgan sohasi rassomlik san’ati (jivopis’) bo`lib, unda real borliqdagi voqea va predmetlar turli-tuman ranglardagi bo`yoqlar yordamida aks ettiriladi. Real borliq to`la hayotning o`zidagidek tarzda, asosan, asl rangda ko`rsatiladi, asarda murakkab ommaviy ko`rinishlarning, kishilarning harakati, psixologik holatlari ko`pincha muhim bo`lgan uyg`unlashtirib ifodalanadi. Rassom asar yaratish uchun niyat qilgan g`oyasiga mos tema, syujet tanlaydi, voqea kompozitsiyasini ko’radi, shu yo`lda izlanadi,

dastlab hayotni o`rganib, naturani kuzatib, eskizlar chizadi, etyudlar yaratadi va hokazo.

Rassomlik san’atida predmetlarning shakli, hajmi, rangi, ularning muvozanatini to`g`ri ko`rsatishda rasmni aniq va to`g`ri ishlashning juda muhim ahamiyati bor.

Rassomlik san’ati vazifasiga ko`ra bir necha turga bo`linadi: monumentallar, rassomlik (arxitekturada ishlangan panno, freska, devoriy rasmlar: yana q. Devoriy rassomlik, monumental san’at; monumental rassomlik yuksak g`oyallar ifodalanishi bilan bir qatorda binoning bezagi bo`lib ham xizmat qiladi; arxitekturaning badiiy qimmatini oshiradi), bezak rassomligi (asosan, bezak vazifasini o`tovchi rassomlik, tasvir, naqsh, bezak san’ati predmetlari-mato, buyum, idish, taqinchoqlar, badiiy, buyumlar va boshqalarga ishlanadigan bezakalar).

**Dekoratsiya san’ati** – yoki teatr rassomligi; teatr dekoratsiyalari ishlash san’ati, dastgohli rassomlik (hech narsa bilan aloqasi bo`lmagan, mustaqil ahamiyatga ega asarlar), miniatyura (qog`ozga, kitob sahifalariga, pergamentga, shuningdek, fil suyagi, bezak buyumlariga, taqinchoqlarga ishlandigan kichik hajmli rasmlar, tasvirlar).

Rassomlik san’atining texnikasi-deganda asar yaratish jarayonida foydalanadigan vositalar, asar yaratish uchun zarur bo`lgan materiallardan foydalanish vositalar, asar yaratish uchun zarur bo`lgan materiallardan foydalanish usullari, bo’yoq tayyorlash usullari, tasvir qaerga, qay usulda ishlatishi ko`zda tutiladi. Rassomlik texnikasi uzoq asrlar mobaynida ishlab chiqarish kuchlarning rivoji, fan-texnika va madaniyat darajasi taqozosi bilan o`zgarib, boyib bordi. O`rta asrlarda mineral va organik buyoqlardan foydalanib kartinalar yaratilgan, keyin esa sun’iy (kimyoviy) bo’yoqlardan keng foydalanila boshladi.

Rassomlik san’ati texnikasiga ko`ra moybo’yoq rassomligi, bo’yoqni suvda eritib, ho`l yoki quruq sovuqqa ishlanadigan rassomlik, tempera, elim rassomligi, emal’, shash’, akvarel’, pastel’, silikat, rassomligi, keramika rassomligi kabi turlarga bo`linadi.

**Tempera** (buyovchi modda natural va sun’iy emul’tsiyalar bilan qorishtiriladi) usullari ko`p. Devoriy rasmlarda, ko`pincha, bo’yoq arpa, bo’g`doy kabi o`simliklar elimiga yoki tuxumga qorishtirib ishlanadi.

**Guash’** (bog`lovchi moddasi elim, belila bilan qorishtirilgan, suv qo`shib ishlatiladi) rassomligidan miniatyurada foydalaniladi.

**Akvarel’** (buyolarning bog`lovchi moddasi o`smilik elimi, ish paytida bo’yoq suvda eritib, tasvir ishlanadi) rassomlardan qog`ozga tasvir ishlashda foydalaniladi. Tinik bo’yoq nozik va nafis tasvirlar hosil qilishi, ishlashda qulayligi tufayli keng tarqalgan. Qadimgi Misr, Qadimgi Xitoyda, O`rta asrlarda SHarq mamlakatlarida (jumladan, O`rta Osiyoda) ma’lum bo`lgan. Ko`pincha qo`l yozma kitoblarni bezashda undan foydalanilgan. Evropada oldinroq ma’lum bo`lsa-da, XVIII asrdan keng tarqalgan.

**Grafika** – rasmni va rasm san’atiga asoslangan, lekin o`z tasvir vositalariga ifoda imkoniyatlariga ega bo`lgan badiiy-tasviriy asarlar (gravyura, litografiya va boshqalar)ni o`z ichiga oladi. «Grafika» termini dastlab husnixat, kalligrafiya

ma’nosida ishlatilgan, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan yangi ma’noda. Tasviriy san’at sohasida qo`llanila boshladi. Grafika texnikasi jihatdan 2-qismga rasm va bosma grafika bo`linadi. Rasm san’ati grafikaning eng qadimgi va keng tarqalgan qismi bo`lib, rivojlanish tarixi ibtidoiy san’at namunalaridan boshlanadi. Maqsad vazifasi jihatdan rasm rassomlik san’ati bilan ko`pincha umumiy jihatlarga ega, ular, pastel’, tempera bilan rasm ham, rassomlik san’ati asarlari ham yaratilaveradi. Ular xarakteri va uslubi bilan bir-biriga qo`shilib ketadi.

**Gravyura** VI-VII asrlarda Xitoyda, XIV-XV asrlarda Evropada rivojlana boshlangan.

Haykaltaroshlik – asar haykalbob materiallarini shaklga solib, (tosh, zarb berib ishlab, plastik materiallarini yopishtirib, metall, gips, loy kabilarni qo`yib-qotirib) tayyorlanadi.

**Haykaltaroshlik** – ishlanishi jihatdan 2 xilga hamma tomoni naturaning asliga o`xshatib ishlanadigan mukammal shaklli (atrofini aylanib ko`rish mumkin bo`lgan) haykalga va bir tomondan qaraladigan rel’ef bo`linadi.

Tasviriy san’at ibtidoiy jamoa tuzumi davrlaridan boshlanadi. Uyg`onish davri. Tasviriy san’ati tarixida yorqin sahifa ochdi. Bu davrning Leonardo da Vinchi, Rafael’, Mikelandjelo, Titsian kabi ulkan iste’dodlari o`zlarning o`lmas, asarlarida inson qudratini, chiriyini, ulug`vorligini, ask ettirilgan. XVII asrdan keyin tus olgan sinfiy kurash, milliy davlatlarning shaklanishi oqibatida milliy badiiy maktablar v.k. XVII-XIX asrlarda klassitsizm rivoj topdi. Umuman XIX asrning oxiri va XIX asrning boshlarigacha san’atda hukmron bo`lgan barokko, rokoko, klassitsizm saroyni ideallashtirishga xizmat qildi, bu yo’nalishlar bilan ijtimoiy murakkab voqealarga va inson psixologiyasiga murojaat etuvchi realizm o`rtasida kurash davom etdi.

XIX-XX asrlarda burjua madaniyatining umumiy inqirozi tufayli uslubi turli-tuman, lekin hayotni, asosan, buzib ko`rsatuvchi, tushkunlikni, g`oyasizlikni ifodalovchi formalistik oqimlar bo`ldi.

**Teatr –** yunoncha–tomosho xona-san’at turi. Teatr san’ati xalq hayoti va uning milliy tarixi madaniyati bilan cham’archas bog`liq bo`ladi. Teatrda aktyor tomoshobin ko`z oldida hayotni so`z va dramatik harakatlar orqali aks ettiradi. Teatr san’ati voqealikni badiiy obrazlar sistemasi vositasida ko`rsatadi. Teatr ommaning ma’naviy-siyosiy, estetik tarbiyasida muhim rol o’ynaydi.

Qurilish – (arxitektura) modiiy ishlab chiqarishning etuk sohalaridan biri: turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruktsi qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan terretoriya bilan bircha qurilayotgan bino (inshoot).

**Muziqa** – yunoncha muzalar san’ati-san’at turi. Unda voqealik jamlangan va muyayan balandlik (yo`g`onlik)dagi badiiy tovush (ton)lan izchiligi vositasida ifodalanadi.

**Rassomlik** san’ati-rivojiga Uyg`onish davrida katta hissa qo`shildi. Bu davrning insonparvarlik g`oyalari ta’sirida realistik tasvir avj oldi. Mazachcho, P’ero dela Francheska, Batichelli, Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, Rafael’, Titsian kabi buyuk rassomlar rassomlik san’ati tarixida unutilmas obrazlar yaratidilar. Turli uslublar (gotika, barokko, klassitsizm, naturalizm, romantizma,

impressionizm va boshqalar) milliy maktablar vujudga keldi.

Madaniy meros-o`tmish davrlardan insoniyatga qolgan modiiy va ma'naviy madaniyat boyliklari majmui.

**Madaniyat** – jamiyat va inson tarixiy taraqqiyotining muayyan bir darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko`rinishlarida, shuningdek ular yaratadigan modiiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi.

Madaniyat tushunchasi muayan tarixiy davrlar, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, konkret jamiyatlar, elat va millatlar taraqqiyoti moddiy va ma'naviy darajasini, shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o`ziga xos sohalarini izohlash qo`llaniladi.

**Arxitektura** – (lotin so`zdan) me'morlik san'ati inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bog`liq bo`lgan alohida turi. O`rta asr Arxitekturasida (asosan G`arbiy Evropa mamlakatlarida) – roman (X-XII asrlar) Arxitektura uslubida alohida o`rin tutadi. Gotika uslubiga xos bo`lgan cho`ziq ravoqlardan iborat konstruktsiyali binolar ichida, monumental ibodatxonalar diqqatga sazovor. Arxitektura va san'at taraqqiyoti tarixida yorqin sahifa ochgan Uyg`onish davri – Renessans (XV asr oxiri XVI asr boshlari) uslubi negizini qadimgi davr klassik arxitekturasi printsiplarning yangi davr talablari asosida tiklash va rivojlantirish tashkil etadi. XVI asr o`rtalarida uslub xarakteri o`zgaradi. Binolar haddan tashqari bezaklar qilib quriladigan bo`ldi. Arxitekturada barokko uslubi keng tarqaldi. Keyinroq (XVII-XIX asrlarda) ana shu serhasham Arxitekturadan voz kelishga intilish kuchaydi. Klassik va Renessans arxitekturaning usul va printsiplarini yangi zamoncha tatbiq etish natijasida klassitsizm uslubi paydo bo`ldi.

Er yuzida feodalizm formatsiyasining paydo bo`lishidan tortib, uning rivojlanishi va nixoyat, uning inqirozi keyingi formatsiyaga o`rnini bo`shatib bergungacha bo`lgan davrdagi san'atni, odatda, o`rta asrlar san'ati deyiladi. Bu san'at turli mamlakatlarda to`rli vaqtda boshlangan va davom etgan. Jumladan, Evropada va Buyuk Konstantin podsholik qilgan davrdan (IV asr) boshlanadi. Uning dastlabki inqirozi esa XIII-XIV asrlardagi Italiyada shahar – davlatlarning va kelishi bilan tezlashdi. Evropadagi ayrim mamlakatlarda feodalizm VII-VIII asrlar va undan kech ham boshlanib, XVII asrning oxirigacha davom etgan (Masalan: Vizantiya, Qadimgi Kuev). Aksincha, jahon mamlakatlarida o`rta asrchilik birmunga erta boshlangan.

O`rta asrlar insoniyat kamolotining muhim davrini ifodalaydi. Bu davr keyingi jahon xalqlari iqtisodiy va milliy madaniyatining rivojlanishida muhim, bosqich bo`ldi, uning taraqqiyotini tezlashtirishida o`zining kuchli hissasini qo`shdi. O`rta asr san'ati o`z xarakteri jihatida osmmaviy san'at bo`lib, uning yaratuvchisi esa xalqdir. Gar shundaki, o`rta asrlarda san'at keng xalq ommasiga qaratildi. Quldorlik davrida jamiyatning ma'naviy va grajdanlik huquqlidan mahrum bo`lgan qul o`rta asrlarda huquqsiz va xo`jayiniga qaram bo`lib qolgani holda jamiyat a'zosi deb tan olinda.

Feodalizm paydo bo`lishi u bilan bog`lik bo`lgan mahalliy ishlab chiqarish kuchlining yuzaga kelishini, yirik shahar va qishloqlarda uzoqdagi davlatlarga ham madaniyat yutuqlarning kirib kelishini ta'minlanadi.

Madaniyatning keng omma orasiga singish davri boshlanadi. Omma ham

shu madaniyatni yaratuvchi kuchga aylandi. Shu davrdan boshlab, milliy, o`ziga xos san'at shakllana bordi, juda ko`p mahalliy maktablar paydo bo`la boshladi. Xalq san'ati, amaliy-dekorativ san'at rivojlandi, Ikkinchi tomondan, o`rta asrlarda din feodallar ustida hukmron va shu bilan birga, ularning himoyachisi san'at imkoniyatlarida o`z faoliyatlarida foydalandilar va davrning asosiy buyurtmachisiga aylanib, uning o`ziga xos tomonini belgilashda muhim rol' uynadilar. O`rta asrlar san'atida faqat o'sha ideologiyadan boshqa ideologiya yo`q, deyish noto'g`ri bo`lardi. Hayot go`zalligini tarannum etuvchi, tabiat latofatini aks ettiruvchi asarlar ham yo`q emas.

O`rta asrlar san'ati to'g`risida fikr yuritganda, uning badiiy tili to'g`risida ham gapirish kerak bo`ladi, chunki o`rta asr rassomi uchun faqat voqelikni «o`ziga o`xshatish» emas, balki shu ishlagan tasviri orqali biror-bir fikrni bayon etish, his-tuyg`uni ifodalash muhimdir. Shu maqsadda u voqelik tasvirini ishlaganda uning deformatsiyasiga yo`l qo`yishida ham cho`zilmaydan xayoliy, ramziy obrazlarda, ham foydalanadi. Bundan tashqari, o`rta asrlar rassomi birinchi bo`lib, onalik mehrining, tabiatining murakkab va ziddiyatli ko`rinilishi ta'sirli ifoda eta oldi.

O`rta asrlar san'atida me'morlik etakchi o`rinni egalladi. Bizgacha o`rta asrlar me'morlik san'atining juda ko`p nodir yodgorliklari saqlanib qolgan. Bu yodgorliklar, ayniqsa, monumental me'morlik san'ati o`rta asrlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o`rganishda muhim o`rinni egalaydi. Ular davrning diniy, falsafiy qarashlarini aks ettiribina qolmay, inson aqlu – zakovatining qudratini ulug`laydi.

Bu davrda qurilgan Evropadagi ibodatxonalar, musulmon sharqidagi hashamatli machitlar, buddizm yodgorliklari o`rta asr tafakkurining mahsuli, insoniyat tarixining haykali sifatida hanuzgacha kishi qalbini to`lqinlantiradi. Buyuk insonlar zakovati qudratiga ta'zim etishga da'vat etadi.

## Vizantiya san'ati

G`arbiy Rim imperiyasi German qabilalari tomonidan istilo qilishgandan keyin ham Rim imperiyasining Sharqiy qismi yana uzoq vaqt hukm surdi. U hatto o`zini rasmiy suratdi Rim (Romeya) imperiyasi deb atadi. Lotin tili yana uzoq vaqtgacha Sharq imperiyaning davlat tili bo`lib qoldi. Lekin Sharqda xalq grek tilida gaplashardi. «Rim imperiyasi» degan nom bora-bor yo`qolib, «Vizantiya imperiyasi» degan nom yuritila boshlandi. Imperiyaning poytaxta qadim vaqtda Vizantiya deb atalgan bo`lib, 330-yilda Konstantin Buyuk unga Konstantinopol' deb nom bergan edi.

Ba'zi olimlar xuddi shu yilni Vizantiya imperiyaga asos solingan yil deb hisoblaydilar. Lekin tarixchilarning ko`pchiligi Vizantiya imperiyasi 395-yilda, d'ne Feodosiy-I o`lgach, imperiya uning o`g`illari o`rtasida taqsimlanib, shaharninig yarmi Konstantinopol' shahri bilan birga Arkadiyga o`tgan vaqtda tuzilgan deb hisoblaydi. Bolqon yarim orolidan to Egey dengizidagi ko`pdan-ko`p orollardan tashqari, Vizantiya imperiyasiga Kichik Osiyo, Suriya, Fallastin, Misr Zakavkaz'ening bir qismi, Qrimning janubiy qirgoqlari kirar edi.

Konstantin 330-yilda imperiya poytaxtini Vizantiyaga ko`chirgan. Keyinchalik Konstantin sharafiga Konstantinopol' deb atalgan. 1453-yili tarxlar qo`liga o`tgan Istambul (Islom bo`l) deb nomlangan.

Vizantiya hali G`arbdagi varvar qirollik Liga, shimoldagi slavyan qabilariga va O`rta Sharqda yangi fors (eron) podsholigi keskin ravishda qarama-qarshi turuvchi quldorlik «Rim imperiyasi» mavjud bo`lgan davrda, VI-asrda imperator Yustinian hukmronlik qilgan vaqtda eng katta muvaffaqiyatga erishdi. Yustinian 527-565 yillarda podsholik qildi.

Yustinian zamonidan davlat mablag`larining juda ko`p qismi qurilish ishlariga ketdi. Yustinian yuzlab qal'a va yuzdan ko`p maydaroq istehkomlar qurdirdi. Uning zamonida juda ko`p ijtimoiy-xarakterdagi inshootlar ham bino qilindi-vodoprovodlar, yo'llar, hammomlar, teatrlar ham turli hukumat binolari qurildi. Bu hukumat binolari ichida saroy va ibodatxonalar katta o`rin oldi.

Vizantiya arxitekturasi quldorlik (IV-V asrlar) va feodalizm (6-15 asrlar) davrlarida tarkib topdi. IV-V asrlar arxitekturasida qadimgi Rim va Sharq davlatlarning arxitektura an'analari davom etdi.

Cherkov binolar qurilishida bazilika keng rasm bo`ldi.

Kichik Osiyo, Suriya (Kal'b-Luzex, 480 yil), bazilikasi va Kalat-saman (5 asr) monastirilari Vizantiya arxitekturasi rivojida Yustianning imperatorlik davrida alohida o`rin egallaydi. Ilk Vizantiya arxitekturasi orasida eng muhimi de Sofiya ibodatxonasi bo`lib, u Yustinian imperatorlik davrida 532-538 yillarda Konstantinopolda arxitektor Anfimiy va Isidor tomonidan qurilgan. Bu ibodatxona yuksak mahorat bilan qurilgan mahobatli inshoot bo`lib gumbazining diametri 31,5 m, balandligi 55 m diametr. VII-VIII asrlardan boshlab gumbazli ibodatxonalar qurildi. Masalan, Fesalonikada Sofiya sobori, Konstantinopolda Andrey Xrisis, Feodosiy va boshqalar. XI-XII asr arxitekturasida ham oldingi davr (VI-VII asr) an'analarini ko`rish mumkin. Fessalonikada Bibi Maryam (II asr), Pantelaymon (XII asr), Afinada Feodor (II asr) ibodatxonalari va boshqalardir. XIV-XV asrda Vizantiya arxitektura bezagida naqsh va rasmlar keng o`rin oldi;

Mariyadagi Mistr kompleksi (XIV-XV asr) Fessalonikadagi Apostoll ibodatxonasi (XI asr) Konstantinopoldagi Pikfur saroyi va boshqalari hisoblanadi. Vizantiya san'ati Old Osiyo an'analarining qadimgi davr va grek yunon-ellin san'ati bilan ilgaridan o`zaro ta'sir etgan viloyatlarda paydo bo`ldi. Cherkov davlat printsiplari asosida tarkib topgan. Vizantiya san'ati o`rta asr G`arbiy Evropa, Janubiy slavyan, qadimgi rus va Zakavkaz'e san'atining rivojiga ta'sir etdi. Vizantiya monumental rassomlik asarlarida soya, chiziqlar rangdorlik nihoyatda ifodali bo`lgan, masalan: Ravannadagi San-Vitale cherkovi (521-547)ning ichki qismi – devor va pollapri rangga boy mazaika bilan bezatilgan, rangli marmar bilan pardozlangan. Yana Nikidagi Uspeniya cherkovi (XII asr) Dafnadagi monastir (II asr), Konstantinopoldagi Safiya ibodatxonasi bunga misol bo`la oladi.

**Bazilika**– (grek- ………….. uyi) – to`rtburchak shaklidagi bino bo`lib, uning ichki qismi kolonna – ustunlar bilan bir necha qatorga bo`lingan.

**Barokko**– (ital. - jimjimador). XVI asrning ikkinchi yarmida Evropada paydo bo`lgan me'morchilik, haykaltaroshlik va tasviriy san'at uslubi. Asosan XVII asr va XVIII asrning birinchi yarmida dastlab Italiyada, so`ng Ispaniyada, Fpantsiyada, Germaniyada taraqqiy etgan.

Barokko absolyutizm davridagi dvoryan madaniyati zamonida Uyg`onish

davri va man'irizm san'ati o`rniga vujudga kelgan. Barokko nazariyotchilari go`zallikni qandaydir ideal kategoriya deb, u tabiat nuqsonlarini kuzatishga, tabiatni ko`rkamlashtirishga xizmat qilishi kerak deb qaraganlar. Barokko asarlarida ulug`vorlik, zo`r hayajon, keskin dramatik ruh, murakkab his-tuyg`ular ifodalangan. Shu bilan birga, Uyg`onish davrining insonparvarlik, gumanistik ideallaridan uzoqlashish va gotika san'ati va me'morchiligining ba'zi xususiyatlariga intilish seziladi. Barokko oldin me'morchilikda o`z ifodasini topdi. Barokko uslubida imorat va ansambllar qurgan. K.Maderna, L.Bernini, F.Brromini singari atoqli ital'yan me'morlarining asarlari o`z ulug`vorligi, arxitektura shakllarining, etik, o`ynoqi va jimjimadorligi, serbezakligi bilan ajralib turadi: Rimdagi avliyo Pyotr ibodatxonasining oldidagi maydoni, Sakt Andrial' Kvirinala ibodatxonasi (L.Bernini).

Barokko faqat alohida binolardagina emas balki katta saroy va bog` ansambllarida ham keng qo`llanilgan. Barokko xususiyatli binolarning tashqarisi va ichini bezatuvchi rassomlik va haykaltaroshlik asarlarida namoyon bo`ladi. Murakkab, ortiqcha detallar bilan to`lgan kompozitsiyali, qaynoq hayajonli hislar, serharakat ko`rinishlarni bayon etuvchi rasmlar ko`pincha binoning shipi gumbazining ichki tomoni yoki davriga ishlangan bo`lib, fazoning bepoyonligini ishonarli va tabiiy ifodalaydi.

## Adabiyotlar


1. Акимушкин О.В., Иванов А.А. Персидские миниатюры XIV-XVII вв. – Л., 1968.
2. Альбаум Л.И. Живопись Афросиаба. –Т., 1975.
3. Алпатов М.В. Всеобщая истории искусств. –Т., 1975.
4. Алпатов М.В. Этюды по истории западноевропейского искусства. –М., 1963.
5. Веймарн Б.В. Архитектурно-декоративное искусство Узбекистана. –М., 1948.
6. Из истории живописи Средней Азии. Традиции и новаторство. Ташкент, 1984.
7. Искусство. Книга для чтения. Сост. М.В. Алпатова и др. –М., 1969 (и др. издания).
8. Искусство зодчих Узбекистана. Т.1-4, -Т., 1962-1969.
9. Искусство Среднего Востока. –М., 1978.
10. Искусство стран и народов мира. Краткая художественная энциклопедия. Т.1-5. –М. 1962-1981.
11. История искусства зарубежных стран. Т.1-2, -М., 1961-1963.
12. История зарубежного искусства: Учебник. Под ред. Н.Л. Мальцевой, М.Т. Кузьминой. –М., 1980.
13. Кадыров Т.Ф. Современная архитектура Узбекистана. –Т., 1974.
14. Казиев А.Ю. Художественное оформление рукописной книги XIII-XVII вв. –М., 1977.
15. . Ривкин Б.И. Античное искусство. –М., 1972.
16. Ротенбург Е.И. Западноевропейское искусство XVII века. –М., 1971.
17. Сарабьянов Д.В. Стиль модерн. Истоки, история, проблемы. –М., 1989.

18. Такташ Р.Х. Изобразительное искусство Узбекистана. –Т., 1972.
19. Такташ Р.Х. Современная графика Узбекистана. –Т., 1973.
20. Турчин В.С. По лабиринтам авангарда . –М., 1993.
21. Тяжелов В.Н. Искусство средних веков в Западной и Центральной Европе. –М., 1981.
22. Тяжелов В.Н., Сопоцинский О. Искусство средних веков. Византия. Армения и Грузия, Болгария и Сербия. Древняя Русь. Украина Белоруссия. –М., 1975.
23. Фахретдинова Д.А. Декоративно- прикладное искусство Узбекистана. –Т., 1972.
24. Федоров –Давыдов А. Русское и советское искусство. –М.,1975.
25. Янсон Х.В., Янсон Э.Ф. Основы истории искусств. СПб., 1996.
26. www.ziyonet.net
27. www.history.ru

## 10-Mavzu:V-asrda XIII asrlarda G’arbiy Yevropa va Markaziy Yevropa san’ati.

**Reja:**

1. G’arbiy Yevropa va Markaziy Yevropada varvarlik davri san’ati.
2. Roman san’ati davrida me’morchilik, haykaltaroshlik.
3. Fransiya, Germaniya va Italiya gotika uslubidagi o’xshdshliklsr hamda farqlar.

❖ **Darsning o`quv va tarbiyaviy maqsadi:** San’atning paydo bo’lishi, rivojlanishi, san’at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memor8chilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo’lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayonini o’rganishdan iborat. Shuningdek Jahon mamlakatlaridagi sanat ohalarining bir biridan farqli jihatlarini ham o’rganadi

❖ **Dars o’tish vositalari:** (Doska, plakat, fan yuzasidan manba va adabiyotlar, tarixiy ma’lumotlar, mavzu yuzasidan har xil testlar, kompyuter, jahon siyosiy xaritasi, izohli lug`atlar)

❖ **Dars o’tish usullari:** Takrorlash, suhbat va savol-javob (mavzuni o`zlashtirishni mustahkamlash), jonli muloqot o`tkazish, erkin fikrlash va so`zlashga o`rgangan holda fikr mulohazalarini bayon qildirish, buning uchun har bir talabaga o`tilgan mavzular, tayanch iboralardan savol tashlanadi. O`qituvchi va talabalar o`rtasida berilgan savollarni tahlil etish. Talabalarga San’atning paydo bo’lishi, rivojlanishi, san’at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memor8chilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo’lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayoni to’g’risida tushuncha berish. Tarqatma testlar asosida talabaning mavzuni qay darajada o`zlashtirganligini aniqlash. Talabalarni voqealarni tahlil etishga o`rgatish. Xarita bilan ishlashni talabalarga o`rgatish. Iboralarni izohlash va unga tahlil berish.

❖ Darsning xrono kartasi – **80 minut.**

- ❖ O’qituvchi dars davomida quyidagi ishlarni bajaradi
- ❖ Tashkiliy qism: xonaning tayyorgarligi, jihozlanishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati **– 2 minut**
- ❖ Hafta davomida bo`lgan yangiliklar-**5 minut**
- ❖ Yo`qlama- **5-minut**
- ❖ Dars yuzasidan talabalarni zarur adabiyotlar bilan tanishtirish- **10 minut**
- ❖ Yangi mavzu bayoni – **50 minut**
- ❖ sinov savollar namunasi – **5 minut**
- ❖ Uyga vazifa berish – **3 minut**

## V-asrda XIII asrlarda G’arbiy Yevropa va Markaziy Yevropa san’ati.

III asrda quldorchilik formatsiyasi inqirozga uchraydi. Buning inqirozga yuz tutishiga qurollarning qo`zg`olonlari va «varvarlar»ning tez-tez qilib turgan hujumlari qattiq ta’sir qildi. G`arbiy Evropa feodalizm formatsiyasi rivojlana bordi. Rim imperiyasining qulashi bilan bu jarayon yanada tezlashdi. G`arbiy Evropada mayda feodalliklarning tashkil topishi san’at va madaniyatiga ham o`z an’analarining o`zaro ta’sirida Evropa o`rta asr san’ati boshlandi. Gap shundaki, «Varvar» qabilari (franklar, vestgot, ostgot, anglo-saks, vandallar va h.k) o`ziga xos boy madaniyatiga ega edi. Bu traditsiyalar keyinchalik grek-rim traditsiyalari bilan qo`shilib rivojlandi. Lekin o`zining xarakteri tomonini saqlab qolgani holda. Old Osiyo Gretsiya, Rim badiiy madaniyati ta’sirida boyib va nihoyat, u bilan birlashdi. Bu san’at, o`z navbatida, ularning san’atiga ham ta’sir qildi. Bu ta’sir forma dinamikasi va ekspressiyasida, kompozitsion tuzilishi va naqqoshlikda namoyon bo`ladi.

G`arbiy Evropaning ko`pgina xalqlari ibtidoiy tuzumdan so`ng quldorlik tuzumi boshidan kechirmay, feodal tuzumga o`tishi muhim bo`ldi. «Varvar»lar sana’tida ibtidoiy tuzumga xos folklor tushunchalar, tasavvurlar mavjud edi. Ular Rim imperiyasini istilo etib va talon-toroj qilib, u erda endi shakllanib kelayotgan feodal munosobatlarga duch keldi, Rim xristian dini ta’sirida qoldi. Natijada V-VIII asrlarda ibtidoiy jamoa tuzumi qoldiqlaridan kutulishi davrini boshidan kechira boshladi. Varvar siyosiy g`alabaga erishganlari sari, Rimda xristian dini, cherkovlarning roli orta boshladi. Din kishilar psixologiyasi ruhiy olamiga ta’sir etishning muhim vositasi bo`la boshladi.

G`arbiy Evropa asrlar san’ati o`zida ijtimoiy tuzum o`zgarishini ifodali va varvarlar san’atining ko`p an’analarini birmuncha aristokratik xususiyatga ega edi. Vizantiyalik san’atkor o`z idealini hamma narsga qodir, garmonik rivojlangan, xukmdor Iso obrazida ko`rsa, varvarlar esa Isoni oddiy duradga o`g`li, dushmanlar tomonidan butga mixlangan va og`ir azob-uqubatga duchor bo`lgan obraz g`iyofasida tasavvur qiladi. Bibi Maryam koinot onasi, mag`rur ayol emas, balki insonlar g`amida yashaydigan, qayg`uradigan inson qiyofasida gavdalanadi.

Vizantiya san’atida o`z xarakteri jig`atidan obraz barkamolligiga intilsa, aksincha, varvarlar esa, ba’zan majruh mayib, jismoniy xunuk obraxlarni tasvirlashdan ham cho`chimaydi. Bu bilan varvarlar san’atkori san’atning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

G`arbiy Evropa san'atkori antik traditsiyalarga qarama-qarshi holda jismonan kam rivojlangan, ba'zida majruh, xo`rlangan inson obrazlarida ham ma'naviy olijanoblikni ko`ra oladi.

V asrdan XIII asrgacha G`arbiy Evropada varvarlar san'atining traditsiyalari muhim o`rinni egallaydi. SHuning uchun ham bu davr varvarlar san'ati davri deb, Merovinglar dinastiyasi hukumronlik qilganligi uchun ba'zan Merovinglar san'ati davri deb ham ataladi (bu termin ko`proq, Frantsiya san'atiga nisbatan qo`llaniladi).

Ilk «varvar» me'morligiga oid yodgorliklar kam saqlangan. SHuning uchun bu san'at haqidagi ma'lumotlarni adabiy manbalardan olamiz. Ma'lumotlarga ko`ra, binolar o`g`ochlardan qurilgan bo`lib, o`ymakorlik bilan bezatilgan. Xristian dini qabul qilinishi bilan bu erda ham bazilika tipidagi binolar qurilishi rivojlana borgan. Qurilishda toshva g`ishtlardan foydalanida boshlagan. Shunday dastlabki yodgorlik Ravennadagi qirol Teodorix maqbarasi edi. 526-530 yillarda qurilgan bu maqbara ko`rinishi jihatdan birmuncha qo`pol bo`lsa-da, saodda, salobatli va vazminligi bilan yaxshi taasurot qoldirildi.

Varvarlar madaniyatiga ornamental-dekorativ san'at keng o`rinni egalladi. Uning ta'siri rassomlik (kitob miniatyurasi), hayqaltaroshlikda ham sezaladi. Asarni naqsh kompozitsiyasidagi chiziq plastikasi, massa ritm va jimjimadorligiga o`xshab ishlaydilar. Bu xusisiyat buyumlarini stillashtirishni taqozo etadi. Natijada, hatto odam tasviri ham tomoshabin ko`z o`ngida naqsh elementi sifatida namoyon bo`ladi. Evropa miniatyura maktabi bo`lgan Niderlandiyada ishlangan suratlarda ham shu yaqqol ko`rinadi.

O`ymakorlik va Amaliy-bezak san'ati Skandinaviyada rivojlandi. Uy buyumlari, mehnat va jang qurollari ham serjilo va o`yma naqshlar bilan bezatildi.

VIII asrning so`nggi choragi, IX asrning birinchi yarmida Buyuk Karl, o`rta sarda birinchi kuchli imperiyani barpo etadi. Bu imperiya davridagi san'at «korolinglar» san'atida deb nomlanadi. Uning gullagan davri IX asrning birinchi yarmiva o`rtalariga to`g`ri keldi.

Korolinglar davri san'ati antika an'analarini o`zlashtirish merovinglar va normandlar san'ati hamda sharq xalqlari, birinchi galda Suriya san'atiga ta'sirlanish va taqlid qilish natijasida kamol topdi. Bu xusisiyat me'morlik, tasviriy va Amaliy san'atda o`z ifodasini topdi. Buyuk Karlning Axendagi VIII asrda qurilgan kapellasi o`z xarakteri jihatidan shu erda qurilgan San Vitaliy cherkovini eslatadi. Lekin ko`rinishi jihatdan unga nisbatan qo`pol va salobatli. Korolinglar davrida markaziy qubbali cherkovlar qurilishi keng yoyildi. Yuqorida nomlari aytilgan cherkovlar shu tipga mansubdir.

Yozuv manbalariga ko`ra, korolinglar davrida saroy, cherkov va manastirlar devori al'-fresko va mozaika texnikasidagi suratlar bilan bezatilgan. Saqlanib qolgan ayrim bino devorining suratlari bu ma'lumotlarni to`ldirib, bu suratlarda Sharq va ilk xristian san'ati davri shakllarda, brligini ko`rsatdi. Bu suratlarda voqealik real shakllarda, yorqin buyoqlarda ishlangan. Ayniqsa, ko`k va oltin rang ko`p ishlatilgan. Karolinglar davri rassomligi, uning xarakteri va mazmuni to`g`risidagi kitoblarga ishlangan miniatyuralar ko`pgina ma'lumotlar beradi. Guashda ishlangan. Bu suratlar din ideologiyasi bilan bog`liq bo`lib,

kompozitsiyasi va koloritining dekorativligi bilan ajratib turadi. Kumush va oltindan buyumlar ishlash borasida ham jiddiy yutuqlar qo`lga kiritilgan. Bronzadan ishlangan haykal mavjudligi bu davrda quyish san'ati rivojlanganligidan dalolat beradi. YOg`ochdan haykallar ham diqqatga sazovor bo`lib, Korolinglar davrida bu sohasida ham yuksaklikka erishilgan.

## Roman asri san'ati

Buyuk Karl imperiyasi uzoqqa cho`zilmadi. Uning inqirozi imperator hayot vaqtida boshlandi. Vafotidan so`ng uning o`g`il va nabiralari orasidagi nizoning kuchayishi mamlakat osoyishtaligini buzdi. Atrofdan ko`chmanchilar hujumi ham xalq boshiga og`ir kulfatlar keltiritldi. Bu davrdan boshlab, san'at taraqqiyoti ham susaydi. Ilgari qurilgan binolar xarobaga aylana bordi. Nodir san'at yodgorliklari talandi yoki yo`q bo`lib ketdi. Faqat X asr oxirlaridan boshlab, Evropada hayot izga tusha boshladi. Ko`pgina erlarda feodal munosobatlar shakllanib bo`ldi. San'at taraqqiyoti yangi bosqichga ko`tarila boshladi. X-XII asrlarni o`z ichiga olgan bu taraqqiyot boskichi roman asri san'ati deb yuritiladi. Bu davrda Evropa ijtimoiy hayotida cherkovning roli katta edi. Ayniqsa, Frantsiya, Angliya, Germaniya, Ispaniyada yirik qurilishi va u bilan bog`liq bo`lgan turlari cherkov buyurtmasi bilan yaratildi.

Roman asrida me'morlik etakchi o`rinni egalladi. Roman uslubidagi bino birmuncha past, ko`rinishi jiddiy va og`ir. Uning devorlari ham qalin va mustahkam (chunki dushman hujumi paytida yashirinish mumkin), eshik, darvoza va derazalari ensiz.

Roman me'morligi korolinglar davri yutuqlariga tayangan holda rivojlangan bo`lsa ham, lekin uning ko`rinishiga mahalliy sharoit o`rniga qarab antika, Vizantiya hamda arab mamlakatlari san'atining ta'siri bo`ldi. Feodal tarqoqlik esa roman me'morligida juda ko`p mahalliy maktablarning yuzaga kelishi va musobaqasiga sabab bo`ldi. Bu maktablar qanchalik rang-barang bo`lmasin, ularning asosida yagona printsiplar borligini inkor etib bo`lmaydi. Bu hol plan va konstruktsiyada dekorativ shakllar xarakterida ko`rinadi.

Bu davr binolar toshdan yaratilgan bo`lib, qurilishda bazilika tip asosiy o`rinni egalladi. Lekin bazilika avvalgi davrlardagidan farq, qilib, qo`proq, ikki transeptli hamda binoning cherkov xizmatkorlari, ruhnoniylar uchun ajratilgan sharqiy qismi (xor) kengaytirilgan, qo`shimcha xona va erto`lalar qurilgandir.

Roman me'morligining o`ziga xos tomoni tomining egri ravoq (gumbaz) tarzida yopilishi va darchalarining joylashtirilishidadir. Bu qurish texnikasi mukammallashib borishi bilan keng o`rinni egallab bordi. Me'morlikda qo`llanilgan ustunlar va uning kapitellari har xil. Roman san'atining rivojlangan davrida esa kapetal va ustunlar o`zagi xos haykaltaroshlik ko`rinishiga o`xshab bordi.

Bu asrga kelib, feodal turadigan alohida o`ziga xos uy tipi-qasr paydo bo`ldi. Odatda, qasrning katta hovlisi, uning o`rta qismida pishiq va baland minorasimon bino (donjon) qurilgan bo`lib u bir necha qavatli, feodal yashaydigan ko`p xonalaridan tashkil topgan.

O`sha asr shahar qurilishi ham feodal qo`rg`oniga o`xshash bo`lgan. Shahar atrofi qalin devor bilan o`rab chiqilgan. Qurilgan binolar bezagi kam va sodda bo`lgan. Roman tasviriy san'ati ham o`ziga xos va konkretdir. Bu davr san'atida

etakchi o`rinni haykaltaroshlik, birinchi galda bo`rtma tasvirlar (barel'ef va gorel'ef) egallaydi. U bevosita me'morlik elementi sifatida qaralgani holda tomoshobinga katta mazmunni etkazadi. Ilk roman davrida (V asr) haykallar me'morlik formalariga qo`shib ishlandi (masalan, kapitel', ustun va h.q.). XII asrga kelib esa, u mustaqillik kashf eta bordi hamda me'morlik ansambli bezagining ma'lum sistemasiga aylandi.

Roman tasviriy san'atining o`ziga xos tomonlaridan biri bu asar g`oyasini tomoshobinga etkazishdir. Shu maqsaddan kelib chiqib, san'atkor voqelikni real shakllarda, aniq nisbatda, fazoviy kenglikda tasvirlashga e'tibor bermaydi. Odam kiyimlari esa gavda xarakteriga mos emas va ritm go`zalligi qonuniga bo`ysundirilgan. Odamlar tasvirida anatomik noaniqlik nisbatlar buzilganligi, hajm ko`rsatilmaganligi ko`zga tashlangan holda, ularning xatti-harakati, imo-ishorasi, yuzdagi mimik o`zgarishlarning ifodali va hayotiy bo`lishiga ahamiyat beradi. Bular, o`z navbatida, yaratilgan asarlar kompozitsiyasining dinamik harakatchan bo`lishiga, shakllar ekspressiyasining oshishiga xizmat qiladi.

Bu davr ijodkorlarining mavzusi din bilan bog`liq. Rassom turli ramziy obrazlarga murojaat qiladi. G`ayri – tabiiy ko`rinishlar, fantastik hayvonlar uni o`ziga tortadi.

Frantsiya feodalizmning klassik vatanidir. O`rta asr san'atining gullagan davrida uning san'ati G`arbiy Evropada etakchi o`rishni egallaydi. Frantsiya san'atida roman uslubning o`ziga xos tomonlari yaqqol namoyon bo`ldi. O`zining dekorativ bezatilishi va konstruktiv tuzilishi jihatidan rang-barang bo`lgan frantsuz me'morligi Evropa qurilishi san'atida muhim o`rinni egalladi. Bu erda yaratilgan me'morlik tiplari Evropaning ko`pgina shaharlarida taqlid uchun namuna bo`lib qoldi. Puat'edagi Notr Dam la Grant (XI-XII asr) ibodatxonasi roman stiliga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Ko`rinish jihatdan birmuncha past, tosh devorlari qalin va salobatli qilib ishlangan. Shu davrlarda qoldirilgan kichik tor darchalar bu devorlar qalinlinligini yanada bo`rttirib, uning vazminligini oshirdi. Bu ibodatxona uch nefdan iborat. O`rtadagi nef ikki yon tomondagi nefdan bir oz baland, u erdagi kichik darchalardan ichkariga nur tushib turadi. Bino devorlari haykaltaroshlik asarlari, turli arxitektura dekorativ elementlari bilan bezatilgan. Binoning pastki yarusi tepadagiga nisbatan katta bo`lib, asosan, o`yma naqsh va bo`rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Ikkinchi, uchinchi yarusda tokchalar bo`lib, ularning ichiga haykallar o`rnatilgan. Qo`llanilgan yarimkolonna, yarim aylana shakldagi ark va hokazolar binoning jiddiy ko`rinishiga latofat kiritgan. Me'morlik yodgorligi shu davr siyosiy vaziyatini aks ettiradi. Burgundiya qurilgan ibodatxonalarda me'morlik formalarini o`zgartirishga intilish seziladi. Bu xususiyat, ayniqsa, Klyunidagi cherkovda yaqqol ko`zga tashalanadi. Bu cherkov XI asr oxirlarida bunyod etilgan, o`sha davrda Evropadagi eng katta ibodatxonalardan biri bo`lgan.

XIX asr boshlari buzilib ketgan bu bino printsiplari ko`pgina cherkovlar uchun asos qilib olindi. Besh nefli bu ibodatxona tashqi elementlarining ritmikasi, hajmlarining tugal ko`rinishi hamda mayda bo`laklarning yaxlit yuzaga monandligi va uyg`unligi bilan xarakterlanadi.

Germaniyada qurilgan roman uslubidagi binolar o`zining kubsimon aniq shakllari hamda ko`rinishining ulug`vorligi bilan xarakterlanadi. Og`ir

minoralarning serobligi esa uning dinamik siluetda ko`rinishini ta’minlaydi. Tekis devor yuzasidagi lizenlar (devordan biroz bo`rtib turgan ensiz tasmalar) bino dinamik ko`rinishining yanada ortishiga xizmat qiladi. Bu xususda Vormsdagi sobor xarakterlidir.

Italiya me’morligida stilistik birlik yo`q. Bunga sabab uning tarqoqligidir. Shuning uchun, uning ayrim oblastlarida Vizantiyaning ta’siri bo`lsa, boshqa birida roman san’ati an’analari seziladi. Ilg`or Toskana va Lombardiya maktablarida mahalliy antika an’analari ta’siri borligi ko`rinadi. Pizadagi me’morlik ansambli bu xususda diqqatga sazovor. Ansambldagi har bir bino mustaqil ahamiyatga ega. Ularning tashqi devorlari nafis arkadalar bilan qator yaruslarga ajratilgan. Bu hol bino ko`rinishiga engillik va o`ziga xos latofat kiritgan. Natijada hajm jihatdan juda katta Piza ham engil va jozibali bo`lib ko`rinadi. Ellips shakllidagi gumbaz esa uning garmonik tugal ko`rinishini ta’minlaydi.

Roman me’morligida devoriy surat va vitrajlar muhim o`rin egallaydi. Rangdor suratlar devor va shipalarni qoplangan. Bu suratlar asosan, diniy mavzuga bag`ishlangan. Frantsiyadagi San-Saven cherkoviga ishlangan suratlar ichida «Mixailning ajdaho bilan olishuvi» surati xarakterlidir. Asar kompozitsiyasining harakatda va yassi chiziqli ishlanishi frantsuz roman san’atiga xos tomonlari namoyon qiladi.

Bayyoda ishlangan gilam uzunligi 70 m, eni 50 sm bo`lib, uning yuzasida tasvirlar normandlarning Angliyani bosib olishiga bag`ishlangan, bo`lib o`tgan tarixiy voqeani aks ettiruvchi bu surat frantsuz roman san’atida hayotiy mavzular ham o`z ifodasini topganligini ko`rsatadi.

Inter’er va binoning tashqi tomonini bezashga bo`lgan ishtiyoq monumental-dekorativ haykaltaroshlikning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Bu san’at, ayniqsa, Frantsiyada rivojlandi.

Haykaltaroshlik mavzusi ko`p hollarda Iso va uning shogirdlariga bag`ishlangan. Shaharlarning o`sib borishi bilan haykaltaroshlikka ham hayotiy voqealar kirib kela boshladi. Hunarmand, dehqon, aktyorlar hayotiga bag`ishlangan kompozitsiyalar yaratila boshlanadi. Roman haykaltaroshligining rivojlangan davri XII asrga to`g`ri kelib, bu davrda shakl realizmi orta bordi, mazmun esa bevosita hayotiylik kashf etdi va chuqurlashdi.

## Gotika San’ati

XII asrdan boshlab yangi ijtimoiy kuchlarning paydo bo`lishi va rivojlanib borishi klassik o`rta asr an’analarining inqiroziga sabab bo`ldi. Bu yangi kuchlar shaharning keng taraqqiy etish bilan bog`liq holda o`z kuchini oshirib bordi. Shaharlarda savdogarlar korporatsiyalari va hunarmandchilik sexlari rolining ortib borishi ijtimoiy tuzum xarakteriga ta’sir qila boshladi. Feodal hukmdorlarida ozodlikka, mustaqillikka erishishga intilish ortib bordi. Bu davrda din hamon hukmronlikda, cherkov esa san’atga o`z talabini qo`yayotgan bo`lsa ham, lekin shahardagi hunarmand va savdogorlarning bilimga, hayotning yangi qirralarini ochishga intilishi orta bordi. Evropa shaharlarida dastlabki fan-markazlari-universitetlarning tashkil topishi esa, bu intilish ravnaqiga zamin yarata bordi. Materialistik dunyoqarashning dastlabki ko`rinishlari Averros va Ibn Sinolar ijodida ko`rina boshladi. Dunyoga tanqidiy munosabatda bo`lish tendentsiyasi

ortdi. Xalq ongining ortib borishi esa jamiyat oldida tenglik, birodarlik masalalarining ijobiy hal etilishini talab qila boshladi.

San'at va madaniyat mazmuni, xarakterida ham jiddiy o`zgarishlar sodir bo`la boshladi. Hayotiy mavzudagi asarlar yuzaga kela boshladi. Shahar hayotining kundalik turmushi, ishq-muhabbat mavzusidgi asarlar paydo bo`la boshladi. Bunday asarlarda ijodkorning hissiy kechinmalari, voqealikka bo`lgan munosobatlari o`z ifodasini topa boshladi. Ruhoniylarning ikki yuzlamachiligini fosh etuvchi teatr janrlari, maskaradlar yuzaga keldi. Bu davrda tasviriy san'at va me'morlikda ham jiddiy o`zgarishlar yuz berdi. G`arbiy Evropa madaniyatdan Vizantiya san'ati an'analari uzil-kesil chiqarib tashlandi. Davr ruhini o`zida ifodalovchi realistik shakl va mazmundagi asarlar, funktsional tomoni orta boshlagan me'morlik binolari yuzaga kela boshladi. San'atda asosiy uslub gotika uslubi hukmronlikni egallab oldi. Lekin shu bilan birga, bu vaqtlarda shahar madaniyati (XII-XIV asrlar gotikaning rivojlangan davri) feodal munosabatlarga to`liq qarshi chiqishga ojiz edi. Shuning uchun ham bu madaniyat vakillari davr sharoitiga moslashib ish tutishga majbur edi. Shu boisdan gotika davri san'ati davr xarakteridan kelib chiqib, murakkab va qarama-qarshi fazilatlar kashf etdi. Shuning uchun ham san'atda ratsionalistik tendentsiyalar bilan bir qatorda, spiritualistik tasavvurlar mavjud edi. Yaratilgan asarlarda realistik elementlar bilan birga, diniy qarashlarni ko`klarga ko`tarish hollari sezilar edi.

Xristian mifologiyasidagi obrazlar tasvirida, bir tomndan, gumanistik g`oyalar o`z ifodasini topsa, ikkinchi tomndan esa, insonning imkoniyatlarini mensimaydigan asarlar ham yuzaga kelar edi.

Gotika uslubi XII asr o`rtalaridan boshlanib, XIII asrda o`zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Bu uslub turli mamlakatlarda o`ziga xos ko`rinishiga ega, lekin bu uning ichki tuzilishi va umumiy tomonini inkor etmaydi.

Me'morlik gotika uslubini belgilashda muhim o`rin egalaydi. Gotika uslubida qurilgan binolar roman uslubida qurilgan binolarga nisbatan ulug`vor, katta va serhasham. Ularda ishlatilgan me'morlik shakllari engil, yuqoriga intiluvchan va serjilva. Bu shaharning ijtimoiy markaziga aylandi. Bu erda toat-ibodatdan tashqari, shahar majlislari o`tkazilar, munozaralar uyushtirilar hamda universitet lektsiyalari o`qilar edi. Endilikda sobor binosini qurishda faqat diniy g`oyallargina emas, balki ijtimoiy hayot ruhi, katta kollektiv qudrati ham targ`ib etildi. Gotika soborlarining ilgariga intiluvchan shaklida esa davr kishilarining ozodlikka va yorug`likka intilishlari o`z aksini topadi. Bunday berishda soborning taasurot minoralari muhim o`rshini egallaydi. U soborning yanada baland, engil bo`lib ko`rinishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu minoralar funktsional ahamiyatiga ega bo`lgan. Ya'ni ular shaharni kuzatib turish uchun hamda yong`in o`chiruvchilar uchun ham mo`ljallangan. Ba'zan minoraning uch qismi xo`roz tasviri bilan tugallanganligi ham shu mazmunni-ziyrak bo`lib turish lozimligini bildirilgan.

Me'morlikda gotika uslubining yaratilishi davr zakovati, texnika taraqqiyoti yutug`i asosida yuzaga keldi. Buning mohiyati roman me'morligida qo`llanilgan arka va egri ravoqlarning yangicha talqin etilishi va eng muhim, binosining mustahkam sinchlar (karkaslar) sistemasining nayzasimon ark, ichki ustun va

kontrforslar asosida echilishi edi. Me'mor mustahkam sinchlar sistemasidan foydalanib, iloji boricha devor va ayniqsa, ravoqlardagi og`irlikni kamaytirishga harakat qildi. Shu maqsadda ravoqlardan tushadigan og`irlik taqsimiga e'tibor berdi. Asosiy nef bir qator to`rt burchaklarga ajratilib, ularning har biri – biri bilan kesishgan nayzasiman arkalar bilan yopildi. Bu ravoqdan tushadigan va yon tomonga tortuchi og`irlik kuchini kamaytirishga xizmat qildi. Nervyurdan foydalanish esa ravoq og`irligini yanada kamayishini ta'minlanadi. Norvyurali ravoqlari mustahkam qilib ishlangan ustunlarga o`rnatildi. Bunday konstruktsiyada devorlar o`z funktsiyasini yo`qotadi. Uning vazifasini sinchlar oralig`idagi bo`shliqni to`ldirish bilan chegaralanadi. Bunday ochiq qismlarni deraza, darchalar bilan to`ldirish mumkinligini ham bu uslubning imkoniyatlarini ko`rsatadi.

Me'morlikda sodir bo`lgan bu yangiliklar endilikda baland va keng hajmdagi binolarni ham qurish imkoniyatini yaratdi. Devorlarning tayanch funktsiyasini bajarishdan qutulishi esa keng miqyosida darcha, deraza, peshtoq, galereya, ayvonlardan foydalanib, binoning ichki qismini nurga to`ldirish imkoniyatini berdi, qurilgan binolarning eng`il va nafis bo`lib ko`rinishinini ta'minladi. Gotika me'morligida nayzasimon arka muhim o`rinni egallaydi. Bu shakl eshik, deraza, ravoq va galereya, ayvon va peshayvonlarda qaytarilib, gotika me'morligida o`ziga xos qaytarilmas ruh va engillik kiritadi. Arkalarning uchli bo`lib ko`rinishining o`ziyoq hamma narsani yuqoriga, falakka tortib chiqib ketmoqchidek tuyuladi. Bu xususiyatni gotika me'morligida keng ishlatilgan vertikal to`g`ri chiziqlar (kontrofors, nervyura) yanada oshiradi.

Me'morlik konstruktsiyasida sodir bo`lgan bu o`zgarishlar binoning ichki va tashqi tomoni ko`rinishida ham o`z ifodasini topdi. Gotika inter'erlari keng, bahavo, yorug`. Transept va asosiy nef orasidagi keskin chegaraning kamayishi ham bu xususiyatni yanada orttiradi.

Soborning old tomoni gavjum, keng maydonga qaratib quriladi. Uning bezatilishiga esa alohida e'tibor beriladi. Haykaltaroshlik hamda me'morlikning dekorativ elementlari bino old tomonining yanada serjilva va nafis bo`lib ko`rinishiga xizmat qiladi.

Gotika intererlarning devorlarida yaxlit yuzalarning kamligi monumental devoriy rangtasvirning rivojlanmasligiga sabab bo`ldi. Uning o`rnini vitraj san'ati egalladi. Gotika binolarining katta-katta derazalarini vitraj kompozitsiyalari egalladi. Diniy va hayotiy mavzudagi suratlar rangli shishalardan tuzib chiqildi.

Gotika rassomligi miniatyura san'ati sifatida ham ko`zga ko`rinadi. Bu san'at ravnaqi XIII asrdan boshlanib, XV asrgacha davom etdi. Shu san'atda gotika tasviriy san'atidagi o`ziga xos tomonlar-mavzuining kengayishi, dunyoviy mavzuda ko`plab asarlar yaratilishi bilan realistik tendentsiyalarning kuchayishi seziladi. Bu davr miniatyuralarida dehqonlar hayotidan olingan voqealar, zodogonlarning ko`ngil ochish paytlarini tasvirlovchi rasmlar paydo bo`ldi. Real tabiat manzaralarini aks ettiruvchi suratlar (ayniqsa, oy va yil fasllariga bag`ishlangan allegorik miniatyuralar) yaratildi.

Bu davrda haykaltaroshlik hamon etakchi san'at bo`lib qoldi va me'morlik bilan uzviy bog`liq holda mustaqil san'at sifatida yuzaga chiqa boshladi, ko`p hollarda esa dumaloq haykal sifatida namoyon bo`ldi. (Roman haykaltaroshligi

ko`proq rel’ef tarzida bo`lganini eslang!). Bunday haykalda juda ko`p uchraydi. Masalan, Reymsdagi soborda 2000 dan ortiq dumaloq haykal ishlatilgan. Bu davrga kelib, haykaltaroshlik mavzusi ham kengaydi. Iso, Bibi Maryam, apostollar hayotiga bag`ishlangan kompozitsiyalar bilan bir qatorda, hayotiy mavzularda, hatto mehnat mavzusida ham asarlar yaratila boshlandi. Diniy mavzularda yaratilgan asarlarda ham insoniylik olijanoblik, hamdarlik kayfiyatlari o`z ifodasini topa bordi. Donatorlar (ibodatxonalar uchun ko`p mablag` sarflangan, unga zakot bergan shaxslar)ga atab yodgorliklar o`rnatish haykallar qo`yish (masalan, ekkegart va uning qaylig`i Uta Germaniya, XIII asr) odati paydo bo`lganligini ham san’atning targ`ibchisi roli ortib borayotganligini ko`rsatadi.

Gotika amaliy-dekorativ san’ati ham bevosita davr ruhi va mazmuni bilan bog`liq. Jozibador, serjilva va nafis uy anjom buyumlari, qurol-aslaha va mebellarda davr xarakteri, kishilarning estetik qarashlari o`zining badiiy ifodasini topdi.

XII-XV asrlarda gotika uslubini deyarli hamma mamlakatlar o`z boshidan kechirdi. Lekin bu uslub mahalliy sharoit va davr talabidan kelib chiqib, o`ziga xos ko`rinish kashf etdi. Jumladan, gotikaning vatani hisoblangan Frantsiyada bu uslubda ishlangan asarlar nisbatlarining to`g`riligi, me’yorida topilganligi, aniqligi, shakllarining nafisligi bilan xarakterlanadi. Parijdagi Bibi Maryam sobori (Notr dam de Pari, 1163 yili boshlanib, ayrim qismlari 1314 yilda tugallaganligi) ilk gotikaga mansubdir. Besh nefli, kichik transepli bazilika tipidagi bu binoning old tomonidan ikki minora mavjud. U soborning baland va «Falakka intilayotgandek» bo`lib ko`rinishiga xizmat qiladi. Peshtoq, darcha, darvoza va eshiklar tepasiga ishlangan naysimon arklar uning engil va dinamik ko`rinishini ta’minlaydi.

Reymsdagi sobor (XIII asrda boshlanib, XIV asrda tugallangan) gotikaning eng rivojlangan davriga mansub. Uning uzunligi 150 m, minoralarining balandligi 80 m. Bu sobor o`z vaqtida xalq birligini tarannum etuvchi ramziy belgi sifatida qabul qilingan. Bu binoda gotika san’ati o`zining klassik ko`rinishi namoyon qildi. Am’endagi sobor gotikaga xos nisbatlar go`zalligi, umumiy ko`rinish yaxlitligi buzila boshlaydi. Dekorativ bezaklarning mo`lligi esa binoning konstruktiv aniqligiga salbiy ta’sir qilgan. Germaniyada gotika uslubi frantsuzlar ta’sirida rivojlandi. Lekin nemis gotikasida yaxlitlik etishmaydi va unga xos bo`lgan dramatizm, ekspressiya roman me’morligi an’analari bilan qo`shilib ketadi. Bundan tashqari, nemis gotikasida bir minorali soborlar ham keng uchraydi. Binolarning tashqi tomoni sodda, kam bezakli. Kel’ndagi sobor (1248-1880) Am’en soboriga o`xshatib qurilgan.

Italiya me’morligida gotika uslubi XIII asrning oxirilda kirib kela boshladi. Lekin dastlabki paytlarda roman me’morligi printsiplariga ta’sir qilmadi XIV asrda gotika uslubi printsiplari to`liq ko`rina boshladi. Ispaniya gotikasi musulmon me’morligi printsiplari bilan boyigan bo`lsa, Angliya gotikasi og`ir, kompozitsiyada haddan ortiq detallar ko`payib ketganligi va arxitektura bezagining mo`lligi bilan xarakterlanadi.

## 11-Mavzu:Uyg`onish davri san’ati

**Reja:**

1. Italiya Uyg`onish.
2. Uyg`onish davri me’morchiligi.
3. Uyg`onish davri haykaltaroshlari.
4. Uyg`onish davri rassomlari.

❖ **Darsning o`quv va tarbiyaviy maqsadi:** San’atning paydo bo’lishi, rivojlanishi, san’at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memor8chilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo’lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayonini o’rganishdan iborat. Shuningdek Jahon mamlakatlaridagi sanat ohalarining bir biridan farqli jihatlarini ham o’rganadi

❖ **Dars o’tish vositalari:** (Doska, plakat, fan yuzasidan manba va adabiyotlar, tarixiy ma’lumotlar, mavzu yuzasidan har xil testlar, kompyuter, jahon siyosiy xaritasi, izohli lug`atlar)

❖ **Dars o’tish usullari:** Takrorlash, suhbat va savol-javob (mavzuni o`zlashtirishni mustahkamlash), jonli muloqot o`tkazish, erkin fikrlash va so`zlashga o`rgangan holda fikr mulohazalarini bayon qildirish, buning uchun har bir talabaga o`tilgan mavzular, tayanch iboralardan savol tashlanadi. O`qituvchi va talabalar o`rtasida berilgan savollarni tahlil etish. Talabalarga San’atning paydo bo’lishi, rivojlanishi, san’at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memor8chilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo’lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayoni to’g’risida tushuncha berish. Tarqatma testlar asosida talabaning mavzuni qay darajada o`zlashtirganligini aniqlash. Talabalarni voqealarni tahlil etishga o`rgatish. Xarita bilan ishlashni talabalarga o`rgatish. Iboralarni izohlash va unga tahlil berish.

❖ Darsning xrono kartasi – **80 minut.**

❖ O’qituvchi dars davomida quyidagi ishlarni bajaradi

❖ Tashkiliy qism: xonaning tayyorgarligi, jihozlanishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati **– 2 minut**

❖ Hafta davomida bo`lgan yangiliklar-**5 minut**

❖ Yo`qlama- **5-minut**

❖ Dars yuzasidan talabalarni zarur adabiyotlar bilan tanishtirish- **10 minut**

❖ Yangi mavzu bayoni – **50 minut**

❖ sinov savollar namunasi – **5 minut**

❖ Uyga vazifa berish – **3 minut**

### Uyg`onish davri

O`z taraqqiyotini XV-XVI asrlarda boshidan kechirgan bu yangi madaniyat tarixida «uyg`onish» deb nom oldi. Bu iborani italiyalik rassom va san’atshunos Jorj Vazari Italiyada san’at uzoq o`rta asrdan so`ng yana qaytadan «uyg`onishligi» sababli ishlatgan va asosoan, Jotto ijodiga nisbatan qo`llangan edi.

Uyg`onish davri madaniyati va san’ati o`z xarakterini Italiyada to`liq

namoyon etib, qator taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi. Bular, asosan, quyidagilardan iborat:

1. Uyg`onish arafasi davri – protorenessans (XII-XIV asrlar).
2. Ilk Uyg`onish davri – kvadratchento (XV asr).
3. Yuqori Uyg`onish davri (XV asrning 90-yillar – XVI asrning 20-30 yillari).
4. So`nggi Uyg`onish davri (XVI asrning ikkinchi yarmi).

(So`nggi Uyg`onish davri gumanistik san'at bilan birga, tushkin, inqiroziy man'erizm oqimi ham mavjud bo`ldi).

Uyg`onish davri madaniyati antik dunyo madaniyati ta'sirdandir. Uning yodgorliklarini qunt bilan o`rgandi (antik dunyo yodgorliklarining Italiyada mo`lligi bunga qo`l keldi). Lekin bu davr ijodkorlari uning quliga aylanmadilar. Aksincha, undan o`z fikr, to`yg`u tushunchalarini ta'riflashda foydalandilar.

Italiyaning Sharq va G`arb orasidagi muhim savdo yo`lida joylashishi unda kapitalistik munosabatlarning juda erta shakllanishiga olib keldi. Savdo-sotiqning rivojlanishi, o`zga yurtlar bilan aloqasining intensivligi hunarmandchilikning rivojlanishiga zamin yaratdi. Feodal munosobatlarning zaifligi esa bu erda yangi siyosiy tartibni – shahar-respublika tartibining paydo bo`lishiga va Italiyaning evropada birinchi bo`lib kapitalistik mamlakatga aylanishiga imkon berdi. Ijtimoiy hayotda sodir bo`lgan bu xususiyat san'at va madaniyatda o`z ifodasini topdi. Bu o`zgarish savdo va madaniyatda o`z ifodasini topdi. Bu o`zgarish savdo va ishlab chiqarish rivojlangan O`rta Italiyada joylashgan Florentsiya, Piza, Sienada hamda Shimoliy qismida Genuya, Milan, ayniqsa savdogar va bankirlar respublikasi bo`lgan Venetsiyada juda sezilarli bo`ldi.

Uyg`onish davri san'atkorlari uchun inson va uni o`rab olgan muhitning cheksiz imkoniyatlari va qizg`in e'tirozlarini atroflicha aks ettirish muhim o`rin tutadi. Inson his-tuyg`ulari yangi sharoitda o`rta asr hayotida qarshi kuchli isyon ko`taradi. Ularning turmush quvonchlari real talqin etiladi. Ijobiy qahramonlari xarakterli beqiyos jasorat va mardlik mujassamlashadi. Shaxs erkini himoya qilgan gumanistlar o`z kuch-qudratiga, haq ishning tantana qilishiga ishongan, adolat uchun kurashuvchi, qalbi pok, olijanob obrazlarni yaratish orqali Uyg`onish davrining hayotbaxsh ruhini aks ettiradilar. Tasviriy san'atda bu xususiyat dastlab haykaltaroshlikda Nikola Pizano (1220/1225-1278/84), rassomlikda Chimabue (1240/50-1302). Duchcho di Buoninsen'ya (1225-1319) lar ijodida ko`rina boshladi.

Haykaltarosh N.Pizanoning ilk asari Pizadagi Bartisteriya minbari atrofiga ishlangan bo`rtma tasvirlar bo`lib, unda Iso hayotidan olingan voqealar aks ettirilgan. Bu tasvirlar o`zining dunyoviyligi, ko`rinishi jihatidan erdagi oddiy hayotni eslatishi bilan xarakterlanadi. U erda tasvirlangan odamlar qiyofasi rimlik taqvodorlarga o`xshab ketadi. Ularning ko`rinishlari vazmin va ulug`vor, ishlangan buyumlarning materiali va hajmini ko`rsatishga e'tibor berilgan. Albatta, bu asar belgilardan, allegoriyalardan xoli emas, obrazlar nisbatan har xil, deformatsiyaga yo`l qo`yilgan, fazoviy kenglik masalasi shartli olingan, hayotiy detallar ozroq, lekin davr uchun shularning o`zi muhim edi. U keyingi realistik san'at taraqqiyotida alohida o`rinni egalladi. Nikola Pizanoning ijodi Italiya

haykaltaroshligining rivojlanishida muhim rol’ o`ynaydi, uning ta’sirida qator san’akorlar kamol topdi. Shular orasida Arnol’fo di Kambio (tax. 1250-1302), Jovanni Pizano (tax. 1250-1317) mashhurdir. Jovanni Pizano haykaltaroshlik sirlarini o`z otasi Nikolo Pizanodan o`rgangani holda, protorenessans haykaltaroshligiga xos qotib qolgan sun’iylikdan qochib, unga zamon ruhini kiritdi, harakatni kuchaytirdi, ularning hayotiy tomonlarini oshirdi. Jovanni haykaltarosh va me’mor sifatida ijod qildi, sobor va cherkovlar qurish ishlarida qatnashdi. Minbarlar uchchun rel’ef, ibodatxona tokchalariga qo`yish uchun haykallar ishlandi. Bu rel’ef va haykallar harakatda kuchli his-hayajon bilan ishlangan. Shu o`rinda uning «Butga mixlangan», «Chaqaloqlarni chavaqlash» kompozitsiyalari xarakterli.

Jovanni go`dak ko`tarib turgan madonnalar obrazi ham jonli. Bu haykalda onalik mehri bilan to`lib toshgan Bibi Maryai va unga talpinayotgan go`dak obrazi hayotiy bo`lib, ularda diniy-mistik tushunchalar yo`q.

XII asrning oxirlarida Florentsiya Italiyadagi yirik hunarmandchilik va savdo-sotiq markaziga aylandi. Siyosiy hokimiyat hunarmandlar va savdogarlar qo`liga o`tdi. Ishchilar bir korxonaga to`plandi. Mehnat taqsimotining o`ziga xos ko`rinishi – kapitalistik munosabatlar yuzaga keldi. Endilikda aql-farosatli, ijodkor inson imkoniyatlariga qiziqish kuchaydi. Dantening vatani Florentsiyada tasviriy san’atdagi shu yangi xislatlar – realistik mazmunni ifodalashga intilish rivojlandi.

Yangi davr izlanishlari dastlab florentsiyalik Chimabue nomi bilan mashhur bo`lgan Chenni di Peppo ijodida ko`rina boshlandi. Vazari ta’biri bilan aytganda, u birinchi bo`lib rasm chizish va rangtasvirning yangi usullariga asos soldi. Chimabuening asarlari bizgacha kam etib kelgan. Lekin ular rassom ijodidagi novatorlikni ko`ra olish imkoniyatini beradi. «Butga mixlangan (1280 y.)», «Madonna chaqaloq va farishtalar bilan (1280-1285 yy.)» kabi kompozitsiyalarida harakat, hayajonni tabiiy aks ettirishga, obrazlarni bir-biri bilan ruhiy bog`lashga harakat qilganligi sezilib turadi, kompozitsiyada fazoviylik elementlari ko`rinadi. So`zsiz Uyg`onish davrining yirik rassomi, proterenessens rangtasvir san’atining buyuk islohotchisi Chimabuening shogirdi Jotto di Bondone (1266/67-1337) hisoblanadi. Shakllanib kelayotgan yangi ziyolilarning tipik vakili, realistik san’atning asoschilardan biri, rassom – haykaltarosh, me’mor Jotto o`zidan avvalgi va o`zi yashagan davrdagi realistik san’at borasida erishilgan yutuqlarni chuqur o`zlashtirgan holda, uni yangi pog`onaga ko`tardi. Jotto kompozitsiyalari asosida, asosan diniy mavzu yotsa ham, lekin shu afsonaviy voqealarni yangi madaniyat talablari mazmuni bilan uzviy bog`liq holda namoyon etadi. Uning asarlarida real inson butun borlig`i bilan tasvirlanadi, uning jasorati, olijanobligi, insonparvarligi kuylanadi. Shu bilan birga insonlar orasida uchrab turadigan xudbinlik, yovuzlik, sotqinlik kabi xislatlar ochib tashlandi. Jotto asarlarining bosh mavzusi ma’naviy axloqiy barkamol insonni ulug`lash va uni davr ideali darajasiga ko`tarishdir. U voqelikni real muhitda – makonda ifodalashga intiladi. Shu maqsadda u tasviriy san’atining va ifoda vositalari bo`lgan yorug` – soya imkoniyatlaridan keng foydalanishga harakat qiladi. Kompozitsiyaning mantiqiy qurilishiga, makonda joylashgan har bir obrazni o`rinli ko`rsatishga erishadi. Jotto o`z davrining mashhur san’atkori edi.

Uning san’ati ko`pchilikka manzur bo`ldi. Bu albatta, unga buyurtmalarning ko`plab berilishiga sabab bo`ldi. Natijada Florentsiyada dunyoga kelgan bu san’atkorning ishlangan suratlari Italiyaning juda ko`p shaharlariga borib etdi. U erlardan ham buyurtmalar kelib turdi. Bu katta buyurtmalarni bajarish uchun katta badiiy ustaxona tashkil etdi va o`zining shogirdlari bilan birga ishladi. Bu esa san’atkorning yanada mashhur bo`lishiga, ta’sir doirasining kengayishiga sabab bo`ldi. Rassomning muhim asarlaridan biri, Paduyadagi del’ Arena kapellasiga ishlangan devoriy suratidir. Bu suratda san’akorning grajdanlik pozitsiyasi, yuksak badiiy mahorati namoyon bo`ldi. Suratlarda Bibi Maryam va Iso hayoti tasvirlanadi. Lekin diniy voqealar san’atkor tomonidan real voqeadek ifodalanadi. Natijada uning obrazlari xis-tuyg`u, kuch-quvvatga to`la real kishilar eslatadi. Rassomning muhim yutuqlaridan biri shundaki, u o`z kahramonlarining xarakterini, ularning manaviy dunyosi, xatti-harakati, o`zini tutishi va tashqi qiyofasida ko`rsatadi. Bu xusuda «Ioximning cho`ponlar orasiga qaytishi», «Iuda bo`sasi», «Isoga aza tutish» kabi suratlari xarakterlidir.

«Iuda bo`sasi» kompozitsiyasi markazida Iso va uning sotqin shogirdi Iuda tasvirlanadi. Isoning ochiq chexrasi, o`zini xotirjam va ulug`vor tutishida nuroniylik sezilib turadi. Aksincha, o`zining yomon niyatlarini yashirishga intilgan, lekin bu niyatlari uning xunuk tashqi qiyofasida namoyon bo`lgan, Iuda obrazida esa sotqin, xalq nafratiga duchor bo`lgan shaxs gavdalanadi.

Jotto o`z ijodi bilan Uyg`onish davri realistik rangtasvirning asosiy yo`nalishini boshlab berdi. Insonga ishonch, insoniylikni ulug`lash kabi qarashlar keyingi davr rassomlarini realistik san’atning yangi ifodasi va tasvir vositalarini izlashga da’vat etdi. Uning zamondoshlari, undan keyingi san’atkorlar ham Jotto ijodini namuna maktabi deb bildirdilar.

XII asr oxiri – XIV asrning birinchi yarmida protorenessans san’ati rivoj topdi. Bu paytlarda Siena boy bankirlar shahri edi. Shu muhitda yaratilgan san’at asarlari Florentsiya badiiyo maktabidan farqli ularoq birmuncha aristokratik, nafis va dekorativligi bilan farqlanadi. To`g`ri, Siena maktabi florentsiyalik rassomlarning, ayniqsa, Chimabue, Jottolarning roli sezilarli bo`ldi. Lekin bu sienalik rassomlarning o`ziga xos protorenessans davri san’ati yaratishlariga xalaqit bermadi. Sienalik shunday rassomlardan biri Duchcho di Buoninsen’ya (tax. 1255-1319) hisoblanadi. Uning asarlaridagi obrazlar xatti-haraqatida tabiiylik, ularning qiyofalari, qarashlarida mayin insoniylik, tuyg`ulari sezilib turadi. Rassom har bir obrazni zo`r ishtiyoq bilan ishlaydi, har bir detalning tugal va aniq bo`lishiga e’tibor beradi. Duchchoning mashhur asari sobor mehrobi uchun ishlangan surati hisoblanadi. Bibi Maryam va Iso tarixiga bag`ishlangan bu katta kompozitsiya (eni 4,24m, balandligi 4m ga yaqin) markazida chaqaloq ko`tarib o`tirgan Bibi Maryam, uning atrofida avliyo va farishtalar aks ettirilgan. rassom bu asarida ham hikoy anaviylikka katta e’tibor beradi, nur, rang, chiziqlarning emotsional imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Bibi Maryam va Iso hayotiga bag`ishlangan syujet kompozitsiyalari, ayniqsa hayotiy va jonli chiqqan.

Sienalik san’atkor Simone Martini (tax. 1284-1344) ijodida ham shu siena maktabiga xos xususiyatlar – voqelikni poetik va emotsional talqin etish, serjilolik va nafislik mavjud. Uning asarlarida rang muhim o`rinni egallaydi va estetik emotsional tomonini belgilashda etakchi rol’ o`ynaydi. Simone Martini

Italiyaning ko`pgina shaharlarida ijod qilib diniy mavzudagi asarlari bilan birga hayotiy voqealarga bag`ishlangan asarlar yaratdi, portret ishladi. Shular ichida yollangan harbiy qo`mondon Gvidorichch da Fol'yanoga bag`ishlangan devoriy surati mashhurdir.

Proterenessans realizmning rivojlanishi haqida gap borganda, Ambrodjo Lorentsetti (14 asr) nomini eslamay bo`lmaydi. U ko`pgina sienalik ustalar kabi Jotto ijodi yutuqlaridan foydalanib, asarlar yaratishga harakat qildi, perspektiva, yagona qarash nuqtasi masalalari bilan qiziqdi, real tarixiy muhit, konkret tabiat ko`rinishlarini tasvirlashga harakat qildi.

XIV asrning oxirlaridan boshlab Florentsiya Italiyadagi muhim siyosiy va madaniy markazlardan biriga aylana boshlandi va butun Italiya badiiy madaniyati va san'atining keng ko`lamda qayta yangilanish va rivojlanishiga turtki bo`ldi.

XIV asrda Florentsiyada yashab ijod etgan buyuk san'atkorlar Mazachcho, Donatello, Bruselleski ularning izdoshlari o`z ijodlarida Uyg`onish davri san'atkorlarining asarlari gumanizm g`oyalari bilan sug`orilgan bo`lib, ular o`z asarlari markaziga inson obrazini qo`ydilar. Ilk Uyg`onish davri san'atkorlari proterenessans san'ati yutuqlarini davom ettirgan holda, uni ilmiy jihatdan boyitdilar, realistik san'atning yangi qirrilarini ochdilar. Ilk Uyg`onish davridagi antik san'atga qiziqish yanada ortdi. Hayotni chuqur o`rganish asosida asar yaratish printsiplari esa san'atkorlarning fikr doirasini yanada kengaytirdi. Voqealikni ilmiy asosda bilishga intilish paydo bo`ldi.

Bu davrda ulkan binolar, g`oyat katta gumbazli va qator ustunli sobor va ibodatxonalar qurildi. Florentsiyalik me'morlar antik me'morlar an'analari va mahalliy qurilish material va konstruktsiyalari bilan uyg`unlashtirib, renessans me'morligi uslubini yaratdilar. Bu uslub rivojiga gotikaamdaAizantiya me'morligi uslubi ham samarali ta'sir qildi. Bu davrda grajdan me'morligi monastirlar kompleksi qurilishi, ibodatxonalar qurilishi ham yangilandi. Shaharning ijtimoiy-ma'muriy markaz planirovkasi va tuzilishi bilan bog`liq bo`lgan yangi tipi paydo bo`ldi.

Ilk Uyg`onish davrida haykaltaroshlik o`zining eng gullagan davrini kechirdi. Bu davrda qator etuk haykaltaroshlar ijod etib, realistik haykaltaroshlik san'ati taraqqiyotiga muhim hissa qo`shdilar. Bular ichida Lorentso Giberti, Donatello, Yakono della Kverchi kabi haykaltaroshlar, ayniqsa mashhurdir. Kvatrochentoga kelib, haykaltaroshlik mustaqil san'at turiga aylandi.

XV asr boshlarida Florentsiya boy bank xo`jayini Kozimo Medichi qo`liga o`tdi. U burjua respublikasining saylanmagan hukmdoriga aylandi. Dono siyosatchi ayyor diplomat Medichi va uning sulolasi hokimiyat tepasida deyarli XV asrning oxirigacha turdi. Kozimo Medichi hokimiyatni mustahkamlash maqsadida o`z atrofiga mashhur san'atkor va olim, donishmandlarni to`pladi, ularni ish bilan ta'minlandi, iste'dodi egalariga homiylik qildi. O`zidan so`ng uning nabirasi Lorendo bu ishni davom ettirdi. Florentsiya XV asr davomida Italiyaning muhim madaniy o`chog`i, ilk Uyg`onish san'atining vataniga aylandi. 1453 y. Vizantiya turklar tomonidan bosib olingandan keyin, u erdagi olim va san'atkorlar Florentsiyaga kela boshladilar. Florentsiya grek tili, adabiyot va falsafani o`rganish markaziga aylandi. Shu erda Platon akademiyasi va kutubxona tashkil etildi. Antik dunyo san'ati yodgorliklarni o`ziga mujjassamlashtira

boshlangan birinchi badiiy muzey yuzaga keldi. Bular so`zsiz kvatrochento san'ati xarakterida o`z ifodasini topdi.

XIV asr oxiri XV asr boshlari Italiya me'morligida paydo bo`lgan yangi tendentsiyalar davrining buyuk me'mori boshqa turlarini ham qiziqish bilan o`rganishga da'vat etdi. U 1401 y. Florentsiyadagi baptisteriya bronza eshiklari uchun rel'ef  ishlash konkursida qatnashib, jyure a'zolarining olqishiga sazovor bo`ldi, uning rel'efi yaxshi baholandi, lekin amalda konkurs qatnashchisi Lorentso Gibarti ishlari qabul qilindi. Shundan keyin Brunelleski o`z faoliyatini asosan, me'morlikka bag`ishlagan. U me'morlar orasida birinchi bo`lib, katta gumbazli bino qurish problemasini hal qildi. Uning ilk asari Florentsiyadagi Sant Mariya dal' Fiore sobori tepasiga ishlangan diametri 42 metr bo`lgan gumbazni qurishga erishdi.

Soborning ulug`vor, aniq ko`rinishini ifodalagan bu gumbazning qirralari va eng tepasiga o`rnatilgan me'morlik bezagi binoga alohida salobat va fayz baxsh etib, o`zida Uyg`onish davri madaniyatining xarakterli tomonini aks ettiradi, inson aql-zakovat tantanasining haykali sifatida namoyon bo`ladi, davrning gumanistik intilishlarini ko`z-ko`z qiladi. Bu gumbaz keyingi Italiya va Evropa me'morligi taraqqiyotida muhim o`rin egalladi.

Me'morning muhim asarlaridan yana biri Floretsiyadagi 1419 yilda qurila boshlangan Tarbiya uyi binosidir. Bu binoda ilk Uyg`onish me'morligi uslubi yaqqol namoyon bo`ldi.

XV asr Italiya me'morligining yutuqlaridan yana biri Palatstso (shahar saroyi) qurilish printsiplarida namoyon bo`ladi. Bu qurilish shahardagi ijtimoiy, ma'muriy binolar qurilishga ta'sir qildi.

Ilk Uyg`onish davri me'morligining yana bir buyuk ijodkori Leon Battist Alberti (1404-1477)dir. U XV asr o`rtalaridagi yirik me'morgina emas, balki uning nazariyotchisi, entsiklopedik olim hamdir. Al'berti «Me'morlik to`g`risidagi o`n kitob» nomli asarida antik yodgorliklarning ilmiy nazariyasini bayon qildi. Uning izlanishlari yuqori Uyg`onish davri me'morligiga asos yaratdi.

Florentsiyadagi Ruchellai palatstsosi Al'bertining tugallagan etuk asarlaridan hisoblanadi. Ochiq hovli atrofida qurilgan to`rtburchak shaklidagi yaxlit uch qavatli bu saroyda Al'berti devorlarining qismlarga ajratadigan pilyast, antibliment va tekis devor yuzasini engil rusta bilan pardozlash hisobiga o`ziga xos go`zallik baxsh etadi. Bu binoda antik traditsiya (rim me'morligi, birinchi galda) yangi badiiy mazmun va plastik ifodalilik bilan boyidi.

Ilk Uyg`onish davri tasviriy san'atida paydo bo`lgan yangi tendentsiyalar dastlab haykaltaroshlikda ko`rina boshladi. Haykaltaroshlikda yangi ilgariroq paydo bo`lishiga sabab, dastlab bu san'atning o`rta asr ibodatxonalari qurilishida keng o`rin olganligidadir. Chunki ibodatxona va din bilan bog`liq bo`lgan binolar qurilishi qoshida haykaltaroshlik, dekaratorlik ustaxonalarida bo`lajak san'atkorlar me'morlik, haykaltaroshlik hamda zargarlik sirlarini o`rganishar edi. Bu albatta, yangi davr plastik san'ati ravnaqiga zamin yaratdi. Shunday ustaxonada ta'lim olgan haykaltaroshlardan biri Lorentso Giberti (1378-1455)dir. Uning ijodida o`rta asr haykaltaroshligidan yangi davr realizmiga o`tish o`ziga xos yo`nalishda sodir bo`ldi. Zargarlik asoslarini egallagan bu san'atkor

haykaltaroshlik asarlarida ham zargar singari har bir detal' va obrazning tugal, aniq shaklga ega bo`lishiga harakat qildi.

Florentsiyadagi baptisteriya uchun ishlangan bronza eshik yuzaga ishlangan bo`rtma tasvir Gibertining mashhur asarlaridan biri hisoblanadi. Bu tasvirda injildan olingan syujetlar bo`lib, haykaltarosh bunga hayotiy voqealar, shaharlar, me'morlik binolari, turli-tuman o`simliklar, tog`u-toshlar ko`rinishini kiritadi. Haykaltarosh ijodiga xos bo`lgan bu izlanishlar ayniqsa, uning 1425-1452 yillarda yaratgan, hisob jihatdan uchinchi bronza eshikda (birinchisi 1402-1408, ikkinchisi 1403-1424 yillarda ishlangan) yaqqol namoyon bo`ldi. Bu eshiklar haqida keyinroq Mikalanjelo: «Ular shunday ajoyibki, hattot jannat eshigi bo`lishiga loyiqdir» - deb aytgan edi. Giberti ilk Uyg`onish davrining birinchi nazariyotchilaridan edi. U birinchi bo`lib, nazariy traktat (risola) yozadi va unga Italiya san'ati tarixigaoid birinchi qisqa ma'lumotni kiritadi.

Ilk Uyg`onish davr haykaltaroshligining yulduzi florentsiyalik haykaltarosh Donato di Nikola di Betti Bardi yoki qisqacha Donatello (1386-1466) edi. U Uyg`onish davri haykaltaroshligining haqiqiy islohotchisi, realistik san'atning asoschisidir. Uning ijodi keyingi Evropa haykaltaroshligi taraqqiyotida muhim o`rinni egalladi. Donatello haykaltaroshlik borasida erishilgan yutuqlar, sodir bo`layotgan yangi tendentsiyalarni o`rganib, uni o`zlashtiraolgan holda, kvadrachento san'atigaxos bo`lgan yo`nalishni yaratdi. U haykaltaroshlikning ko`p turlarida ijod qilib, turli mavzuga murojaat etdi. Donatello badiiy ta'limni dastlab Giberti ustaxonasida egalladi, lekin tezda san'atda o`z yo`lini topib, haykaltaroshlik san'atida davr xarakterini to`laqonli ifodalashga erishdi. San'atkor ijodining ana shu o`zigaxos tomoni uning avliyolarga bag`ishlangan «Avliyo Mark» (1411-1412) vaayniqsa, «Avliyo Georgiy» (1416) haykallarida namoyon bo`ldi. Bu asarlarda konkret real shaxsgaxos fazilatlar real shakllarda tasvirlanib qolmay, balki shu davr kishilarining ideal inson to`g`risidagi tushunchalari o`zining badiiy ifodasini topdi. Avliyo Georgiy haykalida haqiqiy renessans davri kishisi – ziyrak, aktiv, o`zi uchun ham boshqalar uchun kurashaoladigan, ideal qahramon shaxs qiyofasini namoyon qildi. Donatello o`z asarlarida real odamlarning xususiyatlarini berishga harakat qilar ekan, shu bilan birga, antik haykaltaroshlik san'ati namunalarini o`qiganda, uni tengi yo`q namuna deb hisobladi. Uning «Dovud» deb nomlangan haykali Uyg`onish davrida birinchi marta kiyimsiz holda tasvirlangan odam haykali edi. «Odatdagi Gattamelatta» haykali esa o`z mehnati vaaql-zakovati bilan jamoatchilikka manzur bo`lgan insonni ulug`lash uchun o`rnatilgan birinchi otliq haykali bo`ldi.

Donatello umrining so`nggida yaratgan «Yudif' va Olofern», «Mariya Magdalena» kabi asarlar yaratdi. Bulardan, ayniqsa so`nggisida uning ijodigaxos gumanistik g`oyalar o`rnin pissimistik kayfiyatlar egallay boshlanaganligi ko`rinadi.

Donatello rel'ef san'atida ham sezilarli ijod qildi. Uning Paduyadagi Sant Antonio cherkovi mehrobiga ishlangan rel'eflaridaavliyo Antonio hayotidan olingan syujetlar yuksak mahorat bilan ishlangan va shu san'atning eng yuksak namunasi hisoblangan. Juda murakkab, ko`p figurali bu kompozitsiyada tasvirlanuvchilarning his-tuyg`u va kechinmalari ta'sirchan va jonli talqin etilgan.

Donatello Uyg`onish davri realistik haykaltaroshligining asoschisi bo`lib, u faqat shu san'at g`oyaviy mazmuni emas, balki badiiy vositalarini ham yangilashga bel bog`ladi. Uning ijodida gumanistik san'at ideali ilk bor o`z ifodasini topdi. U naturani chuqur kuzatish, antik dunyo san'ati yutuqlarini o`rganish asosida Uyg`onish davri san'atkorlari ichida birinchi bo`lib, erda mustaqil turgan odam haykalini yaratish masalasini hal etdi, haykaltaroshlik portretini boshlab berdi, bronzadan birinchi otliqaykalini ishladi. Donatello ijodida boshlangan bu xususiyatlar keyingi Evropa haykaltaroshligida uzoq vaqt maktab vazifasini o`tadi.

Florentsiya rangtasviri XV asrda realizm yo`liga kirib kela boshladi. Rassomlar gotika ta'siridan qutulib Jotto ijodining ilg`or tomonlarini rivojlantirdilar. Monumental rang tasvirdagi «al-fresko» ko`rinishi o`zining eng gullagan davrini boshdan kechirdi.

Florentsiya rangtasviri Mazachcho nomi bilan mashhur bo`lgan Tomazzo di ser Jovanni di Simone Kassai muhim o`rinni egalladi va unda realistik yo`nalishni boshlab bergan yirik san'atkor sifatida tanildi. Mazachcho 1401 yilda natarius olilasida dunyoga keldi. U juda ertaotasidan etim qoldi. O`n olti yoshida Florentsiyaga keldi va shu erda rassomlik sirlarini egallaydi, rassomlarga shogird tushib, ularga devoriy suratlar ishlashda yordam beradi. Filippo Bruneleski va Donatello ijodini qunt bilan o`rgandi. Vazari ta'biricha, u o`z asarlarini tabiiy, jonli va real borliqqa o`xshab chiqishiga katta e'tibor beradi. Natijada u tezda Florentsiya rangtasvirida ko`zga ko`ringan rassomlardan birigaaylandi. Mazachcho juda qisqa 27 yil umr ko`rdi (1428 y. vafot etgan), lekin shu umr davomida yaratgan sanoqli asarlar Italiya san'atining keyingi taraqqiyotida muhim rol o`ynadi. Rassom o`z ijodi davomida jasur insonnining umumlashma, ideal obrazlarini yaratishga harakat qildi. Diniy mavzudagi kompozitsiyalarda o`z zamondoshlari qiyofasini tasvirlashdan cho`chimadi. Mazachcho ijodidagi ana shu xislatlar uning Florentsiyadagi Satn dal' Karmine cherkovining Bronkachchi kapellasiga ishlangan devoriy suratlarida yaqqol namoyon bo`ldi. Bu suratlar rassomning novatorligi, san'atga qo`shgan hissasi namoyon bo`ladi. Suratlardaapostol Petr tarixi va tavrotdan olingan voqealar aks ettiriladi. Bular ichida «Jannatdan quvilganlar», «Statir mo'jizasi» kabi suratlar diqqatga sazovordir.

«Jannatdan quvilganlar» (1405) kompozitsiyasi so`zsiz rassomning yutuqlarini o`zida mujassamlashtirgan asardir. Suratlarda jannat darvozasidan chiqib kelayotgan Odam Ato va Momo Havo hamda ularning tepasida qilich ushlagan farishta tasvirlangan. Asardaortiqcha detal vaobrazlar yo`q. Rassom diqqatini asosiy obrazlarga, syujetning dramatik mazmuniga qaratishga, ularning plastik echimiga e'tibor beradi va kiyimsiz odamlar tasvirini nur – soya yordamida ishonarli holda hajmli talqin etadi. Bunda nur tasvir vositasi sifatidaxizmat qilish bilan birga, uning ifodali va emotsional tomonining oshishida ham muhim o`rinni egallagan. U kompozitsiyaga kenglik, fazoviylik kiritadi, obrazlarni havo bilan o`raydi. Ularning odimlab ketayotgan paytini ishonarli chiqishiga erishadi.

Mazachchoning «Statir mo`jizasi» asari ko`p figurali kompozitsiyasi, unga Iso va uning shogirdlaridan shaharga kirishlari uchun soqchilari statir (tanga)

talab qilingan va Isoning buyrug`i bilan avliyo Petr qo`lda baliq tutib, uning qornidan chiqqan  tangani soqchisi berganligi tasvirlanadi. Afsonadagi ana shu voqealarning hammasi bir kompozitsiyadaaks ettiriladi. Uning markaziy qismida joylashgan shahar darvozasi oldidaapostollar ulug`vor, salobatli. Ularning hatti-harakati, o`zlarini tutishlari, qiyofalardagi holat, tabiat ko`rinishi asardagi voqealarni oddiy hayotiy voqeaga yaqinlashtiradi va dunyoviy mazmun kashf etadi.

Ilk Uyg`onish davri realistik taraqqiyotida Paolo Uchello (1397-1475) hamda Andrea del’ Kastan’o (1423-1457) lar ham muhim o`rin egalladilar.

Paolo Uchallo nomi bilan mashhur bo`lgan Paolo di Doni to`g`risidagi ma’lumotlar kam saqlangan. SHunga qaramay, bizgacha saqlangan asarlari uni san’atning nazariy masalalari bilan shug`ullanib, amalda tatbiq etishga intilgan san’atkor sifatida namoyon qiladi. Uning o`z asarlari, ayniqsa chiziqli perspektivaimkoniyatlaridan foydalanishga hamdaobrazlarni murakkab rakurslarda tasvirlashga intilishi seziladi. Uning ilk asarlaridan biri Florentsiyadagi soborlardan biriga ishlangan devoriy surat bo`lib, unda kondont’er (yollangan otliq qo`mondon) tasviri tushirilgan kompozitsiya rassom izlanishlarini namoyon qildi. Andrea del’ Kastan’o o`z ijodida Mazachcho va Donatello maktabi saboqlarini qo`llashga, qahramonlik pafosi bilan sug`orilgan, dramatik krmpozitsiyalarni monumental formalardaaks ettirishga intilgan san’atkorlardandir. Kastan’oasarlari ichidaayniqsa, Pandorl’fino villasi devoriy suratlari mashhur, bu suratlarda qadimgi va o`z zamonasining ilg`or kishilarini tasvirlaydi va shular orqali inson ruhi va zakovatini ulug`laydi. Kastan’o yaratgan «Sirli oqshom» devoriy surati, ayniqsa mashhur. Diniy mavzuga bag`ishlangan bu kompozitsiyada ham rassom o`zini realist san’atkor sifatida namoyon etadi. Asarda tasvirlangan Iso vaapostollar qiyofasida insonlargaxos fazilatlar – hayajonlanish, cho`chish, ikkilanish kabi xislatlarni ifodalab, har bir tasvirlanuvchining individual fazilatini yoritishga erishadi.

Italiya ilk Uyg`onish davrining mashhur koloristi Dominiko Vnetsiano (tax. 1410-1461yy.) asli venetsiyalik bo`lib, Florentsiyagaetuk ijodkor siftida kirib kelgan (1438y.) va shu er san’ati ta’sirida ulug`vor, monumental asarlar yaratgan. Uning asarlari nurga boy. Nur rassom asarlarida fazoviy kenglik yaratishda, mavjud obraz va predmetlarni havo bilan o`rashda muhim rol o`ynaydi. Venetsiano yaratgan «Munajjimlarning ta’zim qilinishi» (tax.1440-1445 yy., Berlin-Dolem Davlat muzeyining surat galereyasi), «Madonna avliyolar» (tax.1445y. Florentsiya, uffitsi galeriyasi) shunday asarlardandir.

Fra Filippo Lippi (1406-1469) florentsiya rassomlik maktabining yirik vakillaridan bo`lib, o`z davrining shoir rassomlaridan edi. U Mazachchodan ta’lim olib, unga Brankachchi kapellasiga devoriy suratlar ishlanganida yordam bergan, degan taxminlar bor. Filippo Lippi ham o`ziga zamondosh san’atkorlar kabi diniy mavzuda rasmlar chizdi. Bibi Mar’yam, Iso vaavliyolarga bag`ishlab asarlar yaratdi va kompozitsiyalarda o`z zamondoshlarini tasvirladi, uning kiyinishi, soch tarashlarini aynan o`ziga o`xshatib ishlashga harakat qildi. «Go`dakka ta’zim qilish» (tax. 1458-1460y., Berlin-Dolem, davlat muzeyining surat galareyasi) asari Isoning tug`ilishiga bag`ishlangan asarlar ichida o`zining yangicha intim va lirik planda talqin etilishi bilan ajralib turadi. Rassomning eng

poetik asarlaridan hisoblangan bu kompozitsiyada Bibi Maryam tiz cho`kkan holdaerda, maysalar ustida yotgan chaqaloqqa qarab turgani tasvirlangan. Quyuq o`rmonzor va maysazorlardagi gullar rassom tomnidan tabiatni chuqur his qilib chizilganligini ko`rsatadi.

P’etro della Francheska (tax. 1420-1492). Umbriya maktabining yirik vakili, rassom va nazariyotchisi Francheska Dominiko Venetsiano ustaxonasida o`z malakasini oshirdi. Brunelleski, Giberti ijodi bilan yaqindan tanishdi, perspektiva masalalari bilan shug`ullandi, rang va nurni estetik emotsional o`rganib, uni o`zining amaliy faoliyatida sinab ko`rdi.

Rassom asarlari o`zining rangdor va serjilovligadan tashqari, nurga boyligi bilan ham farqlanadi. Nur kompozitsiyadagi hamma ranglarni birlashtirgani holdaasarlarga o`zigaxos qaytarilmas joziba baxsh etadi. Francheskoning muhim asarlari ichida muqaddas but haqidagi afsonaga bag`ishlangan suratlar turkumi, ayniqsa, «Imperator Konstantining tushi» kompozitsiyasi diqqatga sazovordir. Aretstsodagi San Franchesko cherkovi uchun ishlangan bu suratda sirli, hatto bir oz qo`rqinchli sukunat rassom tomnidan qotib turgan qorovul, tinch uyquda yotgan imperator tasviri hamda muqaddas butdan tarqalayotgan yorug`lik hisobiga kuchaygan ranglar kontrasti orqali ochib berilgan.

«Solomonning ayol podsho Savskaya bilan uchrashuchi» kompozitsiyasi ham hayotiy. Ayniqsa, «Tiz cho`kkan Sivskaya» tasviri ta’sirli ishlangan Franchesko portret san’atida ham ijod qilib, o`z portretlarida tasvirlanuvchining individual xislatlari vaxarakterini ko`rsatishga harakat qiladi. U ko`pginaodamlar portretini yon tomondan ishlaydi. Lekin, bu tasvirlanuvchining o`zigaxos xarakterini yoritishgaxalaqit bermaydi. Yon tomondan ishlangan portretlarni hajmi va tabiat bilan uzviy birlikda ko`rsatishga harakat qiladi. Shu xususiyat uning «Felerigo da Montefel’to portreti» (1465)da ko`rinadi. Francheska san’atning nazariy masalalari bilan shug`ullandi va shu izlanishlar umrining oxirgi yillarida yozgan risolalarida o`z ifodasini topdi. Rassomning ulug`vor va hayotbaxsh jasorat bilan sug`orilgan asarlari o`rta va Shimoliy Italiya rassomlarining Uyg`onish davri san’atiga o`tishida muhim rol’ o`ynaydi. Franchesko ijodi o`zigaxos ko`rinishda uning shogirdlari ijodida davom etdi. Ular san’atning yangi qirralarini ochib realistik san’at arsenalining rang-barang bo`lishiga hissa qo`shdilar.

Luka Sin’orelli (1441-1523) Francheskoning shogirdi bo`lgan bu rassomning ishlash uslubi, asarlarining dramatizm bilan o`z ustoziga qarama-qarshidir. Francheskoasarlaridagi epik vazminlik, obrazlardagi salobat va ulug`vorlik uning ishlarida keskin harakat, odamlar hatti-harakatidagi bezovtalik bilan almashdi. Lekin u har bir obrazning ruhiy holatini tasvirlashni ham unutmaydi, shu maqsadda gavda, qo`l, oyoq harakati, yuzasidagi mimik harakatlardan unumli foydalanadi.

P’etro Perudjino (1450-1523) asli ismi P’etro Vanuchchi) ham Francheska shogirdlaridan degan ehtimol bor. Uning obrazlari birmuncha parishon vaxayolga cho`mgan holatda tasvirlanadi. Uning asarlari kompozitsion jihatdan sodda, rang jihatdan boy. Shimoliy Italiya san’atidaXV asr o`rtalariga qadar gotika san’atining ta’siri sazilarli bo`ldi. Ana shu o`rtaasr va yangi davr san’ati o`rtasidagi munosabat va o`tish jarayonida shu davrning yirik rassomi Andrea Manten’ya (1413-1596) ijodidan boshlanadi. Uning ilk ijodida gotik san’at

an'analari mavjudligi seziladi, ikkinchi tomondan Florentsiya maktabi ta'siri borligi ko`rinadi. Rassom Florentsiya rassomlari singari antik dunyo bilan qiziqdi, perspektiva imkoniyatlaridan foydalanib, asar yaratishga, odam gavdasini murakkab rakurslarda ishlashga va voqelik tasvirining xayoliy ko`rinishini aks ettirishga intiladi. Rassom ijodidagi bu qarama-qarshiliklarning ilk asarlaridan, masalan, Paduyadagi Eremitani cherkovi uchun ishlangan suratlarda namoyon bo`lgan Maxovtarixi to`g`risidagi epizodalrni rassom chuqur dramatizm bilan tasvirlaydi.

1458 y. rassom Mantuega taklif qilindi. Uning keyingi ijodi to`liq shu erda o`tdi. Manten'yaning gertsog saroyi uchun va uning iolasi hayotiga bag`ishlangan voqealar aks ettirilgan devoriy suratlari diqqatga sazovor. Bu devoriy suratda rassomning izlanishlari va ijodaning o`zigaxos tomonlari to`liq namoyon bo`ldi.

Manten'ya gravyura bo`yicha shug`ullangan birinchi rassomlardandir. Italiya gravyurani haqiqiy san'at darajasiga ko`tarib, evropa grafikasi taraqqiyotida muhim rol' o`ynadi.

Ilk Uyg`onish davri o`zining umrini tugatib, yuqori Uyg`onish davrigaasos yarata boshladi. Bu davr Florentsiyaning hukmdori «Ajoyib-g`aroyib Lorentso» deb nom chiqargan Lorentso Medichi qo`zg`olon va noroziliklarini qattiqo`llik bilan bostirib, hukmdorligini saqlab qoldi. U o`z davlatini tinch vaosoyishta ko`rsatish maqsadida mashhur san'atkorlarni to`pladi, ularning ijodidan o`z davlatining obro`sini oshirishda foydalandi. Lekin bu tashqi tomondan farovon vaosoyishta ko`ringan Florentsiya ichida pessimistik, ertangi kunga umidsizlik bilan kurash kayfiyati hukm surar edi. Ana shu kayfiyat etuk ijodkorlarning asarlarida, juda noziklashgan saroy san'ati ko`rinishida namoyon bo`ladi. Bu xususiyat shu xonadon buyurtmalari bilan ijod qilgan san'atkorlar Domeniko Girlandayo (1449-1494), Sandro Botichelli (1445-1510), Andrea Verokkio (1435/1436-1488) ijodida yaqqol ko`rinadi. Dominiko Girlandiyoning asl nomi Domeniko di Tomazzo Bigordi bo`lib, u portret, tematik kompozitsiyalar ustida mehnat qildi. Rassomning diniy mavzudagi devoriy suratlari zamonaviy hayot, turmush tarzini aks ettiruvchi kompozitsiyalarga o`xshab ketadi. Voqealar go`yo Florentsiyaning ko`cha vaxonadonlarida bo`layotganga o`xshaydi. Qatnashuvchi obrazlar ham florentsiliklar, asosan medichilar xonadoni va boshqa boy xonadonlarning a'zolari, gumanistlar, yozuvchi, shoir va rassomlardir.

Sandro Bottichelli ilk Uyg`onish davrining eng emotsional va poetik rassomlaridan bo`lib, Florentsiya maktabi so`nggi bosqichining tipik vakili hisoblanadi. Uning asarlari o`zining chuqur lirizmi, voqelikni nihoyatda shoirona talqin etishi bilan xarakterlanadi. Bottichelligining ilk asarlari o`zining mayin lirikasi va beg`uborligi bilan xarakterlanadi. Bu uning diniy mavzudagi asarlarida, konkret shaxslarga bag`ishlangan portretlarida ko`rinadi.

«Bahor» (1478), «Veneraning tug`ilishi» (1484) kabi etuk asarlari antik afsonalaridan olingan syujetlarni ijodkor shoirona, o`z qalb harorati bilan original talqin etaolishini ko`rsatadi.

1490 yillardan boshlab, rassom ijodida pessimistik kayfiyatlar kuchaya borib, bu narsa uning asarlarida ham o`z aksini topa boshladi. Bunga sabab, albatta, shu davrda sodir bo`lgan voqealardir. Lorentso Medichining vafoti, Florentsiyaning Frantsiya ko`rinishlari tomnidan bosib olinishi bilan bir vaqtda bo`ldi.

Rassomning ana shu kayfiyati, ayniqsa, uning yopiq darvoza yonida yig`lab o`tirgan yolqiz yosh ayolni tasvirlovchi «Haydalgan juvon» (1495) asarida namoyon bo`ldi.

Bottichelli ajoyib qalam-surat ustasidir. U birinchi bo`lib Dantening «Ilohiy komediya»siga illyustratsiyalar ishlangan.

XV asr ikkinchi yarmida Florentsiya san'atida sodir bo`lgan o`zgarishlar haykaltarosh va rassom Aendrea Verokkio ijodida ham o`z aksini topdi. Verokkio o`z ijodini zargarlik bilan boshladi. Keyinchalik ana shu san'atgaxos bo`lgan fazilatlari – voqelikni tasvirlashda detallarning tugal va nafis bo`lishiga e'tibor berishni dastgoh va monumental haykaltaroshlikka ham ko`chirdi. Verokkio haykaltaroshlikkaasarlar ichida, ayniqsa, «Dovud» va «Kondet'er Kolleoni» haykallari mashhurdir.

Bu haykallarning g`oyaviy yo`nalishi vaxarakterini tushunish uchun Donetellaning «Dovud» va «Korndet'er Gattamelatta» haykallari bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir. Agar Donatelloning haykallari ko`rinishi vaobrazlari xarakterida insoniylikkaxos chuqur hissiyot mavjud bo`lsa, aksincha, Verokkioobrazlarida qattiqo`llik, aristokratik ruh mavjud bo`lib, bu Kondoter Kolleni haykalida yanada yaqqol ko`rinadi.

**Venetsiya maktabi.** XV asrning ikkinchi yarmida Venetsiyada ham Uyg`onish davri san'ati printsiplari rivojlana boshladi. Uning yirik vakillari Jovanni Bellini (1430-1516), Vittore Karpachcho (tax. 1456-1526), ijodi esa, Italiya ilk Uyg`onish davrining yuqori Uyg`onish davriga o`tish chegarasini belgiladi. Vizantiya, G`arbiy evropa davlatlari bilan yaqin aloqada bo`lgan boy savdogarlar respublikasi Venetsiya san'atkorlari Sharqning boy, sirjilo va yorqin san'ati va gotikaan'analarini o`zlashtirgan holda o`zigaxos jozibador san'at maktabini yaratishga muyassar bo`ldilar. SHu erda moybo`yoq texnikasi rivojlandi, Venetsiyaning yuqori Uyg`onish davri san'ati o`z printsiplarini shakllantirdi, keyingi Venetsiyaning buyuk koloristlari uchun zamin yaratdi.

Roman asrida me'morlik etakchi o`rinni egalladi. Roman uslubidagi bino birmuncha past, ko`rinishi jiddiy vaog`ir. Uning devorlar ham qalin va mustahkam (chunki dushman hujumi paytida yashirinish mumkin), eshik, darvoza va derazalari ensiz. Funktsional va dekorativ maqsadda qo`llanilgan ustunlar ham dag`al va yo`g`on. Roman me'morligigaxos bo`lgan bu xususiyatlar uning o`zigaxos ko`rinishi, xarakteri va kishiga beradigan psixologik ta'sirini belgilaydi. Roman davri me'morligining yana bir xususiyati uning ichki devorlarida tekis yuzaning serobligidir. Bu xususiyat esa monumental rang-tasvirning rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. XI asrda bu san'at o`zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Vitraj ham me'morlikning ajralmas qismigaaylandi. Bu davrja haykaltaroshlik me'morlik bilan bog`liq holda rivojlanadi. Binoning peshtoq, ustun (kapitellari) devordagi maxsus tokchalar haykaltaroshlik san'ati bilan bezatildi. Miniatyura va mayda haykaltaroshlik ham me'morlik ta'sirida bo`ldi. Roman me'morligi uslubning grajdan qurilishiga ta'siri katta bo`ldi.

## 12-Mavzu: XV-XVII asr G'arbiy Yevropa san'ati

**Reja**:

1. Yuqori Uyg'onish davri san'ati.
2. Yug'ori Uyg'onish davrida Italiya san'ati.
3. XV asrning so`nggi o`ttiz yilligida Florensiyada yashab o`tgan mashhur haykaltaroshlar.
4. Germaniyada Uyg'onish davri san'ati.

❖ **Darsning o`quv va tarbiyaviy maqsadi:** San'atning, rivojlanishi, san'at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memorchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo'lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayonini o'rganishdan iborat. Shuningdek Jahon mamlakatlaridagi sanat ohalarining bir biridan farqli jihatlarini ham o'rganadi

❖ **Dars o'tish vositalari:** (Doska, plakat, fan yuzasidan manba va adabiyotlar, tarixiy ma'lumotlar, mavzu yuzasidan har xil testlar, kompyuter, jahon siyosiy xaritasi, izohli lug`atlar)

❖ **Dars o'tish usullari:** Takrorlash, suhbat va savol-javob (mavzuni o`zlashtirishni mustahkamlash), jonli muloqot o`tkazish, erkin fikrlash va so`zlashga o`rgangan holda fikr mulohazalarini bayon qildirish, buning uchun har bir talabaga o`tilgan mavzular, tayanch iboralardan savol tashlanadi. O`qituvchi va talabalar o`rtasida berilgan savollarni tahlil etish. Talabalarga San'atning paydo bo'lishi, rivojlanishi, san'at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memor8chilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo'lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayoni to'g'risida tushuncha berish. Tarqatma testlar asosida talabaning mavzuni qay darajada o`zlashtirganligini aniqlash. Talabalarni voqealarni tahlil etishga o`rgatish. Xarita bilan ishlashni talabalarga o`rgatish. Iboralarni izohlash va unga tahlil berish.

❖ Darsning xrono kartasi – **80 minut.**

❖ O'qituvchi dars davomida quyidagi ishlarni bajaradi

❖ Tashkiliy qism: xonaning tayyorgarligi, jihozlanishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati **– 2 minut**

❖ Hafta davomida bo`lgan yangiliklar-**5 minut**

❖ Yo`qlama- **5-minut**

❖ Dars yuzasidan talabalarni zarur adabiyotlar bilan tanishtirish- **10 minut**

❖ Yangi mavzu bayoni – **50 minut**

❖ sinov savollar namunasi – **5 minut**

❖ Uyga vazifa berish – **3 minut**

Yuqori Uyg`onish davri printsiplari Italiyaning muhim badiiy markazlari bo`lgan Florentsiya, Rim va Venetsiyada o`zining tugal ko`rinishlarni namoyon etdi. Yuqori Uyg`onish davri nisbatan qisqa, ya'ni XV asrning 90-yillaridan XVII asrning 30-yillariga qadar, davrni o`z ichiga oladi. Lekin mazmunan bu davr juda ulug` va Italiya san'at taraqqiyotining «oltin asri» hisoblanadi. Shu davrda yashab ijod etgan buyuk titanlar Leonardo da Vinchi, Rafael' Santi, Mikelandjelo, Titsian

o`z mohiyati jihatdan chuqur, mahorati yuksak, barkamol asarlar yaratdilar. Ular o`zlarining har tomonlama o`tkir va bilimdonliklari bilan ham o`z davrlarining ideal kishilari timsoliga aylandilar. Ular yaratgan obrazlar esa gumanistik g`oyalarni mujassamlantirdi.

Yuqori Uyg`onish davri me’morligining asosiy printsiplari Rimda shakllandi va rivojlandi. Davrning gumanistik printsiplari ulug`vor va tantanali me’morlik kompozitsiyalari o`z ifodasini topdi. Amaliy ijodda antik me’morlik orderlari erkin va ijodiy ishlatila boshlandi. Italiyada rivojlanib kelayotgan me’morlik uslublari umumlashtirilib, yagona milliy me’morlik uslubi yaratildi.

**Donato d’ Anjelo Bramente** (1444-1514) yangi davr me’morligining asoschisi va yirik vakilidir. U o`z ijodini Milanda (1472-1499) boshladi. Lekin Rimga ko`chib kelgandan keyingina bu erda antik san’atini o`rganish va o`zlashtirish asosida o`sha davr kishilari qarashlariga mos bo`lgan bir qator yirik me’morlik kompozitsiyalarni ishlab, davrning xarakterli uslubini yaratdi. Uning bu yangi printsiplari Tem’etto deb nomlangan ibodatxona namoyon bo`ldi. Aylanasimon planda ishlangan gumbazli bino atrofi ustunlar bilan o`rab chiqilgan. Hajmi jihatdan katta bo`lmagan bu bino o`zining monumentalligi bilan yaxshi taasurot qoldiradi.

Bramente ijodining eng yuksak namunalari Vatikanda qurilgan binolardandir. Rim papasi Vatikanni rekonstruktsiya qilishni maqsad qiladi va Bramentega topshiradi. U bu erda mavjud dastlabki binolarni tartibga keltirish va ulardan yagona ansaml’ tuzishga kirishadi, qator galereya va zinalar qurdiradi, keng, bahavo, quyosh nuriga to`la hovlilar yaratib, yirik ansambl tashkil etadi.

Bramentening muhim asarlaridan biri Rimdagi avliyo Petr soborining loyihasidir. Me’mor bu bino qurilishiga markaziy qubbali bino qurish printsiplarini asos qilib oldi. Sobor plani asosiga kvadrat va uning ichida hamma tomoni teng bo`lgan grek buti olingan. Pastki qator qurilmalar ustiga o`rnatilgan gumbaz ustunlar bilan o`ralgan, uning tepasida to`nkarilgan qozonni eslatuvchi katta (diametri 43 m) gumbaz joylashgan Bramenti loyihasi to`liq amalga oshmadi. U faqat gumbaz osti piloni va soborning tashqi devorlarni qurishga ulgurdi. U vafot etgandan so`ng sobor qurilishi san’atida muhim rol’ o`ynadi, pilyasti, gorizontal tasma va karnizlarning o`ziga xos yaxlit va soddaligi bilan qurilgan binolariga monumental va ulug`vorlik baxsh eta oldi.

Florentsiya ilk Uyg`onish davri traditsiyalari yuqori Uyg`onish davr uchun asos qilib olindi va rivojlantirildi. Tasviriy san’atda sodir bo`lgan xususiyatlar ham me’morlikdagi singari ulug`vorlikka, umumlashgan obrazlar yaratish hamda monumentallashtirishga harakat qilishda namoyon bo`ldi.

**Leonardo uchun Leonardo da Vinchi (1452-1529).** Leonardo da Vinchi Vinchi qishlog`i yaqinida, notarius oilasida dunyoga keldi. Leonardo 17 yoshlik paytida otasi Florentsiyaga ko`chib o`tadi. Shu erda Leonardo Anrea Verokkio ustaxonasida tasviriy san’at borasidagi bilimni oshirdi. U o`z ustozi Verokkioga yordamlashib, uning «isoni cho`qintirish» (tax.1476 y. Florentsiya Uffitsii galeriyasi) asarining chap tomondagi farishta rasmini ishlaydi va ustozidan ham mohirligini ko`rsatadi.

Yuqori Uyg`onish davri uslubining asoschisi va tipik vakili Leonardo da Vinchi san’atining ko`pgina turlarida o`z kuchini sinab ko`rdi, matematik,

mexanika, fizika sohasida ilg`or fikrlarni ilgari surdi. Leonardo uchun san'at hayotini bilish vositasi bo`ldi. Uning real voqelik asosida ishlangan suratlar keyinchalik ilmiy asarlari uchun illyustratsiya vazifasini o`tadi. Ijodkor xarakteriga xos bu xususiyat u yaratgan rangtasvir asarning o`ziga xos tomonlarini belgilaydi. Uning har bir asari hayotini o`rganish zamirida yuzaga kelgan, ijodkorning qalb harorati bilan isitilgan va hayotga bo`lgan munosabatini ifodalovchi asarlardir. Rassomning «Gul ushlagan Madonna» (Benua Madonnasi) deb nomlangan ilk asarida shunday xislatlar mavjud. Rassom kompozotsiyasida ortiqcha detal' va lavhalardan voz kechib, tasvirlanuvchining xarakteristikasini kuchaytirishga, shakllarni umumlashtirishga intilgan. Kompozitsiyada yosh ona tizzasida o`tirgan go`dakning ona qo`lidagi gulga talpinayotgan payti tasvirlangan. Tepa tomonidan tushayotgan yorug`lik tasvirining yanada yaqqol ko`rinishiga imkoniyat yaratgan. Darichadan ko`rinayotgan osmon kompozitsiyasi muvozanatligiga xizmat qilib, obrazni cheksiz tabiat bilan uzviy bog`langan. Asarda hech qanday diniy-mistik kayfiyat yo`q. Ona va bola boshi atrofiga ishlangan tilla gardishni hisobga olmaganda, hammasi oddiy florentsiyalikning uyiga baxtni ona va bola shodligidagi go`zallikni kuylovchi asar sifatida namoyon bo`ladi. Bu asar dunyo sirlarini bilishga qiziqqan, nur va go`zalikka intilgan insonni sevgan rassomning dunyo qarashini namoyon qiladi.

Rassom har bir asar ustida uzoq, vaqt ishlar, ishlanadigan har bir obraz va detalning bo`lishi uchun dastlab ularni alohida naturaning o`zidan ishlab, o`rganib, so`ng kompozitsiyaga ko`chirar edi. Bu unga berilgan buyurtmalarning ba'zan vaqtida tugallanmasligiga sabab bo`lar, buyurtmachi bilan nizolar kelib chiqar edi. «Sehrgarlar ta'zimi», «Avliyo Ieronim» kabi asarlarning yarimtugal holatda qolishiga ham sabab shudir. Leonardo Milanda yashagan kezlari 1482-1499 yillarda u o`zini olim, rassom, injener sifatida namoyon etish imkoniyatiga erishdi. U o`z faoliyatini haykaltaroshlik bilan boshladi. Milan hokimi Lodoviko Moro otasi uchun yodgorlik modelini ishladi. Lekin 1499 yili Milanning frantsuz qo`shinlari tomnidan bosib olinishi bu ishni amalga oshirish imkoniyatini bermadi.

Me'mor sifatida ham Leonardo Milanda bir qator surat va proektlar ishladi. «G`ordagi madonna» (1483-1494), «Sirli oqshom» (1495-1497) kabi mashhur asarlarni yaratdi. Milandagi «Sant Mariya Gratsie» monastiri uchun ishlangan mashhur «Sirli oqshom» devoriy surati Leonardo da Vinchini notavor rassom darajasiga ko`tardi. U injildan olingan an'anaviy syujetni erkin va asosan, obrazlarning his-tuyg`u va kechinmalarini ishonarli talqin etishi hisobiga ochadi.

Milan frantsuz qo`shinlari tomonidan bosib olingan yili Leonardo Florentsiyaga qaytib keldi. Bu erda «Angiari oldidagi jang» devori suratining kartonini yaratadi, shuningdek, o`zining mashhur asari «Mona Liza» (Jakonda) asarini ishlaydi. «Mona Liza» portreti (1503) jahon rangtasvirning mashhur yodgoligidir. Bu portret bilan Evropa san'atida chuqur psixologik portret san'ati boshlanadi.

Aslida xotirjam, o`z suhbatdoshiga nisbatan samimiy va mehr bilan boqib o`tirgan florentsiyalik ayol tasvirlangan. Uning ortida murakkab tabiat ko`rinishi aks ettirilgan. Ayol shu tabiatni ajralmas qismi va u bilan uzviy bog`langan. Sochlari, kiyimlaridagi buklanish va jimjimalar go`yo tabiat ritmini

qaytarayotgandek tuyuladi. Ana shular fonidan mayin va nozik qilib ishlangan ayol qiyofasi, nihoyatda chiroyli qo`llari yanada latofatli va go`zal bo`lib tuyuldi. Bu latofat va go`zallik uning nigohida samimiylik va mehribonlik bilan uyg`unlashib, ideal go`zal inson qiyofasini gavdallantirdi.

Leonardo da Vinchi umrining oxirida ilmiy kuzatish va ularni sistemalashtirish ustida ish olib boradi. Rang – barang tasvir haqida risola yozishga kirishadi. Bu risola tugallanmagan bo`lsa ham, to`plangan va saqlanib qolgan qismlari uni realistik san'atining etuk nazariyotchisi sifatida namoyon qiladi. Uning chiziq, rang perspektivasi, rangshunoslik haqida yozib qoldirgan fikrlari hanuzgacha o`z qiymatini yo`qotmagan.

**Rafael' Santi** (1483-1520). Uyg`onish davrining yuksak gumanistik ideallari shu davrning titanlaridan biri Rafael' Santi ijodida o`zining tugal va poetik talqinini topdi.

Leonardoning kichik zamondoshi Rafael' san'atidagi o`zigacha bo`lgan yutuqlarni o`zlashtirgani holda, garmonik kamol topgan go`zal inson obrazini yaratdi, mo`'tabar ona obrazi orqali davrining yuksak g`oyalarini ifodalaydi.

Oddiy rassom Jovanni Santining farzandi Rafael' tasviriyot asoslarini dastlab o`z otasidan, so`ngra mahalliy urbinlik rassom Timotea Viti ustaxonasida davom ettirdi. 1500 yil Perudjino (P'etro Vanuchchi) ustaxonasida o`z bilimini oshirdi. Perudjino ijod Rafaelga sezilarli ta'sir o`tkazdi. Uning obrazlarni fazoda erkin va tabiiy holda joylashtirish va tasvirlashga intilish, muhim bo`lib, uyg`unlikda ko`rsatish kabi fazilatlari Rafael' ijodida sezilarli iz qoldirdi.

Rafael' ijodi juda erta boshlandi. O`n etti yoshida yaratgan ilk asari – «Konestadile madonnasi» (1500) rassomni ijodiy kamolotga erishgan, aniq insoniy pozitsiyaga ega bo`lgan san'atkor namoyon etdi. Bu asar qo`lidagi kitobga talpinayotgan go`dakka mehr ko`zlari bilan boqib turgan yosh ona tasvirlangan. Ortida sokin tabiat, uning qo`ynida o`z yumushi bilan band odamlar ko`rinadi. Hamma yoqda tinchlik va osoyishtalik hukm surdi. Rafael' bu asarida obrazlar harakatining tabiiy bo`lishiga erishgan holda, yosh onaga xos bo`lgan lirik kayfiyat hamda voqelikdan zavqlanish holatni ustalik bilan ko`rsata olgan. Chiziq plastikasi, nafis ranglar garmoniyasi esa bu holatni chuqurlashtirib, uning emotsional tomonini orttirishga xizmat qiladi.

Parujda 4 yilga yaqin bo`lgandan so`ng Rafael' yana Urbinoga qaytadi va so`ng Florentsiyaga keladi. Bu erda o`zining mashhur bo`lishiga sabab bo`lgan qator madonnalar obrazini yaratdi va tezda yuqori Uyg`onish davrining etuk ijodkorlaridan biriga aylandi.

XV asr boshlariga kelib, Rim Italiyaning muhim siyosiy va madaniy markaziga aylana bordi. Uning mavqeini yanada orttirish maqsadida Rim papalari etuk san'atkorlarni shaharga taklif eta boshladilar. Shu davrda Mikelandjelo, Bramenteller qatori Rafael' ham papalari diqqatini o`ziga tortdi va 1508 yili ularning taklifiga binoan, Rimga keldi, shu paytdan Rafael' ijodining eng gullagan davri boshlandi va shu erda u o`zining eng etuk asarlarini yaratdi. Dastlab unga Vatikandagi papalar shaxsiy xonalarining devorlarini bezash topshirildi. Rafael' bu suratlar ustida 1511 yilgacha mehnat qilib, uni muvaffaqiyatli bajardi. Bu ish ustida rassom 1517 yilgacha ishlab, o`z iste'dodini to`liq namoyon qildi. U ajoyib dekarator, kompozitsiyasi ustasi sifatida o`zini

ko`rsatdi. Bu devoriy suratlar mavzusi ko`p hollarda qadimgi davr voqealari, afsonalariga bag`ishlangan. Bu mavzular zamirida esa davr kishilariga ibrat bo`la olinadigan voqealar yotar edi. Bu suratlar papalarning mamlakatini siyosiy jihatdan birlashtirish, ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurashini hamda yo`qolib borayotgan cherkov obro`sini qayta tiklash va mustahkamlash zarur edi.

Uyg`onish davrining gumanistik g`oyalar, ularning antik dunyoga bo`lgan zo`r e’tiqodlari «Afina maktabi» devoriy suratlarida ifodasini topdi. Surat shu davr kishilarining yorqin kelajak haqida o`y va tasavvurlarini namoyon qiladi. Markazida idealistik va materialistik filosofiyaning otalari Platon va Aristotel’ tasvirlangan. Past tomonda, chapdagi zina oldida shogirdlari qurshovida, o`ng tomonda esa evklid va teparoqda Rafael’ o`zini tasvirlaydi. Hammasining hatti-harakatida yuksak ko`tarinkilik va yaratuvchanlik kayfiyati hukm suradi. Rafael’ishlangan devoriy suratlar ichida «Iliodorning qurilishi» kompozitsiyasi ham mashhurdir. Bu suratda ibodatxona boyliklarini o`g`irlamoqchi bo`lgan suriyalik harbiy qo`mondonni g`oyibdan paydo bo`lgan otliq va farishtalar jazolab, haydagan payti tasvirlangan. Bu syujetning tanlanishi tasodifiy emas. Italiyada og`ir kunlar boshlangan bir paytda cherkov boyliklarini qo`lga qurol olib himoya qilinishi majbur edi. Bu tasvir ham shu cherkov boyliklariga ko`z olaytirmaslikka chaqiruvchi asar sifatida yaratilgan bo`lib, shuning oldini olish va kimda kim unga ko`z olaytirsa, qattiq jazolanishini eslatib turishga mo`ljallangan edi. Rafael’ devoriy suratlar ishlashdan oldin, monumental-dekorativ rasmlar ustida ham ijod qildi, gilamlar uchun kartonlar ishladi. Bulardan, ayniqsa, apsotol Pyotr tarixiga ishlangan suratlar mashhurdir. Rassom dastgoh rang-tasvirida etuk portretlar yaratdi. Bulardan tashqari, Rafael’ Rimda bo`lgan kezlarida o`zining eng mashhur asari «Sikst madonnasi» (1515-1519) asarini yaratdi. Bu surat avliyo Sikst cherkovi uchun mo`ljallangan edi. Asar uchun afsonaviy voqea asos bo`lgan. Afsonalarga ko`ra, Bibi Maryam o`z farzandini dushmanga topshirib, erdagi odamlarni azob-uqubatlan qutqarishi mumkin bo`lgan. Rassom kompozitsiyasida Bibi Maryamning o`z farzandlarini dushman qo`liga topshirish uchun ketayotgan payti tasvirlangan.

Rafael’ ijodining so`nggi paytlari rang-barang. U rassomlik bilan birga, me’mor sifatida ham ijod qildi. U Bremente vafotidan keyin Avliyo Pyotr soborini qurish ishiga rahbarlik qildi, villa va cherkovlar uchun karton va chizmalar ishlashda, qalamda suratlar chizdi. Rafael’ 37 yoshida vafot etdi. Uning boshlagan ishlarini shogirdlari davom ettirdi. Lekin ular o`z asarlarida ustozlarni ijodigaxos bo`lgan chuqur g`oyaviy gumanistik mazmunni ochaolmadilar.

**Mikellanjelo Bounertti** (1475-1564). Uyg`onish davri kishilarning ideal inson to`g`risidagi tushunchalari buyuk ijodkor Mikellanjelo Bounertti ijodida o`zining to`liq vaatroflicha ifodasini topdi. Bu san’atkor qahramonlari insondagi butun ajoyib xislatlarni fazilatiga singdirib yuborgan kishilardir. U san’atning ko`p turlarida, jumladan, haykaltaroshlik, me’morlik, rassomlikda ijod qildi. Lekin u qaysi san’at turiga ijod etmasin, shakliy jihatdan tugal g`oyaviy jihatdan go`zal asarlar yarataoldi.

Mikellanjelo 70 yillik faoliyati davomida san’at maydonida davr ruhi bilan hamnafas asarlar yaratdi. Shu boisdan ham asarlarida davrning yuksak ideallari bilan qatorda, bu ideallarning inqirozga yuz tuta boshlaganligini ham juda nozik

his etgan holda ko`rsataoldi. Uyg`onish davri tugaganligini birinchi bo`lab, achinish va iztirob bilan e’tirof etdi.

Mikellanjelo 1475 yili 6 martda, Florentsiya yaqinidagi Kapreze shaharchasida dunyoga keldi. Uning yoshligi Florentsiyada o`tdi. Otasining qarshiligiga qaramay o`zini san’atga bag`ishlashga qaror qildi. 13 yoshida u florentsiyalik Domeniko Girlandiyo ustaxonasiga o`qishga kirdi. Uning qobiliyati va yuksak iste’dodi Florentsiya hokimi Lorentso Medichi diqqatini tortdi. Uni medichilar saroyi qoshidagi badiiy maktabga talabalikkaolishdi. Bu erda Mikellanjelo Donatello shogirdlaridan biri qo`liga ikki yil o`z bilim mahoratini oshirdi.

Saroyda yosh rassom antik dunyo san’ati namunalari bilan tanishdi, ulardan ko`chirmalar ishlashdi. Protorenessans va ilk uyg`onish davri san’atkorlari bilan, ayniqsa qahramonlik va tantanavorlik ruhi bilan, Jotto va Mazachcho devoriy suratlari bilan, Yakopo della Kverchi haykallari bilan qiziqdi, ularni o`rgandi. Saroyda bo`lib turadigan mashhur shoir, rassom, haykaltaroshlar, filosof va me’morlar yig`inlaridan voqif bo`lgan yosh san’atkor dunyoqarashi rivojlanadi.

«Zinaoldidagi madonna» (1492), «Kentavrlar jangi» (1494), san’atkorning marmardan ishlangan birinchi mustaqil asarlaridandir. 90-yillarning boshlarida yaratilgan bu bo`rtma tasvir (rel’ef) o`zining yuksak mahorat bilan ishlanganligi, tasvirlangan obrazning to`laqonligi, san’atkor tanlangan badiiy shakllarning rang-barangligi, ifodaliligi va kompozitsiyasining dinamikasi bilan kishida katta taasurot qoldiradi. Bu asarlarda san’atkor ijodigaantik san’atning ta’siri kuchli bo`lganligi seziladi. Bu ta’sir, ayniqsa uning Italiya shaharlari (Bolon’ya, Rim) bo`ylab qilgan sayohati davrida yaratilgan «Vakx haykali» (1498)da ham seziladi. Rimda yaratilgan «P’eta» («Isogaaza tutish» 1498-1501) haykali Mikellanjeloga haqiqiy shuhrat keltirdi. Isoga motam tutish mavzusiga bag`ishlangan bu fojiali dramatik kompozitsiya san’atkor chuqur va kechinmalar bilan to`ldirdi. Onaning cheksiz iztirob va qayg`usi uning quyi egilgan boshi, chap qo`lining ixtiyorsiz harakati hamdaxomush va mungli termulishi orqali ochishga muyassar bo`lgan. Mikellanjelo Isoning onasini xomysh qilib tasvirlaydi. Bu bilan rassom fojiali mavzuni optimastik ruhda tasvirlashga, obrazga ruhiy poklik va go`zallik kiritishgi, gumanistik ideallarning g`alaba qilishiga ishonch ruhi bilan qarashga harakat qilganligi ko`rinadi.

Mikellanjelo 1501 yili Florentsiyaga qaytadi. Shu erda shahar sovetining buyurtmasi bilan yaxlit marmardan o`zining mashhur «Dovud» haykali ustida ish boshlaydi va nihoyat, 1504 yili bu haykal Florentsiyaning bosh maydoniga o`rnatildi.

Zamondoshlari bu haykalni yuqori baholadilar va uni Florentsiya respublikasining himoyachisi, erkin vaozodlik ramzi sifatida qabul qildilar. Haqiqatdan ham, afsonaviy qahramon buyuk san’atkor uchun davr idealini ifodalashga juda qo`l keldi. Bu obrazlarga o`z vaqtida Donatello, Verokkoi murojaat qilishgan edi. Lekin, Mikellanjelo o`z qahramonning g`alabadan keyingi paytini emas, balki jangga tayyor turgan paytdagi holatini tasvirlash orqali uning gumanistik xarakterini yanada kuchaytirdi. San’atkor san’at tarixida birinchi bo`lib, butun kuchi bilan dushman hamlasiga qaqshatqich zarba berishga tayyor turgan jasorat, qudratli inson obrazini yaratish orqali o`z baxt-saodati uchun

kurashaoladigan, o`z kuch va imkoniyatlarini to`g`ri baholay oladigan inson obrazini yaratishga muyassar bo`ldi.

Mikellanjelo o`zini haykaltarosh deb hisoblar edi. Lekin rangtasvir san’atida ham o`z zamondoshlaridan o`zib ketdi va uning haqiqiy nodir namunalarini yaratib qoldirdi. Bu san’atda ham rassomning bosh qahramoni insondir. Uning jismoniy qudrati, aqliy barkamolligi va ma’naviy go`zalligi san’atkor ijodining bosh yo`nalishini belgilaydi. Bu g`oyani ifolashga esa san’atkor o`zigaxos monumental badiiy tildan juda o`rinli foydalandi. 1503-1504 yillarda yaratilgan yagona dastgoh asari bo`lgan «muqaddas oila» («Donni Madonnasi») kompozitsiyasida ishlatilgan yaxlit shakllar, obrazlarning haykaltarosh asari singari hajmli talqin etilishi uning mazmunini yanada chuqurlashishi va ta’sirchanligining ortishiga kattaahamiyatga ega bo`lgan. Bibi Maryam, Yusuf va Isoobrazlari uchun siymolar darajasiga ko`tarilgan.

Mikellanjelo Florentsiyaga bo`lgan kezlarda u «Kashinadagi jang» monumental rangtasvir ustida ish olib bordi, uning kartonini ishladi. Lekin 1505 yili papa Yuriy II buyurtmasiga binoan uning maqbarasi loyihasi ustida ish olib, boshlab bordi. Haybatli mavzoley loyihasining ustida tugatib, uni qirqqa yaqin haykal va bo`rtma tasvirlar bilan bezatmoqchi bo`ladi. O`z rejalarini amalgaoshirish va zarur materiallarni topish bilan band bo`lib yurgan kezlarida Yuliy II maqbarasi qurdirish fikridan qaytadi. Buni bilgan Mikellanjeloachchiqlanib, Florentsiyaga qaytib keldi. Yuliy II, bir necha marta undan qaytishni iltimos qildi, lekin Mikellanjelo unga rad javobini berdi. Faqat Florentsiya hukumati Rim bilan aloqasini buzmaslik maqsadida Mikellanjeloni Rimga qaytib borishga ko`ndiradi. 1508 yili Yuliy II Mikellanjeloni Vatikandagi Sikst kapelasining shifti va devorlarini suratlar bilan bezab berishni taklif qiladi. Mikellanjelo bu taklifni istar-istamas qabul qiladi. Bu buyurma ustida san’atkor to`rt yil tinimsiz mehnat qiladi (1508-1512). Dastlab shu yuzalarga mos tushadigan kompozitsiyalar ustida fikr yuritadi, devoriy suratlar texnologiyasi bilan tanishadi, «al’-Fresko»ning murakkab texnikasini o`rgandi, juda katta qalam-suratlar hamda kartonlar ishlaydi. Shundan so`ng devor va shift yuzlariga chizishga kirishadi. O`z qo`li bilan 600 kv ga yaqin yuzani suratlar bilan bezab chiqadi. Turli murakkab holatlarda turgan odamlar gavdasi tasviri shu yuzaga ishlangan suratlar kompozitsiyasini tashkil etdi. Uning 1513-1516 yillarda ishlangan «Zanjirband qul», «O`layotgan qul», «Ibrohim» haykallarida shu pessimistik kayfiyat seziladi. Bu haykallar Yuliy II vafotidan so`ng uning vorislari tomonidan berilgan buyurtma edi. Papa maqbarasiga qo`yish uchun mo`ljallangan bu haykallarda Uyg`onish davri ideallarining barbod bo`layotganligi, inson kurashda o`zini ojiz seza boshlayotganni bilinarli talqin etiladi va bu g`oya Mikellanjeloasarlarining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Mikellanjeloning yirik me’morlik asarlaridan biri Florentsiyadagi San Lorentso cherkoviga qo`shimcha qilib qurilgan medichilar kapellasi, unga ishlangan qabr toshi va haykallardir.

1534 yili Mikellanjelo butunlay Rimnga ko`chib keladi. Papa Pavel III buyurmasi sikst kapellasining mehrob devoriga «Qiyomat qoyim» (1534-1515) mavzusidagi rasm ishlaydi. Kompozitsiya markazida Isoning o`z gunohkor bandalarnini so`roq qilayotgani tasvirlangan.

Mikellanjelo Rimda ishlangan haykaltaroshlik haykallari sanoqli. Ularda haykaltaroshning birmuncha mungli kayfiyati o`z ifodasini topgan. Ijodkorning me’morlik iste’dodi Rimda birmuncha rivojlanadi. Bu erdaavliyo Pyotr soborini qurishda, shahar ansamllarnini rekonstruktsiya qilishda qatnashdi.

Mikellanjelo o`z davrida va o`zidan keyingi davr san’atkorlariga kuchli ta’sir qilaoldi.

XV asr o`rtalarida Venetsiya Uyg`onish davriga qadam qo`ydi. Konstantinopolning turklar tomonidan bosib olinishi Italiya shaharlaridaavvalgi savdo-sotiq ishlarining kamayishigaolib keldi. Lekin o`z qo`liga juda boylik to`plab olishga ulgurgan Venetsiya aristokratiyasi uzoq vaqt o`z mustaqilligini saqlab qolaolish imkoniyatiga muyassar bo`ldi. Sovet madaniyatida yuqori Uyg`onish davri printsiplari o`z ifodasini topdi. Bu erdaetuk me’mor, haykaltarosh rassomlar ijod qilib, Italiya obro`sini dunyoga taratdi. Me’mor Yakopo Sansonvino (1486-1579) tomonidan Venetsiyadaolib borilgan rekonstruktsiya ishlari shahar qiyofasini o`zgartirib yubordi va suv kanallari bilan uzviy bog`landi. Nihoyatda jimjimador va nafis avliyo marks (san Marko) kutubxonasi esa o`ziga yaqin bo`lgan maydonni yagonaansamlga birlashtirildi. Qo`ng`iroqxona, cherkov binolari shaharga qaytarilmas qiyofa baxsh etdi. Uyg`onish davrida Venetsiya, ayniqsa, rangtasvir borasida yuksaklikka erishdi, o`zining boy va rangdor kolorīti bilan mashhur bo`ldi. Ana shu san’atning shakllanish va rivojlanishida bellinilar oilasi muhim o`rinni egalladi. Bu oilaning kattasi YAkopo Bellini (1400-1470) tomonidan boshlangan yo`nalish-voqelikni tasvirlashda perspektiva imkoniyatlaridan foydalanib, odam qomatini ishlashdaanamatik e’tibor berish uning ikki o`g`li Jentile va Jovanni ijodidan davom ettirildi. Ayniqsa, uning kichik o`g`li Jovannim Bellini (1430-1516) ijodida Venetsiya san’atida Uyg`onish davri an’analar o`zining tugallangan ko`rinishiga erishdi. Jovanni bellini moybo`yoq texnikasidan foydalanib, rangtasvir jarangdorligiga erishdi. XVI asr venetsiyalik rassomlarning kolorit sohasidagi katta yutuqlarigaasos yaratdi. U o`z asarlari bilan yuqori Uyg`onish davri san’atining shakllanadigan katta ta’sir qildi va bu shakllanishda uning shogirdlari Jorjone va Titsian muhim o`rinni egalladi. Venetsiya rangtasviridagi ana shu xususiyatlar dastlab Jorjone deb nom olingan Jorjo Barbarelli Kastel’franko (1476-1510) ijodida ko`rina boshladi. Uning «YUfid» (1502), «Uxlayotgan Venera» (1508-1510) kabi mashhur asarlari voqelikni poetik talqin etish, chuqur lirik his-tuyg`uning mo`lligi bilan xaraterlanadi. Rassom o`z qahramonlarini ko`p holda tabiat qo`ynida tasvirlaydiki, sokin, osoyishta tabiat ko`rinishi, uning asarlariga poetik ruh kiritib, ta’sirchanligini oshiradi.

Uning manzara qismini, shuningdek, bir qator buyurtmalarini shogirdi **Titsian Vechello** (1487/90-1576) davom ettirdi va tugatdi. Titsian o`z ustozi boshlangan ishni davom ettirib, uning yuksak professional mahorati, rangning emotsional tomonidan to`liq foydalinshga intilishini chuqur gumanistik g`oyalar bilan to`ldirib, Venetsiya yuqori Uyg`onish davr san’atining etuk namunalarini yaratdi. Titsianning ilk asarlarida voqelikni xotirjamlik bilan idrok etishda, tanlangan tiplarning ko`rinishi hamda mavzusida Jorjening ta’sir seziladi. Lekin, Titsian obrazlari o`zining to`laqonligini, xushchaqchaqligi va hissiyotligi bilan farqlanib ham turadi. U o`z asarlarida ko`pincha qarama-qarshi xarakterlarni,

ularning ichki holati va kechinmalarini tasvirlaydi. Buni «Erdagi vaxayoliy muhabbat» (1514), «Kesari dinori» (1516) kabi asarlarida ko`rish mumkin. Titsian ijodining gullangan davrida mehrob uchun qator suratlar ishladi, portretlar chizdi. Ularda voqelikni to`laqonli vaatroflicha tasvirlashga intilish seziladi. Tasvirlanayotgan har bir aniq, tugal xarakterni ko`rsatishga intilish uning asarlaridagi hayotiylik kiritadi. 1530-1540 yillarga kelib, rassom asarlaridagi hayajon va dinamatik kompozitsiya o`rnini xotirjamlik, muvozanatli kompozitsiyalar egallay boshladi. Rassomning diniy va mifologik mavzularda ishlangan rasmlarida ham bevosita shahar hayoti lavhalari, konkret tiplar tasviri kiritildi.

Titsian butun ijodi davomida portret janrida ijod qildi. U o`z qahramonlarining xarakterini ochishda tasvirlanuvchining xatti-harakati, o`zini tutishi, mimik holatiga e'tibor beradi. «Qo`lqopli yigit portreti» (1520) daqisilgan lab, chaqnab turgan ko`z, oq va qora rangdagi kiyimlar konkret xarakterni chuqurlashtirib, aniq maqsadga intiluvchi, o`z imkoniyat va qadrini bilgan ishbilarmon, ziyrak inson qiyofasini gavdalantiradi. «Ippolita Riminal'di» (1540 yil oxiri)da esa tasvirlanuvchi obrazning qprpshida, oqargan yuzidan uning ichki hissiyoti – ikkilanish va hayron bo`lish kayfiyati ochiladi.

Titsian «Papa Pavel III o`z jiyanlari bilan» (1545-1546), «Karl V ning otda o`tirgan paytidagi portreti» (1548) asarlari ham o`zining realistik xarakteri bilan qimmatlidir.

XVI asr o`rtalaridan boshlab, Venetsiya respublikasida inqirozning boshlanishi, feodal – katolik boshlaydi. Titsian endilikdaodamlarning azob chekayotgan, qiynalayotgan paytlarini tasvirlanayotgan asarlar («Avliyo Larentiyni qiynash», «Tikanli chambar», «Avliyo Sebast'yan» va h.k) yarata boshladi. Rassom ijodiy uslubida ham o`zgarishlar sodir bo`lib, ranglardagi yorqinlik va jilvadolik o`rnini oqir, mungli, qaramtir ranglar egalladi. Lekin rassom o`z asralarida gumanistik ideallardan qaytmadi. U insonning imkoniyati, aql-zakovati, qudratiga ishonadi, umrining oxirigacha shular haqidaasarlar yaratadi. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Italiya san'ati va madaniyatidagi inqiroz kuchaygan davrlarda, Venetsiyaning ko`pgina rassomlari o`z ijodlarida Uyg`onish davri gumanistik printsiplariga sodiq qoldilar. Hayotni to`laqonli vaatroflicha tasvirlashga intilish ular ijodining asosini tashkil etdi.

**Veroneke** nomi bilan mashhur **Paolo Kal'yari** (1528-1588), Tintoretto nomi bilan mashhur bo`lgan Yakopo Robustilar (1518-1594) shu davr ichidaalohida o`rnini egallaydi. Ular Venetsiya maktabi an'analarini rivojlantirgan holda, uni mazmunan boyitadilar.

XV asr o`rtalaridan boshlab, Italiya shaharlarida paydo bo`la boshlagan maxsus o`quv yurtlari, akademiyalarining paydo bo`lishi va ularda me'morlikkaoid ta'limlarning o`tilishi muhim voqea bo`ldi. Bularning hammasi keyingi Evropa me'morlik taraqqiyotida o`zining ta'sirini ko`rsatdi.

**Jakomo Barotstsi da Vin'ola** (1507-1573). Bu davrdagi me'morlik binolarida bir tomondan qadimgi antika, ayniqsa Rim me'morligi ta'siri sezilsa, ikkinchi tomondan binolarning bezagigaortiqcha e'tibor berila boshlanganligi ko`zga tashlanadi. Me'morlikda birinchi namoyon bo`ldi. Vin'olaantika davri nazariyotchisi Vitruviy asarlarini o`qib, o`z davri qurilishlari tartibga solish va

uni ilmiy asosda yaratishga harakat qildi. Uning «besh me’morlik orderlar qoidasi» (1562) risolasi davrining muhim qo`llanmasi sifatida keng yoziladi. Vin’olaning ilk ijodi Bolon’yada boshlandi. Shu erda va Rimda bir qator binolar qurdi. Papa Yuliy II villasi, yozgi uyi (kazino), oval planidagi gumbazli oratoriya (xor aytish uchun mo`ljallangan bino) hamda ko`pgina fontanlar uning ijodiga mansub. Uning eng kattaasralaridan biri, kardinal Farneze uchun qurilgan besh qirrali, o`rtasidaaylana shaklidagi hovlisi bo`lgan Kaprarolda qasridir. Vin’olaning cherkovi sohasida yaratilgan binolari ichida Iso cherkovi (Il’ Jezu) mashhurdir. Bu binoda Vin’olaasosiy nefga e’tibor berib, uning yon tomonlarida uncha chuqur bo`lmagan kapellaplar hamda nef va transepti kesishga tepaga gumbaz ishlaydi.

**Andrea Palladish** (1518-1580) ham so`nggi Uyg`onish davrining yirik me’mori va nazariyotchisidir. Uning 1570 yilda nashr etilgan «Me’morlik to`g`risida to`rt risola» kitobidaantik me’morlik vaorderlar sistemasi haqida to`xtalib, ularni o`zgartirib bo`lmaydi, deb hisoblaydi. U o`z idealini antika me’morligida ko`rdi va shu idealni o`z ijodida qaytarishga harakat qildi. Me’mor bino uchun yaxlit, klassik normadagi shakllardan, qat’iy simmetriyadan foydalangan holda, ulardan dekorativ effekt topdi. U feodal saroylarni shahar uylarigaaylantiradi. Uning qurgan binolari shahar ansamblining ajralmas elementiga, ko`chalarning ajralmas qismigaaylandi. Palladioning Vichetsi yaqinidagi Rotonda villasi hamda Venetsiyadvgi San Jorjo marjone cherkovi xarakterli bo`lib, markazi qubbali kvadrat plandagi bu bino yuqori tsokol ustiga qurilgan va to`rt tomonidan keng ayvonlar mavjud. Binoning ulug`vor va sipo ko`rinishi tabiat bilan garmonik uyg`unlashgan. Palladio qurgan binolarning ulug`vor ko`rinishi, nisbatlarning go`zalligi, ishlatilgan shakllarning ifodaliligi keyingi Evropa san’atida, ayniqsa, Angliya va Rossi me’morligida klassitsizm printsiplarining shakllanishida muhim rol’ o`ynadi.

**Franchesko Matstsola** (1503-1540). Parmidjanino deb nom olgan parmalik rassom Matstsola ijodida man’erizm oqimigaxos bo`lgan xususiyatlar to`liq ifodasini topdi. U o`zining ilk asarlaridayoq (masalan, «Qavariq ko`zgu oldidagi avtoportret», (1527y.), «Atirgulli madonna» (1527)da shu fazilatlar ko`rina boshlanadi, rassom dastlab tomoshabinni o`zining ishlash uslubi va tasvirlanayotgan voqelikning hayratda qolaligan darajada bo`lishiga intiladi. Ishlangan madonnalarini ko`p hollarda kichik boshli, uzun bo`yinli, hayvon, g`ayri tabiiy hatti-harakatda tasvirlaydi, asar uchun yorqin, serjilo kolorit tanlaydi. Parmidjinino ijodiga bu xususiyatlar man’erizm oqimining rivojlanishi va yoyilishida katta ta’sir qildi.

**Jorjo Vazari** (1511-1574). Monumental-dekorativ rangtasvirdagi man’erizmning tipik vakili Vazari hisoblanadi. Uning asarlari o`zining obraz va detallarining haddan ortiq ko`pligi, kompozitsiyalarning birmuncha bo`sh ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Lekin Vazari san’at tarixida o`zining «Eng mashhur rassom, haykaltarosh va me’mor to`g`risida» degan kitobi bilan mashhur bo`lgan.

**Benvenuto Chellini** (1500-1571). Florentsiya man’erizmning yirik vakili, zargar va haykaltarosh Chellini hisoblanadi. U Florentsiya, Rim, Mantuyamda yashab, ijod etgan. Bir necha bor Frantsiyaga borgan va bu frantsuz san’atiga ham

o`z ta'sirini o`tkazgan.

Frantsuz san'atida paydo bo`lib kelayotgan bu yangi izlanishlar XVasrda Frantsiya markaziy oblastlardagi rassomlar ijodida ham sezilarli bo`ldi. Ayniqsa, Laur maktabining markazi bo`lgan Tur shahri san'ati Frantsiyaning janubi y va shimoliy provintsiyalaridagi san'at yutuqlari umumlashtirilib, yangi realistik san'at maktabi yaratildi. Bu maktabdaxos xususiyat yirik frantsuz rassomi Jan Fuke (tax. 1420-1477/78 yillar) ijodida namoyon bo`ldi. Fuke Niderlandiya va Italiya gumanistlari san'ati bilan yaxshi tanish edi. U bir necha yil Rimda yashagan, tillani o`zlashtirgan holda, o`zigaxos uslub yaratishga muyassar bo`ldi. Fuke ijodining o`zigaxos tomoni, uning portretlarida realizm namoyon bo`ladi. Rassom o`z qahramonlarini butun borlig`i bilan to`laqonli ifodalashga harakat qiladi. Uning qalami tugal, silueti aniq, kompozitsion tuzilishi qat'iy, koloriti esa yoqimli va jilvadordir. «Est'en sheval'e Stafan bilan» (tax. 1450 y.) asaridarassom ikki shaxsning xarakteri, o`ng qo`lini Est'en Sheval'eelkasiga qo`ygan avliyo Stefan va toat-ibodat qilayotgan Et'en obrazi hisobiga kompozitsiya echadi. Davrning yana bir etuk haykaltaroshi Jermen Pilan (1533-1590) ijodida Frantsuz renessansining gumanistik xarakteri bilan birga uning inqirozini ham ifolash imkoniyatini yaratdi. Pilon Fonteniblo maktabi vakillari va Gujon ta'sirida kamol topdi. Bu uning ilk ijodida yaqqol ko`rinadi. Lekin u keyinchalik xalq san'ati an'analarini o`zlashtirib, voqelikning to`laqonli realistik ko`rinishi ifodalashga, inson qomati plastikasining boy imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qildi. U voqelikning xayoliy qo`rinishi yuksak mahorat bilan tasvirlash orqali, har bir obrazning emotsional tomonini, ya'ni lirik, dramatik yoki g`amgin holatlarini aniq ifodalashga erishdi. Bu hol uning maqbaralar uchun ishlangan haykallarida (masalan, Valentina Bal'binning maqbarasi haykali), portretlarida namoyon bo`ladi.

Frantsuz portret san'atining yirik vakili kichik Jan Klue (tax.1485/86-1541) edi. U rangtasvir va qalam portretida ijod qildi. Ayniqsa, qalam tasvirdagi portretlari shu san'atning eng cho`qqisi hisoblanadi. Uning qalamsuralari o`zining plastik ifodaliligi vaxarakteristikasining yaqqoligi bilan ajralib turadi. Rassom ba'zan o`z portretlarida faqat boshning aniq tasvirini mayda detallari bilan tasvirlaydi, lekin bu uning obrazlaridagi hajmli ko`rish salobatini his etishga, tasvirlanuvchining xarakterini bilishgaxalaqit qilmaydi, balki uning yanada ta'sirchan bo`lishini ta'minlaydi. Graf d' Eten portreti shunday asarlaridan biridir.

**Katta Piter Braygel'** (tax. 1525-1564) XVI asr niderland rangtasvirining yirik namoyandalaridan bo`lib, uning ijodida niderlanl san'ati o`zining eng gullagan davrini namoyish etadi. Breygel' o`z ijodida o`zining avvalgi san'atkor zamondoshlarining rangtasvir san'ati borasida erishgan yutuqlarini umumlashtirgan holda uni yangi mazmun boyitdi. O`z davri ziddiyatlarni kundalik oddiy xalq hayotidan ko`rdi, o`z asarlaridaoddiy xalq, asosan, dehqonlar, kambag`allar, darvesh va daydilar tilamchilar hayotini ifodalaydi. Rassom hayot go`zalligini xalqning tinch mehnat faoliyatidagi, inson hayotining tabiat hayoti bilan uyg`unlashib ketishida ko`rdi. Ijodida shu printsiplarga sodiq qoldi.

Breygel' rassom sifatida o`z ijodini romanist Kuk van Al'st ustaxonasida boshladi. Italiya bo`ylab sayohatda bo`lib, antik san'atini o`rgandi. Bular uning

badiiy tasavvurini kengaytirdi, hayotga bo`lgan munosabatini yorqinlashtirdi. Uning qalam vaakvarelda inlangan ilk rassmlarida, ayniqsa, tabiat manzaralarini aks ettiruvchi suratlarida bu xususiyat tabiatni, hayotni yaxlit vaorganik butunlikda his etib, tasvirlay olinishini ko`rsatdi. Shu yillar (1650)da rassom allegorlik va satirik kompozitsiyalar ustida ishlaydi. Bu ishlarda Bosx ta’siri seziladi va bu xususiyat breygel’ning ilk rangtasvirlarida ham mavjud. Breygel’ ijodining gullagan davri 1560 yillarda – mamlakatda revolyutsion kayfiyatning yuksalayotgan paytida to`g`ri keladi. Shu yillarda u, bir tomondan tabiat qo`ynida zavqqa to`lib mehnat qilayotgan dehqonlar hayotiga bag`ishlangan va tabiat manzaralarini tasvirlaydigan suratlar chizsa («O`rim», «Dehqonlar o`yini»), ikkinchi tomondan, davrning fojiali voqealari o`z aksini topgan («Go`daklarni savalash») asarlar yaratdi. Rassom ijodidagi keyingi xususiyat uning so`ngi ijodida yanadaortadi. «Ko`rlar» (1568) deb nomlangan asari bir to`da ko`rlar boshlab borayotgan yo`lboshlovchisining yiqilishi qolganlarning ham uning ketidan yiqilishiga sabab bo`layotganini ko`rsatish orqali o`z taqdirini bilmagan, hayotda ko`r-ko`rona yashayotganlar fojiasi ramzigaaylandi. Breygel’ o`z ijodi bilan niderland rangtasvirining izlanishlariga yakun yasaydi. Shu bilan birga uning ijodi keyinchalik Ruben va Rembrandlarning ijodiga yo`l ochadi.

Davrning murakkab tarixiy mazmuni uning g`oyaviy yutuqlari buyuk nemis rassomi A.Dyurer (1471-1528) ijodida o`zining chuqur ifodasini topdi. U o`z ijodida nemis san’atida erishilgan yutuqlarga tayanib, uning yangi realistik yo`lini boshlab berdi. Dyurer Nyurenbergda zargar oilasida dunyoga keldi. U o`z otasidan zargarlik san’ati asoslarini egalladi, keyin taniqli mahalliy rassom Vol’gemut ustaxonasida to`rt yil (1486-1490) mobaynida o`z bilimini oshirdi. Germaniya, Italiya shaharlari bo`ylab sayohatda bo`ldi va o`z malakasini oshirdi. Ayniqsa, Italiya san’atiga qiziqib qaradi. Italiya rassomlarning tekis fazoviy kenglikni ko`rsataolish hamda yalang`och gavdani tasvirlash borasidagi mahoratlari Dyurerni juda yoshlikdan qiziqtirar edi. Shu maqsadda ularning asarlaridan ko`chirma nusxalar ishladi, o`zi ham Germaniyada birinchi bo`lib kiyimsiz ayol suratini chizdi, hayvon va qushlar rasmini ishladi. Ilk suratlarda kompozitsiyani fazoviy kenglikda tasvirlashga intilish ishlangan har bir obraz va detal’ shaklining tugal bo`lishi yo`lidagi harakati bilan uyg`unlashdi.

Dyurer portret san’tiga ham qiziqib qaradi. Portretlarida qaynoq qalbli, kuch qudratga to`la, shijoatli zamondoshlari obrazini yaratdi. Dyurer ijodida yog`och va metallda gravyura ishlash san’ati muhim o`rinni egallaydi. U o`z gravyuralaridaan’anaviy boyitaoldi. «Apokaliasis» (1498) deb nomlangan mashhur ksilografiya asarlari turkumi shu yillarda Germaniya hayotida hukm surgan cho`chish, ikkilanish va kurashish kayfiyati vaorzu-intilishlari ifodasi sifatida qabul qilingan edi. Bu asarlarida rassom asta-sekin gotika ta’siridan qutula boshlangan bo`lsa, uning misda ishlangan gravyularida bu tendentsiya yanadaaniq ko`rina boshlaydi. Rassom diniy mavzulardan uzoqlashib, har xil syujetlarga suratlar chiza boshladi. Rassom diniy mavzularidan uzoqlashib, har xil syujetlarga suratlar chiza boshlaydi. 1500 yillarda Dyurer ijodida burilish davri bo`ldi. Ilk asarlarigaxos bo`lgan hayajonli va bezovtalik kayfiyati o`rnini xotirjamlik va mutasablik egalay boshladi. Endilikda u nazariy masalalar bilan ham shug`ullana boshladi. Ideal inson gavdasi va yuzining nisbatlarini topish, uni

aniq geometrik konstruktsiya asosida ishlab chiqishga perspektiva ilmigi qiziqish ko`rina boshladi.

Rassomning bu izlanishlari uning rangtasvirlarida yaqqol seziladi. Dyurerning Venetsiyada bo`lishi (1506-1507) esa uning palitrasini birmuncha boyitdi. U o`z asarlarida nur va rang masalalariga e’tibor bera boshladi. Moybo`yoq texnikasida samarali mehnat qildi. Rassom ijodida sodir bo`lgan bu o`zgarishlar uning Venetsiyaga qaytgandan keyin ishlangan «Odam Ato va Momo Havo», «Bibi Maryamning g`oyib bo`lishi» kabi asarlarida ko`rinadi. Rassom gravyura murojaat qilib, qator nodir namunalarini («Avliyo Ieronim» 1514), «Otliq ajal vaajdaho» (1514), «Melanxoliya» (1514) yaratgan. Dyurer so`nggi ijodiga portretga ko`proq e’tibor beradi. Bu davrda rassom qalami va bo`yoqda qator portretlar ishlangan.

XVI asrda Germaniya san’atida Dyurer bilan bir qatorda Katta Lukas (1472-1558), Mattias Gryuneval’d (1460-1528) kabi yirik rassomlar ijod qildi. Bularning ijodida ham badiiy hayotda sodir bo`lgan izlanishlar kompozitsiyani real talqin etishga intilish, rangning emotsional tomonidan unumli foydalanishga harakat qilish o`z ifodasini topdi.

Nemis Uyg`onish davrining so`nggi yirik vakili Kichik Gans Gol’beyn (1497-1543) hisoblanadi. U monumental-dekorativ va dastgoh rangtasvir hamda gravyura san’atida ijod qildi. Lekin uning ijodiy fazilati ayniqsa, portret san’atida yaqqol namoyon bo`ldi. Gol’beyn portretlari o`zining tashqi effekti bilan diqqatini tortdi. Rassom tasvirlanuvchining kiyimlari, uni o`rab turgan muhit va undagi buyumlarning xarakteri va fakturasi yuksak mahorat bilan ko`rsatdi. Gol’beyn qalamsurat ustasi sifatida ham mashhur bo`lib dunyoning eng yaxshi qalamshkashlaridan biri hisoblanadi. Uning shu texnikada ishlangan portret va tematik suratlari chiziqlarining ifodaliligi hamda nur va soya orasidagi kurashning nafis tasviri bilan xarakterlanadi.

XVI asr o`rtalarida kelib, Germaniyada feodal reaktsiyasining g`alabasi nemis Uyg`onish davri san’atining ravnaqini to`xtatib qo`ydi.

## 13-Mavzu: XVII-XVIII asr G’arbiy Yevropa san’ati

**Reja:**

1. XVII asr san’atining o’ziga xos xususiyatlari va yo’ larishlari.
2. Bolonya akademiyasi.
3. XVII asr Gollandiya san’ati.
4. XVII asr Ispaniyaning buyuk rassomlari.
5. XVII asr Fransiya san’ati yo’nalishkari.

❖ **Darsning o`quv va tarbiyaviy maqsadi:** San’atning paydo bo’lishi, rivojlanishi, san’at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memor8chilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo’lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayonini o’rganishdan iborat. Shuningdek Jahon mamlakatlaridagi sanat ohalarining bir biridan farqli jihatlarini ham o’rganadi

❖ **Dars o’tish vositalari:** (Doska, plakat, fan yuzasidan manba va adabiyotlar, tarixiy ma’lumotlar, mavzu yuzasidan har xil testlar, kompyuter, jahon siyosiy xaritasi, izohli lug`atlar)

❖ **Dars o’tish usullari:** Takrorlash, suhbat va savol-javob (mavzuni o`zlashtirishni mustahkamlash), jonli muloqot o`tkazish, erkin fikrlash va so`zlashga o`rgangan holda fikr mulohazalarini bayon qildirish, buning uchun har bir talabaga o`tilgan mavzular, tayanch iboralardan savol tashlanadi. O`qituvchi va talabalar o`rtasida berilgan savollarni tahlil etish. Talabalarga San’atning paydo bo’lishi, rivojlanishi, san’at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memor8chilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo’lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayoni to’g’risida tushuncha berish. Tarqatma testlar asosida talabaning mavzuni qay darajada o`zlashtirganligini aniqlash. Talabalarni voqealarni tahlil etishga o`rgatish. Xarita bilan ishlashni talabalarga o`rgatish. Iboralarni izohlash va unga tahlil berish.

❖ Darsning xrono kartasi – **80 minut.**

❖ O’qituvchi dars davomida quyidagi ishlarni bajaradi

❖ Tashkiliy qism: xonaning tayyorgarligi, jihozlanishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati **– 2 minut**

❖ Hafta davomida bo`lgan yangiliklar-**5 minut**

❖ Yo`qlama- **5-minut**

❖ Dars yuzasidan talabalarni zarur adabiyotlar bilan tanishtirish**- 10 minut**

❖ Yangi mavzu bayoni – **50 minut**

❖ sinov savollar namunasi – **5 minut**

❖ Uyga vazifa berish – **3 minut**

## XVII-XVIII asr G’arbiy Yevropa san’ati

**Bernini.** Javanni Lorentso (1598-1680) – italiyalik arxitektor va xaykaltarosh. Otasi xaykaltarosh P. Berninidan ta’lim olgan. Bernini barokko uslubining yirik vakili, shu uslubda ko`p noyob haykaltaroshlik va arxitektura inshootlari yaratgan: Avliyo Petr sobori (Rim)dagi bronzadan qo`yilgan to`rt ustunli usti yopiq taxtiravon (1624-33) va soborning ichki bezakli soborning oldidagi kolonkalar, maydon markazidagi obelisk, har ikki tomonga simmetrik qurilgan fantan va boshqalar. Me’mor turar joyi binolarini ham yaratgan (Odeskal’ki saroyi, Rim). Bunday binolar qurish keyinchalik Evropa klassitsizmi davrida keng tarqalgan. Bernini haykallar ham yaratgan. U yaratgan haykallar jonligigi, serhashamligi bilan ko`zga tashlanadi. Masalan, 1623 yil yasagan «Davir», 1622-25 yillarda «Apollon va Dafna», «Muqaddas Terezaning jazavasi» nomli haykallar guruhi (1644-52) yillarda yaratilgan. Santa-Mariya cherkovi kapellasi ham Bernini tomonidan yaratilgan. U Rimni haykallar bilan bezashda katta xizmat qildi. Bernini yaratgan fantanlar (Barberini maydonidagi «Triton fantani» taxminan 1632-37 yillarda qurilgan: Navon maydonidagi «To`rt daryo fantani» 1648-51 va boshqalar. San’atkorning behad boy fantaziyasini namoish qildi. Bernini iste’dodining realistik jihatlari uning ajoyib rasmlarida, nafosatga to`la haykallarda yorqin ko`rinadi).

**Rembrandt.** Harmens van Reyn (1606-1669 yy.). Amsterdamda tug`ilgan –

golland rassomi. Tegirmonchi oilasida tug`ilgan. Leyden universitetida qisqa muddat o`qib (1620), shu erda mahalliy bir rassomdan 3-yil ta'lim oldi, 1623 yilda Amsterdamda badiiy ma'lumotini oshirdi. Ko` plab portretlar, moishiy kartina, manzara mifologik va tarixiy kartinalar avtori. Asarlari tematik boy. Avtor rangdan tabiat ko`rkini, inson asarlarida mehnatkash xalq hayoti lavhalari xayrxohlik bilan aks ettirilgan. 1625-31 yillarda Leydjenda yashab, avtoportretlar, o`ziga yaqin kishilar portretlarini ishlaydi, bularda izlanayotgani ko`zga yaqqol tashlanadi.

1632 yildan Amsterdamda yashagan, 30 yillarda yaratilgan asarlarida («Doktor Tyulpning anatomiya darsi»; 1632 yilda «Danaya»; 1636 yilda «Ermitajda») hayot nash'asi, kishilarning kayfiyati katta mahorat bilan ifodalangan. 40-yillarda Rembrandt, realizmi, demokratikligi, erkin intilishlari demokratik an'analardan uzoqlashgan golland burjuasiyasi talabliga zid keladi, ayniqsa vatanparvarlik kayfiyati aks etgan, xalqning milliy ozodlik xarakatini eslatuvchi «Tungi bozor» kartinasi (1624 y. chizilgan)dan keyin ziddiyat kuchayada. 40-50 yillardagi kartinalarida chuqur ichki kechinmalar («David va Ioanfan» 1642 yil), 1654 yil «Virsayaviya» mehnat ahlining ko`rki, oddiy mehnatkashlarning ma'naviy boyligi 1645 yilda «Muqaddas oila»; 1656 yilda «Kassel'», tabiat ko`rki temasida; 1643 yilda, «Uch daraxt»; 1651 yilda «Oltin o`lchovgining qo`rg`oni» jozibador aks ettirilgan.

60 yillarda og`ir sharoitda ijod qilgan Rembrandt 1657-58 yillarda qarz evaziga mulki sotiladi, 1668-yilda «Yahudiy kelini»; 1668-69 yillarda «Adashgan o`g`ilning qaytishi» kabi asarlarini qarama-qarshi kayfiyatlar ta'sirida yaratgan. Rembrandt golland rassomlariga va jahon realistik rassomlik rivojiga kuchli ta'sir ko`rsatgan.

**Gabriel-Jak Anj** (1698-1782 Parij) frantsuz arxitektori. 1742 yilda Frantsiya qiroligining birinchi arxitektori va Arxitektura akademiyasining prezidenti XVIII asr klassitsizm asoschilaridan uning loyihasi asosida qurilgan inshoot va binolar ko`rkamligi va ixchamligi bilan ajralib turadi. Versaldagi kichik Trianon (1762-64) Parijdagi hozirgi Totuvlik maydoni (1753-75) va boshqalar shu arxitektor loyihasi bilan barpo etilgan.

**Vatto Antuan** (1684-172?) frantsuz rassomi XVIII asrda frantsuz realistik san'atining asoschilaridan biri. Parijda teatr rassomi K. Jillo va naqqosh K. Ordan ustaxonasida ta'lim olgan (1702). Dastlabki asarlari – «Bivuak», «Urush mashaqqatlari», «Jangdan so`ng hordiq» sayoq rassomning quzatuvchanligi, realikka intilishi sezilib turardi. 1710-yilga kelib rassom «Tsitere oroliga safar», «Bog`dagi jamoa», «Izhori muhabbat mushkulligi», «Italiya komediyasi» va boshqa asarlarini moviy samo, nafis va go`zal bog`-o`rmon manzaralari g`oyatda yoqimli, ta'sirchan qilib ifodalangan.

**Geynsboro-Tomas** (1727-88) inglis rassomi, Angliyaning XVIII asrdagi eng yirik portretchasi. Ijodini peyzajdan boshlangan, 1748 yilda «Kornard o`rmoni»ni yaratdi. Geynsboro asrlari insondagi fazilatlarini, nozik tuyg`ularni shoirona ifodalash bilan xarakterlanadi. Ayniqsa bolalar va ayollarning obrazlari jozibali yaratilgan. 1770 yilda «Ko`k kiyimli bola»; 1784-85 yilda «Sara Siddons portreti»; 1755-56 yilda «Qizlarning portretlari» yaratdi. 1785-86 yilda «Tonggi sayr» asarini ijodining gullagan davriga oid asarlarida san'tkor mo`yqalamining

engil va erkin tortilishi, bo`yoqlarning nozik va rang-barangligi ko`zga tashlanadi. Dehqonlar hayotini ifodalovchi dilbaro peyzajlar ham ishlagan. Masalan, 1786 yilda «Bozorga ketayotgan arava» va boshqalarni yaratgan.

**Fal'kone-Et'eni Moris** (Parijda tug`ilgan va olamdan o`tgan) frantsuz haykaltaroshi. Ilk klassitsizmning yirik vakillaridan. Mifologik mazmundagi haykallari bilan mashhur 1751 yilda «Cho`milayotgan ayol»; 1763 yilda «Pigmalion»; 1771 yilda «Qish» asarlarini yaratdi, Ermitajda saqalanayapti. 1757-66 yillarda Parij yaqinidagi Sevr chinni manufakturasida haykaltaroshlik ustaxonasiga boshchilik qilgan, chinni haykallar, badiiy buyumlar uchun ko`p sonli modellar tayyorlab bergan. 1766-78 yillarda Peterburgda yashab, Petr I-chining mashhur haykalini yaratgan (1766-82). Senat maydonida o`rnatilgan chavandoz – Buyuk Petr obrazida rus davlatining qudratini, Pyotrning kuchli irodasini realistik ta'sirchan gavdalantirgan.

Barokko («ital-jimjimador») XVI asrning II yarmida Evropada paydo bo`lgan me'morlik, haykaltaroshlik va tasviriy san'at uslubi. Asosan XVII asr va XVIII asrning I yarmida dastlabyu Italiyada, so`ng Ispaniyada, Frantsiya, Germaniyada taraqiy etgan. Barokko absolyutizm davridagi dvoryanlar madaniyati zaminida. Uyg`onish davri va man'erizm san'ati o`rniga kelgan. Barokko nazariyotchilari go`zallikni qandaydir ideal kategoriya deb, u tabiat nuhsonlarini kuzatishga, tabiatni qo`rkamlashtirishga xizmat qilishi kerak, deb qaraganlar. Barokko asarlarida ulug`vorlik, zo`r hiyajon, keskin dramatik ruh, murakkab his tuyg`ullar ifodalanadi. SHu bilan birga, Uyg`onish davrining insonparvarlik, gumanistik ideallaridan uzoqlashish va gotika san'ati va me'morchiligining ba'zi xususiyatlariga intilish sezaladi. Barokko oldin me'morchilikda o`z ifodasini topdi. Barokko uslubida imorat va ansambllar kurgan K. Maderni, L. Bernini, F. Borromini singari atoqli ital'yan me'morlarning asarlari o`z ulug`ligi arxitektura shakllarning etik, uynoqi va jimjimadorligi, serbezakligi bilan ajralib turadi.

Rimdagi avliyo Petr ibodatxonasining oldidagi maydoni Sakt Andreal' Kvirinale ibodatxonasi (L. Bernini). Barokko faqat alohida binolardagina emas, balki katta saroy va bog` ansambllarida ham keng qo`llaniladi. Barokko xususiyatlari binolarning tashqarisi va ichini bezatuvchi rassomlik va haykaltaroshlik asarlarida ham namoyon bo`ladi., murakkab, ortiqcha detallar bilan to`lgan kompozitsiyali, qayonoq, hayajonli hislar, serharakat ko`rinishlarni bayon etuvchi rasmlar ko`pincha binoning shipi, gumbazining ichki tomoni yoki devoriga ishlangan bo`lib, fazoning bepoyonligini ishonarli va tabiiy ifodalaydi.

Rokoko (Frantsuzchi), rokayl' – XVIII asr Evropa plastik san'atida uslubiy yo`nalish chiziqlari chinaqqa o`xshatib, gajjaksimon ishlangan naqsh motivi Saroy aristokratiyasi madaniyati bilan bog`liq bo`lib, dastlab Frantsiyada absolyutizm inqirozi munosabati bilan vujudga kelgan, keyinchalik Germaniya, Avstriya va boshqa mamalakatlarga tarqalgan. Rokoko arxitekturada bino inter'erlarini bezashda keng qo`llanildi. Bino ichidagi buyumlar (mebel, oyna, Ponollarning romlari), eshik va deraza ustalariga kartush  Rokoko naqshi bilan ishlandi, ayniqsa amaliy bezak san'atida, buyum, qurol, idish bezaklarida keng qo`llanildi. Suvab, chizib naqsh ishlovchi naqqoshlar, zargarlar, metallar qo`yib idish, buyum, qurol ishlovchi hunarmandlar orasida kengtaralardi. YUzaki bezak

xarakteriga ega bo`lgan rokoko binolarning umumiy kompoziyatsiyasiga, tashqi qiyofasiga ta’sir etmadi, ansamblllarda o`z qoldirmadi. Faqat metal yoki yog`och panjlarda ma’lum qiyofa qasb etdi. (Arxitektorlar: Frantsiyada – Rokoko uslubida, Dekoti 1656-1735, J.M. Oppekor 1672-1742). Rassomchilik, haykaltaroshlik, grafikada ijtimoiy-hayotga beparvolik sezildi, yuzaki, hashamdor obrazlar yaratildi. XVIII asrning 60-yillaridan boshlab burjua marifatparvarlik g`oyani taraqatilishi va aristokratlar madaniyatining umumiy tushkunligi oqibatida Rokoko Evropada o`z o`rnini klassitsizmga bushatib berdi.

**Klassitsizm** – (lat-namunaviy) XVII-XIX asrlarda Frantsiyada keyinroq Evropaning boshqa mamlakatlarida san’at va badiiy adabiyotda maydonga kelgan oqim. Antik dunyo san’ati va badiiy adabiyotini qizg`in o`rganish natijasida, shuningdek o`z zamonasining ijtimoiy hamda estetik galabalariga javob tariqasida vujudga kelgan. Klassitsizm murakkab, ziddiyatli hodisa bo`lib, umuman, jahon san’ati tarixida progressiv rol’ o`ynadi. Klassitsizm antik dunyoning yangi va keng shuhrat qozongan asrlari (aristotelning ilmiy ishlari va Goratsiy she’riyati)ni klassika darajasiga to`g`ri keladi.

Klassitsizm adabiyot, ijtimoiy hayot taraqqiyoti talabalari bilan kattaq aloqada bo`lishini taqozo etdi va shu bilan uning adabiyot hamda san’at (ayniqsa teatr)ning o`z zamonasi ilg`or pozitsiyasida turib rivojlanishiga xizmat qildi.

Klassitsizm kurtaklari dastlab Italiyada Palladio, Vin’ola va boshqalar ijodida shaklandi. Ular o`zlarining ijodida antiq davr va uyg`onish davri badiiy merosini qat’iy sistemaga solishga harakat qildilar. Klassitsizmning keyingi rivoji XVII asrning boshlarida Frantsiyada qaror topdi. Antiq va renessans san’atining mavzu va obrazdan keng foydalangan. Klassitsizm namoyandalari haykallaroda qiyofa aniqligini rasmlarda kompozitsion ham-ohanlikni kuchaytirishga intildilar. Rassom va nazariyachi N.Pussen g`oyaviy va shakliy uyg`unlashgan salmoqdor asarlari bilan Klassitsizmning mashhur namoyandasi bo`ldi. XVII asr frantsuz arxitektorlari F.Mansar, F.Flondel’ va boshqalar mantiqiy uyg`unlashgan kompozitsiyali qat’iy proportsiya va aniq geometrik shakldan iborat tarixiy binolar yaratdilar (mas. Vnrsal’ ansambli).

Tasviriy san’atda Klassitsizm Barokkoga, XVIII asrdan esa Rokoko san’atiga qarshi kurashda rivojlandi. Tasvirlar garmonik, jozibador, ulug`vor, tantanali bo`lishiga ahamiyat berilib, obrazlar hashamatli qiyofada va shakllarda ifodalanadi. Kartinalarda voqea ishtirokchilari birinchi plandagilar bilan yonma-yon ko`rsatildi. Frantsiyada Klassitsizm XVII asrning 1-chi yarmida to`la shakllandi, keyingi Evropa mamlakatlarida tarqaldi. XVIII asrning 2-chi yarmida, XIX asrning boshlarida hukmron uslubga aylandi. (Frantsiyada rassom David, Germaniyada rassomlardan Tishbeynlar, Ments, haykaltarosh SHadov, Italiyada haykaltarosh Karova) hisoblanadi. Teatr san’atida Klassitsizmning yuzaga kelishi frantsuz aktyorlari Mondori va Floridor faoliyati bilan bog`liq. Rasin davrida shogirdlari Dyupark va SHamele ijodida uslub sifatida poyoniga etdi. Klassitsizm spektalkllarida tarixiy konkretlik etishmagan, zamonaviy qahramonlar antik dunyo qahramonlari qiyofasida talqin qilingan.

**David Jak Lui** (1748 Parij – 1828 Bryussel’) – rantsuz rassomi Klassitsizmning etakchi namoyandasi. Parij va Rimda o`qigan (1778-1780) «Goratsiylar qasamyodi» (1784), «Liktorlar Brutaga uning o`g`li jasadini

keltirmoqdalar» (1789) kabi qadimgi dunyo afsonalariga bag`ishlangan kartinalari, «A.Lavuaz’e bilan xotini» portreti (1788), «Konvent a’zosi B.Barer minbarda» (1793-1798 yy.) kabi realistik portretlari mashhurdir. U Frantsuz burjua revolyutsiyasi yillarida Lavrda milliy muzey tashkil qildi, revolyutsion ruhda asarlar yaratdi. «Koptok o`ynaydigan zalda qasamyod», «Maratning o`limi» 1783 y. Biroq David keyinchalik realistik san’atdan uzoqlashdi va Napaleonga bag`ishlab, ko`rinishda yoqimli, tantanavor asarlar yaratdi. Keyingi asarlari bilan frantsuz akademiyasining etakchi namoyandasiga aylandi. Burbonlar hokimiyati tiklangach, David Bryusselga keldi (1816). U A.Gro, Engr, F.J.Navez kabi frantsuz rassomlarining ustozi bo`lgan.

**Goyya Frantsisko Xose de** (1746-1828) – ispan rassomi Madrid badiiy akademiyasining a’zosi. (1780) saroy rassomi (1789) qirolning bosh rassomi (1789). Italiyada o`qib (1769-1771), 1773 yildan Madridda yashagan. Madriddagi San-Antonio de la Florida cherkoviga ishlangan rasmlarida (1798) an’anaviy diniy motivlarni hayotish ko`rinishlar tarzida yorqin ifodalagan. Zamondoshlarining tipik obrazlarini yaratib (Markazi Solan portreti 1792 y., rassom F.Bayets portreti 1792, gertsoginya Al’ba portreti 1800). Qirol oilasida o`zining ulkan ist’edodini namoyish etdi. 1794 y. «Inkvizitsiya tribunali» asari davrining eng muhim tarixiy voqealari (jumladan, Napaleon yurishlari)ni yorqin ifodalab xalqlarning ozodlik uchun kurashini ularga xayrixohlik bilan aks ettirdi (1810 y. «2-3 mayga o`tar kechasidagi otish», «Urush ofatlari» 1810-1820), zulmga qarshi noroziligini ifodaladi.

**Delakrua Ejen** (1798-1863) – frantsuz rassomi, tasviriy san’atda progressiv romantizmning yirik vakili. Parij nafis san’at maktabida o`qidi (1816-1822). Dastlabki yirik kartinalari («Dante va Vergiliy» 1822, «Xiosdagi qirg`in»). 1830 y. revolyutsiyasi aks etgan. «Erkinlik barrikadasida» yoki «1830 yilning 28-iyuli» kartinasida ommani kurashga chorladi. Marokash va Jazoirga sayohat qilib (1832), «Jazoir ayollari» 1834, 1839 y. «Marokashda yahudiy to`yi», 1854 y. «Marokashda sher ovi». Bu asarlarda Shimoliy Afrika xalqlari hayotini realistik aks ettirdi. 1830 y. «Puat’e jangi», 1831 y. «Nan’si jangi», 1840-1841 yillarda «Konstantinopolni salibchilar ishg`ol etishi» kabi asarlarida qirg`inlarni, xalq boshiga tushgan ofatlarni ko`rsatdi. Uning eng yaxshi asarlari obrazlarining yorqinliligi, erksevarlik g`oyasi bilan realistik san’at rivojida katta ahamiyatga ega bo`ldi.

## 14-Mavzu: XIX asr oxiri va XX asr san’ati.

### Reja:

1. XIX asrda Angliya san’ati
2. XIX asrda Ispaniya san’ati
3. XIX asrda Frantsiya san’atining rivojlanishi
4. XIX asrda Germaniya san’ati
5. XVIII asr oxiri va XIX asrda AQSH san’ati
6. XIX asr o`rtalari va 2-yarmida AQSH san’ati

❖ **Darsning o`quv va tarbiyaviy maqsadi:** San'atning paydo bo'lishi, rivojlanishi, san'at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memor8chilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo'lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayonini  o'rganishdan iborat. Shuningdek Jahon mamlakatlaridagi sanat ohalarining bir biridan farqli jihatlarini ham o'rganadi

❖ **Dars o'tish vositalari:** (Doska, plakat, fan yuzasidan manba va adabiyotlar, tarixiy ma'lumotlar, mavzu yuzasidan har xil testlar, kompyuter, jahon siyosiy xaritasi, izohli lug`atlar)

❖ **Dars o'tish usullari:** Takrorlash, suhbat va savol-javob (mavzuni o`zlashtirishni mustahkamlash), jonli muloqot o`tkazish, erkin fikrlash va so`zlashga o`rgangan holda fikr mulohazalarini bayon qildirish, buning uchun har bir talabaga o`tilgan mavzular, tayanch iboralardan savol tashlanadi. O`qituvchi va talabalar o`rtasida berilgan savollarni tahlil etish. Talabalarga San'atning paydo bo'lishi, rivojlanishi, san'at turlari va ularning tgaraqqiyot bosqichlari, memor8chilik, haykaltaroshlik, rassomlik, minatura kabi sohalarining paydo bo'lishidan to hozirga qadar riojxlanish jarayoni to'g'risida tushuncha berish. Tarqatma testlar asosida talabaning mavzuni qay darajada o`zlashtirganligini aniqlash. Talabalarni voqealarni tahlil etishga o`rgatish. Xarita bilan ishlashni talabalarga o`rgatish. Iboralarni izohlash va unga tahlil berish.

❖ Darsning xrono kartasi – **80 minut.**

❖ O'qituvchi dars davomida quyidagi ishlarni bajaradi

❖ Tashkiliy qism: xonaning tayyorgarligi, jihozlanishi, sanitariya holati. Talabalarning davomati **– 2 minut**

❖ Hafta davomida bo`lgan yangiliklar-**5 minut**

❖ Yo`qlama- **5-minut**

❖ Dars yuzasidan talabalarni zarur adabiyotlar bilan tanishtirish- **10 minut**

❖ Yangi mavzu bayoni – **50 minut**

❖ sinov savollar namunasi – **5 minut**

❖ Uyga vazifa berish – **3 minut**

**GogenPol' EjenAnri**frantsuzrassomi (1848-1903 yiljuy. in. hilga) 1875 yildanrasomliknimustaqilo`rgangan. Dastlabimpressionizm, 1886 yildansimvolizmta'siridabo`lgan. (1887 y.) MartinikaorqaliArl' shahrida (1888, GogVanbilanhamkorlikda), Taiti (1891-93 va 1895-1901) vaMarkazorollaridayashabijodetgan. Gogeno`zasarlaridapolineziyaliklarningpatriarxat (qadimiy) hayotiniburjuamadaniyatigaqarama-qarshiqo`yib, unietikidilliya (tinchvaosoyishtaturmushyokiuningshe'riyofodasi) sifatidaaksettiradi «Arldagikafe» 1888, A.S. Pushkinnomidagitasviriysan'atmuzeyi, Moskva; «taitirastorali» 1893, Ermitaj, Leningrad. «Sonramukqilasanmi?» «Qirolningxotini» (1892, 1896, harikkalasihamA.S. Pushkinnomidagitasviriysan'atmuzeyidaMoskva) kabiengyaxshikartillridahayotiyobrazlaryaratdi, erlixalqtaqdirigaxayrixohlikbildirdi. BuholGogenbilanmustamlakachima'murlaro`rtasidaziddiyatkeltiribchiqardi.

**MatissAnriEmil’ Benua** 1869 yilLeKatoPikardiadatug`ilib 1954 yiliSil’yozdaolamdano`tgan. Frantsuzrassomineoimpressionizmta’siridaijodqilgan. XXasrboshlaridafrantsuztasviriysan’atidavujudgakelganfevizm («Yovvoyilar») oqiminingyiriknamoyandasidir. Matissning «Qizilxona (1908)», «Raqs», «Musiqa» (1910), «Oilaviyportret» (1911 Ermitajda), «Rassomningustaxonasi», «Qizilbaliqchalar» (1911 Pushkinnomidagitasviriysan’atmuzeyi, Moskva), «Musiqadarsi» (1916-1917 Zamonaviysan’atmuzeyida – N’yuYork) kabiasarlarirassomningnovatorligidandalolatbersada, umumanformalistikxaraktergaega. Matisso`zijodidadavrningmuhimvoqealariniaksettiradi, lekinhayotshavqini, ko`zniquvontiradigannarsalarniifodaladi. Matissgravyura, litografiyahaykaltaroshlikbilanshug`ullangan. Frantsuzziyolilarningprogressivdoirasigamansubbo`lganMatisstinchlikuchunfaolkurashadiganlardanedi.

**PabloPikasso** (1881 y. Ispaniyadadunyogakelganva 1973 y. Frantsiyadaolamdano`tgan), frantsuzrassomi. 1944 y. FrantsiyaKPa’zosi, 1907 yildankeyinuzoqlashib, geometrikrasmlarishladi, kubizmningasoschilaridanbiribo`ldi. 1918 yildanneoklassitsizm, 1925 yildansyurrealizm, 1929 yildansan’atta’siridabo`ldi. 1918 yildanneoklassitsizm, 1925 yildansyurrealizm, 1929 yildanabstraktsan’atta’siridabo`ldi. Ispanxalqiningfashizmgaqarshi (1936-1939)daPabloaktivqatnagdivaxalqningyirikarboblaridanbirigaaylandi. Fashizmgaqarshig`azabiifodalangan «Gernika» pannosi (1933 y. N’yu-YorkZamonaviysan’atmuzeyi) ijodiyizlanishlarningcho`qqisibo`ldi. Frantsiyanifashistlarokupatsiyaqilgandavr (1940-1944)daPabloqarshilikko`rsatishharakatidaqatnashdi. Urushdankeyingiyillardautinchlikvademokratiyauchunkurashchilarsafidabo`ldi. BuyiilardaPablo «Rassomvamodnl’», «Kardio» kabikartinalarniyaratdi. Uishlagan «Tinchlikkabutari» rasmitinchlikuchunkurashchilaremblemasigaaylandi. Pabloningko`pqirraliijodiXXasrsan’atidagiqarama-qarshiliklarnio`zidaifodaladi, san’atrivojigakuchlita’sirko`rsatdi. Pablo 1950 yildanJahonTinchlikKengashininga’zosi, XalqaroTinchlikmukofoti (1950), «Xalqlaro`rtasidatinchliknimustahkamlashuchun» xalqaromukofotlaureati (1962).

## XIXasrBel’giyasan’ati

XVIIIasrdaBel’giyasan’atidabarokkoan’analariqismansaqlansahamungaFrantsiyavaAvstriyaorqaliklassitsizmprintsiplarita’siretadi. Arxitektorlar: YA.P.Baursxeydt, L.B.Devez, haykaltaroshlarL.Del’vo, J.L.Godcharl’, rassomA.Lensvaboshqalar. XIXasrdaBel’giyaningmilliysan’atishakllandi. Demokratikrealizmtarafdolari 1868 yilda «Erkinnafissan’atjamiyati»gabirlashdilar. YirikrealistK.Men’eshudavrdaijodqildi. XIXasroxiridaBel’giyaarxitekturasidagi «Modern» uslubiningvatanibo`libqoldi. Ikkinchijahonurushidankeyinuy-joybinolari, transportvasan’atkorxonalari, jamoatchilikbinolariqurilishidazamonaviyarxitekturaprintsiplariamalgaoshdi. XXasrdanBel’giyasan’atidaabstraktsan’atvasyurrealizmasosiyo`rinoldi.

K.Permer, R.Vautere, E.Teytganasarlaridamilliyan’analarsub’ektivtalqinetilgan. K.Peyzer, P.Polyus, R.Somvilkartinalaridainsonparvarlikvatinchlikmavzulariifodalangan.

## 15-Mavzu: XX asrning o’rtalarida G’arbiy Yevropa san’ati.

### Reja:

1. XIX asr oxirida G`arbiy Evropa san’ati.
2. XX asrning o`rtalarida G`arbiy Evropa san’ati.
3. Sovet davri san’ati.
4. XX asr oxirida (1991) O`zbekistonning mustaqillikka erishishi va milliy san’at an’analarining tiklanishi.

### XIX-XX asrlarda chet el san’ati tarixi

Ipmressionizm – (taassurot) XIX asrning ikkinchi yarmida kirib kelgan. XX asrning boshlarida san’at va badiiy adabiyotlaridagi oqim hisoblanadi. Frantsuz rassomlik san’ati 1860-yillar oxiri va 1870 yillarning boshlarida vujudga kelgan.

K.Menening 1872 yilda yaratgan asarni Ipmressionizm ta’sirida yaratilgan edi. Bular «Taassurot», «Chiqayotgan quyosh» kartinalari yangi oqimning paydo bo`lishiga asos bo`ldi. Ipmressionizm klassitsizm, romantizm va akademizm qobig`ini yorib chiqish uchun kurashdi, kundalik hayot ko`rkini jonli aks ettirishga intildi, hayot manzaralarini, ilk taassurotlarini bo`yoqlar jilvasi bilan ko`rsatdi, olamni, inson bilan muhitni o`zgarishda ularni o`zaro aloqada yaxlit ifodaladi. Ipmressionist rassomlar (K.Mone, O.Rentsar, Dega, Pissaro, Morizo va boshqalardir). Hayotda tasodifan ko`zga tashlanadigan, o`tkir ko`z bilan ilg`ab olingan manzaralarni aks ettirib, asarda izchil bayondan voz kechdilar. Ipmressionistlar zamonaviy shahar hayotiga ko`p qirrali ko`rinishlarini birinchi bo`lib yaratdilar, shahar manzarasi va kishilari qiyofasiga o`ziga xos jihatlarini ko`rsatdilar. Lekin mehnat jarayoni ifodalanmadi, ijtimoiy ruhdagi tanqid susaytirildi. 1880-yillar o`rtalarida Ipmressionizm oqim sifatida barham topa boshladi, uning o`rnini keo ipmressionizm egalladi. Barbizon maktabi frantsuz realistik peyzaj ustalari guruhi (XIX asrning 30-60 yillari) Parijning janubiy-sharqida o`rmon yaqinidagi Barbizon qishlog`i nomidan olingan. Ko`zga ko`ringan rassomlar shu erda uzoq davr ishlangan. Barbizon maktabi-demokratik harakatlar kuchayib, milliy realistik san’at tarkib topayotgan, akademik va romantik maktablar inqirozga uchrayotgan vaqtda paydo bo`ldi. Uning asoschisi Teodor Russodir. Barbizonchilar o`z realistik peyzaj kartinalarini XVII asrda Gollandiyada, XIX asrda ingliz va ayniqsa, XVIII asr va XIX asrning boshlaridagi frantsuz peyzajchi rassomlari J.Mishel’ va romantizm maktabining ilg`or vakili T.Jeriko, E.Delakruaning an’analariga suyangan holda asarlar yaratdilar.

**Kurbe Gyustav** (1817-1877) – frantsuz rassomi. Dastlabki asarlari avtoportretlaridayoq (1842-1846) realizmga moyilligi ko`rinadi. 1848 y. Kurberning Bel’giya va Gollandiyaga borib, Frans Gal’s va Rembrandt bilan

uchrashuvi ijodida muhim ahamiyatga ega bo`ldi. 1848-1849 yillardagi revolyutsiyasi, ayniqsa, Parij Kommunasi Kurbe ijodida katta ta’sir etdi. 1844 y. «Arg`imchoq», 1849 y. «Tosh maydalovchilar», 1853 y. «Cho`milayotgan ayollar», 1854 y. «Uchrashuv» kartinalarida hayotni real tasvirladi. Kurbe «Realizmgina san’atni insonga xizmat qildira oladi» dedi va o`z asarlarida mehnatkash insonni ulug`ladi. Kurbe 1871 y. Parij Kommunasining arboblaridan biri bo`ldi. Kommuna mag`lubiyatga uchragach, qamoqqa olindi, lekin 1873 y. Shveytsariyaga qochishga muvaffaq bo`ldi. Kurbe ajoyib manzarachi rassom sifatida ham san’at tarixida iz qoldirdi. 1866 y. «Ohular qarorgohi», 1870 y. «Dengizning Bretane sohillari», «To`lqin». Kurbe portretlar ham chizgan. Bulardan 1878 y. «Bute yurt» portreti misol bo`la oladi.

**Koro-Kamil** (1796-1875) – frantsuz manzarachi rassomi. Akademizm an’analaridagi manzaralar (masalan: 1845 y. «Gomer va cho`ponlar») bilan bir qatorda akademizm uslubidan uzoqlashib, Italiya va Frantsiya tabiatini gavdalantiruvchi bir qancha kartinalar yaratgan. Masalan, 1826 y. «Kolizeyning ko`rinishi», 1830 y. «Shartr sobori», 1834 y. «Venetsiya tongi», «Shimol xuruji», «Pichan tashish» 1865-70-1871 yillarda «Due ibodatxonasi» kabi kartinalari ham diqqatga sazovor. Ayollarga bir qancha portretlarini ham yaratgan, bular 1855-65 yillarda yaratilgan «Kitob o`qiyotgan qiz» va boshqalar.

**Mentsel’ Adol’f fon** (1815-1905) – nemis rassomi, XIX asr nemis realistik tasviriy san’atning yirik vakili. «Rassomning hayot yo`li» (1833-1834) va «Brandenbarg-Prusssiya tarixining diqqatga sazovor voqealari» (1834-1836). F.Kuzlerning «Buyuk Fridshohning tarixi» kitobiga ishlangan illyustratsiyalari (1839-1842) bir necha manzara kartinalari masalan: taxminan 1847 yillar «Qor ostidagi tom» 1847 y. «Berlin Podstam temir yo`li»da hayotni tabiatni kuzatuvchan san’atkor ekanligini namoyish qildi. 1848-1849 yildagi revolyutsiyasi ta’sirida Mentsel’ ijodida demokratik tendentsiyalar kuchaydi, asarlarida xalq hayotiga ko`proq o`rin bera boshladi. Ular 1859 y. yaratilgan «Dehqonlar teatri», 1869 y. yaratilgan «Parijning oddiy kunlari», 1875 y. yaratilgan «Temir-prokat zavodi». U 1886 yildan Peterburg Badiiy akademiyasining faxriy a’zosi bo`ldi.

**Dega Iler Jerman Edgar** (1834-1917yy.) – frantsuz rassomi, grafik, haykaltarosh. Dastlabki yaratgan asarlarida klassitsizm, ta’siri bor. 1870-yillarda asosan, zamonaviy shaharni, uning ko`chalari va maydonlari, kafe va teatrlari, odamlarning yurish-turishlarini butun estetik qimmati va tabiiyligi bilan haqqoniy aks ettirdi. U bir qancha asarlar yaratgan, ulardan 1875 yil «Birdamlik maydoni», 1878 y. «Absent». Ko`pgina asarlarida raqqosalarning nozik harakatlarini mahorat bilan tasvirlagan. Bunga «Ko`k raqqosalar» misol bo`la oladi. 1880-yillar oxiri va 1910-yillardan boshlab haykaltaroshlik qildi.

## 16-Mavzu: XIX asr oxri - XX asr birinchi choragida O’zbekiston san’ati

X1X asr o’rtalaridan butun sharq mamlakatlarida bo’lgani singari O’rta Osiyo yerlarida ham milliy uyg’onish harakati boshlandi. Mahalliy

ziyolilar safini ortishi badiiy va madaniy hayotni jonlanishida muhim o'rinni egalladi. Istiqlol g'oyasi ular faoliyatini jonlantiruvchi asosiy kuchga aylandi. Millatni uyg'otish, uni yorug' kunlarga chiqishlari uchun davat etish ziyolilarning muhim va yetakchi intilishiga aylandi. Milliy taraqqiyot, istiqlolga erishish yo'li marifat ekanligini chuqur anglagan ziyolilar yangi maktablar tashkil etish ishlariga etibor berdilar. XX asr boshlariga kelib marifiy-madaniy ishlar - yangi jadid maktablarining tashkil etish ishlari qizib ketdi, birin ketin toshbosma tipografiyalar ko'paydi, yangi yangi gazeta va jurnallar, kitob va turli to'plamlar nashr etila boshlandi. Milliy teatr truppasi tashkil topdi, muzeylar ochildi, ko'rgazmalar tashkil etildi, badiiy talim masalalarida ham janlanish boshlandi. Bu madaniy hayotda mahalliy ustalar, milliy ziyolilar ham ishtirok etib o'zlarini namoyon qildilar. Ziyolilar o'zga mamlakatlar hayoti bilan yaqindan tanishib undan mahalliy aholini baxramand bo'lishga, o'rganishga chorladilar. Bexbudiy, Furqat, Fitrat, Avloniy, Zavqiy va b. omma orasida ilg'or dunyoviy bilimlarni tarqatish va san'at va madaniyat yutuqlaridan ularni bahramand etish zarurligini etirof etdilar. Feodal qoloqligiga qarshi kurashish masalalari taraqqiyparvarlar faoliyatida muhim o'rinni egalladi. Ular maqola, shyer va pyessalar, teatr tomoshalarini yaratib ulardan targ'ibot ishlarida foydalandilar. Shunisi e'tiborliki, jadid deb nom olgan taraqqiyparvarlar tasviriy san'at imkoniyatlariga alohida e'tibor bilan qaradilar. Uning ta'sir kuchi yuqori ekanligini bilib undan o'z yozgan maqola va shyerlarini o'zlari chizgan rasmlar bilan bezatilishiga harakat qildilar. Ularning tush, qalam va peroda ishlagan rasmlari shu yillarda chop etilgan gazeta va jurnallarda o'z aksini topdi. Mahalliy yoshlar gazeta - jurnallarda chop etilgan rasmlarni ko'rish, ulardan ko'chirmalar ishlash orqali rassomlik kursini o'tay boshladilar.

1.1. Asr boshlarida siyosiy ahvol va milliy rivoj

Asr boshlarida Markaziy Osiyo yerlari Rossiya imperiyasi tasarrufida bo'lib bu yerda Buxoro amirligi(poytaxti Buxoro), Xiva xonligi(poytaxti Xiva) va Turkiston general gubernatorligi (poytahti Toshkent) mavjud edi. Har bir hududdagi siyosiy va iqtisodiy ahvol san'at va madaniyat xususiyatlarini belgiladi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarkibiga kirgan mintaqalarga nisbatan Turkiston general gubernatorligi mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy rivojlanish birmuncha yuqori bo'lib san'at va madaniyatdagi jonlanish va jarayonlar shu yerda sezilarli darajada bordi.

1.2. Badiiy hayot. Asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida Toshkent, Samarqand shaharlarida badiy hayot jonli bo'lib bu yerlarda o'z davrining ilg'or taniqli rus rassom, me'mor, etnograf va arxeologlarining katta qismi yashab ijod etar edi. Ular arxeologik ishlar olib bordilar, mahalliy aholining hayoti, me'morlik obidalari va tabiatini o'rgandilar, shaharsozlik va me'morlik loyihalarini ishladilar. Jumladan shu yillarda arxeolog olimlar Afrasiyobda qazilma ishlarni boshlaganliklari, Bibixonim yodgorligi devoriy rasmlarini o'rganish, ulardan ko'chirmalar olishga etibor berilganligini, Ulug'bek madrasasining og'a boshlagan minoralarini tiklash masalalari kun tartibida qo'yilganligini e'tirof etish mumkin. Asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Farg'ona va boshqa

shaharlarda turli bilim yurtlari tashkil etilgan edi. Toshkentda Xunarmandlar tayyorlaydigan bilim yurtining ochilish ham shu davr uchun yangilik edi. Asr boshlarida Turkiston o'lkasining muhim madaniy markazlaridan bo'lgan Toshkentda amaliy lisey va maktablarda rasm chizish asoslarini o'rgatishdan tashqari haykaltaroshlikdan ham sabog' berilgan, haykaltaroshlik studiya(to'garaklar)i ishlagan. Taniqli rus haykaltaroshlari Slonim, Shvars kabi san'atkorlar dastlabki bilimlarini shu muhitda olganliklari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan.

1.3. Me'morlik

19 asr oxri 20 asr birinchi choragida O'zbekiston me'morligi uslub va yo'nalishlar rangbarangligi va shu bilan birga shakllanib kelayotgan yangi jarayonlar mavjudligi bilan harakterlanadi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi memorligida an'anaviy milliy memoriy uslub yetakchi o'rinni egallasa ham, yangi davr unga o'z o'zgarishlarini kirita boshladi, davr taqozosi bilan yangi tipdagi binolar - pochta, telegraf, vokzal va b. binolar paydo bo'la boshladi, yangi qurilish materiallari keng ko'lamda hayotga kirib kela borishi ham (masalan, toshoyna, turli kafellar,tunika va b.)shu davr memorligi ko'rinishida o'z ifodasini topa bordi. 19 asr oxri 20 asr boshlarida Buxoro memorligi maktabi an'anaviy uslubi shu davrda qurilgan jamoat va ijtimoiy binolar, go'zar, machitlar, xonokox va maqbaralarda (Boloxovuz, Arkdagi Juma machit va b.), o'ziga to'q xonadonlarning uylarida, fuqoro memorligida o'z aksini topgan. Bu davr Buxoro me'morligining o'ziga xos yodgorliklaridan biri, so'zsiz amirning saroyi bo'lib Milliy bezak san'ati bilan birga Yevropa bezak va kurish yezgi karorgohi Sitorai Moxi-Xosa qurilishi Abdullaxod xon davrida boshlangan eski saroy va keyingi davrda qurilgan yangi saroydan iborat Mahalliy va Yevropa ananlarida asaslangan. Bu saroyni kurishga raxbarlik qilgan usto Xuja Xofiz ish boshlashdan avval rus qurilish san'ati bilan chukur tanishgan. Rus shaharlarida, jumladan, poytaxt Peterburg va Yalta shaharlarida, bo'lgan. Bino qurilshida turli uslublar jumladan klassik san'at ustunlari uygonish davri ustalari ishlatilgan. Said olim xon davrida qurilgan yangi saroyda milliy qurilishi uslubida va bezagi bilan birga Yevropa memorligi uslubida uyg'unlashtirilishiga intilish sezilarli. Saroyga kirish darvozaxonasi milliy bezakning koshin uslubidan keng foydalanilgan. Shu bilan birga turli ark va meteriallar ishlatilishi binoda birmuncha elektik tomonini ortirgan. Saroyning mexmonxonasi ham o'ziga xos. Xrustal lyumtralar, kafelli uchok(pechka) yog'ochdan yotqizilgan pollar, begatlar, eshik va romlar xonaga fayz kiritib kolmay, balki sodir bu-layotgan, Markaziy Osiyo me'morchilik bezak san'atida yangi jarayonlarning shakllana boshlaganligidan dalolat beradi.

Saroyning "ok zali" bezaklari xalq, ustasi Usto Shirin Murodov raxbarligida bajarilgan. Bu zal o'zining yerkin va nafisligi bilan ajralib turadi. Bezatishda ishlatilgan xrustal va oltindan foydalanib ishlangan va lyustrali bezak alohida go'zallik kashf etgan. Saroyning oshxona qismi deyarli Yevropa xusnini olgan. Tunuka, cherepisa bilan yepilgan bu xona o'zko'rinishi bilan Yevropa interyerlaridan kolishmaydi. Yetokxona ham o'zko'rinishi jihatidan Rossiyaning boy xonadonlariga xonalarga yaqinligi bilinadi. Saroyning bog'i, re-jalashtirilishi, u yerdagi xovuzning tashkil etilishi so'zsiz Markaziy Osiye ijtimoiy hayoti natijasi edi. O'z davri uchun katta va Markaziy Osiyedagi yagona bu xovuz ham

davr muxiti, estetik karashlarini namoyish etadi. Xovuz, uning yaqindagi shiypon, narvon zina va b. bezaklar me'morchilik hajmlar ham shu yangi karashlarni natijasi edi.

XX asr boshidagi buxoro me'morchilik maktabi jarayonlakrini o'zida aks ettiradi. 1912-1914 yillar davomida qurilgan bu saroy o'zida milliy sharq memorligi an'analarining yevropacha memorligi uslublari bilan uyg'unlashuvini namoish etadi. Keng va ko'rkam hovlili, xovuz va gullarga o'ralgan bog' qo'ynida bu saroy yanada betakror va go'zallik kashf etadi. Saroy xonalarining ketma ketlikda anfilada tizimida joylashuvi, golland kafeli bilan pardozlangan isitgich pechlar, turli boshqa memoriy unsurlar (karniz, osma lyustra, toshoyna va b) saroy ko'rinishiga yangi davr ruhini kiritadi. Majmuaning «Oq saroy» interyeri ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan Bu ishlarni buxorolik ganch o'ymakori Usto Shirin Murodov bajargan. Bu naqshlar toshoyna tasirida nur o'yinini ko'chaytirib unga bayramona kayfiyat bag'ishlaydi. Saroyning daxliziga ishlangan naqqosh Usto Xasanjonning islimiy naqsh va gullar ham saroy ko'rkini oshiradi Saroyga kirish eshiklari oldiga Abduraxim toshtarosh ishlagan sherlar haykali ham Buxoro memorligi majmualarida san'at sinteziga etibor va qiziqish paydo bo'layotganidan darak beradi. Xiva xonligida ham an'anaviy me'morlik uslubida binolar, masalan 1908 yili Islom Xo'ja barpo etgan minorasi yuzaga keldi.

Agar XX asr boshlaridagi Buxoro va Xiva memorligida an'anaviy memoriy uslub yetakchi o'rinni egallasa Markaziy Osiyoning katta qismini egallagan Turkiston gubernatorligi hududida turli yevropacha memoriy uslublar yetakchi o'ringa chiqdi. Ayni shu hududda asr boshlarida yevropa va milliy me'morchilik uslublar mutanosibligi masalasida izlanishlar kurtak ota boshlagan edi. Gubernatorlik poytaxti bo'lgan Toshkent, muhim shaharlaridan Samarqand, Almati, Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Bishkek kabi shaharlarida barpo etilgan ijtimoiy-madaniy marifiy va diniy binolarda hamda boylarning shaxsiy uy va qo'rg'onlarida shu davr me'morlikda sodir bo'lgan jarayonlar o'z ifodasini topdi. Bu ishlarda Turkistonda yashab ijod etgan rus memorlari G.Svarichevskiy, K.Tiltin, I.Markevich, L.Voronin, L.Benua, V.Geynselman, Lidval kabi ijodkorlar sezilarli iz qoldirdilar. Qurilish ishlari Turkiston general gubernatorligi poytaxti Toshkent shahrida sezilarli bo'ldi. Shu yerda o'zbek me'morligining asr boshlarida sodir bo'lgan jarayonlari qurilgan binolarda o'z ifodasini topdi. Knyaz Romanov qarorgohi, diplomant Polovsev uyi, Zobitlar uyi, shopito sirk binosi, Universal shaxsiy do'konlar, apteka va b. shu jarayonlarni ko'rish mumkin.

G.M.Svarichevskiyning «Xiva kino teatri(1912-16) binosida( yuqorida ko'rib o'tgan qator binolar jumladan mazkur kino teatr binosi 1966 yili Toshkent zilzilasidan keyin buzib tashlangan.) sharq va g'arb me'morlik uslublari uyg'unlashgan xiva buxoro me'morligini eslatadi Rasm. Aksincha, Blagoveshchenskiy cherkovi binosi ko'rinishida psevdorus Rasm, Yupatov sirki(1913)binosi ko'rinishida, I.A.Markevichning Toshkentdagi Bank binosida (1915) renesans uslubi va qisman modern uslubi unsurlari chatishib ketganligini ko'rish mumkin. Gubernatorlik tarkibida bo'lgan Samarqandda , Farg'ona va Ko'qon shaharlarida ham ham X1X asr oxri XX asr boshlarida qurilish ishlari

keng ko'lamda olib borildi. Yangi tipdagi binolar qurildi, boylar uylari ham yangi davr ruhida bajarildi (Kalandarov uyi mahalliy va rus boylari, savdogarlar uchun hashamatli shaxsiy uy va qasrlari, bonk va savdo rastalari barpo etildi, ularning ichki va tashqi bezaklari uchun mahalliy san'atkorlar va xalq ustalari taklif etildi.

1.4. Amaliy bezak va xalq san'ati.

Asr boshlarida amaliy bezak va xalq san'ati bir tomondan yangi turlar bilan boyib borsa, ikkinchi tomondan uning ayrim turlari muomaladan chiqib keta boshladi. Shu yillarda xalq amaliy san'at ustalari yaratgan buyumlar na faqat ichki bozorda, balki tashqi bozordi ham talab paydo bo'ldi. Gilamdo'zlik, zardo'zlik, kandakorlik buyumlar tashqarida ham o'z haridorini topdi. Charmdo'zlik va buxoro zardo'zligiga ham talab yuqori edi. Ganch va yog'och o'ymakorligi, gilamdo'zlik jonlandi bu san'atning yirik vakillari yetishib chiqdi. Buxoroli usta Shirin Murodov Rasm., qo'qonli yog'och o'ymakori usta Najmiddin Xaydarov Rasm., xivali usta Ota Polvonov Rasm. kabi san'atkorlar o'z ishlari bilan el etiborini qozondilar. Kulolchilikda turli idish tovoqlardan tashqari harxil o'yinchoqlar, mayda haykalchalar ishlandi. Zargarlikda yaratilgan turli xildagi taqinchoq va tillaqoshlar ham bozori chaqqon bo'ldi.Rasm.

1.5. Tasviriy san'at.

X1X asr oxri XX asr boshlarida tasviriy san'atda ham jonlanish ro'y berdi. Taraqqiyparvarlar tasviriy san'atga e'tibor bilan qarab, uning imkoniyatlaridan targ'ib va ma'rifat ishlarida foydalanishga intildilar. Rasm chizishni mustaqil o'rganib undan o'z yozgan maqola, shyerlarini bezashga, o'z tasavvurlarida paydo bo'ladigan turli manzaralarni qog'ozga tushirishga harakat qildilar. Jumladan, Is'hoqxon To'ra Junaydullaxo'ja Sunnatullaxo'ja o'g'li(1862-1937) turli afsonaviy timsollar ustida ish olib bordi, ularning tasvirini ishladi, Sirojiddin Siddiq Xondaqliqiy(1884-1934) esa «Ming bir kecha», Sa'adiyning «Guliston» asariga rasmlar chizdi, shuningdek portretlar yaratdi. Tavallo portreti shunday asarlardan biri. Mirzo Xayrullo, Mullo Xusniddin, Mullo Ortuq, Rahmatiy, Mulla Abdulhamid Jalolobodiy kabi rassom va xattotlar ham tasviriy san'atdan targ'ibiy ishlarda foydalanganligi shundan dalolat beradi Mahalliy tadbirkorlar A.Navoiy, Firdavsiy asarlarini tosh bosmada chop ettirib ularni rasmlar bilan bezatdilar. 1915 yili "Go'r ugli "dostoni chop etilib rasmlar bilan bezatildi. Tadbirkor ziyolilar orasida Ibroxim Davron ham birmuncha faol bo'lib madaniyat borasida qator tadbirlarni amalga oshirdi. Ibrohim Davron o'zbek ziyolilari ichidan yetishib chiqqan rassom va shoir edi. U 1874 yili Qo'qonda ziyoli oilasida dunyoga kelgan Shu yerda rus tuzem maktabida o'qib dunyoviy bilimlarni egalladi. Yoshligidan san'atga qiziqib sherlar yozdi, rasm chizishni mashq qilib tarli mavzularda rasmlar ishladi, sherlarini rasmlar bilan bezadi. Uning rassomlik sohasidagi ijodi rang barang. Xajviy rasmlar, portret va janrli kompozisiyalar ishlagan. Ularda kundalik turmush, xotin qizlarning og'ir qismati, hayotda uchraydigan turli voqyealar o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari u Qo'qonda kutubxona hamda Suratxona(Fotograf xonasi) tashkil etgan, 1914 yili Turkiyada bo'lib yangi hayot va madaniyat o'zgarishlarini o'rgangan va uni o'z ona yurtida targ'ib etishga harakat qilgan. rasm(«Shoira siymosi», «Diydiyo» va b.).

Grafika 19 asr ikkinchi 20 asr boshlari va birinchi choragida rassomlik san'ati bir tomondan gazeta va jurnallarga, kitoblarga ishlangan grafik rasmlar tarzidagi namoyon bo'lsa, rangtasvir san'ati ko'proq xalq xavoskorlik san'ati darajasidagi devoriy rassomlik va sodda miniatyura san'ati ko'rinishida mavjud bo'ldi. Bu yillarda qurilgan uylarning devorlariga rang naqqoshligi bilan birga mavzuli kompozisiyalar, rasmlardan ko'chirilgan turli ko'rinishlar, ayniqsa an'anaviy tuvakdagi gul yoki daraxt shohi, gullayotgan daraxt tupi, anor tupi kabi kompozisiyalar xonadonlarni bezagida uchraydi(Rasm).

Bu davrda grafika va monumental rassomlikda mahalliy ijodkorlar ozmi ko'pmi ijod qilgan bo'lsalar, dastgoh rangtasvir san'atida asosan chekkadan kelgan rassomlar ijodiy faoliyati yetakchi o'rinni egalladi. O'zbekistonga turli sabablar -ilmiy safar, etnografik ishlar, yangi gazeta va jurnallar, tipografiyalar uchun rassom sifatida kirib kelgan ijodkorlar bo'ldi. Bulardan tashqari shaxsiy tashabbus bilan kelgan rassomlar ham shu davr O'zbekiston hududiy chegarasidagi badiiy hayot mavqini belgiladi. Bu rassomlar turli mavzu va yo'nalishlarda ijod qildilar Ular Markaziy Osiyo mintaqasida dastlabki moybo'yoq texnikasida ishlangan asarlar muallifi sifatida tanildilar. O'zbek san'atida birinchi bor dastgoh san'atining turli janrlari ko'payib kundalik turmush, xalqning yashash tarzi, tabiati, etnografiyasi o'z aksini ola boshladi. Malumotlarga ko'ra XX asr boshlarida O'zbekiston hududida 40 dan ortiq turli maktab va yo'nalishga mansub rassomlar ijod bilan shug'ullangan. Ular ko'proq rangtasvir san'atida ijod qilganlar. Rassomlarning mavzu tanlash va ishlash uslublari ham turlicha. Jumladan, hikoyanavis-sharxlovchi etnografik yo'nalish ko'pgina rassomlar ijodiga xos. Borliqni naturalizm yo'nalishiga yaqin, lekin biroz ideallashtirishga moyillik ularning asarlariga o'ziga xoslik kiritadi.

Borliqni shoirona idrok etish va milliy shakllarda(hyech bo'lmaganida milliy o'ziga xosligini belgilarini ko'rsatuchi unsurlar bilan kompozisiya ishlash, simvolizm, milliy romantizm unsurlari ta'sirida yuzaga kelgan san'at asarlari Pavel Kuznesov, K.S.Petrov-Vodkin, A.Volkov, O.Tatevosyan, A.Nikolayev(Usto Mo'min), A.Isupov ijodida o'z ifodasini topgan. Bu ijodkorlar borliqni ramziy-metoforik yo'nalishda tasvirlashga harakat qilishlari ham ularning yaratgan asarlariga qaytarilmas o'ziga xoslik baxsh etgan. Shuningdek, bu davr san'atida impressionizm, g'oyaviy realizm, demokratik san'at an'analari O'zbekistonda ijod qilgan qator rassomlari ijodida ham o'z ifodasini topdi. Bu davr san'ati na faqat uslub balki mavzu va janr jihatidan ham boyib bordi. Yangi mavzu va janrlari paydo bo'ldi. O'zbek san'atiga shunday yangi mavzu olib kirgan rassomlardan biri S.Yudin edi. U birinchi bor o'zbek san'atiga tog' manzarasini olib kirdi. Uning nur va soyaga boy manzaralari ko'tarinki ruhda ishlangan (Tog' manzarasi, , Tog'dagi choyxona,(1907), Oq baytal, va b.) Yudin teatr dekorasiyasining birinchilardan ishlagan rassom sifatida ham tanilgan. Rasm

Yudin Sergey Petrovich(1858-1933) C.Peterburgda tug'ilgan 1883-89 y.Peterburg Imperator san'at akademiyasida Klodt ustaxonasida erkin tinglovchi. 1900-1924 yillari Toshkentda yashab ijod etgan.1924 yili Moskvaga ko'chib ketgan

XX asr birinchi choragi haqida gap ketganida Pavel Kuznesov albomi, K.Korovinning impressionistik manzaralari, K.S. Petrov - Vodkinning Samarqandiya albomi, I.Isupov, R. Zommer, S. Svetoslavskiy, S.Dudin etnografik etyudlari e'tiborga loiq Rasm. Yuqorida ko'rib o'tgan rassomlar O'zbekiston hududida vaqtinchalik ishlab ijod qilgan bo'lsalar boshqa bir qator rassomla shu yerda o'z vatanlarini topdilar, Shu yerda butun umrga qolib shu yer madaniyatiga xissa qo'shishga harakat qildilar. Shunday rassomlardan biri Kazakov Ivan Semenovich (1873 – Kasilovo (Rossiya), - 1935. Toshkent) edi.
I.Kazakov Moskva rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik bilim yurtida V.Ye.Makovskiy qo'lida o'qigan (1888-94), S.Peterburg Badiiy Akademiyasida o'qigan?. 1894-98 yillar, 1899-1900 yillar Italiya, Germaniya va Fransiyada ijodiy safarda bo'lgan. Ilk ijodini grafik ishlar bilan boshlagan ( «Ishchi» plakat,1901). 1906 yildan Toshkentda yashab maxsus bilim yurti (real bilim yurti)da dars bergan (1910 yilgacha). Moybo'yoq, akvarel, pastelda turli mavzularda rasmlar ishladi... Katta bo'lmagan imperessionistik uslubda etyudnamo rasmlar chizgan. Toshkent hayoti va tabiatiga atab rasmlar ishlagan san'atkorlardan («Xudo irodasi», «Nomoz»,(1908), «Qovun bozori» va b..).

Agar Kazakov asr boshlarida O'zbekistonga kelib shu yerda ijod qilib yoshlarga badiiy ta'lim bergan bo'lsa, aksincha boshqa bir rus rassomi KOROVIN KONSTANTIN ALEKSEYeVICh (1861-1939) bu yerda vaqtincha yashab ijod qilishiga qaramay sezilarli iz qoldirdi. Uning maslahati bilan samarqandlik rassom L.Bure Moskva, Peterburgda badiiy ta'lim oldi, shogirdi O.Tatevosyan esa ijodiy umrining katta qismini shu o'lkada o'tqazib O'zbekiston tarixi, tabiati, me'moriy obidalarining tasvirini ishladi. Korovin rus rangtasvir ustasi, plener (q) san'atining yirik vakillaridan biri edi. U asr boshlarida O'rta Osiyoda, xususan Samarqandda bo'lib ilmiy ekspedisiyalarda ishtirok etdi Samarqand shahar hayotiga bag'ishlangan asarlar ishladi.

XX asr boshlaridan O'zbekiston badiiy hayoti shu yerda tavallud topgan muxojirlarning farzandlari hisobiga ham kengayib bordi.. Ular voqyelikka shu yerning farzandidek yondoshib o'z ijodlari bilan o'lka marifiy- madaniy hayotiga hissa qo'shishga harakat qilganliklari ularni boshqalardan ajratib turadi.
Lev Leonardovich Bure (1887-1943). Bure Samarqandda advokat oilasida dunyoga keldi. Shu yerda umumtalim bilimlarini egallash bilan birga tasviriy san'at bilan ham shug'ullanib san'at olamiga kirib bordi. Bu davrda Samarqand O'rta Osiyoning muhim madaniy markazlaridan bo'lib bu yerga qadimiy yodgorliklar va xalq san'atini o'rganish uchun olimlar, arxeolog va rassomlar tez tez tashrif buyurishib turishar edi. XX asr boshlarida kelgan shunday rassomlardan K.Korovin, F.Rubo Ya.F.Sionglinskiy, ukrainalik rassom S.I.Svetoslavskiylar Burening keyingi ijodiy rivojida muhim rol o'ynadilar. Ularning maslahati bilan Bure Moskva, Peterburg badiiy bilim yurtlarida o'qishga muyassar bo'ldi. Dastlab Bure Moskvada V.N.Meshkovning rassomlik va haykaltaroshlik badiiy (studiyasida) maktabida (1904-05 yillar), so'ngra Peterburgda I.Bilibin grafika ustaxonasi va F.Ruboning Peterburg Badiiy Akademiya qoshidagi batal san'at ustaxonaga (1907) qatnab ta'lim oldi. Yozgi tatil paytlarida Samarqandga kelib etyudlar chizdi, kompozisiyalar ishladi. Shu ishlari bilan Toshkent, Moskva va Peterburgda ko'rgazmalarda ishtirok etib

ko'pchilikka tanila boshladi. Uning ishlari san'at ixlosmandlari tomonidan sotib olina boshlandi.
O'qishni tugatib ona yurti Samarqandga qaytgach badiiy hayotga faol kirishib Samarqand, Buxoro me'morlik obidalari, eski shahar ko'cha va bozorlari, tabiat manzaralarini aks ettiruvchi asarlar ishladi.

Bu asarlar ko'pchiligi bevosita naturaning o'zidan ishlangan bo'lishiga qaramay, rassom har bir etyudni tugal kartina darajasiga ko'tarishga harakat qiladi. Jumladan, uning «Labi xovuz».(1909), «Tush payti Bibi xonim machiti yonida»(1913) va boshqa asarlarida tabiat va me'moriy yodgorligi fonida o'z yumushlari bilan band odamlar tasviri shu manzarani mazmunan boyitib, hayotning davomiyligi, inson mehnati va ijodining abadiyligini ko'rsatgan. Asarda O'zbekistonga xos nurga boy jazirama tushki oftob haroratini jonli aks ettirilishi esa uni hayotiy va tasirili bo'lishiga xizmat qilgan. Rassomning «Registon maydoni»(1917) ham etiborga loiq. Unda memoriy obida fonida sharq bozori manzarasining umumlashma ko'rinishi ifodalanadi. Bozor hayoti, unda o'z yumushlari bilan band odamlarning hatti harakati(xordiq chiqarishi,choy ichishi,suxbat qurishi va .x.k.) asarga hikoyanavislik kiritib asar mazmunini yanada boyitadi. Asar uchun tanlangan rang gammasi - iliq sarg'isht ranglar hukmronligi asarga harorat kiritadi. Bure ijodiy faoliyati davomida ijtimoiy hayotga ham qiziqib qaradi, xalqning og'ir turmushi va xuquqsizligi, chorizm mustamlakachilik siyosatining og'ir asoratlari, chorizm amaldorlarining ahloqsizligi va poraxo'rliklarini fosh etuvchi xajviy rasmlar ishladi. Yuzdan ortiq shunday rasmlarni 1911 yili Samarqand fuqorolar kengashi zalida namoish qilishga ham muyassar bo'ldi. Bu rasmlarida Bure o'z davri illatlarini ro'yu rost ko'rsatishga harakati, rus zobitlarining ma'naviy qashshoq va ahloqsizliklarini qalamga oldi. Lekin bu ko'rgazma rassom uchun qimmatga tushdi. Bure bu rasmlari uchun polisiya tomonidan zimdan taqib ostiga olinda, uyi esa birnecha bor tintuv qilinib o'zi esa vaqtincha qamoqqa olindi.
20-30 yillar

## Haykaltaroshlik.

XX asr boshlariga kelib haykaltaroshlik san'atida ham asarlar paydo bo'la boshladi. Arab istilosidan keyin(U111 asr) butunlay to'htatilib qo'yilgan bu san'at X1X asr oxrilaridan yana jonlandi. S.To'xtaxo'jayev, Usto Shirin Murodov, Abduraxim toshtarosh , Toshpo'lat Arslonqulov va b ijodida uning ilk namunalari yaratildi, dastlabki favvoralar ishga tushdi. Dam olish va xordik chiqarish maskanlari va hiyobonlarga turli haykallar o'rnatish odati kengayib bordi. Shu davrda ishlangan qurbaqa, kiyik, it, sher haykallari bugun ham Toshkent, Buxorodagi saroy bog' va yo'laklarini bezab turibdi Knyaz Romanov hovlisiga o'rnatilgan Kiyik va it haykallari, Buxorodagi Mohi Xosa darvozasi oldidagi sherlar haykali, shular jumlasidan.

# Seminar mashg’ulotlarining ishlanmalari, ularni o’tkazish va qo’llash bo’yicha uslubiy tavsiyalar

**1-mavzu: O'rta asrlar davri san'ati. -2 soat.**
**Reja.**

1. Yustinian davrida Vizantiya san'ati.
2. VII asr oxiri IX asr boshlarida Vizantiya
3. XII-XIV asrlarda Vizantiya san'ati.
4. Xristian din iva Vizantiya san'ati.

**Адабиётлар:**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т., 1998.
2. Тяжелов В.Н. искусство средних веков. –М., 1975.
3. Банк А.В. Культура и искусство Византии. IV-XV вв. –М., 1957.
4. Дарковис В.П. Светское искусство Византии X-XIII вв. –М., 1975.
5. Банк А.в. Прикладное искусство Византии (IX-XIII вв.) –М., 1974.
6. Писарская Л.В., Памятники Византийского искусства V-XV вв. Л-М., 1964.

**2-mavzu: G'arbiy Yevropa san'ati -2 soat.**
**Reja.**

1. Roman san'ati davrida me'morchilik va ќaykaltaroshlik.
2. Fransiya gotika uslubida qurilgan me'morchilik inshootlari.
3. Germaniya va Italiya gotik uslubdagi o'xshashlar va farqlari.

**Адабиётлар:**

1. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ќаёт-пироварd мақсадимиз. –Т., «Ўзбекистон», 1998.
2. Крыжихановская М.Я. Искусство Западного средневековья. –Л., 1963.
3. Тяжелов В.Н. Искусство средних веков в Западной и Центральной Европе. –М., 1981.
4. История искусства зарубежных стран. Т.1-2.-М., 1961-1963.
5. История зарубежного искусство. Учебник. Под. Ред. Н.Л. Мальцевой, М.Т. Кузьминой. –М., 1980.

**3-mavzu: O'rta Osiyo san'ati. -2 soat.**
**Reja.**

1. Arablar va somoniylar davrida O'rta Osiyo san'ati.
2. Qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshoќlar davrida me'morchilik.
3. Qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshoќlar davrida badiiy ќunarmandchilik san'ati.

**Адабиётлар:**

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. –Т., «Ўзбекистон», 1998.
2. Архитектурные памятники Средней Азии. Бухара, Самарканд. –Л., 1069.

3. Веймарн Б.В. Архитектурно-декоративное искусство Узбекистана. –М., 1948.
4. Из истории живописи Средней Азии. Традиции и новаторство. Ташкент, 1984.
5. История Среднего Востока. –М., 1978.

## 4-mavzu: Amir Temur va Temuriylar davrida O'rta Osiyo san'ati – 2 soat
**Reja**

A. Temurning san'at ravnaqiga qo'shgan ќissasi.
A. Temur davrida Samarqand me'morchiligi, fan va san'atning uyg'unlashuvi.
1. Temuriylar davrida san'at.
2. Shayboniylar davri san'ati.

**Adabiyotlar:**

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. 2- нашри. –Т., 2000.
2. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. Т-1, -Т., «Ўқитувчи», 1087.
3. Муминов И.М. Темурийлар даври Ўрта Осиё санъатиниг пайдо бўлиши ва тараққий этиш илдизлари хаќида. –Т., 1969.
4. Сулаймонов Х. Темурийлар даври бадий қўлёзма ва хаттотлик санъатини ўрганиш масалалари. Самарқанд-Тошкент. 1969.
5. Пугаченкова Г.А, Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. Древность и средневековье. –М., 1982.
6. Пугаченкова Г.А, Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана. –М., 1965.
7. Рахимов М.К. Художественная керамика Узбекистана. –Т., 1961.

## 5-mavzu: Uyg'onish davri san'ati. – 2 soat.
**Reja.**

1. Italiya Uyg'onish davri.
2. Uyg'onish davri me'morchiligi.
3. Uyg'onish davri haykaltoroshlari.
4. Uyg'onish davri rassomlari.

**Adabiyotlar:**

1. Тяжелов В.Н. Искусство средних веков в Западной и Центральной Европе. –М., 1981.
2. Крыжихановская М.Я. Искусство Западного средневековья. –Л., 1963.
3. Нессельштраус Ц.Г. Искусство в Западной Европе в средние века. –Л., 1964.
4. Бенеш О. Искусства Северного Возрождения. –М., 1973.
5. Буркхардм Я. Культура Возрождения в Италии. –М., 1966.

## 6-mavzu: Uyg'onish davri san'ati. – 2 soat.

**Reja.**

1. O'rta va Shimoliy Italiy rassomchiligi.
2. Rivojlangan Uyg'onish davri me'morchiligi.
3. Yuqori Uyg'onish davrida Venesiya san'ati.
4. Yuqori Uyg'onish davri Italiya san'ati.
5. Germaniyada Uyg'onish davri san'ati.

**Adabiyotlar:**

1. Виппер Б.Р. Итальянское Возрождение. –М., 1977.
2. Леонардо да Винчи. –М., 1934.
3. Лазарев В.Н. Происхождение искусства Возрождения. –М., 1956.
4. Шрамкова Г.И. Искусство Возрождения. –М., 1977.
5. Абдуллаев Н. История искусств. –Т., 1986.
6. Буркхардм Я. Культура Возрождения в Италии. –М., 1966.

## 7-mavzu: XVII asr san'ati. -2 soat

**Reja**

1. XVII-asrda Italiya me'morchiligi va rassomchiligi.
2. XVII-asrda Gollandiya san'ati: me'morchilik, ќaykaltaroshlik va rassomchiligi.
3. XVII-asr Ispaniyaning buyuk rassomlari
4. XVII-asr Fransiya san'at yo'nalishlari: rassomchiligi, me'morchiligi va ќaykaltaroshligi.

**Adabiyotlar:**

1. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. Т-1.-Т., «Ўқитувчи», 1987.
2. Виппер Б.Р. Введение в историческое изучение искусств. –М., 1985.
3. Дмитриева Н.А. Краткая история искусства. Очерки. Т. 1-2. –М., 1968.
4. Алпатов М.В. Всеобщая истории искусств. –Т., 1975.
5. Ротенбург Е.И. Западноевропейское искусство XVII века. –М., 1971.

## 8-mavzu: XVII asr san'ati. -2 soat

**Reja**

1. XVIII-asrda Fransiya san'ati, me'morchiligi va ќaykaltaroshligi.
2. XVIII-asrda Italiya san'ati, me'morchiligi, rassomchilik.
3. XVIII-asrda Angliyada rassomchilik san'ati.

**Adabiyotlar:**

1. Дмитриева Н.А. Краткая история искусств. Очерки. Т. 1-2. –М., 1968.
2. Кантор А.М. и др. Искусство XVIII века. –М., 1977.
3. История зарубежного искусства: Учебник. Под ред. Н.Л. Мальцевой, М.Т. Кузьминой. –М., 1980.
4. История искусства зарубежных стран. Т.1-2, -М., 1961-1963.

5. Буслович Д., Персианова О., Руммель Е. Мифологические сюжеты в произведениях искусства. –Л, -М, 1966.

## 9-mavzu: XIX asr san'ati. – 2 soat.

## Reja

1. XIX asrda Angliya san'ati.
2. XIX asrda Ispaniya san'ati
3. XIX asrda Fransiya san'atining rivojlanishi.
4. XIX asrda Germaniya san'ati.
5. XVIII asr oxiri va XIX asr AQSh san'ati.
6. XIX asr o'rtalari va 2-yarmida AQSh san'ati.

## Adabiyotlar:

1. Алпанов М.В. Всеобщая история искусств. Т.1-2. –М., 1948-1949.
2. Виппер Б.Р. Введение в историческое изучение искусства. –М., 1985.
3. Дмитриева Н.А. Краткая история искусств. Очерки. Т. 1-2. –М., 1968.
4. Искусство стран и народов мира. Краткая художественная энциклопедия. Т.1-5. –М. 1962-1981.
5. Янсон Х.В., Янсон Э.Ф. Основы истории искусств. СПб., 1996.

# Tarqatma materiallar (Referat mavzulari, adabiyotlar ro’yxati, baholash mezonlari, xorijiy manbalar)

## Referat mavzulari

1.XVII asrda Italiya me'morligida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
2. Domeniko Fontana me'morlikda qarday ixtiro qilgan?
3. Av. Pyotr soborining maydoni xaqida nima bilasiz?
5. XVII asrda Italiya san'atida qanday uslublar paydo bo'lgan?
6. Barokko uslubi xaqida ma'lumot keltiring?
7.Djovani Lorenso Bernini ijodida me'morlik va xaykaltaroshlik san'ati uyg'unligi qay tarzda ifodalanadi?
8. Bog' xiyobon ansambl san'ati xaqida nima bilasiz?
9. So'ngi barokko me'morligiga misol keltiring va izoxlab bering.
10. Realizm nima?
11. Karavadjo ijodida realizm oqimi qay tarzda ifodalangan?
12. Karavadjo ijodining ilk va so'ngi bosqichlarining farqi nimada?
13. "Av. Pavelning murojati" asarini taxlil qiling. Nega ushbu asar diniy roxiblar tomonidan tanqidga uchragan?
14. "Bolonye akademiyasi yoki xaq yo'lga yo'nalgan akademiya" xaqida nima bilasiz?
15. "Qaxramonlik manzarasi" bu qanday ma'noni anglatadi?
1. Bu davr Flandriya san'atida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
